

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Botirjon Mallabayev

HARBIY SAN'AT TARIXI

O'quv qo'llanma

“Iste'dod ziyo-press” nashriyoti
Namangan
2022

UO‘K: 821-512-133-9
KBK: 84(O‘zb)7
M-37

Botirjon Mallabayev. Harbiy san‘at tarixi. O‘quv qo‘llanma. «Iste‘dod ziyo press» nashriyoti. Namangan, 2022, 220 b.

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘ri-sida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001- yil 16- avgust va 2015- yil 10- yanvardagi “Oliy ta‘limning Davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish hamda ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli va boshqa me‘yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada Yer yuzida harbiy san‘atning paydo bo‘lishi va hozirgi kungacha bo‘lgan tarixiy davrlardagi taraqqiyoti yoritib berilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada keltirilgan ma‘lumotlardan 5120300 – Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘tiladigan “Harbiy san‘at tarixi” fani bo‘yicha dars mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

Mas‘ul muharrir: **Mansurov Ulug‘bek Umarovich,**
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar: **Rasulov Abdulla Nuritdinovich,**
tarix fanlari doktori, professor
Dehkanov Narimon Burxonjonovich,
siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent
Yusupov Zafarjon Usmanovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mazkur o‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021 yil 25 dekabrda 538-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etildi.

ISBN 978-9943-8687-8-6

© Botirjon Mallabayev
© «Iste‘dod ziyo press» nashriyoti, 2022.

KIRISH

Harbiy san'at tarixi mazmunan juda keng qamrovli soha sifatida harbiy sohaga tegishli barcha tushunchalarni – harbiy siyosat, jang mahorati, qurol-yarog'lar, mudofaa tizimi, harbiy san'at, ayni paytda urushlar tarixini juda chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lib, insoniyat tarixida qadimiy sivilizatsiya o'choqlaridan biriga asos solgan xalqimizning serqirra va boy o'tmish madaniyatining muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Ayniqsa, qariyb uch ming yillik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan o'zbek davlatchiligi tarixida harbiy san'atning o'rni beqiyosdir. Zero, butun o'tmish mobaynida davlat va jamiyatning xavfsizligi, yurt tinchligi va osoyishtaligi, chegaralar daxlsizligi, xalqning erki va ozodligi, madaniy taraqqiyotini ta'minlashi uchun harbiy kuchlarga ehtiyoj katta bo'lgan. Shu sababli harbiy ishga davlatning muhim vazifasi sifatida juda katta etibor qaratilgan.

Hali davlatchilik paydo bo'lmagan, jamiyat to'la shakllanmagan ibtidoiy davrlardayoq, chek-chegarasiz bepayon o'lkalarda yashagan turli urug' va qabilalar tashqi xavflardan o'zlarini ximoyalash maqsadida ittifoq va birlashmalarga uyushganlar, dastlab ovchilik maqsadlarida kashf etilgan o'q-yoylar, pichoq, cho'qmor va oyboltalardan o'z xavfsizliklarini ta'minlash maqsadida qurol sifatida foydalana boshlaganlar. Ayni shu davrdan boshlab dastlabki qurollar, o'zaro jang usullari paydo bo'lib, harbiy san'atning ilk kurtaklari shakllana boshlagan.

Jamiyat xayotida ilk davlatlar yuzaga kelishi bilan ularning chegaralarini, aholining tinchligini ta'minlash, tashqi xujumlardan himoyalash maqsadida mudofaa inshootlari barpo etila boshlandi, harbiy qo'shin tuzish, qurol-yarog'larni takomillashtirish davlatning muhim funksiyasiga aylandi. Shu sababli harbiy san'at tarixi davlatchilik tarixi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib keldi.

Tarixiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, vatanimiz hududida davlatchilik rivojlanib, jadal taraqqiyot sodir bo'lgan davrlarda harbiy san'at ham rivojlanib, yuksalgan. Yoki aksincha, siyosiy parokandalik va tarqoqlik davrlarida harbiy san'at ham turg'unlikka uchragan. Mustamlakachilik davrlarida esa o'z hukmronligini qurol kuchi bilan

saqlab turgan mustabid hukumat xalqni harbiy sohaga umuman yaqinlashtirmagan.

Vatanimizda harbiy san'at ishi tarixi O'zbekiston o'z davlat mustaqilligini tiklagan istiqlol davri alohida o'rin egallaydi. O'zbekistonda qariyb 130 yillik mustamlakachilik tuzumiga barham berilib, mustaqil davlatchilik tiklanishi bilan mamlakat tarixida mutlaqo yangi davr boshlandi.

Harbiy san'at tarixi fanini o'rganishda, tarixda bo'lib o'tgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarni xolisona o'rganishda alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Tarix fanini o'qitishda harbiy san'at tarixi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy jarayonlarni haqqoniy yoritishda va o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazishda mazkur fanlarning xizmati beqiyosdir.

Oliy o'quv yurtlarining tarix yo'nalishlarida harbiy san'at tarixi fanini o'qitish uslublarini ishlab chiqish hamda talabalarga chuqur bilim berish esa bugungi kunda shu fandan dars beradigan professor-o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilgan ishlar talaygina. XXI asr insoniyat tarixiga axborot asri bo'lib kirgan ekan, barcha fanlarga oid eng so'nggi yangiliklar, amalga oshirilgan ishlar va kashfiyotlar haqida yosh avlodga ma'lumot berish ham muhim vazifalardan biri sanaladi.

Shundan kelib chiqqan holda, harbiy san'at tarixi fanidan talabalarga chuqur va mukammal bilim berish, ularda egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llay olish malakasini shakllantirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Bu maqsadni amalga oshirishda esa zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining o'rni beqiyos ekanligini unutmasligimiz darkor. Ushbu o'quv qo'llanma ham ayni shu maqsadlarimizni amalga oshirish uchun xizmat qilali, degan umiddamiz.

Harbiy san'at tarixi fani bo'yicha tuzilgan mazkur o'quv qo'llanma fanning namunaviy o'quv dasturida keltirilgan mavzular asosida tuzildi.

Mazkur o'quv qo'llanma mavzulari va ularning qisqacha mazmuni, ma'ruzada ko'tarilgan masalalarni qamrab olgan amaliy mashg'ulotlarning mavzu va rejalari, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish borasidagi uslubiy ko'rsatmalar va talabalarni o'qitish jarayonida qo'llash tavsiya etilayotgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

MAVZU: QUROL YAROG‘LARNI IXTIRO QILINISHI, QADIMGI MUDOFAA INSHOOTLARI

REJA:

1. Eng qadimgi odamlarning jang qilish usullari.
2. Qurollarning yaratilishi va takomillashuvi.
3. Harbiy taktikaning paydo bo‘lishi va o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Ilk o‘rta asrlarda harbiy qo‘shin va qurollar.

Maqsad: *Talabalarga harbiy san’at tarixi fanini o‘rganishning asosiy maqsad va vazifalari, insoniyat tarixida qurol-yarog‘larni ixtiro qilinishi, qadimgi va ilk o‘rta asrlarda mudofaa inshootlari, shuningdek harbiy taktikaning paydo bo‘lishi va o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirishdan iborat.*

Qadimgi halqlarning harbiy mahoratining shakllanishi, qurol yarog‘larning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Tosh asridayoq odamlar qurol-yarog‘lardan ov maqsadida, keyinchalik esa o‘zlarini himoya qilish maqsadida ham foydalanishgan. Dastlabki qurol-yarog‘lar taxminan 100 ming yil ilgari uchi chaqmoqtosh va suyakdan yasalgan nayzalar va uloqtirish oson bo‘lgan nayzalar paydo bo‘ldi.

Mezolit davriga kelib esa uchi chaqmoqtoshdan yasalgan o‘q-yoylar ixtiro qilindi. Buni natijasida kishilik jamiyati rivojlandi. Neolit davriga kelib esa **palahmonlar** yanada rivojlandi. Odamlar bu davrda toshdan keyinchalik, loydan yasalgan yadrolarni uloqtirishni o‘rganishdi. Bu davrning yana bir ixtirosi kiyik shohidan o‘yib yasalgan **boltalar** kabi qurol aslahalar paydo bo‘ldi. Bronza davrida chorvachilik va dehqonchilik rivojlanishi oqibatida ovchilikning avvalgi ahamiyati ancha pasaydi. Endi chorvachilik uchun yaylovlar, dexqonchilik uchun erlarning ahamiyati ortib, ularni egallash va muxofaza qilish zarurati tug‘ildi. Mol-mulkni tashqi dushmanlardan himoya qilish va o‘zaro nizolarni hal qilish uchun qurol-yarog‘larni ahamiyati yanada ortdi.

Tadqiqotchilarning ma’lumot berishicha Baqtriya va Marg‘iyonada topilgan qabrlar tadqiq etilganda qabrdan uy-ro‘zg‘or buyumlari

topilgan. Birorta qabirdan jangchilarning dafn qilinganligidan dalolat beruvchi bironta ham belgi topilmagan. Bundan ko‘rish mumkinki bu davlatlar tinch osoyishta hayot kechirishgan. Lekin Baqtriya davlatining mudofa devorlari bilan o‘ralganligi, bu mudofa devorlari O‘rta Sharq va Hindiston mudofa devorlari bilan o‘xshash ekanligi takidlanadi. Bundan bilish mumkinki bu davlatlar o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatilganligini bilish mumkin. Dushman xujum qilgan hollarda aholi orasidan lashkar to‘plangan, ular asosan nayzalar, o‘q-yoylar, dudama pichoqlar va hanjarlarga ham ega bo‘lgan. Bronza davriga kelib **Klevets** (nayzali oybolta) lar paydo bo‘ldi. Bu qurol hozir O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanib kelinmoqda.

Bundan tashqari ko‘rilayotgan davrda baqtriyaliklar, so‘g‘dlar, xorazmliklar, parfiyaliklar, farg‘onaliklar jangga otda kirganlar. Biz buni qariyb 2700 yillik tarixga ega bo‘lgan Avestoning Mehr Yasht qismida aytib o‘tiladi. Kitobda aytilishicha Mitra xudosi o‘zining oq otlar qo‘shilgan aravasida yovuz kuchlarga qarshi, ezgulik va adolat uchun jang qiladi.

V asrda yashagan yunon tarixchisi Geradot massagetlar haqida shunday tariflaydi. Ular otliq va piyoda jangchilardan iborat. Qo‘shini ikki turga bo‘linadi, biri **kamonchilar**, ikkinchisi **nayzabardorlaga**. Otlarning ko‘krak qismini misdan tayyorlangan **kejimlar** bilan yopadilar. Geradodning tasvirlashicha saklar ham o‘sha erliklarga xos o‘q-yoylar, kalta qilichlar hamda ikki tomoni kesadigan kistanlar (xanjarlar) bilan qurollangan. Kamonlar yog‘och va qamishni elimlab yopishtirish yo‘li bilan yasalgan.

Qadimgi davrda uzoqdan turib jang qilish uchun mo‘ljallangan qurolning eng mukammali bu **skif yoyi** edi. Bu qurol bir nechta yog‘och bo‘laklaridan yasalgan. Bu turdagi yoylar 60-80 sm, o‘qining uzunligi 80 sm bo‘lgan.

O‘rta Osiyo suvoriysining qurollanishi standart bo‘lgan. Yani sanchuvchi kalta qilich, nayza, kamon va uning o‘qlaridan iborat bo‘lgan. Kamon o‘qlari uchi yuqoriga qaratib **sadoqqa** solingan. O‘ng yonga ensiz bolta-chopqi, bazan esa tumshuqli **qarg‘atumushuq** (bolta)

osilgan. Qurollar otda qulay yurish uchun qulay tarzda joylashtirilgan. Qalqonlar esa egarga bog'lab yurilgan.

Kalta yoydan tashqari, O'rta Osiyo piyoda askar jangchisi jangda uzun yoydan ham foydalangan. Uzunligi 180 sm li bu yoylar ham murakkab tuzulgan bo'lib, uning o'rtasi va uchlari suyak plastinkalar bilan maxkamlangan. Ular kalta yoylardan eguluvchanligi va uzoqqa otilishi bilan farq qilgan. Bu yoylar mlt avv so'ngi asrlarda Xorazm va O'rta Osiyoning boshqa viloyatlarida foydalanilgan.

Ml av VIII-VII asrlarda O'rta Osiyoda temir metallurgiyasi paydo bo'lishi bilan odamlar undan qurol aslahada ya'ni hanjar, qilich va jangovor boltalar yasalgan.

Qadimgi davr tarixchilarining bergan ma'lumotlariga qaraganda qadimda **“qochib jang qilish”** usulidan ham keng foydalanishgan. Yunon tarixchisi Geradodning qayd etishicha To'maris boshchiligi Massagetlar Kir II ga qarshi jangda **“qochib jang qilish”** taktikasini qo'llagan. Geradod **eng shiddatli** deb tariflagan bu jangda massagetlar forslar ustidan g'alaba qozonishgan.

Ml. av V asrda xududimiz yashagan sak qo'shinlari tarkibida **yopinchiqli sovutlar** bilan ximoyalangan. Uzunligi 3 metrgacha bo'lgan nayzalar bilan qurollangan suvoriylar ham bo'lgan. Bunday suvoriyni sovut bilan birga bronzadan yasalgan **dubulg'a** ham bo'lgan. Bunday **dubulg'alar** Samarqandan topilgan. U xozir O'zbekiston tarixi davlat muzeyida saqlanadi.

Keyingi davrlarda aniqrog'i Parfiya podisholigi, Kushon podsholigi va Qang' davlati davriga kelib qurol yarog' takomillashdi. Bu davrda **katafraktarlar** (og'ir qurollangan otliq) suvoriylar qismi tashkil topdi. Oldingi davrdagi sovutli jangchilardan bu og'ir qurollangan jangchilar dubdan farq qilgan.

Qang' davlatida yangi turdagi taktika tashkil qilindi, ya'ni og'ir qurollangan otliq suvoriylar va og'ir qurollangan piyodalar ham tashkil qilindi. Qang' davlatidagi jangchilarning o'ziga xos xususiyati shundaki o'zlari va otlarini ham tanga bilan to'qilgan sovutlar bilan himoyalashgan. Qang' davlatining suvoriylariga xos yana bir xususiyat shundaki ularning qurol yarog'lari orasida 4-4.5 mt gacha keladigan

uchli og'ir nayzalari bo'lgan. Bu nayzalarni jang paytda ikki qo'llab ko'tarishgan. Otlarni esa tizzalari va ovozlari yordamida boshqarishgan. Og'ir qurolli otliq suvoriylar bir safda turib jips joylashib jang qilishgan. Chunki yolg'iz jang qiladigan bo'lsa bunday suvoriylar barcha ustunliklardan mahrum bo'lgan. Ularning yonlarida doim engil qurollangan otliqlar ham yurishgan. Bunday jang qilish taktikasini Plutarxning ml avv 53 yilda Parfiyaliklarning rimliklarga qarshi qilgan jangida tasvirlab bergan. Bu jangda Parfiyaliklar dastlab rimliklar qo'shinini og'ir qurollangan qo'shini bilan tor-mor keltirishmoqchi bo'lishgan. Lekin ular jangga engil suvoriylarni jangga solishgan. Ular dushman ustiga kamondan o'q yog'dirishgan. O'q zaxira juda ko'p bo'lgan tuyalarda o'qlarni olib kelib turishgan. Rimliklar ularga hamla qilgan paytda **soxta chekinish** taktikasini qo'llashgan.

Samarqandan mil. av I milodiy I asrga oid 2 ta suyak plastinka topilgan. Ularning birida jang tasviri o'yib ishlangan, ikkinchisida esa yakkama-yakka jang tasviri ishlangan. Bu rasmlarda otliq suvoriylarining katarafraktarlar qurollanishiga mos barcha belgilar aniq ko'rsatilgan. Plastinkadan ishlangan bo'yinni himoya qiladigan tik yoqali, tizzigacha tushub turadigan keng zirhli yupqasimon butun gavdasini berkitib turuvchi sovut tasviri ham ko'rsatilgan.

O'rta Osiyoda engil qurolli va og'ir qurolli suvoriylar uchun yaroqli bo'lgan maxsus zotli otlar ham etishtirilgan. Tadqiqotchilarning bergan ma'lumotlariga qaraganda otlarning zotlarini etishtirish bo'yicha nasilchilik bilan ml. av II ming yilliklardayoq boshlangan. Chopqir zotdor otlarni etishtirish Midyada va O'rta Osiyoda shug'ullanishgan. Qadimgi manbalarda g'ayritabiiy mavjudodlar, ilohiy otlar, osmon otlari, deb atalgan O'rta Osiyo otlarining shon-shuhrati 1 ming yillikka borib taqaladi. Bu zotdor otlar o'zaro janglarga va bosqinchiliklarga sabab ham bo'lgan. Masalan Xitoy imperatorining ml av II-I asrlarda Farg'onaga qilgan yurishlarining maqsadi ana shunday otlarni qo'lga kiritish bo'lgan. Xitoyliklar bu otlarni **qon terili** otlar deb atagan. Ularning bo'yi baland, tanasi baquvat, lekin ixcham bo'lgan. O'rta Osiyoning bu jangovor otlari faqat egasini tan olgan. Manbalarda qayd etilishicha bunday otlar yarador suvoriyni o'ldirmoqchi bo'lgan yoki

qurol yarog'larini olmoqchi bo'lgan dushmanlarni daf qilganligi haqida ko'plab misollar keltirilgan.

Bu davrda ham jang qilish taktikasida ham o'zgarish sodir bo'ldi. Og'ir qurolli otliqlar markazda joylashtiriladigan bo'ldi. qurol-yarog'larda ham qator yangiliklar kirib keldi.

Bu davrda murakkab tuzulgan yoyning takomillashgan turi keng yoyildi. Bu yoylar asosan sovutli otlarga qarab o'q uzush uchun mo'ljallangan edi. Paykoni og'ir, uzunligi 90 sm gacha bo'lgan patli o'qlar hatto timir zirxlarni ham teshib o'tishga qodir bo'lgan. Bundan tashqari ancha engil bo'lgan kuylovchi o'qlardan ham keng foydalanishgan.

Bu davrda bir tomoni kesadigan qilichlar ham paydo bo'ldi. Ular **talash** deb nomlangan. Bunday qilichlar 7 asrga kelib paydo bo'ldi.

So'g'd chokarlari (gvardiya).

So'g'd jangchilari qilich, hanjar, nayza, bolta, to'qmoq bilan qurollangan bo'lib, janglarda o'z tanalarini dubulg'a, qalqon va sovutlarda muhofaza qilishgan. Ular nafaqat urushlar, harbiy to'qnashuvlar balki tinchlik vaqtida ham xizmat qilganlar. Ular yo'llarda karvonlarni o'z manzillariga betalofat etib olishligini ta'minlab bergan. So'g'd yollanma chokarlari asosan turkiy xalqlardan iborat bo'lgan.

Xitoy sayyoxi Sima Szyan o'sha davrdagi Samarqand xukmdoriga tarif berib "mamlakat podshosi jasur, barcha viloyatlar uning amriga itoat etadi" deya dakidlaydi. Podshoning otliq qo'shini mavjudligini qayd etadi, uning **chi-kia** (chokar) deb nomlanuvchi qo'shiniga to'xtalib o'tadi. Ular shu qadar jasurki ular o'linga ham tik borishadi deb tariflashgan. Chokarlar asosan saralangan yigitlar orasidan tanlab olingan. Ko'proq ular Buxorolik botir yigitlardan tanlab olingan.

Narshaxiy ham chokarlar to'g'risida ham qiziqarli ma'lumotlar berib o'tgan. Unga ko'ra savdogarlarga xizmat qiluvchi chokarlar buxoro mulkiga kelganlarida o'z sohiblari bilan shaxriston ichidagi muxtasham qasirlarda maxsus ajratilgan binolarda yashashgan.

Chokarlar atamasi qadimgi forsiy tilda "qul" ma'nosini bildirgan. Keyinchalik chokarlar erkin jamoa a'zolari sifatida harbiy soqchilik vazifasini bajaruvchilarga aylangan.

Palahmonlar-uloqturuvchi yadrolar

Qadimgi mudofaf inshoatlari

Vatanimiz xududida shahar va davlatlarni, aholi yashaydigan manzilgohlarni himoya qilish maqsadida mudofa inshoatlari-**fortifikatsiyalar** qurush ananasi juda qadimdan rivojlanib kelgan. Tadqiqotchilarning bergan ma'lumotlariga qaraganda vatanimiz xududida mudofa inshoatlarini qurish Bronza davriga to'g'ri keladi. Bular O'zbekistonning janubida joylashgan Jarqo'ton va Sopolitepa yodgorliklari shular jumlasiga kiradi.

Sopolitepaning umumiy maydoni 4 gektar bo'lib 1 gektar qismi istehkom vazifasini bajargan. Istehkom qalin devor bilan o'ralgan. Devorning qalinligi esa 1,8-2 metrgacha bo'lgan.

Dastlabki davrlarda mudofa devorlari o'ta mustahkam bo'lmagan. Keyinchalik devorlarni vayron qiladigan mashinalar paydo bo'lishi, istexkom va minoralarni metinday mustahkam bo'lishiga sabab bo'ldi. Jang vaqtida darvozalarni ximoya qilishga alohida etibor berilgan. Darvozaning kirish joyiga ko'p vaqtida darvozalarni ximoya qilishga alohida etibor berilgan. Darvozaning kirish joyning tepa qismiga ko'pincha tosh otuvchi mashinalar o'rnatish uchun maydon qilingan. Mashanadan uloqtirish uchun sopoldan yumaloq qilib yasalgan yadrolar (ularning og'irligi 1 kg 20 kg cha bo'lgan) terib qo'yilgan. Darvoza oldidagi maydonga va devorlar tag qismiga sopoldan maxsus yasalgan piramidalar sochilgan. Bu otliqlarning va fillarning devorga yaqinlashib kelishiga halaqit bergan.

Keyinchalik o'rta asrlarda ularning o'rniga to'rtta patlitomir piramidachalar (ular sarimsoq deb atalgan) qo'llana boshlandi. Qadimda qalalarni mudofa qilish maqsadida qalaning asosiy devoriga etib kelish uchun avval qo'shimcha devorni teshib o'tish lozim bo'lgan. Qadimgi Xorazm mudofa tizimiga xos bo'lgan bunday mudofa devorlar Qo'yqirilganqalada, Xivadagi Tuproqqalada, Xivadagi Ichanqalada va boshqa joylarda aniqlangan. Masalan Xazoraspda qo'shimcha qala devorida 13,5 metr narida joylashgan.

Nazorat savollari:

1. Qarg`atumshuq qanday qurol hisoblanadi.
2. Massagetlarda jangovar otlarning ko`krak qismi qanday himoya anjomi bilan qoplangan.
3. Sopollitepaning umumiy maydoni qancha edi.

Tayanch iboralar:

Qadimgi boltalar, Klevets (nayzali oybolta), Mitra, kamonchilar, nayzabardorlaga, kejimlar, katafraktarlar (og`ir qurollangan otliq), chi-kia (chokar), Palahmonlar-uloqturuvchi yadrolar.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro`yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь.
2. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
4. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.
5. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
6. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.
7. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.
8. Иванов М. Икки буюқ саркарда. Тошкент, 1999 й.

9. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.
10. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.
11. Дельбрюк.Г. История военного искусства, М., 1983 г.
12. Военное дело древнего и средневекового населения Северной и Центральной Азии,(Сб. науч.трудов.) Новосибирск, 1990 г.
13. Абулғозий. С Ҳажараи турк, Т, 1992 й.
14. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.
15. Ўзбекистон Миллий энтсиклопедияси, Т-11, 2005 й.
16. Крушкол. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошкент, 1975 й.
17. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.
18. Юровской. Э.Э. Новая история стран Европы и Америки, 1-2 период. – Москва: Высшая школа, 1998.
19. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.
20. Язиков.Э.Ф. История новейшего времени стран Европы и Америки. М, 2002 г.
21. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256б.
22. [http: // history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
23. [http: // www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
24. [http: // English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)
25. [http: // www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
26. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.html>
27. [http: // www.lib.byu.edu/-rdh/www//](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www//)
28. [http: // classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
29. [http: // www.washlaw.edu/forint//](http://www.washlaw.edu/forint//)
30. [http: // www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
31. [http: // www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

MAVZU: MISR VA MESOPOTAMIYA HARBIY SAN`ATI

REJA:

1. Qadimgi Misr xududida davlatchilikni tashkil topishida harbiy san`atning o`rni.
2. Qadimgi Misr himoya inshootlari va uning o`ziga xos xususiyatlari.
3. Ikki daryo oralig`i davlatlarida harbiy soha taraqqiyoti.
4. Qadimgi Misr va Mesopotamiyada harbiy unvon va lavozimlar.

Maqsad: Talabalarga Qadimgi Misr va Mesopotamiyada xududida davlatchilikni tashkil topishida harbiy san`atning o`rni, harbiy unvon va lavozimlar hamda himoya inshootlari va uning o`ziga xos xususiyatlarini tushuntirishdan iborat.

Qadimgi Misr davlati tarixi besh davrga bo`linadi: ilk, qadimgi, o`rta, yangi va so`nggi podsholiklar davri. Har bir davrning harbiy tashkiloti o`z xususiyatlariga ega bo`lgan.

Ilk podsholikning boshlanishi (mil. av. XXXI-XXIX asrlar) bilan Misrdagi ichki urushlar to`xtagan, quyi Misr va yuqori Misr podsholiklarining birlashgan davri bo`lgan. Qadimgi podsholik mil. av. XXVIII asrning boshlaridan to mil. av. XXIII asrning o`rtalarigacha hukm surdi. Markazlashuv dexqonchilikning rivojlanishini ta'minlagan sug`orish tizimining kengayishi va takomillashuvidek muhim hodisalarga olib keldi. Hunarmandchilik rivojlandi, butun boshli hunarmandchilik ustaxonalari ochilib, ularda qurol-yarog`lar ham tayyorlana boshlandi. Savdo-sotiq kengaydi, bu o`z navbatida kemasozlikning rivojlanishiga olib keldi.

Yuqori hokimiyat fir`avnlarga tegishli bo`lib, u qo`shin va otryadlarning boshliqlarini tayinlagan. Qadimgi podsholik davri hujjatlarida "qurol uyi" - o`ziga xos harbiy tashkilot esga olinib, u qurol-yarog` tayyorlash, kemalar qurish. qo`shin ta'minoti va mudofaa inshootlarini qurish bilan shug`ullangan.

Jangchilar fir'avn, okruglar va ibodatxonalar xo'jayinlarining xizmatida bo'lganlar. O'z xizmatlari uchun ularga yer berilib, bu yerlarda qullar ishlatilgan. Qo'shin davlatning markazida va dushman bostirib kelishi xavfi bor yo'nalishlarda joylashtirilgan *harbiy garnizon* shaklida tashkil etilgan.

Qadimgi podsholik jangchilari quyidagi qurol-yarog'larga ega bo'lganlar: toshdan yasalgan to'qmoqlar, kamon, misdan tayyorlangan jangovar boltalar, uchlari toshdan yasalgan nayzalar, toshdan yoki misdan yasalgan jangovar xanjarlar. Jangchilar himoya quroli sifatida teri bilan qoplangan yog'och qalqonlardan foydalanganlar,

Qo'shin otryadlardan tashkil topgan. Jangchilar jangovar tayyorgarlik bilan shug'ullanganlar, bu mashg'ulotlarni harbiy ta'limning maxsus boshlig'i olib borgan. Qadimgi podsholik davridayoq misrliklar sherenga tartibini qo'llaganlar. Safdagi hamma jangchilar bir xil qurollarga ega bo'lganlar.

Qadimgi podsholik davridagi qal'alar turli xil shaklda qurilgan (aylana, oval, to'rtburchak). Ayrim hollarda qal'a devorlari ustida maydoncha va brustverga ega bo'lgan kesik konus shaklidagi aylana minoralar bilan mustahkamlangan.

Qal'alarni shturm qilishda misrliklar *shturmchi narvonlardan* foydalanganlar. Qal'a devorlarini buzib, u yerda rahnalarni hosil qilish katta lomlar yordamida amalga oshirilgan. Keyinchalik qal'alarni shturm qilish texnikasi va usuli joriy qilindi.

Misrliklarning kemalari eshkakli bo'lgan, ammo yelkanlar bilan jihozlangan. Har bir kemada boshliqning qo'l ostida doimiy komanda bo'lgan. Kema otryadlarini flot boshlig'i boshqargan.

O'rta podsholik (mil. av. XXI asrning o'rtalaridan mil. av. XVIII asrlargacha) - Qadimgi Misrning gullab yashnagan davri bo'lgan. Hunarmandchilikning rivojlanishi bilan ish qurollarini ishlab chiqarish oshdi, qurol-yarog'lar takomillashdi. Ichki va tashqi savdo ishlari rivojlandi.

O'rta podsholik davrida misrlik jangchilarning qurol-yarog'lari takomillashdi, bu vaqtda temirga ishlov berish ancha taraqqiy etdi. Nayzalar va kamon o'qlarining uchlari bronzadan tayyorlana boshlandi.

Zarb beruvchi qurol avvalgidek qolaverdi. Uloqtiriladigan qurol sifatida nayzalar, bumerang, tosh uloqtiradigan sopqonlar, kamonlar qo'llanilgan. Yangi namunadagi takomillashtirilgan kamon joriy qilinib, uning otish uzoqligi va nishonga urish aniqligi oshdi. Kamondan nishonni aniq urish uzoqligi 150-180 metrga yetdi.

Qo'shinni tashkil etish tizimi ham takomillashdi. Bo'linmalar malum, sondagi jangchilarga ega bo'ldi: 6, 40, 60, 100, 400, 600 jangchilar. Otryadlarida jangchilarning soni 2, 3, 10 ming kishini tashkil etdi. Bir xil qurollar bilan qurollangan - *nayzach'ilar* va *kamonchilar* bo'linmalari joriy qilinib, ular kolonnalarda harakatlanish uchun front bo'ylab eniga to'rt qator va uzunligi bo'yicha o'n sherengali tartibda saflahganlar.

Miloddan avvalgi XVIII asrda Misrga Osiyo qabilalari-*giksoslar* hujum qildilar, ular davlatni mil. av. XVI asrgacha o'z qo'l ostilarida ushlab turdilar. Misrliklar ulardan *jangovar aravalarni* yasash va qo'llashni o'rgandilar.

Yangi podsholik davri (mil. av. XVI-XI asrlar) Misr davlatining gullab yashnashi bilan xarakterlandi. Bu vaqtda bronza keng qo'llanila boshlandi, temirdan yasalgan birinchi buyumlar joriy qilindi, to'quv dastgohi va omochlarning tuzilishi takomillashdi, g'ildirakli aravalar keng qo'llanildi. shishasozlik rivojlandi.

Bu davida Misrda tabaqa tuzumi to'laligicha shakllandi. Harbiy tabaqa xizmatga chaqirilgan kishining yoshi va xizmatni olib borishi bo'yicha ikki guruhga bo'linib, ular kiyim boshlari bilan farq qilganlar.

Jangchilarning katta qismi qilichlar bilan qurollandi, jangda kamonlar ahamiyatli rol o'ynadi. Himoya qurollari yaxshilandi: jangchi qalqondan tashqari, bronza plastinkalar qotirilgan, teridan yasalgan sovutlarga ega bo'ldi. Armiyada jangovar aravalar muhim rol o'ynadi.

Misr armiyasida ma'lum tartiblarda saflangan piyodalar bosh kuchini tashkil etdi. Bir xil turdagi qurollar joriy qilinganidan keyin piyodalar kamonchilardan, sopqonchilardan, nayzachilardan va qilichlar bilan qurollangan jangchilardan tashkil topdi.

Misrlik jangchilar yurishlar davomida bir nechta otryadlarga bo'linib, kolonna-kolonna bo'lib harakatlanganlar. Qo'shindan oldinga doimo

razvedka jo'natilgan. To'xtash joylarida misrliklar qalqonlardan *mustahkamlangan lager* yaratganlar, shaharlarni shturm qilishda **ular toshbaqa nomini olgan tartib (jangchini tepadan himoya qiluvchi qalqonlardan** yaratilgan ayvoncha), taranlar va shturmchi narvonlarni qo'llaganlar.

Qo'shin ta'minoti uchun maxsus ma'muriyat mas'ul bo'lgan. Oziq-ovqatlar omborlardan ma'lum me'yorlar bo'yicha berilgan. Qurol-yaroqg'larni yasash va ularni ta'mirlash ustaxonalari joriy qilingan.

Yangi podsholik davrida qudratli Misr davlatining tashkilotchisi bo'lib. Falastin va Suriyaga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirgan va Dajlagacha yetib borgan fir'avn **Tutmos I** hisoblanadi (mil. av. XVI asrning ikkinchi yarmi). Misrning bosqinchiligi fir'avn **Tutmos III** (mil. av. 1525-1491 y.) davrida yanada keng quloq yoydi, u 19 yil davomida Falastin va Suriyaga 17 ta yurishni amalga oshirdi. Bu yurishlar davomida misrliklar 100 ta shaharni egalladilar, Falastin va Suriyani o'zlariga tobe etdilar va old Osiyoning markaziy qismlariga yorib kirdilar.

Tutmos III avvaldan rejalar tuzib, keyin o'sha reja bo'yicha hujumlarni amalga oshirgan tarixdagi birinchi sarkadadir. U maqsadga erishuvchanlik, qat'iylik va shijoat bilan harakat qilgan, o'z kuchlarining tarqalib ketishiga yo'l qo'ymagan, dushmanning asosiy ob'ektlariga jamlangan zarbalar bergan.

Safar tartibi ham, jangovar tartiblar ham uch qismga bolinib, ular o'zlarining aniq vazifalariga ega bo'lganlar.

Misr fir'avnlarning keyingi harbiy yurishlari kichik Osiyoning markaziy qismida jangari tog' qabilalarining birlashishi natijasida mil. av. XVIII asrda tashkil topgan *Xett davlatining* qattiq qarshiligiga uchradi. Misrliklar va xettlar kurashlarining uzoq vaqt davom etishi an'ana tusiga kirdi.

Ramses II (mil. av. 1317-1251 y.) hukmronligi davrining boshlanish vaqtiga kelib misrliklar xettlar tomonidan Suriyadan siqib chiqarildi.

Misr bilan urush harakatlarini olib borish uchun xettlar podshosi Mutavallu o'sha davr uchun yirik 20 minglik armiyasini yig'di, uning

asosini 2,5 minglik jangovar aravalar otryadi tashkil etdi. Jangda ishtirok etgan bunday ko'p jangovar aravalar sonini hali tarix bilmagan edi.

Xetlar bilan urush uchun Ramses II ham katta kuch to'pladi. Misr qo'shinlari safiga Nubiyalik yollangan va hatto Sardiniyaliklar (shardenlar) kiritildi. Butun qo'shinni u xudolarning nomlarini bo'lgan to'rtta otryadga bo'ldi: Amon, Ra, Ptah va Sutekh. Xetlar bilan qat'iy jang mil. av. 1312-yilda Suriyaning Kadesh shahri yaqinida bo'lib o'tdi. Shiddatli jang natijasida maydonda misrliklarning qo'liari baland keldi, lekin Kadesh egallanmadi.

Ptah otryadining jangovar tartibi tasviri bizgacha saqlanib kelgan, u uchta chiziqqa ega bo'lgan: birinchi va uchinchi chiziqlari jangovar aravalar tashkil etgan, ikkinchi chiziq 10 sherengada saflangan piyodalar tomonidan egallangan, jangovar tartibning o'ng qanoti jangovar aravalar otryadi bilan ta'minlangan. Bu harbiy san'at tarixida ma'lum bo'lgan, piyodalar va jangovar aravalarning tartib bilan joylashtirilgan birinchi jangovar tartibi edi.

Ramses III (mil. av. 1204-1173 y.) hukmronligi davrida Misr qo'shinlari qayta tashkil etildi. Piyodalar va jangovar aravalar otryadlarida xizmatni olib borish belgilab berildi va chet elliklardan yollanganlar otryadlari tashkil etildi. Intizom mustahkamlandi, boshliqlar safining talabchanligi oshdi va shu bilan birga jangchilarni urib jazolash bekor qilindi.

"Dengiz xalqlari" bilan kurashish uchun misrliklar kuchli flot yaratdilar, flot jangda quruqlikdagi qo'shinlar otryadlari bilan hamkorlik qildi va katta yurishlar davomida dengiz kommunikatsiyalari mudofaasini ishonchli ta'minladi.

So'nggi podsholik davrida (mil. av. XI-VIII asrlar) Misr chet el sulolalari hukmronligi ostida bo'ldi, keyinchalik esa Sais sulolasi tomonidan Misr hokimiyati tiklandi (mil. av. VII-VI asrlar). Bu vaqtda davlatning mudofaa qudrati ancha mustahkamlandi.

Umuman shuni ta'kidlash kerakki, Qadimgi Misr urushlarida harbiy san'at joriy etildi. uning yutuqlari bilan Misr fir'avnlari yollanib xizmat qilgan yunonlar mil. av. VII asrdayoq tanishdilar. Bu urushlarda piyodalarning bir nechta turlari paydo bo'ldi - kamanchilar, nayzachilar,

sopqonchilar hamda yangi qo'shin turi jangovar aravalardan keyin joriy qilingan otliqlar maydonga chiqdi.

Misrliklar alohida qal'alar yoki istehkomlar tizimi ko'rinishidagi mudofaa inshootlarini qurishni bilganlar. Qal'alar shturm yoki qamal qilish yo'li bilan ishg'ol etilgan.

Qadimgi Mesopotamiya harbiy san'ati. Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning birinchi choragida janubiy Mesopotamiya (Frot va Dajla daryolari oralig'i) da tarixda Shumer nomi bilan ma'lum bo'lgan bir nechta qadimgi shahar davlatlar bo'lgan. Shumerlik jangchilarning qurol-yarog'lari uchi misdan yasalgan kalta nayzalar va uzun sopli mis boltachalardan iborat bo'lgan. Bundan tashqari, mis xanjarlar va tosh to'qmoqlar ham bo'lgan. Himoya quroli sifatida shumerlik jangchi mis qalpoqqa mis plastinkalar bilan qoplangan jundan to'qilgan kiyim va teridan yasalib mis bilan qoplangan qalqonga ega bo'lgan. Shumer harbiy bo'linmalariga jangovar tartib malum bo'lgan. Safning birinchi sherengasidagi jangchilar katta qalqonlarni olib yurgan, har bir qalqon bir nechta odamni to'sib turgan.

Jang olib borish uchun to'rtta yovvoyi eshak (xonakilashtirilgan xach'ir) qo'shilgan to'rt g'ildirakli jangovar aravalar qo'llanilgan. Jangovar aravalar ekipaji uloqtiriluvchi nayzalar bilan qurollangan ikki kishidan - aravakash va jangchidan tashkil topgan, zaxira nayzalari jangovar aravaning old qismiga o'rnatilgan nayzadonning ichida bo'lgan.

Mil. av. XIX asrda Mesopotamiyada yangi iqtisodiy va siyosiy markaz **Vavilon** barpo etildi va u davlatning poytaxtiga aylandi. U **podsho Xammurapi** (mil. av. 1792-1750 y.) davrida qudratli davlatga aylanib, Mesopotamiyaning butun hududini o'z qo'l ostiga oldi. Vavilon davlati katta doimiy qo'shinga ega bo'ldi. Jangchilarga o'z xizmatlari uchun yer, uy va mol berilgan, jangchilar ularni sotish huquqiga ega bo'lmaganlar, ammo o'g'illari otalari o'rnida xizmatni davom ettirsa, mol-mulklarini meros qilib ularga qoldirganlar.

Xammurapi o'sha vaqtning ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarini nazorat qiluvchi qonunlar kodeksini kiritdi. Xammurapi kodeksida jangchiniug majburiyatlari va huquqlarini aniqlab beruvchi moddalar

bo'lib, u yerda asir tushgan jangchining huquqlari ko'rsatib o'tilgan. Asirlar davlat hisobidan pul sarflab qaytarib olinganlar.

Jangchining mulkini egallash o'lim jazosi bilan jazolangan. Bu hujjatda biz jangchining majburiyatlari va huquqlari belgilab berilishiga bo'lgan birinchi intilishni ko'ramiz.

Mil. av. XIV asrdan boshlab Dajla daryosining yuqori oqimi bo'ylarida Vavilonning shimolida poytaxti Ashshur shahri bo'lgan (keyinchalik poytaxt Nineviya shahri bo'ldi) davlat shakllana boshladi, u mil. av. XIII asrda buyuk davlat **Ossuriyaga** aylandi. U o'sha zamonning eng qudratli armiyasiga ega bo'lib, kuchli bosqinchilik siyosatini olib bordi.

Dastavval Ossuriya armiyasi ko'ngilli dehqonlardan tashkil topdi. Bosqinchilik miqyosining kengayishi bilan mahoratli jangchilar shakllana boshladi, uning safiga zabt etilgan davlatlar xalqlari ham majburan kiritila boshlandi. Shu bilan doimiy qo'shinga asos solindi. Ossuriyaliklar mil. av. VII asrdan boshlab butun O'rta sharqni o'z nazoratlari ostida ushlab turdilar.

Ossuriya armiyasi tezlik va uzoqqa zarba beradigan qurollar bo'yicha ustunlikni qo'lga kiritdi. Ular jangovar aravalar va kichik kavaleriya o'trovadlari bilan birga asosiy zarbdor kuch sifatida ikkinchi va qo'shimcha zarbani berish uchun piyodalarni qo'llaganlar. Armiyaning asosini piyoda kamonchilar va nayzachilar tashkil etgan. Ularning hammasi dubulg'alar va sovutlar kiyib jangga kirganlar, piyodalarning himoya vositalari odamning bo'yidan balan'd bo'lgan qalqonlar bo'lib, ularni maxsus qalqon ko'tarib yuiuvchilar olib yurganlar. Keyinchalik piyodalar kichkina dumaloq qalqonlar va og'ir sovutlardan foydalanganlar.

Ossuriya piyodalari og'ir va yengil piyodalarga bo'lingan. Og'ir piyodalar nayzalar, qilichlar bilan qurollangan va himoya quroli sovut va dubulg'aiarga ega bo'lgan yengil piyodalar kamonchilar va sopqonchilardan tashkil topgan.

Og'ir va yengil piyodalar jangda o'za'ro hamkorlik qilganlar. Kamonchilar og'ir piyodalar va ularning katta qalqonlari himoyasida Jang olib borganlar, bu qalqonlar devorining hujumi edi.

Asosiy tashkiliy birlik *kisir* (otryad) bo'lib, unda 500-2000 jangchi bo'lgan. Kisir ellikliklarga bo'lingan, ellikliklar o'nliklarga ajratilgan.

Ossuriya qo'shinlarida yangi qo'shin turi - otliq qo'shin tug'ildi, u keyinchalik jangovar aravalar va "muhandislik" qo'shinlarini (sapyorlarni) siqib chiqardi. Ko'p sonli otliqlar birinchi bor Ossuriya qo'shinlarida mil. av. IX asrda paydo bo'ldi.

Dastavval chavandoz egarsiz otga minib harakatlangan, keyinchalik esa uzangisiz baland egar o'ylab topildi. Otliqlar juft-juft bo'lib jang olib borganlar: bittasi kamon bilan, ikkinchisi - nayza va qalqon bilan qurollangan.

Ossuriya armiyasi har xil turdagi yer kovlash, yo'l ishlari, ko'priklar qurish va boshqa ishlar uchun muhandislik qo'shinlari rivojlanishini boshlab bergan maxsus otryadlarga ega bo'lgan. Qo'shinlar o'z qurollanishida qal'a devorlarini buzib tashlash uchun taranlar, qamal qilish minoralari va shturmchi narvonlarga hamda *kechuv vositalari* - meshlarga ega bo'lganlar (meshlarda alohida jangchilar daryolardan kechib o'tganlar, bundan tashqari, ularning ustiga sollar va suzuvchi ko'priklar o'rnatilgan).

Dengiz bo'yi xalqlari ossuriyaliklar uchun *galer* tipidagi, dushman kemalariga kema korpusi bilan zarba berish uchun uchli old qismga ega bo'lgan kemalar qurganlar. Eshkakchilar unda ikki qavatda joylashganlar. Kemalar Dajla va Frotida qurilib, Fors ko'rfazida suvga tushirilgan.

Ossuriya armiyasining jangovar tartibi kamonchilar, nayzachilar, jangovar aravalar va otliqlardan tashkil topgan. Jangovar tartibning asosi jangovar aravalar bo'lgan, ularning ortida otliqlar joylashgan. Piyodalar odatda uch sherengada saflangan. Kamonchilar qalqonchilar himoyasida oldinda yoki orqadagi sherenga safida jang qilganlar. Bu holda birinchi ikki sherengadagi nayzachilar. kamonchilar ularning boshlari uzra otishlari uchun engashganlar yoki tizzaga o'tirganlar. Taktik jihatdan to'satdan zarba berish uchun Ossuriya qo'shinlarining barcha boshliqlari tungi hujumni keng qo'llaganlar.

Ossuriyaliklar qal'alarni mohirlik bilan qamal va shturm qilganlar. Devorlarni buzish va ularda rahnalar ochish uchun taranlar - yo'g'on daraxtning tanasidan uchini keng yoki uchli qilib yasalgan moslamalar

qo'llanilgan. Taran 4 yoki 6 g'ildirakli aravada zanjirlar bilan yog'och karkasga osilgan. Karkas odatda, uning ichida joylashgan jangchilarni himoya qilish uchun qamish yoki teri qoplangan qalqonlar bilan yopib qo'yilgan. Karkasning old qismida minoracha o'rnatilgan, unda taranni himoya qiluvchi kamonchilar joylashgan. Bundan tashqari, ossuriyaliklar qal'alarni qamal qilishda *harakatlanuvchi minoralar* va *lahmlani* keng qo'llaganlar hamda zabt etilgan shahar devorlarida hukmronlik qilish va qurshovdagilarga mash'alalar hamda yonuvchi kamon o'qlarni otish uchun tuproqdan ko'tarmalar hosil qilganlar.

Qal'alarni qamal qilgan Ossuriya qo'shinlari tuproq uyumi bilan o'ralgan lagerda joylashganlar. Lager ichida bir-biri bilan kesib o'tuvchi ko'chalar bo'lgan, lagerdan chiqish uchun darvozalar o'rnatilgan. Rim lagerlari ham keyinchalik shunday qurilgan.

Dushmanni qo'rqitish uchun ossuriyaliklar asirlarning terilarini shilib olganlar va ularni taslim bo'lmagan shaharlarning darvozalarida osib qo'yganlar.

Mil. av. VII asrda bosqinchilik yurishlaridan holdan toygan Ossuriya davlati, vavilonliklar va yangidan tashkil topgan Eron davlati - *Midiyaning* zarbasidan keyin barbod bo'ldi va tarqalib ketdi.

Qadimgi Misr bilan taqqoslaganda harbiy san'atdagi yangilik - Ossuriya podshosi ixtiyorida murakkab tuzilishga va ancha takomillashgan tashkiliy shaklga ega, bu shubhasiz taktikaning rivojlanishiga sharoit yaratgan bir necha o'n minglik yirik doimiy qo'shinning bo'lganligidir.

Ossuriya otliqlari shu vaqtga kelib jangda katta o'ringa ega bo'la boshladi, u asta-sekin jangovar aravalarni siqib chiqara boshladi. Texnikaning rivojlanishi qamal qilish mashinalari, kechuv vositalari ixtiro qilinishiga va yo'l qurilishi texnikasining yaxshilanishiga olib keldi. Ossuriya davlatida birinchi marotaba taraqqiy etgan harbiy yo'llar va aloqa tarmog'i esga olinadi, birinchi marta qo'shin qurol-yarog' va anjomlar ta'minotining markazlashgan tizimi yo'lga qo'yildi.

Qadimgi Eron harbiy san'ati. Kaspiy dengizi va Fors ko'rfazi o'rtasidagi yassi tog'likda yashagan Eron qabilalari to'g'risidagi birinchi

ma'lumotlarni biz mil. av. IX asrga tegishli Ossuriya hujjatlarida uchratamiz.

Mil. av. 550-yilda ahamoniylar avlodidan chiqib, Pars viloyatida yashagan podsho **Kir II** Midiyani bosib oldi va ahamoniylar davlatining asoschisi bo'ldi. Midiyaning poytaxti Ekbatana (hozirgi Xamadon) Eron davlatining poytaxtiga ayiandi. U katta harbiy qudratga ega bo'ldi.

Kir II hukmronlik qilgan davrda katta Eron armiyasi tashkil etilib, unda asosiy qo'shin turi otliqlar bo'lgan. Jangovar aravalar endi qurollanishdan olib tashlangan edi, ular podsholarni olib yurish uchun xizmat qila boshladilar. Mil. av. VI asrning o'rtalarida eronliklar o'zlariga Lidiya va Vavilonni bo'ysundirdilar. Misrga yurish qilishdan oldin eronliklar O'rta Osiyoga - saklar va massagetlarga qarshi yurish boshladilar. Kir II mil. av. 529-yilda o'sha vaqtda malika Tumaris rahbarlik qilgan massagetlar tomonidan o'ldirildi.

Mil. av. 525-yilda Kir II ning o'g'li Kambiz II qo'mondonligida eronliklar Misrga yurish qildilar. Shu yili eronliklar misrliklarning katta qo'shinini tor-mor etdilar. Misr Ahamoniylar davlati tarkibiga kirib, uning hududi ancha kengaydi. Kambiz II ning o'limidan so'ng qadimgi Eron davlati parchalanib keta boshladi.

Mil.av. 522-yilda ahamoniylar sulolasi kichik avlodining vakili **Doro I** hokimiyat tepasiga keldi, u tez orada saltahatning oldingi chegaralarini tiklashga muvaffaq bo'ldi. Eronning harbiy-ma'muriy tizimi izga tushirildi. Davlat 20 ta ma'muriy-o'lpon yig'uvchi okruglar - satrapliklarga bo'lindi. Satraplar ham fuqarolik, ham harbiy ishlar bilan shug'ullanish vakolatiga ega bo'lganlar. Armiya qayta tashkil etilib, uning asosini piyodalar va otliqlar tashkil etdi. Qo'shinni tezlik bilan bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish uchun yo'l tarmoqlari rivojiga katta e'tibor berildi, shu jumladan podsho yo'li qurilib, uning har 20 kilometrda garnizonlarga ega bo'lgan istehkomlar qurildi, har 5 kilometrda otliq soqchilar otryadlari (piketlar) turar va ular hukumat aloqasi uchun xizmat qilar edi. Ko'plab yo'l tarmoqlari yirik davlatning har qanday punktiga kichik va katta qo'shin otryadlarini tezkorlik bilan olib borishni ta'minladi. Bir nechta satrapliklar garnizoni bitta harbiy

okrug qo'mondoniga bo'ysungan, davlatda hammasi bo'lib 5 ta harbiy okrug mavjud bo'lgan.

Eron qo'shinining asosini podshoning tansoqchilari tashkil etgan: 10 minglik saralangan piyodalar - "*o'lmaslar*" ("*o'lmaslar*" nomini ular otryaddagi yo'qotishlarni tezlik bilan yaxshi piyoda jangchilar hisobidan to'ldirish odati sababli olganlar), 1000 nafar *alebardachilar* (alebarda - uzun sopli oybolta), 1000 otliq tansoqchilar va jangovar aravalar.

Eronliklarning asosiy qurollari kamon bo'lgan. Qilichlar va kalta nayzalar ikkinchi darajali qurol edi. To'qilgan qalqonlar va tangachali sovutlar himoya anjomlari bo'lib xizmat qilgan. Eronliklar jangovar aravalarning g'ildiraklariga pichoqlar va o'roqlar o'rnatib, uni takomillashtirdilar.

Eron qo'shini mingliklarga, yuzliklarga, o'nliklarga bo'lingan. Jangovar tartib qanotlardan tashkil topgan, ularga podsho oilasining a'zolari qo'mondonlik qilgan.

Doro I podsholik qilgan vaqt ahmoniylar davlatining qudrati eng yuqori cho'qqiga chiqqan davr bo'ldi.

Qadimgi Eron davlati urushlarida qo'shinning yangicha tuzilishi joriy qilindi: jangovar aravalar o'zining avvalgi ahamiyatini yo'qotdi, manyovr vositasi - nomumtazam otliq otryadlarning o'rniga kirib kelgan muntazam otliq otryadlar bo'ldi.

Yangilik qo'shinni tashkil etishda ham ko'zga tashlanadi, endi ularga harbiy okruglarning maxsus boshliqlari qo'mondonlik qilar edilar. Shunday qilib, harby boshliqlar vazifalari satraplarning vazifalaridan ajratildi.

Hindiston subqit'asida birinchi davlat mil. av. III ming yillikning o'rtalarida hind daryosi vodiysida tashkil topdi. Hind yoki Xarapp madaniyati rivojlangan qudratli himoya devorlari bilan mustahkamlangan shaharlarni qurishga imkoniyat yaratdi.

Hind madaniyati Misr va Mesopotamiyaning rivojlanayotgan madaniyati bilan bir vaqtda kechdi. Mil. av. XX-XIX asrlarda u asta-sekin inqirozga yuz tutdi. Uning halokatini ko'p hollarda Hindistonning keyingi butun tarixiga ta'sir ko'rsatgan oriylarning kelishi bilan bog'lashadi. Mil. av. I ming yillikning birinchi yarmida shimoliy

Hindistonda, aynan Gang vodiysida yangi davlatlar shakllanib, ularning tarixi qadimgi hind diniy yodgorligi adabiyoti "Vedalar"da aks ettirilgan. Ushbu davrning o'zini vedachilik davri deb yuritish qabul qilingan. Davlat tepasida "*roja*" - podsho turgan, u nafaqat davlatni boshqargan, va diniy boshliq bo'lgan, balki qo'shinga ham qo'mondonlik qilgan. Roja hokimiyati merosdan merosga o'tgan va qabila demokratiyasi qoldig'i hisoblangan xalq majlisi bilan kam chegaralangan.

Qadimgi Hindistonning ijtimoiy tuzumi ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi natijasida mil. av. I ming yillikning boshida paydo bo'lgan tabaqa bo'linishi bilan xarakterlanadi. Tabaqa tuzumi Hindiston jamiyatining o'ziga xos belgisi bo'ldi.

Qadimgi Hindiston davlati qo'shinining tuzilishi o'ziga xos xususiyatlarga, ega edi. Qo'shin safiga piyodalar, jangovar aravalar, otliqlar va *jangovar fillar* kirgan. Fillarning ustida minoracha o'rnatilib, unda kamonlar va drotikiar (uloqtiriluvchi nayzalar) bilan qurollangan kamonchilar joylashgan.

Hindiston piyodalari odam bo'yi barobar katta kamonlar va uzun kamon o'qlari bilan qurollangan. Kamonning bir uchi yerga tiralgan; kamonchi uni chap oyog'i bilan bosib turib, kamon ipini oxirigacha tortgan. Bunday kamon o'qlari qalqon va sovurlarni teshib o'tgan.

Piyodalar odam bo'yi bilan teng bo'lgan terili qalqonga ega bo'lganlar. Piyodalar qurollanishida o'q-yoylardan tashqari uzun va keng qilichlar ham bo'lgan. Otliqlar uloqtirish uchun ikkitadan nayza va kichik qalqonlar mavjud edi: ularning otlari egarsiz bo'lgan, lekin yuganlar tortilgan.

Hindiston shaharlari minorali devorlar hamda chuqur va keng xandaqlar bilan himoya qilingan. Hindiston harbiy san'atining o'ziga xos belgisini umumlashtiruvchi hujjat - "Manu qonunlari" bizning kunimizgacha yetib kelgan. Ularda: urush va tinchlik. mustahkamlangan punktlarning ahamiyati, urushlarning ma'naviy asoslari, podshoning majburiyatlari, vaziyatni to'g'ri baholash va harakatni boshlash vaqtini tanlashring ahamiyati, yurishlarga tayyorgarlik va harakatni ta'minlashga qo'yilgan talablar, jangni olib borish va qal'alarni bosib olish usullari kabi keng miqyosli masalalar yoritilgan.

Qadimgi Hindistonda to'liq davlat ta'minotida turgan *doimiy tabaqa qo'shinlari* bo'lgan. Uning asosiy zarbdor kuchi jangovar Fillar hisoblangan.

Xammurapi qounlaridan farqli o'laroq, Hindiston qonunlari Vavilon qohunlarida bo'lgani kabi jangchining huquqlari va majburiyatlarini bayon qilish bilan chegaralanmasdan, asosiy e'tiborni harbiy san'atning aniq masalalariga qaratgan. Qurol ishlatish huquqiga faqat har to'rtta varnlar (tabaqalar)ning biri - kshatriylar ega bo'lib, bu holat qolgan kshatriylarni dushman oldida ojiz qilib qo'ygan.

Mil. av. II ming yillikda Osiyoning janubi-sharqiy qismida qadimgi Xitoy davlati shakllandi. Ushbu davrda turli qabilalar o'rtasida doimo urushlar bo'lib turar edi.

Xitoy hukmdoliari birinchi galda o'z hududlarini shimoldagi ko'chmanchi qabilalar syunnular (vaqt o'tishi bilan *gunnlr* nomi bilan atalgan) va keyinchalik o'rta asrlarda mo'g'ullar hujumlaridan himoya qilishlari kerak edi. Xitoyda (mil. av. XVIII asrdan) armiyaga tayanadigan kuchli teokratik davlat yaratdi, bu davlat o'zining g'arbdagi zamondoshlaridan ko'p farq qiltmas edi.

Shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi Xitoyning qurol-yarog' va harbiy san'atining rivojlanish jarayoni, qadimgi Misr, Eron, Hindiston davlatlari bilan hech qanday bog'lanmagan holda, mustaqil ravishda kechdi. Xitoyda jangovar aravalar, Misr va Kichik Osiyoga qaraganda ancha kechroq (mil. av. XIII-XI asrlar) qo'llanila boshlandi.

Ilk qadimiy Xitoy davlatida (In podsholigida) qo'shin piyodalarga, otliqlarga va jangovar aravalarga bo'lingan. Qo'shinning soni o'sha vaqtlarda 5000 kishidan oshmagan. Otliq otryadlar odatda 300 kishidan tashkil topgan. Jangchilarning asosiy qurollari o'q-yoylar bo'lgan. Undan tashqari jangchilar jangovar boltalar, sekirlar (sopi uzun oyboltalar), qilichlar, uchlari bronzadan yasalgan nayzalar va drotiklar bilan qurollanganlar. Jangchilar qalqonlar va bronzadan yasalgan dubulg'alarga ega bo'lganlar. Jangovar tartib piyodalardan, otliqlardan va jangovar aravalardan iborat bo'lgan.

Xitoy qo'shini bu davrda jangovar aravalar va otliqlardan tashkil topdi. «Jangovar aravalar va otliqlar -bu armiyaning qudrati. 10 ta jangovar

arava dushmanni 1000 jangchisini yanchib tashlaydi. 100 ta jangovar arava dushmanni 10000 jangchisini yanchib tashlaydi, 100 ta otliq 1000 kishini quvg'in qiladi», - deb yozilgan edi o'g'itlarning birida.

Mil. av. V asrgacha Xitoy armiyasining asosiy zarbdor kuchi jangovar aravalari bo'lgan. Jangovar aravalari ikki turga bo'lingan: ikkita ot, keyinchalik to'rtta ot qo'shilgan jangovar aravalari, hamda transport aravalari yaratildi; 12 ta xachir qo'shilgan aravalari yaratilib, ular nafaqat harbiy yuklarni tashib yurish uchun, balki mudofaa inshootlarini qurish uchun ham ishlatilgan. Har bir jangovar arava bilan 75 jangchi harakatlangan, ulardan uch nafar og'ir qurollanganlari jangovar arava ustida turib jang qilgan, qolganlari esa uchta bo'linmaga bo'lingan: ulardan bittasi jangovar aravaning oldida, qolgan ikkitasi esa qanotlarda joylashgan.

Mil. av. VI-V asrlarda Xitoy qo'shini aniq tashkiliy tizimga ega bo'lgan. Kichik bo'linma «U» (beshlik) bo'lgan, beshta «U» «lyan»ni (25 jangchi) tashkil etgan, to'rtta «lyan» - «szu»ni (100 jangchi), beshta «szu» - «lyuy»ni (500 jangchi), beshta «lyuy» - «si»ni (2500 jangchi), beshta «si» - «szyun» (12500 jangchi)ni tashkil etgan. Oliy birlashma uchta «szyun»dan (37500 jangchi) iborat bo'lib, har bir «szyun» o'zining ma'lum taktik vazifasiga ega bo'lgan: avangard, markaz va arergard. Chjou vani (Chjou davlati hukmdori) oltita «szyun»ga ega bo'lgan.

Otliqlarda qo'shin tashkil etilishi o'nlik tizimga asoslanadi: beshlik quyi bo'linma, navbatdagilar ikkita beshlik (10 otliq), undan keyin 100 va 200 otliqli bo'linmalar bo'lgan. Jangovar aravalari boshqacha tashkil etilgan: quyi bo'linmalarda beshta- jangovar aravalari bo'lgan, ikkita beshlik keyingi bo'linmani tashkil etgan, undan keyin 50 ta va 100 ta jangovar aravalarga ega bo'lgan bo'linmalar harakatlangan.

Qadimgi xitoyliklarda qo'shinni boshqarish tizimi ham ishlab chiqilgan edi. Bo'linmalari tovush bilan, birlashmalar - barabanlar, bonglar, bayroqlar va belgilar bilan boshqarilgan. Qadimgi tuzuklarning birida ta'kidlanishicha, barabanlarning bongi bilan jangovar aravalarga, otliqlarga, piyodalarga "qurolga, qurolni ko'tar, tushir" signallari berilgan.

Mil. av. V asrda Buyuk Xitoy tekisliklarida yettita mustaqil podsholiklar shakllanib, ular «kurashayotgan podsholiklar» davri (mil. av. V-III asrlarda oʻzaro doimiy urushlarni olib borganlar. Mil. av. IV asrga kelib piyodalar soni oshdi, jang olib borish amaliyotida arbaletlar keng qoʻllanildi.

Xitoyliklar Xitoydan shimolda joylashgan koʻchmanchi - xunlar bilan koʻpgina urushlarni olib borganlar. Mil. av. 214-yilda xitoyliklar xunlarning hujumlaridan himoyalaniş uchun, keyinchalik *Buyuk Xitoy devori* nomini olgan chegaraboʻyi devorini qurishni boshladilar.

Hozirgi kunda uning uzunligi sharqdan gʻarbga tomon 2500 kilometrni tashkil etadi. Uni qurish ishlari uzoq vaqt, XV-XVI asrlargacha davom etdi. Devorning balandligi 16 metrgacha, qalinligi pastda 8 metrgacha, yuqorida 5 metrgacha yetdi. Uning har 100 metrda, devor boʻsagʻalariga yaqinlashgan dushmanni oʻqqa tutish uchun boʻrtib chiqqan joylari boʻlgan.

Koʻp sonli darvozalar yarim aylana shaklidagi devorchalar bilan himoya qilingan. Devorda toʻrt burchakli, ichki zinapoyaga ega boʻlgan ikki qavatli minoralar qurilgan. Devorni qoʻriqlayotgan qoʻshin 145 kishidan iborat boʻlgan oʻz qoʻmondonlariga ega boʻlgan otryadlardan tashkil topgan, ular soqchi minoralar guruhining butligi uchun javobgar boʻlganlar. Har bir otryad bir nechta otliq choparlarga ega boʻlgan.

Chegarachi qoʻshin askarlariga devor yaqinidan yer berilgan, ular ushbu yerlarda oilalari bilan ishlab, xoʻjalik ishlari bilan ham shugʻullanganlar.

Xitoyliklar aloqa xizmatini tashkil etishga katta eʼtibor berganlar. Buyuk Xitov devori boʻylab bir-biridan 4 kifometrgacha uzoqlikda *kuzatuv postlari* joylashgan. Har bir postning yaqinida quruq shox-shabbalar boʻlib, ular dushmanning yaqinlashishi bilan yoqilgan. Yaqinlashib kelayotgan dushman soni toʻgʻrisidagi maʼlumot yorugʻlik signallarini shartli takrorlash yoʻli bilan yetkazilgan. Signallar sifatida *raketalar petardalar* keng qoʻllanilgan. Har bir post qabul qilingan signalni keyingi postga yetkazishga majbur boʻlgan.

Buyuk Xitoy devorining qurilishi qadimgi Xitoy da harbiy-muhandislik ishlarining yuqori darajada bo'lganligidan darak beradi. Undan tashqari strategik yo'lar va katta suv kanallari qurilgan.

Mil. av. III asrda xitoyliklar poroxni kashf etdilar, lekin harbiy maqsadlarda undan XIV asrgacha foydalanilmadi. Porox mil. VIII-XIII asrlarda jangovar maqsadlarda juda kam qo'llanilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Uzoq vaqt porox mushakbozlik uchun qo'llanilgan.

Ko'chmanchilar bilan kurashish zaruriyati xitoyliklarni yirik otliq armiyani tashkil etishga majbur etdi. Mil. av. I asrda xunlar to'lig'icha tor-mor etildi va Xitoy hududidan siqib chiqarildi. Xunlarning yakson etilishida hal qiluvchi rolni, yaratilganligi xunlar uchun kutilmagan hol bo'lgan otliqlar o'ynadi. Bu davr qadimgi Xitov davlatining gullab yashnagan davri edi.

Qadimgi Xitov harbiy sa'atining hamda uning umumiy va harbiy madaniyatining yuqori rivojlanish darajasi **Xitoyda harbiy-nazariy fikrning** rojlanishiga turtki bo'ldi. Xitoy harbiy fanining asosi bo'lib, turli vaqtlarda yozilgan harbiy san'at bo'yicha yettita risola "yetti kitob" hisoblanadi. Ularning eng qadimgisi **-Sun-Szi** (mil. av. VI asrning oxiri va V asrning boshi) va **U-Szi** (mil. av. IV asrning boshi) risolalaridir. Sun-Szi risolalari hozirgi zamonda harbiy san'at bo'yicha ma'lum bo'lgan asarlarning eng qadimgisidir. U qadimgi Xitoy harbiy san'atining muhim tamoyillari mazmunini ochib beradi.

Sun-Szi mil. av. VI asrda U podsholigida sarkarda edi. U ushbu podsholik qo'shinlarini mohirona boshqargan.

Sun-Szining tarixiy va shaxsiy tajribasini umumlashtirgan "Harbiy san'at to'g'risida"gi risolalari 13 bobdan tashkil topgan. Ularning barchasi qisqacha nizomlar ko'rinishida, namunalar keltirilgan holda yozilgan. Sun-Szi o'z zamonasi uchun g'alabaga erishish sharoitlari va mag'lubiyat sabablarini aniqlashga harakat qilgan.

Sun-Szi o'z risolalarini davlat hayot va mamotining asosi hisoblangan urushning ahamiyatini aniqlashdan boshlaydi. Bu o'sha davrdagi Xitoy haqiqatiga mos kelar edi. Sun-Szi urushlarni uch turga bo'ladi. "Urushning oily san'ati - bu dushman rejasini buzish: keyin uning iftifoqchilarini safdan chiqarish, keyingi o'rinda uning qo'shinlarini tor-

mor etish va eng yomoni -qal'alarni qamal qilish". - deb yozadi u o'z tuzuklarida.

Sun-Szi sarkardaning roliga katta ahamiyat beradi. U o'z tuzuklarining X bobida "qachonki sarkarda bo'sh va notalabchan bo'lsa, jangchining o'rgatilishida aniqliklar bo'lmasa, unda sarkardlar va jangchilarning o'rtalarida hech qanday doimiy bog'liqlik yo'q, unda qo'shinning jangovar tartibi yagona tizimga ega bo'lmaydi bu qo'shinning parokandaligi demakdir", deb yozadi. U yana: "Qachonki sarkarda dushmanni baholashga ojiz bo'lsa, qachonki u o'zining kam sonli kuchlari bilan dushmanning ko'p sonli kuchiga hujum qilsa, qachonki u o'zi kuchsiz bo'lgan holda kuchli dushmanga hujum qilsa, qachonki qo'shin tarkibida zarbdor otryadlar bo'lmasa - demak qo'shinning jang maydonini tashlab qochishi muqarrardir. Bu olti qoida mag'lubiyat to'g'risidagi o'gitdir. Sarkardaning asosiy majburiyati - bu qoidalarni mukammal bilishdir", -deb yozadi.

Ushbu bobda u sarkardaning shaxsiy sifatlarini ko'rsatib o'tadi. "Qachonki sarkarda hujum qilayotib shuhrat ortidan quvmasa, chekina turib uyatdan qo'rqmasa, qachonki u faqat xalqi va hukmdorining himoyasi to'g'risida o'ylasa, bunday sarkarda - mamlakat uchun javohirdir".

Jangchilarga o'z bolalaringga qaragandek qarasang, ular bilan hatto eng chuqur daralarga ham kirib borishing mumkin. Jangchilarga o'z suyukli o'g'illaringga qaragandek qarasang, ular bilan hatto o'limga ham borishing mumkin. Ularga saxovatli bo'lsang, sen ularni boshqara olmaysan; agar ularni sevsang, ularga buyruq bera olmaysan; tartibsizlik yuzaga kelsa, sen tartib o'rnatmasang - bu holda ular o'zboshimcha o'g'illarga o'xshab qoladi; ulardan foydalanishning imkoniyati bo'lmaydi".

Sun-Szi joyni baholashga ham muhim e'tibor qaratadi. Joyni u olti turga bo'ladi: o'tish uchun qulay, qiyaliklar, baland-pastlik, vodiylar, tog'li, uzoq joylar.

"Qachonki men o'ta olsam va u (dushman) ham o'ta olsa, bunday joy o'tish uchun qulay deyiladi. O'tish uchun qulay joyda birinchi navbatda balandliklarning quyoshli tomonini egalla va ta'minlash

yo'llarini qo'riqlashni tashkil et, unda jang paytida qulaylikka ega bo'lasan".

To'satdan zarba berish va tezkorlikni qo'llash kerakligi haqida Sun-Szi quyidagilarni ta'kidlaydi: «Urushda eng asosiysi - tezkorlik. U (dushman) yetib borib ulgurmagan joylarni bosib ol. Uning xayoliga ham kelmagan yo'llardan harakatlan. Dushman kutmagan yo'nalishlardan hujum qil».

Razvedkachilardan foydalanishning muhimligi haqida Sun-Szi XII bobda shunday ta'kidlaydi: "Qo'shinda razvedkachilarga qilinadigan munosabatdan yaqinroq munosabat yo'q; razvedkachilar uchun beriladigan mukofotdan saxovatli mukofot yo'q; razvedkachilarning maxfiy ishlaridan maxfiyroq ish yo'q. Razvedkachilar, ayniqsa urushda kerakdirlar. Ular shunday tayanchdirlarki, ularning yordamlari bilan butim qo'shin harakatlanadi".

Sun-Szi intizomga katta e'tibor beradi, uni mustahkamlash usullarini tavsiya etadi. U IX bobda "qachonki askarlar kuchli bo'lsa, komandirlar esa zaif bo'lsa bu qo'shinda parokandalik bo'ladi", deb yozadi. "Qachonki komandirlar kuchli bo'lsa-yu askarlar zaif bo'lsa, bu qo'shinning dushman qoliga tushishi aniqdir. Qachonki komandirlar o'zlarining boshliqlariga bo'ysunmasalar va mustaqil jangga kirsalar, qo'shin tarqalib ketadi".

U yana shunday yozadi: "Sarkarda jangchilar bilan uzoq, erkalab va hurmat bilan muloqotda bo'lsa - demak u ommaning ishonchini yo'qotgan. Agar u qo'shinni tez-tez mukofotlasa, demak qo'shin qiyin ahvolda. U qo'shinni tez-tez jazolasa, demak, intizomi tushib ketgan. Qachonki u qattiqqo'l bo'lsa, ustiga ustak ommadan qo'rqsa, bu harbiy san'atni tushunmaslikning yuqori darajasidir.

Umuman, Sun-Szi tuzuklarida qadimgi Xitoy harbiy san'atining holali to'liq va chuqur yoritilgan. Sun-Szining xizmatlari shundan iboratki, u birinchilardan bo'lib jangovar harakat usullarini nazariy ifodalab berishga harakat qildi va harbiy san'at ulardan, ya'ni jangovar harakatlar usullaridan, dushmanni tor-mor etishda foydalana bilish kerakligini ko'rsatdi.

Sharqda qadimgi davlatlarning barpo etilishi bilan davlat hokimiyati organi sifatida, vazifalari qo'shni xalqlar bilan urushlar olib borish va davlat ichkarisida hokimiyatni mustahkamlashdan iborat bo'lgan armiyalar paydo bo'ldi.

Misr va Hindistonda harbiy tabaqa yaratilib, u hukumat tepasida turganlarning qo'llarida qudratli qurol bo'lib, hukumatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshirdi.

Harbiy tabaqa ishonchli tayanchga aylanishi bilan yo'llanish paydo bo'ldi, uning natijasida harbiy kasb maydonga keldi.

Qadimgi Sharq armiyalarining qurol-yarog'lari takomillasha boshladi va uning turli ko'rinishlari yaratildi. Armiya qo'shin turlari bo'yicha qurolli otryadlarga bo'lina boshladi (kamonchilar, nayzachilar va boshqalar), bu o'z navbatida armiyalarda birinchi tashkiliy shakllanishni belgilab berdi. Avval yagona qo'shin turi piyodalar bo'lgan. Keyinchalik jangovar aravalari yaratilib, ular jang maydonida hukmdorlikni qo'lga kiritdilar. Nomuntazam otliq bo'linmalari ham tuzila boshlandi. Shunday qilib, qo'shin turlariga asos solindi.

Qadimgi Sharqning ko'p sonli urushlarida armiya taktik bo'linishining birinchi elementlari joriy etildi. Birinchi galda safar tartibidan avangard va arergard ajralib chiqarildi. Qo'riqlash va razvedkaning vazifalari hali uyg'unlikda edi. Jang oldindan manyovr qilish, to'satdan zarba berishga erishishning maqsadi edi.

Jangovar tartib jang maydonida har xil qurollangan otryadlarni, ya'ni piyodalarni, jangovar aravalarni, otliq otryadlarni joylashtirishdan iborat edi. Piyodalar taktikasi sherenga bo'lib saflanishda va ularning to'g'ri harakatlanishlarida ifodalangan. Jang ro'paradan to'qnashuvlar shakliga ega bo'ldi, qanotlar jangovar tartibning kuchsiz joyi ekanligi ko'rinib qoldi.

Sharqda muhandislik san'ati paydo bo'lib, u kuchli istehkomlar yaratishni va ularni murakkab texnika yordamida egallash usullarini ishlab chiqishni o'z ichiga oldi. Lahimlar keng qo'llanildi, qal'a devorlari devor buzuvchi mashinalar bilan buzib tashlangan yoki harakatlanuvchi minoralar va shturmchi narvonlar yordamida egallangan.

Osiyoning sharqiy qismida ushbu qadimgi davrda Yaqin Sharq davlatlariga bog‘liq bo‘lmagan holda Xitoy harbiy san’ati rivojlandi. Qadimgi Sharq xalqlarining harbiy san’ati qadimgi yunonlar harbiy san’atiga ta’sir o‘tkazdi, ular nafaqat Qadimgi Sharq davlatlari bilan savdo-sotiq va jang olib bordilar, balki ularga yollanib xizmat ham qildilar.

Nazorat savollari:

1. Giksoslar Misrga qachon hujum qilishdi.
2. Ossuriyaliklarning asosiy harbiy birligi yani otryadi nima deb nomlangan.
3. Xitoyda harbiy sanatga doir eng qadimgi manba nima deb ataladi.

Tayanch iboralar:

Qadimgi boltalar, Klevets (nayzali oybolta), Mitra, kamonchilar, nayzabardorlaga, kejimlar, katafraktarlar (og‘ir qurollangan otliq), chikia (chokar), Palahmonlar-uloqturuvchi yadrolar.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь.
2. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга кураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
4. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюкдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.
5. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
6. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.

7. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.
8. Иванин М. Икки буюк саркарда. Тошкент, 1999 й.
9. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.
10. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.
11. Дельбрюк.Г. История военного искусства, М., 1983 г.
12. Военное дело древнего и средневекового населения Северной и Центральной Азии,(Сб. науч.трудов.) Новосибирск, 1990 г.
13. Абулғозий. СҲажараи турк, Т, 1992 й.
14. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.
15. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Т-11, 2005 й.
16. Крушкел. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошкент, 1975 й.
17. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.
18. Юровской. Э.Э. Новая история стран Европы и Америки, 1-2 период. – Москва: Высшая школа, 1998.
19. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. – Т., 1976 г.
20. Язиков.Э.Ф. История новейшего времени стран Европы и Америки. М, 2002 г.
21. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256 б.
22. [http:// history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
23. [http:// www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
24. <http:// English www.hss.cmu.Edu/history>
25. <http:// www.ukans.edu/history/vl/>
26. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.hrml>
27. <http:// www.lib.byu.edu/-rdh/www//>
28. <http:// classics.mit.edu>.
29. <http:// www.washlaw.edu/forint//>
30. <http:// www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm>
31. <http:// www.yale.edu/acuns/>

MAVZU: QADIMGI YUNONISTON VA RIMNING HARBIY SAN`ATI

REJA:

1. Qadimgi Yunoniston xududidagi shaxar davlatlarda harbiy ish.
2. Qadimgi Yunoniston qo'shini va uning tashki tuzilishi.
3. Qadimgi Rim va undagi harbiy unvon va mansablar.
4. Qadimgi Yunoniston va Rimda harbiy safarbarlik.

Maqsad: Talabalarga Qadimgi Yunoniston va Rim hududidagi shaxar davlatlarda harbiy ish, qo'shini va uning tashki tuzilishi, harbiy unvon va mansablar haqida ma'lumot berishdan iborat.

Qadimgi Sharq xalqlarning harbiy san'ati qadimgi g'arb xalqlarga, masalan yunonlarga, rimliklarga, ham o'z ta'sirini o'tqazgan.

Antik mamlakatlarda (Qadimgi Yunonistan, Qadimgi Rim) dastlabki davrda qurolli kuchlar militsiya tizim asosida tashkil topgan. Bu degani, xar bir erkak harbiy ishni bilib, armiyada xizmat qilish lozim edi. Tinchlik davrida yoshlar dastlabki harbiy tayyorgalikni o'tishar edi, urush paytida esa ularni armiyaga safarbar qilishgan. Ammo jamiyatdagi sinfiy tabaqalanishi erkin axolini kamayishiga olib kelgan. Sabab shundaki, xonavayron bo'lgan dehkun qulga aylanar edi. Shuning uchun ozod bo'lgan odam kamayib, yollangan armiyani tashkil qilishga majbur bo'lishgan. Qadimgi Yunonistonda armiya asosini piyodalar tashkil etgan. Ular ikki turga bo'lingan-og'ir qurollangan va engil piyodalar. Og'ir qurollangan piyodalar (goplitlar) nayza, kalta shamshir, qalqon, ko'krakdagi himoya qiluvchi bronza sovut bilan qurollangan edi. Engil piyodalar esa engil nayza yoki o'q-yor bilan qurollangan.

Qo'shinning asosini falanga tashkil etgan, ya'ni bir necha safdan va qatordan iborat bo'lgan harbiy qism. U 8 qator saf tortgan 8000 jangchilardan iborat edi. Falanga front buyicha 1 km-ga. chuzilgan edi. Jang paytida markazda og'ir qurollangan piyodalar(goplitlar) falangani tashkil etib saf tortishgan, qanotlarda otliqlar, oldingi qatorda esa yoyma saf tortgan engil piyodalar joylashgan edi. Falanga bir qancha afzalliklarga ega bo'lgan. Uning kuchi- safning jipsligida edi, qarshi

tomondan unga shikast etkazishning imkoni bo'lmagan. Uning kuchli tomoni - bu uning zarbasi edi. Ammo uning salbiy tomoni ham bor edi, ya'ni u katta masofaga xujum qilolmas edi, uning qanotlari (flanglari) ochiq edi, u faqat tekis joyda jang qilib, o'rmonda, tog'larda jang qilolmasdi, chekinayotgan dushmanni ta'qib etishga mutlaqo yaroqsiz edi, zarba kuchini oshirish uchun qo'shimcha ko'chi, zaxira, yo'q edi.

Yunonlarda harbiy san'ati, avvolom bor, axmoniyalar bilan urush davrida rivoj topgan. M.a. 550 y. tashkil topgan Axmoniyalar davlati qisqa vaqt ichida butun Old Osiyoni bosib oldi va buyuk saltanatiga aylandi. M.a. 490 y. forslarning podshosi DoroI Yunonistonga xujum uyushtirdi. M.a. 490 y. 13 sentyabr kuni Marafon tekisligida forslar bilan yunonlar o'rtasida katta jang bo'lib o'tdi. Forslarda 20 ming jangchi, shu jumladan 10ming otliklar bo'lgan bo'lsa, yunonlar qushini Afinadan etib kelgan 10000 goplitlardan iborat edi. Afina qo'shinlarning qo'mondoni Miltiad falanga qatorlarni qisqartirish hisobidan o'z flanglarni ko'chaytirdi. Forslarning saralangan qo'shinlari yunonliklarning kuchsiz o'rta qismini yorib o'tib, g'alaba qozona bo'lgan paytda yunonlar ikki flang tomondan xujumga o'tib, forslarni tor-mor qilishdi. Yunonlar 1920 kishini yo'qotishgan bo'lsa, forslar esa 6400 kishini yo'qotishdi. Forslar yunonlar xujumiga bardosh bera olmay, o'z kemalar tomon qochib, dengizga so'zib ketishdi.

M.a. 480-479 yy. yunonlar bilan forslar o'rtasida urush davom etdi. Tarixda qolgan ikkita jangni eslash joiz: Fermopil yonidagi va Salamin jangi.

M.a. 480 y. DoroI ning o'g'li Qayxisrov boshchiligida forslar yangi xujumni boshlashdi. Yunon shaxarlari dushman bosqiniga zarba berish uchun birlashdilar. Sparta podshosi Leonid qo'mondonligidagi yunonlar Fermopil yo'lini ishg'ol etib, forslarning O'rta Yunonistonga o'tadigan yo'lni to'sib qo'ydi. Forslar bir necha kun davomida yunonlarga qarshi xujum qilishgan. Yunonlar xamma xujumlarni qaytarishdi. Lekin bir xoin forslarni so'qmoq yo'l bilan tog'lar orasidan Fermopil yo'lining orqasiga olib o'tdi. Leonid boshchiligidagi 300 spartaliklar qolib, jang qilishdi. Teng bo'lmagan jangda yunonlar haloq bo'lsalar-da, lekin forslarni to'xtatib turdilar va qolgan yunonlarni chekinishiga imkon berdilar. Forslar O'rta Yunonistonni ishg'ol qilishdi.

Jang qilishga qodir bo'lgan barcha erkaklar ko'shinga va harbiy kemalarga borib kirdilar. Ayollar, bolalar va qariyalar esa Peloponesga va Salamin oroliga flot himoyasiga o'tqazildi.

Navbatdagi jang m.a. 480 y 28 sentyabrda Attika bilan Salamin oroli o'rtasidagi bo'g'ozda bo'lib o'tdi. Bu jangda yunonlarning 370 va forslarning 700 kema uchrashishdi. Forslar bo'g'ozga kirishi bilan yunonlar xujumga o'tishdi. Forslarning ochiq dengizda suzishga moslashgan og'ir kemalar tor bo'g'ozida sayoz joylarda turib qoldi, yunonlar esa o'z engil kemalarda xujumga o'tib, forslar kemalarni yondirishdi. Shikastlangan forslar kemalari jangdan chiqishga majbur bo'ldi. Yunonlar g'alaba qozonishdi. Yunonlarning birlashgan qo'shinlari quruqlikda qolgan forslar qo'shinlari bilan jang qilib, ularni ham tor-mor qilishdi. M.a. 479-yilda navbatdagi jang Plateya shaxri yaqinida bo'ldi. Bu jangda yunonlarning falangasi yana bir bor o'z ustunligini namoyon qilib, dushmanni tor-mor qildi. Urush yana 30 yil davom etdi. U asosan dengizda olib borildi. G'alaba qozonish uchun yunon shaxar-davlatlari Afina boshchiligida birlashib, Afina dengiz ittifoqini tashkil etishdi. Urush natijasida forslar taslim bo'lib, sulh tuzishga majbur bo'lishdi. Unga ko'ra Egey dengizdagi va Kichik Osiyodagi yunon shaxarlari mustaqil bo'lishdi, Eronning harbiy-dengiz flotiga Egey dengizida suzish taqiklandi. Yunon-forslar urushi yunonlarning strategik boshqaruv ustunligini namoyon etdi.

Yunonlarning harbiy san'ati Peloponnes urushlar davrida o'z rivojini topdi. Pelopones urushlari (m.a.431-404 yy.) yunonlar shaxar-davlatlari o'rtasidagi urush bo'lib, uning asosiy ishtiroqchilari Afina va Sparta edi. Urush jarayonda qo'shinlarni tashkil etish tizimi o'zgardi. Militsion tizimi susayib, o'rniga yollangan armiya vujudga keldi. Asosiy sabablar: qullarning olib borgan qarshilik xarakati, o'z mustamlakalarni himoya qilish zarurati, erkin dexqonlarning kashshoqlashib, qullarga aylanishi. Armiya tarkibida ham o'zgarishlar ro'y berdi. Og'ir qurollangan va engil piyodalar bilan birga o'rta piyodalar- peltastlar (pelte- qalqon) paydo bo'ldi. Ular turli vazifalarni bajarish mumkin edi, jangni ham tekisligida, ham tog'larda olib borishga qodir edi. Ammo jangovar tartibda asosiy rolni baribir falanga uynagan. Shaxarlarni qamal qilishda yangi vositalar- toshotar (katapulta, ballista)

mashinalar(palahmonlar), taran (devorlarni bo‘zib yorish uskunalar)lar paydo bo‘ldi.

Urush paytida taktika ham rivoj topdi, masalan, Fiva shaxrining strategiyasi (qo‘mondoni) Epaminond tomondan yangi jang olib borish usuli yaratildi- front buyi qo‘shinlarni notekis joylashib, hujumning asosiy yo‘nalishda kuchlarning ustunligiga erishish. Peloponnes urushida Leuktra shaxri yonidagi jangda Epaminond 7.5 ming qo‘shin bilan Spartaning 11 mingli qo‘shinni engib oldi. Epaminond yaratgan taktika usuli xozirgi davrgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Peloponnes urushida Afina engib, Sparta g‘alaba qozondi.

Epaminond g‘oyasi Aleksandr Makedonskiy tomondan qullanib, katta g‘alabalarga sabab bo‘ldi. A.Makedonskiy (m.a.356-323yy) Makedoniya podshosi bo‘lib, tarixda mashhur davlat arbobi, buyuk sarkarda sifatida chuqur iz qoldirdi. M.a IVA. kelib Makedoniyada doimiy muntazam armiya tashkil etildi. U piyoda va kavaleriya qo‘shinlardan iborat edi. Kavaleriya qo‘shinlarning mustaqil turi sifatida aynan Makedoniyada tashkil topdi. Jang paytida u asosiy zarba berib, g‘alabaning asosiy omilga aylandi. Makedoniyaning armiyasi quyidagi strukturaga ega edi-piyodalar(og‘ir, o‘rta va engil), kavaleriya (og‘ir qurollangan- katafraktariya, engil), nayzachilar. Jangovar tartibning asosini og‘ir qurollangan piyodachilar edi . Askarlar 2-6 m. nayza (sarissa), qilich va katta to‘rt bo‘rchak qalqon bilan qurollangan edi. Engil piyoda askarlari esa o‘q-yoy, tosh otadigan asbob(prasha) va kalta nayza qurollangan edi.

Katafraktariya (og‘ir kavaleriya) sarissa va qilichlar bilan, engil kavaleriya- o‘q-yoy, kalta nayza va qilichlar bilan qurollangan edi. Ammo armiyaning asosi- makedon falangasi tashkil etgan. U 16384 kishidan iborat edi, 16 saf va 16 kolonnaga bo‘lingan edi, har bir safda 1024 kishi edi, unint fronti 1 km. teng edi. Falanga juda katta zarba kuchiga ega edi, ammo unda xech qanaqa zaxira va madad yo‘q edi. Falanga o‘ng qanotda asosiy kuchni yig‘ib hujum qilgan. Asosiy zarbani og‘ir kavaleriya va piyodalar ko‘rsatib, dushmanning jangovar tartibni yorib utgandan so‘ng, o‘rta piyodachilar xujumga o‘tar edi. Chekinib, qochayotgan dushmanni engil kavaleriya quvib borar edi. Shundan ma’lumki, jang paytida qurolli kuchlarning har bir turi o‘z vazifasini bajargan. A.Makedonskiy Axmoniylar bilan urushda o‘z sarkarda

iste'dodni namoyon qildi. M.a. 334-329 yy. A.Makedonskiy forslarga qarshi urushni boshlab, ularni mag'lubiyatga uchratib, ular podsholigini o'ziga bo'ysundirdi. Bu urushda bir necha katta jang bo'lib, ularda A.Makedonskiyning harbiy mahorati va iste'dodi namoyon bo'ldi: Granik daryo yonidagi jangda(m.a. 334y), Issa yonidagi jangda(m.a. 333y.), Gavgamel yonidagi jangda (m.a. 331 y.). Bu janglarning xususiyati shuki, forslar son jixatdan ustun turib, mag'lubiyatga uchrashdi. Masalan, m.a. 331 y Gavgamela yonidagi jangda A.Makedonskiy 47 ming askar ,forslar esa-92 ming, 100 jang aravalar va 15 jangovar filga ega edi. Jang otliq qo'shinlar to'qnashuvi bilan boshlandi. Forslarning jang aravalari shiddatli hujumga o'tishdi. Makedoniya kamonchilar jang aravalardagi askarlarni ko'p qismini kamondan otib, o'ldirishdi. Makedoniya jangchilari ikki tomonga surilib, otlarni o'z saflari orasidan o'tqazib yubordilar. Aleksandr otliq askarlar bilan forslar qo'shinining o'rtasiga yorib kirdi, bu erda shoh Doroning o'zi turgan edi. Ayni vaqtda falanga xujumga o'tdi. Vahimaga tushgan Doro III qochdi, ammo oradan ko'p vaqt o'tmay o'z mulozimlari tomondan o'ldirildi.

A. Makedonskiy olib borgan yurishlarda yunonlarning harbiy san'ati rivoj topdi: Armiyaning markazida u falangani quyib, muayyan qanotda (flang) ustun kuchlarni yig'ar edi(u asosan kavaleriya va o'rta piyodadan iborat edi). Frontdan hujum boshlab, u dushmanni bog'lab, asosiy zarbani flangdan berar edi va dushman qo'shinlarni orqasiga yorib o'tib, uni chekinishga majbur qilar edi. Chekinib qochgan dushmanni quvib yakson qilar edi.

Antik davrda xarbiy san'atning rivojlanishini biz Qadimgi Rimda ko'zatishimiz mumkin. M.a. 753 y. tashkil topgan Rim m.a IV asrga kelib katta va buyuk davlatga aylandi. Rim jamiyati tabaqalanish natijasida 5 toifaga bo'lingan edi. Eng boy fuqarolar armiyaga otliklarni va og'ir qurollangan piyodalarni (legioner) ta'minlab berishsa, kambag'allar esa engil piyodalarni tashkil qilar edi. Barcha fuqarolar 17 yoshdan 45 yoshgacha armiyada hizmat qilish shart edi. M.a.VI a. Rim respublikaga aylandi.Davlatni xalq tomondan bir yilga saylangan ikkita konsul boshqarishgan. Rim armiyasi 4 legiondan iborat bo'lib, ikkita konsul armiyani tashkil etga. Legion 4500 jangchidan iborat edi, shulardan 4200 piyodalar va 300 suvoriylar. Eng yosh va kambag'al

askarlar engil piyoda (velitlar) qismlarni tashkil etgan .Ular 1200 kishidan iborat edi, kalta qilich, kalta nayzalar, o‘q-yor va prasha (tosh otadigan qurol) bilan qurollangandi. Keyingi qismlar 1200 o‘rta yosh va xol askarlardan iborat edi-gastatlar(nayzachilar). Ular kalta shamshir,og‘ir va engil nayzalar (pilum) va tanani himoya qilish vositalarga ega edi.

Uchinchi qism-pritsiplar, 1200 kishidan iborat bo‘lib gastatlarga uxshab qurollangandi. To‘rtinchi qism eng tajribali va yoshi katta askarlaridan iborat edi- triariyalar.Ular 600 kishili edi. Tashkil etish jixatdan Rim armiyasi militsiya edi.Urush vaqtida yig‘ilib, u tugashi bilan tarqalardi.

Legion senturiyalarga bo‘lingan. Xar bir senturiya 60 kishidan iborat bo‘lgan. M.a. IV a kelib Rim katta davlatga aylandi, u butun Appenin yarim orolni qamrab oldi. Bu davrda armiyada harbiy isloxot o‘tqazildi. Falangadan voz kechib, rimlyaniklar legionlarni manipulga (manus-odamning qo‘li shakldagi boshliqning belgi) bo‘lishgan. Manipula 120 kishidan iborat edi. Ular uchta saf tortishgan, birinchi saf-gastatlar, ikkinchi saf- pritsiplar, uchinchi saf - triaiyalar. Manipul tizimiga o‘tishi armiya xarakatini yaxshiladi, uni boshqarish ham engillashdi. Endi legionning jangovar tartibi uchta chiziqdan iborat edi. Xar bir chiziq 10 manipuldan iborat edi. Birinchi chiziqdagi manipular dushmanning safini bo‘zishga xarakat qilgan, ikkinchi chiziqdagi manipula birinchiga yordam ko‘rsatardi. Uchinchi chiziqdagi manipula zahira rolini bajarib, dushmanni tor-mor qilish vazifasini bajarar edi.

O‘z qudratini oshirmoqchi bo‘lgan Rim Shimoliy Afrikada joylashgan Karfagen davlatning qarshilikka uchradi. Karfagen boy davlat bo‘lib, shu tufayli harbiy flot va yollanma askarlardan tuzilgan kuchli armiyasiga ega edi. Rim ham , Karfagen ham O‘rta yer dengizda o‘z hukmronligini o‘rnatmoqchi edi. Rimliklar karfagenliklarni punlar deb atashgan. Shuning uchun ular o‘rtasidagi urush Pun urushi deb nom olgan. Birinchi Pun urushi m.a. 265-242 yy. bo‘lib o‘tdi va rimliklarning g‘alabasi bilan tugadi. Ular Sitsiliya, Korsikani egallashgan bo‘lsa, Karfagen Ispaniyani bosib oldi. Biroq Karfagenning kuchlari yana ko‘p edi. M.a. 218-201yy. ikkinchi Pun urushi bo‘lib o‘tdi. Bu urushda Karfagen qo‘shinlarni mashxur sarkarda Gannibal boshqardi. Rimliklar kutilmagan bir paytda Gannibal o‘z qo‘shinini Ispaniyadan, Alp

tog'laridan oshib, Italiyaga kirib bordi. Karfagenliklar bir qancha qonli janglarda Rim legionlarni tor-mor qilishdi. Gannibalning sarkarda qobiliyati va misli ko'rilmagan mardligiga hatto uning dushmanlari tan olishdi. Bu ayniqsa Kanna qishlog'i yonidagi jang (m.a. 216 y) yaqqol misol bo'ladi. Rimliklarda 16 legion bo'lgan, ya'ni 63 ming piyoda askar va 6 ming suvoriylar. Gannibalda esa 40 ming piyoda va 10 ming suvoriylar.

Rim armiyani boshqargan konsullar dushmanni o'zlarining ko'p sonli piyoda askarlarning hujumi bilan tor-mor qilishmoqchi bo'ldilar. Ular legionlarni katta to'rtburchak shaklida falangaga uxshatib saf tortishdi. Otliq askarlar qanotlarni himoya qilib turdi. Gannibal rimliklarning niyatini tushundi va ularni o'rab olishdan iborat rejani qabul qildi. U o'z qo'shinining dushman hujumiga bardosh bera olmasligini yahshi bilgan. Gannibal piyoda askarlarni botiq tomoni dushmanga qaragan yarim oy shaklida safga tizdi, qanotlarga esa saralangan piyoda askarlar va suvoriylarni qo'ydi. Rimliklar hujumga o'tib karfagenliklarning markazini yorib o'tishdi. Ammo shu bilan ular o'z qanotlarni ochib qo'yishdi. Gannibalning qushinlari darg'ol ularga hujum qilib, dushmanning orqa tomonga chiqib, rimliklarni qo'rshovga olishdi. Jang 12 soat davom etib rimliklarning mag'lubiyati bilan tugadi. Ular 48 ming kishini yo'qotishdi, 10 ming kishi asirga tushdi. Gannibal esa 6 ming kishini yo'qotdi. Ammo Rimning iqtisodiy va harbiy qudrati singmagandi. Butun kuchlarni safarbar etib rimliklar yangi qushinni to'plashdi. Ssipion qo'mondonligida rim qo'shinlari Afrikaga tushirildi. Gannibal o'z Vatanni himoyalash uchun Italiyadan ketishga majbur bo'ldi.

M.a. 202 y. Zama shaxri yonida hal qiluvchi jang bo'ldi. Rimliklar ustun turib Gannibal qo'shinlarni tor-mor etishdi. M.a. 201 y. urush tugadi, Karfagen Rimga ko'p miqdorda pul to'lashga, va qo'l ostidagi erlarning deyarli hammasidan voz kechishga majbur bo'ldi. M.a. 149-146 yy uchinchi Puni urushi bo'lib o'tdi. Rimliklar Karfagenni qamal qilib, m.a. 146 y. shaxarni qo'lga kiritishdi.

M.a. II asrda konsul Gay Mariy Rimning qudratini oshirish uchun harbiy islohotni o'tqazdi. Qurolli kuchlar endi militsiya tizimidan voz kechib yollangan armiyaga aylandi. Legionning strukturasi o'zgardi: xar uchta manipula bir kogortani tashkil etdi. Kogorta 600 kishidan iborat

bo'lib, asosiy harbiy bo'linmaga aylandi. 10 kogorta bitta legionni tashkil etgan. Kogorta bir, keyinchalik 3 qator bo'lib saf tortgan. Legion qanotlarida engil qurollangan piyoda askarlar va otliq qo'shin turgan, bu Rim qo'shinining manyovr qilish imkoniyatlarini oshirgan.

Rim harbiy qudratini va san'atning rivojlanishi Gay Yuliy Sezar (m.a. 100-44 yy.) ismi bilan bog'liq, harbiy tarixda u chuqur iz qoldilgan. U yangi jangovar safni yaratdi. Legionning jangovar tartib uchta chiziqdan iborat edi. Birinchi chiziqda-4 kogorta, ikkinchi va uchinchi 3 kogorta turgan. Birinchi chiziqdagi kogortalar jang boshlab, dushmanning safini yorib o'tish kerak edi. Ikkinchi safdagi kogortalar ularga yordam ko'rsatgan. Uchinchi safdagi qo'shinlar umumiy zahirani tashkil etib, dushman zaiflashgan paytda uning qanotlarga hujum qilib, tor-mor qilish yoki uning zarbani qaytarish kerak edi. Yuliy Sezar qo'shirlarni boshqarish uchun, ularning tayyorgalikni yaxshilash uchun birinchi bo'lib shtab tuzdi, jang paytida raqib qushin qanoti va old tomoniga qarshi hal qiluvchi zarba berish uchun kogortaning 3-qatoridan foydalandi, bu bilan zaxira barpo etilishini boshlab bergan.

Doimiy urushlar natijasida Rim buyuk imperiyaga aylandi. Ammo bu urushlar , qullarning quzg'olonlari, kuchmanchi qabilalarning bostirib kirishlari Rim sekin-asta zaiflashiga olib keldi. Milodiy 395 y. imperator Feodosiy davrida davlat ikki qismiga bo'linib ketdi, 476 y esa varvarlarning hujumi natijasida G'arb Rim imperiyasi yo'q bo'ldi. Sharq Rim imperiyasi (Vizantiya) XV asrgacha mavjud edi.

Qadimgi dunyo urushlar tarixi O'rta Osiyo xalqlar harbiy tarixsiz to'la bo'lmaydi. Turkiy qavmlar jaxondaga eng qadimgi xalqlaridan sanalib, ular yashagan xudud faqat hozirgi O'rta Osiyoni kamrab olmasdan, balki Sharqda Tinch okeani, G'arbda Dnepr daryoga qadar bo'lgan ulkan hududini qamrab olgan. Turon zaminida kashf qilingan jang qilish yangi usullari barcha turkiy xalqlar tomonidan tezda o'zlashtirilib, yangi bosqichga ko'tarildi. Mil.av. 3-ming. yillik oxiri-2-ming. yillikda Sharqdagi ko'chmanchi xalqlarda otliq qo'shin paydo bo'lgan. Dastlab undan aloqa, razvedka va qo'riqlashishlarida foydalanilgan. Ammo keyin u mustaqil qurolli kuchlar turiga aylandi. U jang aravalarni siqib chiqarib qo'shinining eng zarbdor va xarakatchan kuchiga aylandi. Turkiy xalqdar birinchi bo'lib suvoriylar safni joriy

etganlar (xar bir otliq askar orasidagi masofa 20 m., jangovar qatorlar soni 10ta) va bu bilan dushman qo'shin ustidan yaqqol ustunlikka erishganlar. Milodddan oldin birinchi ming yillikda bu o'lkada daslabki davlatchilik shakllana boshlandi-Qadimgi Baqtriya podsholigi, Katta Xorazm davlati. Maxalliy aholi kuchmanchi va o'troq qabilalardan iborat edi- saklar, massagetlar, baktriyaliklar, so'g'dliklar, xorazmliklar. Davlatlarni rivojlanishi qurolli kuchlarni ham kuchayishini talab qilgan. Harbiy san'at m.a.VI asrga kelib yuqori darajada edi. Qurollarni ishlab chiqishda bronza va temir ishlatilgan.

"Avesto»ga ko'ra maxalliy jamiyat uchta tabaqadan iborat edi-qoxinlar, harbiylar va dexqonlar-chorvadorlardan. Askarlar asosan sovuq quroll bilan qurollangandi- uzun va kalta qilichlar(akinak), jangovar bolta (sagaris), nayzalar. Uzoqdan jang qilish uchun o'q-yordan foydalanishgan. Askarlar sovutlar bilan ximoyalangandi. Otlarga ham sovutlar kirgizishardi. Qo'shin asosan otliklardan iborat edi. Kamondan o'q otadigan sak va massagetlar nishonga aniq urishlari bilan shuhrat qozonishgan edilar. Urushda faqat erkaklar emas, balki ayollar ham faol ishtiroq etishgan. Jang qilganda sak ,massagetlar turli hiylalarni ishlatishgan. Jangni otliklar hujumi bilan boshlab, keyin yolg'ondan chekinishini boshlashar edi. Dushmanning jangovar saf bo'zilgandan so'ng yangi hujum qilib, ularni qo'rshovga olib, tor-mor qilishardi.

Umuman olganda, O'rta Osiyo qabilalar strategiyasi son jixatdan ortiq qo'shin bilan dushmanni tor-mor etishga qaratilgan. Mahalliy xalqlar (saklar, massagetlar) kuchli dushman hujum qilganda ko'pincha mamlakat ichkarisi tomonatayin chekinganlar. Ular yo'llarida uchragan joylarni vayron qilib, kichik otliq qismlar bilan dushmanga betuxtov hamla qilib, uni holdan toydirganlar, so'ngra qarshi hujumga o'tganlar. Misol sifatida axmoniylar bilan olib borgan urushni keltirish mumkin. M.530 y. forslar podshosi Kir II O'rta Osiyoga bostirib, Tumaris boshchiligidagi massagetlar bilan urush qilib, xaloq bo'ladi. M.a. 519 y. boshqa axmoniy Doroi bilan urushib strategik mudofaa (chekinish) va strategik hujum (qarshi hujumga o'tish)ni qo'llashgan.

A. Makedonskiy Axmoniylarning buyuk saltanatni bosgan, ammo maxalliy xalqni zo'ravonlik yo'li bilan o'ziga bo'ysindiromagan (Spitamen boshchiligidagi kurash m.a. 529-527 yy.). Keyingi davrda

xam O'rta Osiyoda yangi davlatlar tashkil topib (Davan, Kang', Turk xoqonligi), harbiy san'ati rivojlandi.

Nazorat savollari:

1. Qadimgi Yunonistonda og'ir qurollangan askarlar nima deb atalgan.
2. Qadimgi Rimdagi harbiy birliklarni ayting.
3. Qadimgi Rim harbiy sanatida islohot o'tkazgan Konsul nomini ayting.

Tayanch iboralar:

Legion, Yuliy Sezar, Manyovr, Kogorta, Rim buyuk imperiya, Puni urushi, Karfagen, A.Makedonskiyning harbiy mahorati.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь.
2. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
4. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.
5. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
6. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.
7. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.
8. Иванин М. Икки буюқ саркарда. Тошкент, 1999 й.
9. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.

10. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.
11. Дельбрюк.Г. История военного искусства, М., 1983 г.
12. Военное дело древнего и средневекового населения Северной и Центральной Азии,(Сб. науч.трудов.) Новосибирск, 1990 г.
13. Абулғозий. СҲажараи турк, Т, 1992 й.
14. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.
15. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Т-11, 2005 й.
16. Крушкел. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошкент, 1975 й.
17. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.
18. Юровской. Э.Э. Новая история стран Европы и Америки, 1-2 период. – Москва: Высшая школа, 1998.
19. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.
20. Языков.Э.Ф. История новейшего времени стран Европы и Америки. М, 2002 г.
21. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256б.
22. [http:// history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
23. [http:// www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
24. [http:// English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)
25. [http:// www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
26. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.hrml>
27. [http:// www.lib.byu.edu/-rdh/www//](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www//)
28. [http:// classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
29. [http:// www.washlaw.edu/forint//](http://www.washlaw.edu/forint//)
30. [http:// www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
31. [http:// www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

MAVZU: TURK VA MO‘G‘IL XALQLARINING HARBIY SAN‘ATI

REJA:

1. Turk xoqonligi davrida harbiy ish.
2. Xoqonlikda qo‘shin tuzush masalasi.
3. Jangovor qurol yarog‘lar va harbiylarning kiyimlari
4. Mo‘g‘illarning harbiy sohasini o‘ziga hos xususiyatlari.

Maqsad: *Talabalarga turk va mo‘g‘ul xalqlarining harbiy san‘ati, qo‘shin tuzush masalasi, jangovor qurol yarog‘lar va harbiylarning kiyimlari haqida ma’lumotlar berishdan iborat.*

VI asr o‘rtalariga kelib, Markaziy Osiyoda Ashina qabilasi xukmdori Bumin yabg‘uning ta’siri kuchayib, o‘zini “**el-xoqon**” deb e’lon qilishi bilan yangi davlat Turk xoqonligi tashkil topadi. Turk xoqonligining chegaralari sharqda Koreya bo‘g‘ozidan g‘arbda to Shimoliy Qora dengiz bo‘ylarigacha, shimoliy Ural tog‘larigacha, Enisey va Bakalbo‘yidan janubga tomon Afg‘oniston va shimoliy Hindistongacha bo‘lgan xududlarni egallashga muvaffaq bo‘ladi.

Turk xoqonligi tez orada dunyoning yirik imperiyalaridan biriga aylanishga muvaffaq bo‘ladi. Albatta bunday yirik davlatga aylanish uchun xoqonlikning harbiy qo‘shini ancha ilg‘orlab ketganligidadir.

Turkshunos olim L.N. Gumilev takidlaganidek, “Turkutlar (qadimgi turklar) ning erishgan g‘alabalari tufayli dunyoning yarmiga egalik qilishlari tasodif emas edi. Ishonch bilan aytish mumkinki, ular umumko‘chmanchilik darajasidan ancha yuqori bo‘lgan qo‘shin va boshqaruv tizimini yaratdilar hamda shunga yarasha g‘alabalarga sazovor bo‘lishdi”.

O‘z davrida turklar temir qazib olishni yaxshi bilgan. Ular temirdan qurol-yarog‘ ishlab chiqarishda xususan mustahkam sovutlar, harbiy anjomlar, turli xil harbiy qurol yarog‘lar yasashgan. Buning natijasida harbiy taktikalarning rivojlanganligini, shuning uchun katta janglarda ham ko‘plab g‘alabalarga erishganliklarini bilish mumkin.

Turk xoqonligi o'zbek dalavlatchiligi tarixining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, uning tarixiga bag'ishlangan ko'plab tarixiy voqealar, jang-jadallar haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlarini o'rganish imkonini beradi.

Qo'shin tuzulishi.

Bu davrga oid yozma manbalardagi ma'lumotlar va qadimgi jangchilar tasvirlangan qoyatosh rasmlaridan ma'lum bo'lishicha, qo'shin ikki turda qurollanganligini bilish mumkin.

1. Og'ir qurollangan sovutli (zirhli) otliqlar;

2. Engil qurollangan jangchilar.

Engil qurollangan qo'shin asasan otliq kamondozlardan iborat bo'lgan. Bunday qo'shin tarqoq jang qilish taktikasini qo'llagan. Dushmanga ma'lum masofada turib birdaniga o'q yog'dirishgan. Yozma manbalarda aytilishicha turklar otda turub kamondan o'q uzishlarini alohida ta'kidlab o'tishgan. Arab, fors, yunon va boshqa tillardagi manbalarda ham turklarning jangovor qo'shini odatda otliqlardan iborat bo'lganligini takidlab o'tishadi.

Hoqonlikning g'arbiy qanotida qo'shin ikkita qanotdan iborat **“O'n o'q”** tizimidan tashkil topgan. O'n o'q qabilalari ittifoqi har biri 5 ta qabiladan iborat sharqiy va g'arbiy ittifoqqa bo'lingan. Sharqiy qism 5 ta qabiladan iborat **Dulu** ittifoqi deb yuritilgan va ularga beshta **“cho'r”** boshchilik qilgan. G'arbiy qism esa **Nushibi** qabillar ittifoqi bo'lib, ularni beshta **“erkin”** boshqargan. Sharqiy yoki markaziy xoqonlikda esa qo'shin sharqiy qism **to'las** va g'arbiy qism – **tardush** qanotlardan iborat bo'lgan. Bitiktoshlarda uchraydigan **“O'n o'q”** atamasi har biri 10 mingdan jangchi etkazib beruvchi 10 ta turk urug'u mavjudligini anglatadi. Arab manbalarida yozilishicha xoqon xuzurida 10 nafar qo'lida bayroq (tug') ko'targan otliq jangchi, ularning har biri 10 mingdan jangchini tug' bayrog'i ostida turishi haqidagi ma'lumotlar berilgan. Xoqonlikni asosiy qo'shini turk urug'laridan iborat bo'lgan. Turk xoqonligida barcha erkaklar harbiy xizmatni bajarishgan. Xitoy ma'lumotlariga qaraganda turk o'g'loni uchun jangda xalok bo'lish sharaf bo'lgan. Kasallik tufayli vafot etish esa uyat hisoblangan.

Xoqonning shaxsiy qo'riqchilari xitoy yilnomalarida "fulu" yani bo'ri deb atalagan. Turklarning bayrog'iga ham bo'rining boshi kiydirilib, bayroq xoqonning o'rda qarorgohi tepasiga ilib qo'yishgan. Bundan o'zlarini kelib chiqishlarini unutmaganliklarini bildirib turadi. Bundan tashqari xoqonlik qo'shini tarkibida harbiy jangchilardan tashqari ziroatkor shaxar aholisidan tuzulgan yordamchi piyoda va otliq otryadlar ham mavjud bo'lgan. G'arbiy xoqonlik asosan otliq jangchilardan tashkil topgan bo'lsada, janglarda tuyalardan ham foydalanishgan. Xitoy rohibi Syuan Szan (629-645) turk xoqoni xuzurida bo'lgan paytda qo'shinlarning bir qismi otda, yana bir qismi tuyada ekanligiga guvoh bo'lgan.

Shuningdek turkshunos Gumilevning bergan ma'lumotlarida turklar va sosoniylar o'rtasida bo'lib o'tgan Hirot yaqinidagi jangda xoqonlik qo'shini tarkibida jangovor fillar otryadi bo'lganligini aytib o'tadi.

Xoqonlik qo'shini soni to'g'risida turlicha ma'lumotlar keltirib o'tiladi. Xitoy manbalarida 500, 2000, 10000, 100000, 1 000000 gacha bo'lganligi xaqida ta'kidlab o'tishadi.

N.Ya. Bichurin ma'lumotlariga qaraganda hoqonlikning g'arbiy qanoti 100 ming jangchi bo'lganligi haqida takidlaydi. Jumladan Istemi boshchiligida g'arbiy o'lkalarga, eftalilarga qarshi yuborilgan qo'shinning soni 100 ming dan kam bo'lmaganligi haqida ma'lumot berib o'tadi.

Turk xoqonligida qo'shinini o'nlik va ikkilik tartibida bo'lishga rioya qilingan. Aniqrog'i birinchi otryad 10, 100, 10000, va 100000 jangchidan iborat bo'lib ular o'z navbatida ikkita qanotga bo'lingan hamda 5, 50, va 50000 kishidan tashkil topgan. Bunday otryadlardan iborat butun armiya **to'las** va **tardush** yoki **dulu** va **nushubi** deb nomlanuvchi ikki qanotga ajratilgan. Bu bo'linmalar boshida **jabg'u**, kichikroq otryadlar tepasida **tegin** eltabar turgan.

Jangovor qurol yarog'lar va harbiylarning kiyim kechaklari.

Xitoy yilnomalaridan birida shunday ma'lumot berib o'tadi. "ularning qurollari shoxsimon yoy va xushtaksimon ovoz chiqaruvchi o'q, sovut, nayza, qilich va dudamali qilich (uzun og'ir qilich) lardan

iborat ekanligi, turklarni otda turib jang qilishlari xaqida” takidlab o‘tadi. Ularning qurollari po‘latdan ekanligi aytib o‘tiladi. Xususan Oltoy o‘lkasidagi Baliq Sook degan joydagi mozar – qo‘rg‘on qazilganda qadimgi turk jangchisiga xos jang qurollari kiyim kechaklari bilan ko‘milganligi aniqlangan. Bu topilmaning ahamiyatli tomoni shundaki, topilgan qurol yarog‘lar mustaxkam temir va misdan yasalganligi hamda otliq jangchiga bu qurollar unchalik og‘ir tug‘dirmaydigan darajada engil qilib ishlanganligi aytib o‘tiladi.

Xoqonlik jangchilarining mahoratini arab mualliflari shunday tariflashadi: **Turk jangchisi joni boricha quvlagan holda, orqaga va oldinga, o‘ng va chapga, yuqoriga va pastga qarab ota oladi. Harijit (arab o‘qchisi) kamon ipiga bitta o‘qni joylaguncha, u (turk) 10 ta o‘qni otadi. Xarijit tekis joydan otini choptirgunicha, u o‘z otida tog‘ yoki vodiya tushub, katta tezlik bilan choptiradi. Turkning to‘rtta ko‘zi bor – ikkitasi yuzida, ikkitasi gardanida.**

Bundan tashqari kamon o‘qlari haqida gapiriladigan bo‘lsa, o‘qlar sadoqqa solingan. Sadoqlar asosan uchi qismi nisbatan kichikroq tag qismi esa kattaroq ishlangan. Buning sababi o‘qning patlari yumshab ketmaslik uchun mo‘jallangan. O‘qlar xar xil turda bo‘lgan. O‘qlar uch parakli, ikki va to‘rt parakli bo‘lgan. Ikki parakli o‘qlar asosan engil qurollangan dushmani otishga mo‘ljallangan. O‘qlar asosan temirdan yasalgan, temir kam bo‘lgan joylardagina suyakdan yasalgan o‘qlarni ko‘rish mumkin. Arxeologik topilmalar orasida o‘qlar turli rangda bo‘yalganligini ham bilish mumkin. O‘qlarning bo‘yalishini sabababi shundaki o‘qlarni ajratib olish oson bo‘lishni nazarda tutilgan.

Qirg‘izistonning Ketmen-to‘ba vodiysidagi tosh xaykal yonidan topilgan sovut kiyimining qoldig‘i jangchi tanasini butunlay qoplavchi mudofa kiyimi bo‘lganligi xaqida aytib o‘tiladi. Bundan bilish mumkinki turk jangchilari mudofa tizimida ham ancha o‘zgarishlar qilishgan.

Jang paytida otish uchun turli xil kamonlardan foydalanishgan. Engil qurollangan dushmanga qarshi jangda uch parrakli yoki yassi temir yoxud suyakdan yasaogan uchli o‘qlardan mohirona foydalanishgan. YAqin masofada va qo‘l jangida esa jangchilar

dushmanga nayza, uzun og'ir qilich, shamshir va hanjarlar bilan xujum qilishgan.

Manbalarda ta'riflanishicha, jangchi va ovchilarning kiyim-kechaklari juda qulay bo'lgan: kiyim qismlari ayniqsa, kamarlarning ramziy ifodasi (simvolka) boshqa xalqlar uchun nihoyatda jozibador ko'ringan. Ular sochlarini, o'rib orqaga tashlab yurishgan. Bellariga naqshli kamarlar taqishgan.

Qo'shin boshqaruvi hamda harbiy unvonlar.

Xoqon hamma narsadan avval "mangu el" (ya'ni imperiya) xotirjamligi, farovonligining kafolatini o'ylagan. "Mangu el" so'zining lug'aviy ma'nosi mangu abadiy davlat ma'nosida ifodalangan. Xoqon bitiktoshlar tili bilan aytganda "turk eli" uchun turk xalqi uchun tunlari uxlamasdan kunduzlari (ishsiz) o'tirmasligi shart bo'lgan. Bir so'z bilan aytganda xoqonning harbiy va diplomatik xuquqlari mutloq cheksiz edi.

Turk xoqonligining g'arbiy qismida qo'shinning ikkala qanotida ham xoqonlik oila a'zolari – yabg'u, shad, tegin unvonli shaxzodalar turgan. Xoqonlikning mazkur vakillari tobe qabilalarni boshqarish, soliqlar yig'ishni bilan birgalikda, ularni harbiy ishlarga jalb etish, janglarga olib borish va harbiy xarakatlarda ham boshchilik qilishgan.

Xoqonlikda shaxzoda – teginlar o'z qo'shiniga ega bo'lib, biror o'lkani boshqarishga ma'sul qilingan taqdirda **Shad** unvonini olgan. Qo'shin boshqaruvini turli darajadagi harbiy amaldorlar olib borishgan. Ular orasida eng yuqorilari – jabg'u (yabg'u), tegin, eltabar, bo'lib mazkur barcha mansablar otadan bolaga meros bo'lib o'tgan.

Xitoy manbalari va turkiy bitiktoshlarda xoqonlikning boshqaruv tizimida qariyb 40 ga yaqin unvonlar bo'lgan.

Turk xoqonligi boshqaruv tizimida xoqondan so'ng birinchi o'rinda yabg'u turgan. Dastlabki davrlarda yabg'u xoqonning vorisi hisoblanib, odatda xoqonlarning ukalari shu unvonga ega bo'lgan.

Undan keyin esa tegin, ya'ni xoqonning o'g'illari – shaxzodalarga beriladigan unvon hisoblangan. Ularga ma'lum xududlar berilib o'zlarining qo'shinlari ham bo'lgan. Xokimyat akadan ukaga emas, otadan o'g'ilga o'tadigan bo'lgach, teginlar taxt vorisi hisoblanib,

yabg'ularning mavqeyiga nisbatan ularning mavqeyi yuqoriroq bo'lishiga olib keldi.

Yabg'u, shad, tegin, tudun, tutuq, cho'r, tarhon, erkin, inanchu, buyruq, kabi o'nlab unvonlar bo'lgan. Xoqonlikda mavjud unvonlar tizimida **suboshi, chabish, bingboshi, beshyuzboshi, yuzboshi, o'nboshi,** kabi unvonlar uchraydi.

Suboshi lug'aviy ma'nosi qadimgi turkcha su "qo'shin" va boshi "bosh rahbar" ya'ni qo'shin boshlig'i ma'nosida ishlatilgan.

Chabish esa lug'aviy ma'nosi "lashkar bolliqlaridan biri" ma'nosida ishlatilgan. Maxmud Qoshg'ariy **chabish** so'zini jangda saflarni tuzatib turuvchi odam shaklida tariflaydi.

Jang taktikasi.

Bu davrda turk xoqonligining jangchilari o'ziga yarasha kuch qudratga ega bo'lgan. Xatto ularni dushman o'rab turgan bo'lsa ham ular dushman bilan oxirigacha kurashgan. Hoqonlikda mavjud ananalarga ko'ra, xukumdor qo'shin jangovorligini doimo oshirib turgan. Ular bo'sh vaqtlarda kamondan o'q uzush, qilichbozlik mashqlarini amalga oshirib turushgan. Ular ovga ham chiqib turishgan. Turklar jangda xujumni avval kamondan ma'lum masofada turib o'q uzush bilan boshlab berishgan. Bu vazifani asosan o'q yoy bilan qurollangan engtl otliq otryadlari boshlab bergan. Jangni hal qiluvchi pallasida esa urushga og'ir qurolli otliq kirgan. Shu tariqa ular dushmanni yaqin masofada turib jang qilishga majbur qilgan. Bunday xujum albatta foyda berib, dushman bardosh berolmay, ko'p o'tmay chekingan. Zirxli otliqlar xujumda davom etib dushmanni batamom yakson qilish bilan jangni yakullashgan.

Mavrikiyning bergan ma'lumotlariga qaraganda Turk xoqonligi rimliklarga va forslarga o'xshab janggovor qo'shinni bir chiziq bo'ylab joylashtirmaydi...

Xoqonlikda xabarlashuv, ya'ni o'zaro aloqa bog'lash ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, xat-xabarlar yozimalar orqali amalga oshirgan.

Harbiy istehkom va qo'rg'onlar.

Mintaqada harbiy mudofa inshootlarini qurish ananasi ko'p asrlik tarixga ega. Xoqonlik voha davlatlarni boshqarish uchun ularning

xududida harbiy garnizonlar qurgan. Ana shunday garnizonlardan biri **Beshbaliq** shaxri edi. Yozma manbalarda keltirishicha, g'arbiy turk xukmdorlaridan biri xoqonlikka xiroj va soliq etkazib turgan Gaochanni qo'riqlash maqsadida Beshbaliqda garnizon qurdirgan.

Xoqonlik qo'shinlariga mo'ljallangan maxsus qarorgox shahar-qalalar mavjud bo'lgan. Ana shunday qarorgoh va garnizonlardan yana biri – **jabg'ukat** shaxri edi. Jabg'ukat Binkatdan shimol tomonga olib boradigan o'rta asr savdo yo'lida joylashgan ilk shaxarlardan biridir. Qadimda bu chiroyli shaxar Chochning harbiy lageri bo'lgan. Jabg'ukatning qachon va kim tomonidan barpo qilinganligi haqida turlicha farazlar bor.

Ma'lumki 555-yilda Eftalitlar va Turk xoqonligi orasidagi chegara Sirdaryo havzalari va Toshkent vohasi xisoblanib, manbalarga ko'ra, V asr 60-yillarida Istami Eftalilarga qarshi xududlardan dastlab Choch vohasini qo'lga kiritadi. Aynan shu voqealar bilan bog'liq holda Jabg'ukat dastlab harbiy maqsadlarda (qo'shin saqlash va qo'shinni jangga tayyorlash) uchun mo'ljallab qurilgan bo'lishi mumkin. Turklarning keyingi Eftalilarga qarshi janglarida Jabg'ukat xarbiy baza istehkom vazifasini o'tagan bo'lishi mumkin. Bu kabi harbiy istehkomlar nafaqat harbiy maqsadlarda, balki vaziyat talab qilganida ma'lum vaqt oliy xukmdorning yashab turishi uchun istexkom vazifasini bajargan. Turk xoqonligida harbiy yutuqlari mintaqadagi boshqa davlatlarning harbiy ish rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Vizantiyalik harbiy mutaxassis Mavrikiy o'zining **Strategikon** nomli asarida vizantiya qo'mondonlariga turklarning tajribasini qo'llash zarurligi qayd etilgan.

Chingizxon boshchiligidagi mo'g'il qo'shini 1194-yildan 1206-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida yapon dengizidan sariq dengizgacha bo'lgan hududlarni qo'lga kiritdi. Dastlab Xitoy qo'lga kiritilgan (1206, 1207 va 1209, 1215). 1218-yilda O'rta Osiyoga yurish boshlashdi. 1227-yilda Chingizxon va uning o'g'li Jo'ji vafot etishdi. 1235-yilda O'qtoy quriltay chaqirib, Koreya, Xitoy, Xindiston va Yevropani bosib olish uchun harbiy safarbarlik e'lon qildi. Harbiy harakatlar chog'ida ko'rsatgan jasorati uchun, harbiylarga yuz uydin iborat axoli punkitini taqdim etdi. Harbiy yurishlar natijasida bosib olingan hududlarni

Chingizxon urug'lariga taqsimlab, o'g'illariga bo'lib berdi. O'z navbatida ularning asosiy vazifasi belgilangan vaqtda belgilangan miqdordagi askarlar bilan yetib borishdan iborat bo'lgan. Ulus egasi ham shahzodalardan tayinlangan. Ulus ma'muriy jihatdan tuman, ming va yuzlikka bo'lingan.

Bunday bo'linish odatda to'planish mumkin bo'lgan askarlar soniga qarab ajratilgan. Bo'linma raxbarlari no'yan (xo'jayin) deb nomlangan. Xon yoki shahzoda no'yanga boshqarish uchun berilgan yorliqni, bekor qilishi yoki unga berilgan hududni tortib olishi mumkin bo'lgan. Bu o'rinda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, jo'yon o'z qo'lidagi erkin odamning mol-mulkiga egalik qila olmagan.

Mo'g'il armiyasida askarlar ta'minoti quyidagicha bo'lgan. Bir askarga ikki yoki to'rtta ot narxi berilgan. O'nboshiga o'n askarga beriladigan haq berilgan. Yuzboshiga olti o'nboshini haqi to'langan. Ayrim hollarda askarlar ja'zo tariqasida ta'minotdan maxrum qilingan. O'z navbatida ularni taqdirlash uchun sovg'a, maoshiga ustama unvon va mansab hamda ismlariga botir, bahodir so'zlari qo'shib ishlatilgan. Alohida o'rnak va namuna bo'lgan bo'linmalarga bayroq va tug' berilgan.

Oddiy otliq askarlarining qurollari asosan kamon, 18-20 dona kamon o'qi, 10 dona kamon o'qining uchi, bolta, arra, igna, arqon va teridan tayyorlangan mesh olib yurishgan. Maxsus qism askarlari dubilg'a, qilich, kamon va ikkitadan ot olib yurishib, har besh kishi bir o'tovga birlashganlar. Bundan tashqari mo'g'illar armiyasida piyodalar bo'linmasi mavjud bo'lib, ular harakat chog'ida otda yurishib jang vaqtida piyodaga aylanganlar. Buning sababi nishonga aniq uzish uchun bo'lgan. Piyodalarning qurollari asosan qilich, kamon va 30 dona kamon o'qi bo'lgan. Ulardan asosan qamal vaqtida keng foydalanishgan. Amir Temur keyinroq maxsus tog'larda foydalanadigan piyoda qo'shin tashkil etgan.

Mo'g'il armiyasida shuningdek zamonaviy qamal qurollari, «grek olovi»ni otuvchi moslamalarni tayyorlovchi va ishlatuvchi muxandislar ham mavjud bo'lgan. Har bir safda o'z o'rniga ega bo'lgan. O'z navbatida o'nlik, yuzlik va mingliklar ham jangovor safda aniq

belgilangan joylarda turishgan. Har bir bo'linma bir-biridan farq qiluvchi kiyim, bayroq va tug'ga ega bo'lgan. Ayrim bo'linmalar ot zoti va rangiga qarab ham ajratilgan. Jang oldidan o'tkaziladigan ko'rik qat'iy intizomga asoslangan.

Qo'shin dam olish uchun to'xtaganda, soqchilik bilan shug'ullanuvchi maxsus guruh qo'riqlovni amalga oshirgan va bu bir necha qatorni tashkil etib 3-5 kmgacha borgan.

Jang uchun odatda tekis va katta kengliklar tanlangan. Alohida e'tibor suv bor joyga qaratilgan. Jangovar safda asosiy e'tibor ikki qanot va ichki zahira kuchlariga qaratilgan. Aynan Amir Temur zahira kuchlariga jiddiy e'tibor bergan.

Jang ilg'or kuchlarni nayza va kamondan o'q uzishlari bilan boshlangan. So'ngra asosiy kuchlar jangga qo'shilgan. Dushman kuchlari zaiflashgach, zahira kuchlari jangga kiritilgan. «To'qqizinchi hujum g'alaba keltiradi»-deb ta'kidlagan Amir Temur. XIV asrning oxirlarida jang taqdirini hal qiluvchi asosiy kuch bu otliqlar hisoblangan. Sababi bu paytda hali o'q otar qurollardan keng foydalanilmagan. Shunday bo'lsada, qo'shin markazlashgan holda boshqarilgan. Askarlar qat'iy intizomga bo'ysunganlar. Harakat chog'ida ortda kelayatgan askar oldinda ketgan askar tushurib qoldirgan buyumni olishi shart bo'lgan aks holda jazolangan. Jang vaqtida og'ir ahvolda qolgan askarga yordam bermagan va o'z boshlig'ini himoya qilmagan askar o'lim jazosiga hukm qilingan. Shuningdek qo'shin tarkibida maxsus razvedka guruhlari faoliyat ko'rsatgan. Ular harbiy kengashga dushman qo'shini soni haqida batafsil malumot bergan. Shunga qarab jang taktikasi va strategiyasi ishlab chiqilgan. Agar g'arbiy Yevropa ritsarlari jang vaqtida asosan qo'l jangiga asoslangan bo'lishsa, mo'g'illar asosan kamondan o'q otishga usta bo'lganlar. Mo'g'illarning jangovar safi qanot va markaz bo'ylab 9 qatorni tashkil qilgan. Markaz qanotlariga, qaraganda zaif bo'lgan. Bu holat raqib qo'shinini qurshab olishiga qaratilgan. Jang vaqtida bo'linmalar tez harakat qila olgan. Agar jang vaqtida mo'g'illar qattiy qarshilikka uchrashsa darhol ortga qaytib yondan hujum qilishgan yoki yangi kuch bilan qaytadan jangga kirganlar. Mo'g'il otliqlarining tezkor harakati

talofatsiz chekinish imkoniyatini bergan. Shu boiz mo'g'illar jangda u qadar ko'p talofat ko'rmagan.

Mo'g'illarning ro'parama- ro'paro' to'qnashuvdan qochishlarining yana bir sababi, ularning jussasining kichikligi va otlarining yevropaliklarnikiga nisbatan past bo'yligida bo'lgan. Mabodo mo'g'il qo'shini qattiq qarshilikga duch kelsa, ortga chekinib otuvchi moslamalaridan o'q uzib, dushmanga katta talofat keltirib, xujumni qaytadan boshlaganlar. Mo'g'il qo'shini taminoti haqida so'z yuritar ekanmiz, bu o'rinda ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tishimiz kerak. Masalan arab qo'shinining ta'minot markazi vodiy va vohalarda joylashgan bo'lsa, mo'g'il qo'shini o'zi bilan chorvalarini olib yurgan. Askarlar o'q yoy va jang aslahalarini o'zlari tayyorlashgan. Ularning oziq-ovqati ayollar va bolalar zimmasida bo'lgan. Harbiy harakat chog'ida intizom va tartibga hamma birdek bo'ysungan. Boshqa xalqlardan mo'g'illarning harbiy taktikasi, dushmanga kamondan o'q otib tinkasini quritish bilan farqlangan. Arab xalifaligi inqirozga yuz tutgach, uning o'rniga bir necha davlatlar tashkil topdi. Bu yangi tashkil topgan davlatlarning o'zaro urushlari dastlabki vaqtda salbchilar uchun qo'l keldi. XI asrga kelib turklar bog'dodni qo'lga kiritishdi. Qisqa muddatda kichik osiyoni katta qismini qo'lga kiritishga musharraf bo'ldilar. 1329-yilda turk amiri Usmon vizantiyaga qarshi kurashib, kichik osiyoni qo'lga kiritdi. Uning o'g'li o'zini sulton deb e'lon qilib, Bursani poytaxtga aylantirdi.

Turklarning qo'shinini asosiy qismini otliqlar tashkil qilgan. Turk jangchilari mahoratli kamonchi va qilichboz bo'lganlar. Turk qo'shinidi qo'riqlash va razvedka xizmati yaxshi yo'lga qo'yilgan. 1330-yilga kelib usmoniy turklar muntazam piyoda qo'shin tashkil qiladilar. Bu askarlarni yanicharlar deb atashgan. Yanicharlar qo'shin asosini tashkil qilgan. Turklar bosib olingan hududlardan bolalarni olib kelib, alohida tartib va jangovor mashqlar bilan tarbiya qilib, yanicharlar safini to'ldirganlar. Ular tarbiyasida islom dinini ta'siri katta bo'lib, ongiga g'azovot, g'ayridinlarga qarshi muqaddas urush ruhi singdirilgan. Yanicharlar piyoda kamonchilar bo'lishgan. Yanicharlar 10 likka birlashgan. Har bir 10 lik umumiy o'tov, qozon va yuk tashuvchi

otga ega bo'lgan. 10 liklarni 8-12 tasi birlashib oda deb atalgan. XIX asrda turklar 66 ta oda ya'ni 5000 askarga ega bo'lganlar. Keyinchalik ularning soni 200 taga etgan. Yanicharlardan tashqari turklar otliq qo'shin sipohiylaridan ham foydalanishgan. Otliq qo'shin hujumkor taktikani amalga oshirgan. Yanicharlar asosan himoyaviy taktika bilan kurashganlar. Turklar yollanma armiyadan ham keng foydalanganlar. Sipohiylarga hizmatlari uchun merosiylar yeri berilgan.

Turk qo'shinining jangovarligini asosiy sabablaridan biri bu uzluksiz ta'minotdir. Bu holat ko'rilayotgan davr armiyasi uchun muammo hisoblangan. Jangda avvalo otliq qo'shin kirib chekingan. Yanicharlar himoya uslubida jang qilib, dushman hujumini to'xtatib, xoldan toydirgan. Ko'rilgan davr va xalqlarning harbiy ishi taktikasi va strategiyasida garchi o'xshash xususiyatlar ko'p bo'lsada, ularning taraqqiyot darajasi va uslublarida o'ziga xos xususiyatlar ham mavjud bo'lgan.

2. Chingizxon davlati - XII asr o'rtalariga borib Baykal ko'li atrofi, hozirgi Mo'g'uliston hududlarida yashagan turkiy va Tungus–Manchjur qabilalarining ko'pchiligi mo'g'ullar rahnomosi Esugay Bahodir ta'siriga o'ta boshlaydilar. Tatarlar ziyorat vaqtida Esugayni xiyonatkorona o'ldirganliklaridan keyin uning o'g'li Temuchinning nufuzi osha boradi. (Temuchin degani mo'g'ulchasiga Temur ustasi degan ma'noni anglatadi). U tarqoq mo'g'ul qabilalarini turli yo'llar bilan o'z qo'li ostiga mustahkam birlashtiradi. 1186-yilda Mo'g'ul sarkardasi Jamuxa ko'magi bilan o'zining eski raqibi markitlarni bo'ysindiradi. Qo'ng'iroq va naymanlar ustidan o'z hukmronligini o'rnatadi.

Temuchin kuchli harbiy tuzilmani tashkil etadi. Mo'g'ul qabilalarini mingliklar bo'ladi, minglik butun bir boshli harbiy okrug vazifasiga to'g'ri kelar edi. Mingliklarni o'z o'g'ullari Jo'chi, Chig'atoy, O'gidey, Tuli, xotini Burtz – Fujzn, safdoshlari Subutoy, Jebzlarga topshiradi.

1206-yili mo'g'ullarning umum qurultoyi chaqiriladi. Unda u oliy mo'g'ul hukmdori – xon deb tantanali e'lon qilinadi. Bosh shaman Teb–Tangriy unga «Chingizxon» (kuchli, buyuk) degan faxriy nom beradi. Qurultoyda Chingizxon o'z tug'i – bayrog'ini ko'taradi, 10 ta lavozim

joriy etadi. Bu lavozimlarga o'z yaqinlarini tayinlaydi. Sahrodagi Qoraqum shahri mo'g'ullar davlatlarining markaziy poytaxti deb belgilanadi.

Chingizxon butun Mo'g'ulistonni 95 ta harbiy ma'muriy birlikka bo'ladi. Qonunlar to'plami–yorliqlar (buyruqlar), yaso (qonunlar), bilik (nasihat)lar ishlab chiqiladi.

Chingizxon shaxsiy 2 gvardiya ham tuzadi. Ularning soni 1000 kishigacha etkaziladi.

1204-yili uyg'ur alifbosi mo'g'ul yozuvi sifatida qabul qilinadi. Shuningdek mustaqil davlat belgisi muhr (tamg'a) hamda taqvim tasdiqlanadi.

Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga yurishlari -Chingizxon 1219-yili o'z o'g'illari boshliq 200 mingga yaqin asosiy harbiy kuchlar bilan Xorazmshoh anushteginlar davlati ustiga harbiy yurishni boshladi. Chingizxonga uyg'ur xoni Baurchak, Qarluqlar xoni Arslonxon va Olmaliq hukmdori Sig'qioq teganlar o'z qo'shinlari bilan kelib qo'shiladilar.

Chingizxon janubiy qozoq cho'llarining Sirdaryoga tutashgan joyidagi O'tror shahri yaqinida o'z qo'shinini to'plab, uni 4 qismga bo'ladi. Chiqatoy va O'qtoy qo'shinining bir qismi bilan O'troni qamal etib, egallash uchun shu erda qoldiriladi.

Jo'chi boshchiligidagi ikkinchi qismi Sirdaryoning yuqori oqimidagi Jand, Yangikent, Borchiqliqkent, Siqnoq shaharlarini bosib olishga yuboriladi.

Uchinchi qismi O'trordan janubga, Xo'jand va Banokantni egallashga jo'natiladi. Bu qismga O'loq Nuyon va Suketi Cherbi bosh bo'ladi.

To'rtinchi qismiga Chingizxonning o'zi boshchilik qiladi. Unga taniqli sarkardalar Jebe va Subutoylar yordamlashadi. Ular Zarafshon vodiysi tomon - Buxoro hamda Samarqandni istilo etish uchun yo'l olishadi.

O'tror mudofaasi - O'tror qal'asi hokimiyatchilari mo'g'ullarga olti oy davomida mardanovor qarshilik ko'rsatadi. Shahar hokimi ihtiyorida 20.000 kishidan iborat suvoriy bor edi. Xorazmshoh unga

50.000 kishilik qo'shin yuboradi. Yana Qoracha hojib boshchiligidagi 20.000 kishilik qo'shinni yuboradi. Biroq ayrimlarining hiyonatkorligi sababli besh oylik hamaldan so'ng Inolxonning o'zi qoladi va bir oy mobaynida o'z otryadi bilan qarshilik ko'rsatib turadi. Mo'g'ullar mard sarkardani tiriklayin qo'lga tushirib, Samarqandga Chingizxon huzuriga yuboradi. Chingizxon ko'z o'ngida uning qo'li va ko'ziga kumushni eritib quyishni buyuradi. Mo'g'ullar O'troni butunlay vayron qiladilar.

Xo'jand qamali. Temur Malikning jasorati - Xo'jand hokimi Temur Malik mo'g'ullarga qarshi turish mumkin emasligini tushunib, tahminan 1000 nafar askari bilan Xo'janddan bir kilometr naridagi Sirdaryoning mo'jazgina oroliga joylashib oladi. Bu orolga mo'g'ullarning o'qlari, palaxmon toshlari etib bormas edi.

Temur Malik 12 ta qayiq yasattiradi. O'q o'tmasligi, yonib ketmasligi uchun qayiqarning ustini namat bilan yoptirib, sirka shimdirilgan loy bilan suvattiradi.

Ammo orolchada uzoq muddat turib bo'lmasligini tushunib, bor oziqovqat zaxirasi va askarlarini 70 ta qayiqqa joylab, tunda daryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi. Mo'g'ullar daryoning ikki sohilida turib Temur Malik kemalariga to'xtovsiz hujum qilib turadilar. Banokat bo'yida esa daryoning u sohilidan bu sohiliga zanjir ham tortishadi. Uzoq, uzluksiz jang bilan ular Jandgacha etib keladilar. Mo'g'ul sarkardasi Ulus Idi Borchiliqkent va Jand yaqinida manjanaq (tosh otar zambarak)lar o'rnatib, daryoga tushurilgan qayiqларini bir-biriga tutashtirib kemalarni cho'ktirib yuboradilar.

Temur Malik Urganchga etib keladi va Urganch himoyasida faol ishtirok eta boshlaydi.

Mo'g'ullarning qo'li baland kelib, Urganchni xam zabt etishadi. Keyinchalik, uzoq sargardonliklardan so'ng, Temur Malik darvesh sifatida o'z yurtiga qaytib keladi. Mo'g'ullar uni tutib olishadi va ular qo'lida mardlarcha halok bo'ladi.

Buxoro va Samarqandning bosib olinishi - Chingizxon Buxoroga xujum qiladi. 1220-yilning fevralida Buxoro uch kun qamal holatida bo'ladi. Bu vaqtda Buxoroda 12000 kishilik shahar garnizoni va 20 000 kishidan iborat «Lashkari burun» bor edi.

Mo'g'ullar bilan to'qnashuv natijasida sarkarda Inonchxon boshliq otryadi Amudaryodan o'tib qutulib qoladi. Sarkarda Hamid Pura qoraxitoy mardonavor halok bo'ladi. Qolganlar Buxoroga chekinishga majbur bo'ladilar.

Shahar ahli Buxoro hozisi Badriddin Qozi boshchiligidagi bir guruh oqsoqollarni Chingizxon huzuriga yuboradilar. Mo'g'ullar 10 fevralda Buxoroga chekinishga majbur bo'ladilar. Ammo shahar ahlining qarshiligi to'xtamaydi. Ular tunda yashirincha mo'g'ul askarlarga qarshi xujumlar uyushtirib turadilar. Chingizxon buyrug'i bilan shaharga o't qo'yadilar.

Buxoro arkida 12 kun qattiq qarshilik ko'rsatiladi. Qal'adagi chuqurliklar odam va hayvon o'liklari bilan to'lib ketadi. Ko'kxon, boshchiligidagi 400 nafar mudofaachilarning qarshiligi ham foyda bermaydi. Ark mo'g'ullar qo'lga o'tadi. Mo'g'ullar 30.000 kishini qirib tashlaydilar.

Chingizxon shundan so'ng Samarqandga qarab jo'naydi. 1220 yil mart oyi boshida Samarqandga etib keladi. Yonatrofdagi qishloqlarni yer bilan yakson qiladi.

Samarqand ancha mustahkam edi. Shaqarda 110000 kishilik harbiy garnizon (60 000 nafari tojiklar edi), 20 ta harbiy ilimga o'rgatilgan fil mavjud edi.

Samarqandni egallash uchun olib borilgan xatti-harakatlarga Chingizxonning o'zi shahar tashqarisidagi Ko'ksaroy qo'rg'onida turib boshchilik qiladi. Hamalning beshinchi kuni shahar ahli ommaviy qirg'inning oldini olish uchun taslim bo'lishga qaror qiladi. Shahar mo'g'ullar tomonidan er bilan yakson qilinadi.

Urganch kamali. Najmiddin Kubro jasorati - Chingizxon 1221-yilning boshida Urganch tomon yurish boshlaydi. Urganchga Chingizxonning o'g'illari Jo'ji, Chig'atoy, O'gedey, taniqli sarkardalari Tulu Cherbi, Ustun No'yon va boshqalar etib keladilar. Urganch atrofini 100.000dan ziyod mo'g'ul qo'shini o'rab oladi. Shahar devorlarini buzish uchun manjanaqlar o'rnatiladi.

Urganch qamali etti oy davom etadi. Ammo qo'rqqoq «Sulton» Xumortegin shahar darvozasini ochib berib, mo'g'ullarga taslim bo'ladi.

Shahar ichida qattiq janglar boshlanadi. Bu janglarda mashhur Xorazmlik alloma, faylasuf, olim, «Qubroviya» tariqasining asoschisi 76 yoshli Najmiddin alKubro al Xeva'iy (1145–1221) ham faol qatnashadi.

Jaloliddin Manguberdining jasorati - Aholi orasida mo'g'ullarning zo'ravonligi va istibdodiga qarshi norozilik tobora zo'rayib, o'lkaning turli erlarida qo'zg'alonlar ko'tarila boshlandi.

Jaloliddin Manguberdi ham mo'g'ullarga qarshi kurashini umrining oxirigacha bir zum to'xtatgani yo'q. Jaloliddin Manguberdi dovyuraklikda tengi yo'q, hech qachon so'kinmagan, yomon so'zlarni o'ziga yep ko'rmagan, juda jiddiy, atrofdagilar oldida o'zini sipo tutadigan, hech qachon kulmas, faqatgina tabassum qilib qo'yadigan yigit edi.

Jaloliddin og'ir bir vaziyatda mo'g'ullarga qarshi 11 yil kurash olib bordi. 14 marta mo'g'ullarga qarshi yurish qilib, uning 13 tasida qolib chiqdi. O'limi oldidan otasi uni taxt vorisi deb e'lon qilib, sultonlik ba'zi rutbalarini unga topshiradi.

Jaloliddin o'z inilari O'zloqshoh va Oqshohlar bilan otasini dafn zegach, 70 kishisi bilan to'g'ri Urganchga keladi. Unga Xo'jand hokimi Temur Malik va boshqa erksevar kishilar kelib qo'shiladilar. Xalq Jaloliddinni shoduhurramlik va katta orzu–umidalar bilan qarshi oladi. Ammo inisi O'zloqshoh va uning tarafdorlari unga qarshi fitna uyushtirayotganini bilib qolib, 300 kishisi bilan yashirincha Xorazmni tark etadi. Chunki bu sharoitda u mo'g'ullarga qarshi kurashib bo'lmasligini yaxshi tushungan edi.

Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar bilan ilk marta Jand viloyatidagi Irqiz dashtida to'qnash keladi. Keyinchalik u Niso yaqinida mo'g'ullarning 700 kishilik otryadini engadi. So'ngra Xuroson sari yo'l oladi. Inilari ham shu tomon Jo'nab ketishadi. Ammo shahzodalar Xurosonning Xabushan shahri yaqinida mo'g'ullar bilan to'qnashuvda qo'lga tushib, qatl etiladilar. Jaloliddining yana bir inisi Rukniddin Qursanjiy Eronning Ustunavand qal'asida 6 oy mo'g'ullar bilan kurashib, halok bo'ladi.

Jaloliddin 1221-yilning fevralida g'aznaga kirib keladi. Chingizxon uning ustiga No'yon Shika Xutuxu boshchiligidagi qo'shinni

yuboradi. Ammo ular Jaloliddindan engiladi. Keyingi jang Afg'onistonning Lagar daryosi bo'yidagi Parvona dashti yaqinida bo'lib o'tadi. Mo'g'ullar mutloq mag'lubiyatga uchraydilar. 1221-yilning 25 noyabrida Sind daryosi bo'yida uch kun davom etgan hal qiluvchi jang bo'lib o'tadi.

Bu jangda Jaloliddinning 7-8 yoshli o'g'li Chingizxon otryadi qo'lga tushib g'olib o'ldiriladi. Jaloliddin qurshovda qoladi, lekin uni yorib o'tib, Sind daryosi bo'yiga chiqadi. Onasi Oychechak, barcha xaram ayollarini suvga cho'ktirishga ko'rsatma berishdan o'zga chorasini qolmaydi. O'zi esa oti bilan suvga sakrab, daryoning narigi sohili Hindiston tomonga suzib o'tadi. Taxminan 120 nafar tirik qolgan kishilari bilan hindiston qishlog'ida uchrashadi.

Hind rojasi Shatra 40.000 chog'li otryadi bilan ularni qirib tashlamoqchi bo'ladi. Ammo Shatra o'ldirilib, qo'shini orqaga chekinadi. Jaloliddin Sind daryosi bo'yidagi yerlarni ishqol qila boshlaydi. Jaloliddin hokimiyatini Dehli sultoni va boshqa o'lkalar hokimlari tan oladilar.

Hindistonda Jaloliddin 1223-yilning oxirigacha turadi. Keyin Eron va Iroq sari yo'l oladi. Keyinchalik Kirmon sultoni ukasi G'iyosiddin Pirsho?, Bag'dod xalifalari va boshqalarga ittifoq tuzishni taklif etadi. Lekin ular rozi bo'lmaydilar.

1228-yil 25 avgustda Eronni zabt etish uchun kelgan Taynal No'yon boshchiligidagi mo'g'ul istilochilari bilan Isfaxon yaqinida hal qiluvchi jang bo'lib o'tadi. Jang vaqtida ukasi G'iyosiddin xoinlik qilib, o'z qo'shini bilan Luristonga chekinadi. Shunga qaramay Jaloliddin bu jangda ham g'alaba qozonadi.

U Iroqqa borib qo'shin to'plamoqchi bo'ladi. Biroq Amida yo'li yaqinida unga to'satdan mo'g'ullar hujum qiladi. Jaloliddin bu 15 chog'li mo'g'ul otryadi ta'qibidan qochib, Mayafarihin (hozirgi Turkiyaning Silovan viloyati) yaqinida Aynaddar qishlog'iga keladi. U kurdlar qo'lga tushadi. Uni kurd kishisi o'ldirilgan inisi Xuni evaziga o'ldiradi. Bu voqea taxminan 1231-yilning avgust oyining 17-20 sanalarida ro'y beradi. Ertasi kuni sulton buyumlarini sotib yurgan kurd haqida Mayafarih hukmdori al - Malik al - Muzaffarga xabar etkazishadi. U

qishloqqa o'z sarkardasi Shahobiddin G'ozini yuboradi. U sulton jasadini olib, qishloq erkaklarining borini o'ldiradi va qishloqqa o't quyib yuboradi. Jaloliddin Manguberdi murdasi Mayafarihinga dafn etilib, mo'g'ullar kirib kelgudek bo'lsa, haqoratlanmasin degan o'y bilan go'ri yer bilan baravar qilib tekislab yuboriladi.

Jaloliddin Manguberdi o'zbek xalqining ulug' zotlaridan biri, mard, jasur, otashin qalbli farzandi, yurtboshimiz ta'kidlaganidek, g'anim oldida bosh egmagan, tiz cho'kmagan, Vatan deya halok bo'lgan milliy qahramonimiz.

Mo'g'il armiyasida askarlar ta'minoti quyidagicha bo'lgan. Bir askarga ikki yoki to'rtta ot narxi berilgan. O'nboshiga o'n askarga beriladigan haq berilgan. Yuzboshiga olti o'nboshini haqi to'langan. Ayrim hollarda askarlar ja'zo tariqasida ta'minotdan maxrum qilingan. O'z navbatida ularni taqdirlash uchun sovg'a, maoshiga ustama unvon va mansab hamda ismlariga botir, bahodir so'zlari qo'shib ishlatilgan. Alohida o'rnak va namuna bo'lgan bo'linmalarga bayroq va tug' berilgan. Oddiy otliq askarlarining qurollari asosan kamon, 18-20 dona kamon o'qi, 10 dona kamon o'qining uchi, bolta, arra, igna, arqon va teridan tayyorlangan mesh olib yurishgan. Maxsus qism askarlari dubilg'a, qilich, kamon va ikkitadan ot olib yurishib, har besh kishi bir o'tovga birlashganlar. Bundan tashqari mo'g'illar armiyasida piyodalar bo'linmasi mavjud bo'lib, ular harakat chog'ida otda yurishib jang vaqtida piyodaga aylanganlar. Buning sababi nishonga aniq uzish uchun bo'lgan. Piyodalarning qurollari asosan qilich, kamon va 30 dona kamon o'qi bo'lgan. Ulardan asosan qamal vaqtida keng foydalanishgan. Amir Temur keyinroq maxsus tog'larda foydalanadigan piyoda qo'shin tashkil etgan.

Mo'g'il armiyasida shuningdek zamonaviy qamal qurollari, «grek olovi»ni otuvchi moslamalarni tayyorlovchi va ishlatuvchi muxandislar ham mavjud bo'lgan. Har bir safda o'z o'rniga ega bo'lgan. O'z navbatida o'nlik, yuzlik va mingliklar ham jangovor safda aniq belgilangan joylarda turishgan. Har bir bo'linma bir-biridan farq qiluvchi kiyim, bayroq va tug'ga ega bo'lgan. Ayrim bo'linmalar ot zoti

va rangiga qarab ham ajratilgan. Jang oldidan o'tkaziladigan ko'rik qa'tiy intizomga asoslangan.

Qo'shin dam olish uchun to'xtaganda, soqchilik bilan shug'ullanuvchi maxsus guruh qo'riqlovni amalga oshirgan va bu bir necha qatorni tashkil etib 3-5 kmgacha borgan. Jang uchun odatda tekis va katta kengliklar tanlangan. Alohida e'tibor suv bor joyga qaratilgan. Jangovar safda asosiy e'tibor ikki qanot va ichki zahira kuchlariga qaratilgan. Aynan Amir Temur zahira kuchlariga jiddiy e'tibor bergan.

Jang ilg'or kuchlarni nayza va kamondan o'q uzishlari bilan boshlangan. So'ngra asosiy kuchlar jangga qo'shilgan. Dushman kuchlari zaiflashgach, zahira kuchlari jangga kiritilgan. «To'qqizinchi hujum g'alaba keltiradi»-deb ta'kidlagan Amir Temur. XIV asrning oxirlarida jang taqdirini hal qiluvchi asosiy kuch bu otliqlar hisoblangan. Sababi bu paytda hali o'q otar qurollardan keng foydalanilmagan. Shunday bo'lsada qo'shin markazlashgan holda boshqarilgan. Askarlar qat'iy intizomga bo'ysunganlar. Harakat chog'ida ortda kelayatgan askar oldinda ketgan askar tushurib qoldirgan buyumni olishi shart bo'lgan aks holda jazolangan. Jang vaqtida og'ir ahvolda qolgan askarga yordam bermagan va o'z boshlig'ini himoya qilmagan askar o'lim jazosiga hukm qilingan. Shuningdek qo'shin tarkibida maxsus razvedka guruhlari faoliyat ko'rsatgan. Ular harbiy kengashga dushman qo'shini soni haqida batafsil malumot bergan. Shunga qarab jang taktikasi va strategiyasi ishlab chiqilgan. Agar g'arbiy Yevropa ritsarlari jang vaqtida asosan qo'l jangiga asoslangan bo'lishsa mo'g'illar asosan kamondan o'q otishga usta bo'lganlar. mo'g'illarning jangovar safi qanot va markaz bo'ylab 9 qatorni tashkil qilgan. Markaz qanotlariga, qaraganda zaif bo'lgan. Bu holat raqib qo'shinini qurshab olishiga qaratilgan. Jang vaqtida bo'linmalar tez harakat qila olgan. Agar jang vaqtida mo'g'illar qattiy qarshilikka uchrashsa darhol ortga qaytib yondan hujum qilishgan yoki yangi kuch bilan qaytadan jangga kirganlar. Mo'g'il otliqlarining tezkor harakati talofatsiz chekinish imkoniyatini bergan. Shu boiz mo'g'illar jangda u qadar ko'p talofat ko'rmagan.

Mo'g'illarning ro'parama ro'paro' to'qnashuvdan qochishlarining yana bir sababi, ularning jussasining kichikligi va otlarining evropaliklarnikiga nisbatan past bo'yligida bo'lgan. Mabodo mo'g'il qo'shini qattiq qarshilikga duch kelsa, ortga chekinib otuvchi moslamalaridan o'q uzib, dushmanga katta talofat keltirib, xujumni qaytadan boshlaganlar. Mo'g'il qo'shini taminoti haqida so'z yuritar ekanmiz, bu o'rinda ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tishimiz kerak. Masalan arab qo'shinining ta'minot markazi vodiya va vohalarda joylashgan bo'lsa, mo'g'il qo'shini o'zi bilan chorvalarini olib yurgan. Askarlar o'q yoy va jang aslahalarini o'zlari tayyorlashgan. Ularning oziq-ovqati ayollar va bolalar zimmasida bo'lgan. Harbiy harakat chog'ida intizom va tartibga hamma birdek bo'ysungan. Boshqa xalqlardan mo'g'illarning harbiy taktikasi, dushmanga kamondan o'q otib tinkasini quritish bilan farqlangan. Arab xalifaligi inqirozga yuz tutgach, uning o'rniga bir necha davlatlar tashkil topdi. Bu yangi tashkil topgan davlatlarning o'zaro urushlari dastlabki vaqtda salbchilar uchun qo'l keldi. 11-asrga kelib turklar bog'dodni qo'lga kiritishdi. Qisqa muddatda kichik osiyoni katta qismini qo'lga kiritishga musharraf bo'ldilar. 1329-yilda turk amiri Usmon vizantiyaga qarshi kurashib, kichik osiyoni qo'lga kiritdi. Uning o'g'li o'zini sulton deb e'lon qilib, Bursani poytaxtga aylantirdi.

3. Sohibqiron turk-mo'g'ul xalqlari, xususan Chingizxon lashkari tuzilishini, ularning jang olib borish amallarini atroflicha o'rganib, tahlil qiladi va zarur izgartirishlar kiritadi.

Temurbek barpo etgan armiyaning tuzilishi Chingizxon tuzgan qo'shin tizimi va tuzilishiga ma'lum darajada yaqin bolsa-da, biroq quyidagi muhim jihatlari bilan farqlanar edi:

1. Chingiziylar qo'shini yalpi majburiyat asosida Harbiy xizmatga chaqiriladigan xalq lashkaridan iborat bo'lgan holda, Temurbek armiyasi umumxalq xarakteriga ega emas edi.

2. Chingizxon davrida qo'shin asosini ko'chmanchi omma tashkil qilgan edi. Temurbek qo'shiniga oliy bosh qo'mondon ko'rsatgan aniq talabga binoan chorvadorlar qatori kosibchilik, hunarmandchilik,

dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholidan ham sezilarli miqdorda askar olingan.

3. Temurbek qo'shinida harbiy kuchlarning asosini tashkil qiluvchi otliq askarlar bilan bir qatorda piyodalardan tuzilgan qismlar ham anchagina bo'lgan. Ma'lumki, Chingizxon qo'shini, zabt etilgan mamlakatlar aholisidan majburiy tartibda tuzilgan Shaharni hisobga olmaganda, piyoda askarlarga ega bo'lmagan.

4. Temurbek sharqda birinchilardan bo'lib o'z armiyasiga o't ochar qurol, ya'ni to'plarni olib kirdi.

5. Sohibqiron tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil qildi.

6. Temurbek jahon harb san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yettita qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy etdi.

7. Temurbek armiyasida ayollardan tuzilgan bo'linmalar bo'lib, ular jang chog'i erkaklar bilan bir safda turgan, qahramonlik va matonat namunalari ko'rsatgan.

Temurbek qo'shini tarkibini Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo'g'uliston, Xorazm, Mozandaron, Jata singari yerlardan yig'ilgan askarlar tashkil qilar edi.

Unda muntazam qo'shinga xos bo'lgan ko'pgina belgilar mavjud edi: qo'shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, uning jangovar tartibi-yasol jangdan-jangga takomillashtirib borilgan, armiya o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog', aslasha-anjom bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyim-boshi, tutgan bayroq yoki tug'i orqali ham farqlangan. Bunday ajralib turish jang paytida qo'shinni boshqarishda juda qo'l kelgan.

Dushman mudofaasini turli usullar yordamida barbod qilish, g'anim tomonning yirik va mustahkam mudofaa inshootlariga ega bo'lgan shaharlariga qo'qqisdan kuchli zarba berish, zabt etilgan mamlakatning boshliqlarini va ayniqsa, lashkarboshilarini hisobga olish, qal'a va qirg'onlarni uzoq muddat davomida muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng qamrovda qurshab olish, uning qishloq, shahar, tuman, viloyatlarini birin-ketin fath etish, dushmanni batamom

yakson etgunga qadar ta`qib qilish. Fath bo`lgan yurtlarni boshqarish uchun o`zining ishonchli vakillarini tayinlash singari strategik maqsadlarini ko`zlab ish yuritish Temurbekka ko`plab zafarlar olib keldi.

Taktika jihatdan Temurbek armiyasi o`ziga xos xususiyatlarga ega edi. Qo`shinning yasoli qoraxoniylar, g`aznaviylar, saljuqiylar, chingiziylar qo`shini jangovar tartibdan farqli o`laroq, yetti qism-qo`lga ajratilgan, razvedka a`lo darajada yo`lga qo`yilgan, qismlarning jang maydonida hamda yurish vaqtida talab darajasida harakat qilishi uchun zarur tadbir va rejalar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida operativ boshqarishga alohida katta e`tibor qaratilgan. Temurbek o`nlik, yuzlik, minglik hamda tuman qo`mondonlarini tanlash masalasiga bevosita ega bo`lgan qo`mondonlarning to`g`ri tanlaganligi va o`z joyiga qo`yo`lganligi aksar hollarda jang natijasining muvaffaqiyatli yakunlanishiga sezilarli ta`sir ko`rsatgan.

Sohibqironning harb san`ati rivojiga qo`shgan ulkan xizmatlaridan yana biri-qo`shin qanotlarini jang chog`ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha g`anim kuchlarini yon tomondan aylanib o`tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism-qanbulning joriy etilishidir. Bunday mutlaqo yangi Harbiy qism, tarixning guvohlik berishicha, Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Lyudvig XIV, Buyuk Fridrix, Chingizxon kabi dongdor sarkardalar qo`shinida bo`lmagan. Faqat XIX asrning atoqli lashkarboshisi Napoleon Bonapart armiyasining jangovar tartibida qo`shin qanotlarini himoyalovchi qism mavjudligini kuzatish mumkin. Harbiy mutaxassislarning, Napoleon sharq mamlakatlariga Harbiy safar qilishdan avval Temurbek armiyasi tuzilishini, uning jang olib borish yo`l-yiriqlarini sinchiklab o`rgangan, zarur topgan taktik usullarni o`zlashtirgan degan mulohazasi, har qalay, haqiqatdan yiroq emas.

Xo`sh, turk-mo`g`ul xalqlari armiyasining besh qismdan iborat an`anaviy jangovar tartibiga o`zgartirish qachon kiritildi, ya`ni yasolni yetti qismga bo`lishga Sohibqironni qanday zaruriyat majbur etdi, degan savolning tug`ilishi tabiiy.

Ushbu savolga qoniqarli javob olish uchun Temurbekning Balx hokimi amir Xusayn (1370-yili o'ldirilgan) bilan ittfoqda 1365-yili Jata (Mo'g'uliston) xoni Ilyosxo'jaga qarshi qilgan, tarixga «loy jangi» nomi bilan kirgan mushorabada ittifoqdoshlar qo'shini qanday yasolda joylashganligini kuzatish kerak bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Chingizxon yurishlari davrini keltiring.
2. Turk g'ulomlari haqida malumot bering.
3. Jaloliddin Manguberdi jasorati haqida gapiring.

Tayanch iboralar:

Strategikon, Jabg'ukat, Beshbaliq, Chabish, YAbg'u, shad, tegin, tudun, tutuq, cho'r, tarhon, erkin, inanchu, buyruq, suboshi, chabish, bingboshi, beshyuzboshi, yuzboshi, o'nboshi.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
2. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
3. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.
4. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
5. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.
6. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.
7. Иванин М. Икки буюқ саркарда. Тошкент, 1999 й.

8. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.
9. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.
10. Дельбрюк.Г. История военного искусства, М., 1983 г.
11. Военное дело древнего и средневекового населения Северной и 16.Центральной Азии,(Сб. науч.трудов.) Новосибирск, 1990 г.
12. Абулғозий. Шажараи турк, Т, 1992 й.
13. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.
14. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Т-11, 2005 й.
15. Крушк. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошкент, 1975 й.
16. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.
17. Юровской. Э.Э. Новая история стран Европы и Америки, 1-2 период. – Москва: Высшая школа, 1998.
18. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.
19. Язиков.Э.Ф. История новейшего времени стран Европы и Америки. М, 2002 г.
20. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256б.
21. [http:// history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
22. [http:// www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
23. [http:// English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)
24. [http:// www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
25. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.html>
26. [http:// www.lib.byu.edu/-rdh/www/](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www/)
27. [http:// classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
28. [http:// www.washlaw.edu/forint/](http://www.washlaw.edu/forint/)
29. [http:// www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
30. [http:// www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

MAVZU: SLAVYAN XALQLARINING HARBIY SAN`ATI

REJA:

1. Slavyan xalqlaring jangovorlik holati.
2. Slavyanlarning qurol yarog`lari
3. Slavyan jangchilariga xos xususiyatlari
4. Slavyan qabilasiga mansub jangchilar bo`linmasi

Maqsad: Talabalarga slavyan xalqlaring jangovorlik holati, qurol yarog`lari, slavyan jangchilariga xos xususiyatlar haqida tushuncha berishdan iborat.

Kishilik tarixining taraqqiy etishi jamiyatning iqtisodiy siyosiy ba`zasining tubdan o`zgarishiga sabab bo`ldi. Quldorlik tuzumi o`z o`rmini faeodal tartiblarga bo`shatib berdi. Faeodal tartiblarni o`rnatilishi turli hududlarda turlichi joylashuvi aholi turmush darajasiga qarab yuz bergan. Dastlab Xitoy va Xindiston hamda sharqiy Rim imperiyasida quldorlik tuzumi krepostnoy tuzimga aylandi. Arab, slovyan, frank, mo`g`il va ayrim xalqlar o`z taraqqiyotida quldorlik tuzumini chetlab o`tganlar. Garchi, bu xalqlarda qular mavjud bo`lgan bo`lsada, qular asosiy ishchi kuchi xisoblanmagan. Quldorlik tuzumidan feodalizmga o`tish uzoq jarayonni tashkil etgan. Dastlab qabilalar ittifoqiga asoslangan harbiy davlatlar, qabilalar o`z ixtiyorlari bilan birlashganlar. Harbiylashgan davlatning siyosiy kuchini birlashgan qabilalar zadogonlari tashkil etib, ular orasidan saylangan knyaz yoki xon boshqargan. Harbiy kuch asosini ularni shaxsiy bo`linmalari tashkil etgan. Natijda birlashgan davlatlar yuzaga keldi. Ular jumlasiga arab davlati, franklar qirolligi VI-XIX asr. Qadimgi rus davlati XIX-XI asr. Mo`g`illar davlati XII-XIII asrlarni kiritish mumkin. Lekin bu davlatlarni qo`shini yollanma askarlar: arablarda badaviy, falloxlar; frank va slavyanlarda ozod dexqonlar; mo`g`illarda ko`chmanchi chorvadorlardan iborat bo`lganlar.

Feodal tarqoqlik Yevropa mamlakatlarini inqiroziga olib keldi. Bu tarqoqlik Angliyada XI asrgacha, Frantsiyada XV asrgacha, Rossiyada

XVII asrgacha davom etdi. Bu davrda avj olgan o'zaro urushlar harbiy ish taraqqiyotiga har - xil ta'sir ko'rsatdi. Feodal tarqoqlika barham berish, markazlashgan davlat tashkil etish, isyonkor kuchlarni bo'ysindirish maqsadida politsiya va o'z davrining yangi o'q otar qurol yarog'lari bilan ta'minlangan muntazam qo'shin tashkil etilgan. Bu esa o'z navbatida harbiy kadrlar tarkibini mustahkamlash va takomillashtirishga katta e'tibor qaratilishiga olib keldi.

Feodal tarqoqlik davridagi harbiy ish tarixiga misol tariqasida slovyan xalqlarining keltirib o'tishimiz mumkin. Arab tarixchisi Al Bakri slavyan xalqlari haqida yozar ekan quydagilarni ta'kidlab o'tadi. «Bu xalq qo'rqmas va jasur agarda ular turli qabila va elatlarga bo'linib ketmaganda ularga qarshi turuvchi kuchni o'zi bo'lmas edi». Slavyan xalqlarida jangchilar yosh kategoriyasiga qarab ajratilgan va ularga yo'lboshi boshchilik qilgan. Slavyan jangchilariga xos xususiyatlardan biri bu sezilmas darajada berkinish xisoblangan. Vizantiya tarixchisi Mavriniy bu qabila jangchilarini suvda turishi xaqida quyidagilarni yozib qoldirgan. «Slavyan jangchilari suv ostiga bir necha metr tushib naycha orqali bir necha soat nafas olib sezdirmasdan tura oladilar.» Ularning asosiy quroli qilich bo'lib u keng tig' qismi to'liqinsimon shaklda bo'lgan. Qilich ularni turmish tarziga ham ta'sir qilgan. Ota yangi tug'ilgan chaqoloq o'g'ilga qilich sovg'a qilib, sen topadigan barcha narsalar shu qilich orqali topiladi degan. Agar majoroli tomonlar hukumdor qaroridan norozi bo'lsalar hukumdor ularga «qilich xaq» iborasini ishlatgan. Bu ikki tomonni o'zaro majoroni kuch bilan hal qilishlariga aytilib, kim g'olib bo'lsa o'sha xaq xisoblangan. Slavyan qabilalari qasamni ham qilich va qalqon bilan ichganlar.

VII asrning 1-yarmiga kelib arab xalifaligi tashkil topgan. Arablar armiyasida qa'tiy tartib va intizom mavjud bo'lib, bu holat ularni jangavorlik qobiliyatiga keskin ta'sir ko'rsatgan. Ho'jalik shakliga ko'ra arab qabilalari uch guruhga bo'lingan.

Barcha jangchilarni ot bilan ta'minlash imkoniyati bo'lmaganligi bois piyoda askarlar ham mavjud bo'lgan. Piyoda askarlarni harakatini tezlashtirish maqsadida tuyalardan foydalanishgan. Arablarni otliq askarlarini qurollari turlicha bo'lgan. Har bir askar o'zi bilan ikkita

kamon, sadog'ida 30 ta o'q bilan, temir uchli bambuk tayog'idan tayyorlangan uzun nayza, o'tkir qilich, jang boltasi 30 ta tosh olib borishi shart bo'lgan. Askarning himoya vositalari bosh kiyim va sovutlardan iborat bo'lgan. Arab jangchilari jangda ko'proq pistirma, tasodifiy hujum uslublaridan keng foydalangan. Arab halifaligi olimlari g'arb va sharq olimlari va ularning harbiy ishga doir kashfiyotlarini o'rganib, tatbiq etganlar. Arab qo'shini harbiy harakatlar vaqtida tuyalar karvoni bilan yurganlar. Bu karvonda oziq-ovqat qamal vaqtida foydalanadigan katapulta, taran kabi moslamalar olib yurilgan. Bundan tashqari arablar jangda «grek olovi»dan keng foydalanishgan. Abbosiylar hukumronligi davriga kelib, armiya takomillashib bordi, natijada muntazam qo'shin tashkil topdi. Muntazam qo'shin asosini maxsus gvardiya tashkil qilgan. Yollanma qo'shından keng foydalanilgan. Masalan: Abduraxmon III davrida 15000 slavyan qabilasiga mansub jangchilar bo'linmasi mavjud bo'lgan.

Arab bo'linmalarining har biri o'ziga xos tarzda bir kiyim va qurolga ega bo'lganlar. Arablarning qo'shin asosini otliqlar tashkil qilgan. Otliqlar ikki gurruhga: og'ir va engil qurolliga ajralgan. Og'ir qurolli otliq qo'shin qurollari quyidagilardan iborat bo'lgan: uzun nayza, qilich, jangovor cho'qmor, jang boltasi, himoya vositalari, g'arbiy Yevropa ritsarlarnikidan engil bo'lgan.

Engil qurolli otliq qo'shini yoy va ingichka uzun nayza bilan qurollangan. Piyoda qo'shin ham qurol turiga qarab ikkiga ajralgan. Og'ir qurolli qo'shin saf tortib jangga kirib, asosiy qurollari uzun nayza va qilichdan iborat bo'lgan. Engil qurollilar asosan kamondan foydalanishgan. Arablar qo'shni asosan o'nlik tizimga asoslangan. 10000 kishilik qo'shinga amir boshchilik qilgan.

Arablar qo'shni harbiy harakatlar vaqtida uch qisimga;

A) Avangard B) Asosiy kuch S) Ar'ergardga bo'lingan.

Avangard engil otliq qo'shnidan iborat bo'lib, harbiy harakatlar vaqtida asosiy kuchlardan oldinda harakat qilgan. Ularning vazifasi dushman kuchlari va joylashuvini o'rganish hamda nazorat qilish bo'lgan. Asosiy kuch og'ir qurollar bilan qurollangan otliqlardan tashkil topgan. Harakat vaqtida asosiy kuchlarni ikki tomonidan kamonchi

piyoda qo'shin yurgan. Qo'shinni markazida, oziq-ovqat, qurol yarog' va palatkalar yuklangan tuyalar joylashgan. Qo'shin ortidan yuradigan karvonlar bilan birga harbiy shifoxona hamrohlik qilgan. Harbiy dala shifoxonasi arablar armiyasida IX asr boshlarida joriy qilingan. Harbiy dala hospitali o'zi bilan birga yarador askarlarni tashish uchun tuyalar, dori-darmonlar olib yurgan. Qo'shin dam olish uchun to'xtaganda tungi qarorgoh atrofi handaq va g'ovlar bilan o'ralgan. Bu holat askarlarni qochishi va tasodifiy hujumlarni oldini olgan.

Jang boshlanganda avangard qism hujum boshlab, asta sekinlik bilan asosiy kuch tomon chekingan. Ularni ta'qib qilib kelgan dushman qo'shnini og'ir qurolli piyoda askarlar nayzalarini yerga tirab qalqonlar bilan to'sib kutib olgan. Ularning ortidan piyoda kamonchilar to'xtovsiz o'q otib turgan. Arab qo'shni besh qator saf tortgan. Har bir qator harxal nomlangan, birinchisi «tonggi it huruji», ikinchisi «yordam kuni» va uchinchisi «kechki to'lqin» deb nomlangan. Otliq va piyoda qo'shin shaxmat uslubida saf tortgan. qo'shin markazida umumiy zahira bo'linmasi joylashib, uning vazifasi bayroqni qo'riqlash bo'lgan. Ular kamdan-kam xollarda jangga kirganlar. Saf tortish jang vaqtida harbiy strategiya va taktikani amalga oshirish kabi xolatlarni takomillashtirish uchun ovdan keng foydalanilgan. Arab qo'shni mardanovor jang qilgan. Masalan: Tankred boshchiligidagi salbchilarga qarshi 1110-yilda bo'lgan jangni ko'rishimiz mumkin.

Arab qo'shnida qattiq tartib-intizomga rioya qilingan. Qo'shinni saf tortishi noma'lum mualliflar asarida keltirilishicha etti xil shaklda bo'lgan.

Nazorat savollari:

1. Slavyan halqlari haqida malumot bering.
2. Dastlabki Slavyan harbiy sanati qanday edi.
3. Arab qo'shini nech qator saf tortgan.

Tayanch iboralar:

Engil qurolli otliq qo'shin, «qilich xaq» iborasini, Mo'g'illar davlati, yollanma askarlar: arablarda badaviy, falloxlar; frank va

slavyanlarda ozod dexqonlar; mo'g'illarda ko'chmanchi chorvadorlardan, Xitoy va Xindiston, Rim imperiyasida quldorlik tuzumi, Krepostnoy.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь.

2. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.

3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.

4. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.

5. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.

6. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.

7. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.

8. Иванин М. Икки буюқ саркарда. Тошкент, 1999 й.

9. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.

10. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.

11. Дельбрюк.Г. История военного искусства, М., 1983 г.

12. Военное дело древнего и средневекового населения Северной и Центральной Азии,(Сб. науч.трудов.) Новосибирск, 1990 г.

13. Абулғозий. Шажараи турк, Т, 1992 й.

14. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.

15. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Т-11, 2005 й.
16. Крушкол. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошкент, 1975 й.
17. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.
18. Юровской. Э.Э. Новая история стран Эвропи и Америки, 1-2 период. – Москва: Висшая школа, 1998.
19. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.
20. Язиков.Э.Ф. История новейшего времени стран Эвропи и Америки. М, 2002 г.
21. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда харбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256б.
22. [http:// history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
23. [http:// www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
24. [http:// English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)
25. [http:// www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
26. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.hrml>
27. [http:// www.lib.byu.edu/-rdh/www//](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www//)
28. [http:// classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
29. [http:// www.washlaw.edu/forint//](http://www.washlaw.edu/forint//)
30. [http:// www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
31. [http:// www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

MAVZU: AMIR TEMUR – BUYUK DAVLAT ARBOBI VA YETUK SARKARDA

REJA:

1. Amir Temur davridagi mudofaa inshootlari.
XVII asrning birinchi yarmida. Angliya aholisining atigi 20% shahar aholisi edi. So'ngra u nisbatan, qishloq xo'jaligi mamlakat edi. Gollandiya bilan solishtirganda Gollandiya XVII asr kapitalistik mamlakat namunasi bo'ldi". Biroq, inqilob boshida, kapitalistik munosabatlar chuqur qishloq xo'jaligi kirib bormoqda. Suknodeliya rivojlantirish munosabati bilan ichki keyin jun talab birinchi tashqi bozorda (Gollandiya) bo'lib o'sdi, va qo'y o'sishi "qilichbozlik" (ularning boshlanishi XV asrga tegishli.) uchun turtki bo'ldi. Shu vaqt ishlab chiqilgan va kapitalistik dehqonchilik vujudga keldi. Shu asosda u ingliz qishloq sinf kurashini murakkablashadi.

Eski Angliya feodallari (katta va kichik feodallar) yangi sharoitga moslashtirilgan edi - bir feodal burjuaziyaning aylandi. Shunday qilib, yangi muruvvat bor. "Bu burjuaziyaning, katta yer egasi sinf bilan

bog'liq ... - Karl Marks yozgan burjuaziyaning mavjudligi sharoitida to'la mos ravishda, asosan, balki zid ... edi, lekin". farovon va katta yer egalari katta qismi o'rtasidagi uzoq muddatli ittifoq ingliz inqilobi konservativ tabiati aniqlanadi.

Keng shaharga cheklangan emas edi Angliya jun sanoati, ishlab chiqilgan, lekin ishlab chiqarish jarayonida va qishloqda kiritilgan. Suknodelie markazlashgan manufaktura hisoblanadi. Yaratgan yangi sanoat, o'tgan ittifoq tizimi. Bunday edi: ko'mir qazib olish, qurolli tashkilotning tashkil etish va rivojlantirishda bir qiymati bor edi temir, porox, shisha, qog'oz, kemasozlik va boshqa sanoat ishlab chiqarish. Borayotgan sanoati ishchilari va ularning ishga soni ortishi.

Ayniqsa, muhim ahamiyatni Angliya tashqi savdosi o'ynaydi. Hindiston, Shimoliy Amerika, G'arbiy Afrika qirg'og'ida: Ingliz kapital barcha qit'alarni kirib boshladi. Ular koloniyalarga asos soldi farovon va oliy asolat manfaatlari bilan bog'liq -colonial siyosat, er tortib olishga intildi "okean boshqa tomonda».

Angliya yangi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, ishlab chiqarish eski feodal munosabatlarni sekinlashdi. Bu asosiy ziddiyat ijtimoiy rivojlantirishning asosiy qonuni bo'lib, og'irlashdi va muvozanat va munosabatlar darslari va sinf kurash shakllari aniqlash tomonidan chuqurlashdi aylandi. Niderlandiya burjua inqilobi, asosiy kurash shakli Ispaniya mutlakiyeti zulm qilish, golland xalqining ozodlik urushi edi. Monarxiya va suyangan counter-inqilobiy kuchlar, qarshi inqilobiy kurash asosiy shakli ingliz burjua inqilobi, fuqarolik urushi.

Ingliz feodal inqilob asosiy harakatlantiruvchi kuchi parchalari, dehqonlar va shahar "plebs" edi, "demokratik dehqonlar ko'lamini va ingliz inqilobi XVII kuchini, frantsuz ishchilar bilan XVIII asrda ro'y berdi "bu shahar bir ittifoq bo'lib".ezilgan Irlandiya xalqining milliy ozodlik kurashi Ingliz inqilobiy dehqon va plebeian aksariyat insonlar to'g'ridan-to'g'ri ta'minot edi.inqilobining ikkinchi harakatlantiruvchi kuchi uning manfaatlari burjua-parlament muxolifatini bildirdi burjuaziya, yangi muruvvat va obod dehqonlar edi. inqilob xususiyatlaridan biri Britaniya farovon aksariyat insonlar bilan ittifoq tuzdi yo'q, deb aslida yotadi, lekin ularning sinf maqsadlariga erishish

uchun ularni ishlatiladi. Biroq – "burjuaziya aslida bosh harakati edi sinf edi". "1648-yilda, yangi zodagoni bilan ittifoq burjuaziya feodal zodagoni qarshi va hokim cherkovga qarshi, monarxiya qarshi jang".

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash Ingliz absolutizm feodal zodagonlar, ingliz yepiskoplari va muhim yangi qatlam muruvvat edi. Hukumat, Tudor sulolasining siyosatini ta'qib uzoq vaqt davomida burjua muxolifatni shol ko'ra, Angliyada kapitalizm rivojlantirish imkonini berdi.

Ingliz burjua inqilobi darslari va partiyalar kurashi diniy shakllariga kiyib, burjua mafkuraning rivojlanish past darajada belgilandi diniy qobig'i, hali turdi. Angliyada kalvinizm burjuvazi yangi zodagoni va bir qismi manfaatlarini ifodalovchi uyushgan, intizomli ommaviy partiya, Puritanism shaklida paydo bo'ldi. Yangi Britaniya armiyasi Puritan mafkurasida asosida harbiy intizom to'g'risida.

XVII asrning birinchi o'n yilliklar ichida. Angliyada, inqilobiy vaziyatni yuzaga kelishi va rivojlanishi jarayoni bor edi. Boshlash, so'ngra mustahkamlash va qo'ralar qarshi dehqonlar tomonidan kurash "botqoq odamlarni" kengaytirish, shahar kambag'allar Isyonga. noroziligini va aksariyat insonlar siyosiy faolligini Qamrab, amaldagi tartibini tebrantiradi va hokimiyat uchun kurash, farovon o'tish uchun shart-sharoitlar yaratish. hukmron sinflar ichida split bor Shu bilan birga, Royal hukumat moliyaviy, xorijiy va cherkov siyosatini tanqid burjua-parlamentdagi muxolifat, hissa qo'shgan.

Sakson yil urushi burjuaziyaning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar diniy va tashqi siyosati talablariga shaklida asosan bildirildi. Ingliz inqilobi birinchi joyda, parlament tomonidan tasdiqlangan emas soliqlar qarz va to'lash uchun odamlarni majbur emas parlamentdagi muxolifat xalqining manfaatlari birinchi navbatda talab bo'lsa 1628-yilda iltimosnoma belgilangan huquqiy talablar, edi; ikkinchidan, hibsga olish emas va mamlakat qonunlari asosida sud qarorisiz mulkni hech kimni mahrum qilmaslik; Uchinchidan, urush qonunlari asosida tinch hibsga to'xtatish uchun; To'rtinchidan, oddiy odamlar uylarida qo'shinlari quartering bekor qilish.

Ichki va tashqi siyosiy vaziyat Stuartlar hukumatiga doimiy, muntazam qo'shinlari va floti yaratish muammosini qo'ydi. Bu muammo turli soliqlar oshirish ko'zlangan edi katta miqdorda zarur edi hal qilish uchun. Amalga oshirish, soliq siyosati qiziqarli hafta umumiy aholi (dehqon va plebeian massalari, burjuaziyaning va yangi zodagoni) va keng inqilobiy kurashning jadal joylashtirish ovolstvo.

Shotlandiya 1637-1638 mehnat katta qo'zg'olon va Shotlandiya muruvvat va burjuaziya o'z mustaqilligini himoya unda keyingi urush, Angliya ochiq inqilobiy kurash avj uchun turtki bo'ldi.

Parlament qirolik hokimiyatining bir mojaroni - Shotlandiya urush munosabati bilan siyosiy inqirozini kuchaytirdi. Bu vaziyat ularning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun kurash ochish dehqon-plebeian ommasi foyda.

Ma'lum bo'lishicha, deb shahar massalari ortib borayotgan inqilobiy kurash va qishloq va hujum Scots 1653-yilgacha mavjud parlament, to'plash noyabr 1640-yilda Charlz I majbur, "Uzoq parlamenti", farovon va uning ittifoqchilari katta tashkiliy markaziga aylandi - yangi muruvvat, feodal-mutlaq reaksiya qarshi kurash olib bordi. dehqonlarni inqilob armiyasining edi sur, g'alaba qozonish.

Buyuk Britaniyada siyosiy vaziyat oktyabr 1641-yilda boshlangan Irlandiyada milliy qo'zg'oloni, tufayli uyqash,

Royal Court u akslinqilobiy to'ntarish rejasini ishlab edi, lekin Londonda ommasi ishlashi uning bajarilishini puchga va podshoh bor konservativ asolat qo'llab-quvvatlash topishga umid, (Yorkda) mamlakat shimolini tark etishga majbur bo'ldi.

Shunday qilib, aslida ikki dushman lagerga hosil: kralcılara, shoh asos va eski feodal tizimini saqlab qolish uchun kurashgan va parlament tarafdorimiz. Ba'zi darajada belgilangan va hududiy delimitatsiya partiyalar uchun: Parlament qo'lida mamlakatimizning boy Janubiy-Sharqiy bo'lib o'tdi, shimolda yirik sanoat markazlari bir qator, dengiz portlari va butun parkini eng; shoh va uning tarafdorlari qo'lida Angliya shimoliy va g'arbiy qismlari edi. parkini yo'qligi qiyin qirolik armiyasi artilleriya uchun qit'aning yetkazib berishni qildi. Parlament, shuning

uchun vaqt sanoat asosida kuchli ega va yaxshi harbiy texnik uskunalar armiyasi ehtimol.

Yanvar 10, 1642 Charlz I London chap va tez orada Xall ostida qurol zahirolari bor edi qo'lga olishga urindi. Bu u, ammo, u muvaffaqiyatsiz. So'ngra Charles Men u boshlagan Nottingham, ilçesindedir bordi kontent G'arbiy Yevropada frantsuz hukmronliklarini tasdiqlash uchun urushlar urush san'ati (XVII asrning birinchi yarmida.)

1. XVII asrda G'arbiy Yevropada feodal-mutlaq davlatlar.

XVI asrda G'arbiy Yevropada siyosiy vaziyat sarlavhalari. Ispaniya ishtirokida va Niderlandiya burjua inqilobi bilan Ispaniya-Fransiya kurash, "diniy urush" edi. Bu Yevropada Ispaniya oshiqni davri bo'ldi. Biroq, Ispaniya mutlakiyetiyle uzluksiz urush ichki va tashqi siyosati massalari halok va yoksullaşmasına, pasayishiga, oxir-oqibatda olib keldi. XVII asrning oxiriga kelib. Ispaniyada, 5,7 million., Odamlar, odamlar, deyarli 2 million. XVI asrda kamroq odam bor edi.

XVII asrda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi. Boshqa G'arbiy Evropa mamlakatlarida bir qator taraqqiyot yo'lini ergashdi.

Gollandiya va burjuaziyaning qo'lida jamlangan iqtisodiy kuch ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'sishi natijasida Angliyada. Gollandiya va ichki feodal zulm Angliyada Tashqi feodal zanjir asosan bu mamlakatlarda burjua inqilobi davomida bartaraf etildi. Gollandiya va Buyuk Britaniya burjuaziya yangi samarali kuchlari va ishlab chiqarish eski munosabatlarni o'rtasida ziddiyatni hal qilish feodal tizimi bekor, va inqilobiy yo'l uchun kurashda ommaga rahbarlik qilish imkoniga ega bo'ldi sinf edi.

Biroq, burjuaziya XVI - XVII asrlar. Hamma joyda feodal asolat ustunlik etib bo'lmaydi. Ba'zi mamlakatlarda, [380], ayniqsa, Frantsiya va Shvetsiya, o'sha paytda, urush bo'lib darslari mutlaq monarxiya da'vo qaysi foydalanib, kuchlar bir qarindoshi muvozanatga yetdi.

"Istisno sifatida, - Engels, - deb yozgan Biroq, bor, muddatlari urishayotgan sinflar kuchlar muvozanatini etib qachon, deb hozir davlat hokimiyati ular orasidagi ko'rinma vositachi sifatida har ikki sinflarni bilan bog'liq muayyan mustaqillik. Bu bir-biriga zodagoni va

burjuaziyaning ... " qarshi muvozanat XVII va XVIII asrlarda, mutlaq monarxiya emas.

Prussiya armiyasi o'zining tashkiliy va tarkibiy tuzulishiga ko'ra boshqalardan keskin farq qiladi. Ko'plab davlatlarda tinchlik vaqtida armiyasini tashkil qilish, harbiy tayyorgarlik va kadrlar tayyorlash ustida ish olib borilmasa, prussiyada buni aksini ko'rishimiz mumkun. Prussiya armiyasi 2 qismdan iborat: muntazam qo'shin va landverdan iborat bolgan. Landver armiya safidan ozod qilinib zahiraga o'tkazilgan askarlardan iborat bo'lgan.

Muntazam armiya safida harbiy hizmat 5 yil davom etadi. Uning yosh belgisi 20-25 yoshgacha belgilangan. Biroq, tinchlik vaqtida 3 yil hizmat yetarli hissoqlangan va askar zahiraga jo'natilgan. Harbiy holat yuzga kelgan o'zlarining hizmat joylariga yetib borishgan. 2 yil zahirada turgach askar umumiy zahiraga o'tkazilgan va unda 32 yoshgacha turgan. Shu yoshgacha bo'lgan davriy chegara oralig'ida askar 2 yilda 1 marotaba harbiy ko'nik mashg'ulotda ishtirok etishi shart bo'lgan. Bunday mashg'ulotlarda 50000 dan 60000 gacha askar ishtirok etib, muntazam qo'shin bilan birgalikda harakat qilgan. Bunday harakat harbiy mashg'ulotlar jang vaqtida muntazam qo'shin va zahirada yordamchi bo'linmalarining birgalikdagi harakatini osonlashtirish bilan zahira bo'linmalarining harbiy yangiliklardan bohabar bo'lishiga yordam bergan.

Prussiya armiyasida 130000 armiya uchun, oziq-ovqat va qurol yaroq tayyor qilib qo'yilgan. Safarbarlik vaqtida faqatgina ot topish kerak bo'lgan holos.

Prus harbiy maktablari mutahasis tayyorlash bo'yicha ilg'orlardan biri bo'lgan. Bu harbiy maktablarda ofitserlar harbiy taktik va strategiyaning jiddiy o'rganishgan. Bundan tashqari bu maktablarda to'pchilarni alohida tayyorlaganlar.

Ko'rilgan davr Ingliz armiyasi o'zining jang vaqtidagi sovuqqonligi hisobiga Fransuz qoshini hujumdagi faolligi va tezkorligi hisobiga Pruss qoshini harbiy ishga tez konikishi orqali ustunlikka erishgan

Nazorat savollari

1. Fransiya armiyasi tuzilishi haqida gapirib bering.
2. Angliya armiyasi tuzilishi haqida gapirib bering.
3. Prusiya bilan Fransiya va Angliya armiyasi tuzilishi farqi haqida gapirib bering.

Tayanch iboralar:

Muntazam armiya, burjuaziya, Prussiya armiyasi, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Charlz I, Shahar.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь.
2. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
4. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.
5. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
6. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.
7. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.
8. Иванин М. Икки буюқ саркарда. Тошкент, 1999 й.
9. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.

10. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.
11. Дельбрюк.Г. История военного искусства, М., 1983 г.
12. Военное дело древнего и средневекового населения Северной и Центральной Азии,(Сб. науч.трудов.) Новосибирск, 1990 г.
13. Абулғозий. СҲажараи турк, Т, 1992 й.
14. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.
15. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Т-11, 2005 й.
16. Крушқол. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошқент, 1975 й.
17. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.
18. Юровской. Э.Э. Новая история стран Европы и Америки, 1-2 период. – Москва: Высшая школа, 1998.
19. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.
20. Язиков.Э.Ф. История новейшего времени стран Европы и Америки. М, 2002 г.
21. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256б.
22. [http:// history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
23. [http:// www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
24. [http:// English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)
25. [http:// www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
26. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.hrml>
27. [http:// www.lib.byu.edu/-rdh/www//](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www//)
28. [http:// classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
29. [http:// www.washlaw.edu/forint//](http://www.washlaw.edu/forint//)
30. [http:// www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
31. [http:// www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

MAVZU: O'RTA OSIYO XONLIKLARIDA HARBIY UNVON VA MANSABLAR

REJA:

1. Xonliklarda qo'shining tarkibiy tuzilishi va uning o'ziga xosligi.
2. Xonliklardagi harbiy unvonlar
3. Xonliklardagi mansablar hamda ular egalarining vazifalari.

Maqsad: Talabalarga O'rta Osiyo xonliklarida harbiy unvon va mansablar haqida ma'lumot berishdan iborat.

Mang'itlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgan dastlabki yillarda amirlik o'zining muntazam qo'shiniga ega emas edi. Amirlikda mavjud bo'lgan oz sonli harbiylarning asosiy vazifasi amir va uning a'yonlarni qo'riqlash hamda shahar osoyishtaligini ta'minlash ishlari bilan xarakterlanar edi.

Urush vaqtlarida amir buyrug'i bilan xalq lashkarlari to'planib harbiy harakatlariga jalb etilgan. Buxoro amirligida qo'shin tuzishiga kelsak, Temuriylarning saltanati parchalangandan to XIX asrning birinchi choragiga qadar bu masalada deyarli katta o'zgarishlar kuzatilmaydi.

Amir Shohmurod hukumronligi davrida qo'shin ikki qanotdan iborat bo'lgan. So'l qanotda mang'it, kenegas, keroit, do'rman, qo'ng'irot, qiyot, qirg'iz, xitoy, qipchoq, o'taji, turkman, arlot, qalmoq, uyg'ur, mo'g'ul, qori, hofiz, o'g'lonlardan tuzilgan dastalar tashkil etgan.

Chap qanotda qatag'on, saroy, yabu-yabg'u, bahrin, jaloir, qang'li, yuz, ming, paymon, qarluq, berkut, qo'rchi, arg'un, og'lon, qalliq, fulodchi, qirq, olchin, mojar, chinboy, bedoyil, as, jibirg'in, qilgiy, timoy, masid, tar, bog'lon, iloji, tugut va shogirdpesha guruhleri joylashgan.

Ta'kidlash joizki, sarbozlikka qabul qilinayotgan yuqorida aytib o'tilgan urug'-aymoqlardan qaysi biriga tegishligiga qarab mazkur guruhlargagina qabul qilinib, ular aralashtirib yuborilmagan. Bunday

urug'larga qarab qo'shin tuzish o'sha davrda hukm surgan Xiva va Qo'qon xonliklarida ham mavjud edi. Masalan, Xiva xonligida Bayoniyning ma'lumoticha 1848 – 1849 yilgi harbiy harakatlar vaqtida Muhammad Aminxon navkarlarining ro'yxatini tuzishga buyurilib farmon berilganda, xonlik qo'shini quyidagicha ko'rinish olgan: Pahlavon ota, Eltuzarxon, Muhammad Rahimxon va hokazolar asosiy tug'ini ko'tarib borib, bundan tashqari, qo'ng'iroqliklar tug'ini Qutlimurodbiy sarkardaligidagi 600 qo'ng'iroqlik navkarlar, qoraqalpoqlar tug'ini To'ra va Solih otaliq sarkardalar boshliq 2 ming navkar, yovmutlar tug'ini Ahmatulloh yasovulboshi sarkardaligida, 2 ming otliq yimralilar tug'ini Xudoyor sarkardaligida 2 ming otliq, chavdirlar tug'ini Muhammad Murodbiy sarkardaligida ming otliq, sakirlar tug'ini Erniyoz mahram sarkardaligida, 6 ming otliq, tuyachi tug'ini Ollosh biy o'g'li Olloyorbek sarkardaligida 650 ming nafar, mang'it tug'ini bekmanbiy sarkardaligida 300 otliq, qipchoqlar tug'ini Xo'ja Niyozbiy sarkardaligida 300 otliq va hokazo shunga o'xshash – 25 guruh tug'i ko'tarib borilgan. Demak, XIX asrning boshlariga qadar xonliklarda qo'shin tuzishda urug' – qabilachilik an'analari etakchilik qilib kelgan.

Mang'itlar sulolasi hukumronligida amir Haydar hukumronligi davriga (1800 – 1826) kelib dastlabki tub o'zgarishlar ro'y berib, ya'ni ma'lum ma'noda muntazam armiya tashkil etildi, deyishga asos bor. Biroq, ba'zi tarixchilar bu fikrga to'la qo'shilmaydilar. Tadqiqotchi B. Ismoilova Buxoro amirligida armiya va harbiy ishlarni tashkillashtirishni ikki bosqichga bo'ldi va I bosqichni XIX asr boshlaridan XIX asrning 30-yillarigacha, ya'ni amir Haydar davrida hisoblab, bu davrni shu sohaga dastlabki asos qo'yilganligi, to'la muntazam armiyani tashkil etilganligini esa II bosqichida amir Nasrullo davriga (1827 – 1860 yy) to'g'ri kelib to 1837 yilda oxiriga etkazdi, deydi.

Amirlikning doimiy armiyasining tashkil etishga sababalardan biri bu Rossiyadan 1826 yilda Negri missiyasiga hamkorlik qilib, kuzatib kelgan rus askarlari va kazaklarning Buxoroga kelishidir, degan taxmin bor.

Aslida amir Haydar davrida muntazam armiya tashkil etishga to'la erishilmadi. Chunki merosho'rlar o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurashlar, ichki nizolar, bo'ysunmas amaldorlarni jilovlash bu ish yo'lida katta to'sqinlik qildi.

Amir Haydar o'z doimiy armiyasini Qarshida tuzishga harakat qildi, chunki bu erdagi harbiy garnizon eng kuchli edi. U tashkil etgan qo'shinda zobit va harbiy boshliqlar sarkarda maqomiga ega bo'lib, davlat hazinasidan maosh olar edilar. Oylik maoshlar qisman pul, qolgan qismi esa natural tarzda to'lanar edi. Panjsad boshi o'zining belgisiga – bayrog'iga ega edi. Mingboshining yonida doimo bundan kattaroq bayroq bo'lar edi va bu “tug’” deb yuritilgan. Bunday bayroqqa ming kishilik guruh haqli bo'lib, uning boshlig'i hurmatli sanalar, ark darvozasidan otda o'tishga haqli, boshqa zobitlar esa piyoda kirar edilar.

Amirlik artilleriyasi Eronda ishlab chiqarilgan bir necha to'plardan tashkil etilgan bo'lib, ularning uch-to'rttasi lafet (temir suyanchiq)ga ega edi. Qo'shin asosan mahalliy aholi vakillaridan iborat bo'lib hech qanday harbiy tartiblarga rioya etmas edi. Qo'shinning katta qismi Qarshidan sharqda SHahrisabz kenegaslaridan himoyalaniş maqsadida saqlanardi.

Qarshi shahri devor bilan o'ralgan bo'lib, ichkarida qo'rg'on mavjud edi. Viloyatda esa o'nlab qo'rg'onlar bo'lgan. Mavjud Gurdshob, Karki, Sherobod va boshqa bir qancha qo'rg'onlar loytuproq devorlar bilan o'ralgan, ichkarida – ko'handiz (Sitadel) – qal'a bo'lgan. Harbiy harakatlar chog'ida aholi himoyalaniş uchun qo'rg'onga to'planishib turishgan, garnizonlarda 10 tadan 200 tagacha askarlar saqlangan.

Amir Haydar Buxoroga kelgach, Hakimbiyga qo'rg'on va qal'alarni doim bekam-ko'st saqlash, devorlarni etti metrgacha etkazish, Navro'z kunlari xavfsizlik kunlarini kuchaytirish, qo'rg'on burchaklarida yashash xonalarini qurishga buyruq berib xatlar yozgan.

Qarshi viloyatida harbiy qismlar quyidagicha shakllantirilgan: Saroy urug'idan 500 nafar, ulardan 100 nafari askarlikka, 400 kishi qora ishlar uchun, aymoq jamoasi 300 kishi, arab, o'z qavmlaridan 20 kishidan, qo'shchilar – 50, qatag'on – 6, arlot – 10, yag'du – 20,

doʻrmon – 4, panjobiy – 20, qorluqlar – 15, xitoyliklar faqat shogirdpeshalikka – 13 kishi, siroblar – 12 kishi doimiy xizmatda boʻlishlari shart edi.

Amir Haydar oʻzining bir maktubida Muhammad Hakimbiyga “YAxshi qobiliyatli shogirdpeshalarni navkarlikka oʻtkazing, lekin ularning soni 500 tadan oshmasin, qobiliyatsiz shogirdpeshalarni uyiga haydab yuboring” deb yozadi.

Shogirdpeshalar asosan garnizon va qoʻrgʻon ichidagi yumushlarni bajarishar edi. Qoracheriklar esa haddan tashqari urushga koʻp jalb etilgan, baʼzan shu tufayli ular oʻrtasida noroziliklar kelib chiqqan.

Qoʻqon xonligida ham harbiy harakatlar vaqtida qoʻshinga jalb etiluvchi yordamchi boʻlinmalar – “qoraqozon” va “qoracherik” tartibiga keltirilib, yangi nomuntazam yordamchi boʻlinma “qilquyruq”qa asos solindi. Qoʻshinda “shogirdpeshalar” boʻlinmasi mavjud boʻlib, unga boshqa boʻlinmalarning yosh, iqtidorli, oʻziga toʻq vakillari saralanib olinib ularga turli jang uslublari, harbiylarning boshqarish sanʼati oʻrgatilgan.

Buxoro amirligi qoʻshinidagi dastalarda askarlar soni bir xilda boʻlmagan. Har qaysi urugʻ va hudud mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib yoki amirlikdagi nufuziga qarab qoʻshin soni belgilangan. Bundan tashqari qoʻshin tarkibida turli davlatlar fuqarolari hisoblangan harbiy asirlar, qullar va boshqa toifa vakillari ham mavjud edi.

Amir Nasrullo (1827-1860) davrida qoʻshin tuzilishi quyidagicha qoʻrinish olgan edi:

Harbiy asirlardan iborat 80 kishilik guruh, 700 kishilik harbiy boʻlinma, ular 7 dastaga boʻlinib boshida ellik boshi, bu guruh ham oʻnliklarga boʻlinib, dahboshi boshqargan va yuzboshiga yordamchi harbiy mansabdor hisoblangan.

Taʼkidlash joizki, Nasrullo mangʻit amirlari ichida birinchi bor piyoda sarbozlar tarkibidan toʻpchilardan iborat doimiy harbiy boʻlinmaga asos soldi.

Amirlikda toʻplar bundan ham oldin boʻlishiga qaramasdan ulardan alohida guruh, Oʻgʻlon va Talipoch darvozalari oldida toʻpchilarning kazarmalari barpo etilganligi aytib oʻtadilar.

Amir Nasrullo tashkil egan to'pchilar tarkibida 14 barabanchi, 14 naychilardan iborat musiqachilar guruhi mavjud bo'lib, har bir yuzlikda ikkita turk namunasidagi barabanchi, 4 ta surnaychi, 6 ta trubachi faoliyat ko'rsatgan. Shunday bo'lsada, amir Nasrullo davrida doimiy qo'shin soni manbalarda turlicha keltiriladi.

Qo'shining asosiy tarkibini asosan sarbozlar tashkil etib, ularning son 1868 – 1873 yilgi Buxoro – Rossiya bitimiga ko'ra 12 mingdan oshmasligi kerak bo'lgan.

Amir Muzaffar davridan boshlab sarbozlar ikki guruhga bo'lingan:

1. Shanbegi sarbozlar – bu guruh sarbozlari haftaning shanba va yakshanba kunlari harbiy mashg'ulotlarga qatnashgan.

2. Seshanbegi sarbozlar - bu guruh sarbozlar seshanba, chorshanba va payshanba kunlari harbiy mashg'ulotlarga qatnashgan.

12 ming kishilik sarbozlarning 6 minge "Seshanbegi", ya'ni 6 minge esa "Shanbegi" deb nomlangan. Har ming kishilik sarbozlar guruhi dastalarga bo'linib, sarkardalar boshqargan.

Har bir dastalar ham o'z navbatida 5 ta "Baydoqqa" bo'linib har bir baydoqqa 200 tadan sarbozlar xizmatda bo'lishgan. Baydoqlar 2 ta yuzlikga (yuzlikni yuzboshi boshqargan) 4 ta 50 kishilik guruhga (panjohboshi boshqargan) bu guruh esa dahboshi boshqaruvida bo'lgan 5 tadan harbiy bo'linmaga bo'lingan.

Qo'shin safiga qabul qilish qoidalari deyarli butun sulola hukumronligi mobaynida o'z an'anaviyligini saqlab kelgan. XX asr boshlari, aniqrog'i 1905 – 1920 yillarda yangi tipdagi harbiy qismlarning tashkil etilganligi bois bu an'ana biroz buzilgan.

Qo'shin tarkibiga qabul qilishning turli tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, avvalambor jinoyatchi, o'g'ri, mahkumlar ota-onalar o'z farzandlari ustidan shikoyatlari uchun, qochoqlar evaziga ularning kafilliklari hisobidan sarbozlar qabul qilinganligini aytib o'tish lozim.

Xususan, Buxoro amirligi tarixiga oid hujjatlarning birida: – "Hazrati Sayyidimning muborak boshlariga tasadduq bo'lay! Hazrati amiri g'ufroonishon davrlarida Nosirxon, afg'on yasovuli, oliy zindonga qamalgan edi. Oliy farmoyishga binoan Chorjuyga kelib sarbozlar safiga

qo‘shildi. Har yili u 50 man^{*} g‘alla olib hursandchiligidan janob oliylari xaqlariga duo qilmoqda. Uning ko‘chi Buxoroi Sharifga qolgan. Mazkur qulingiz, Qoravulbegi janob oliy hazratimni benihoya duo qilib bandalik arzimni bildiramanki, Oliy davlatxonaning quli bo‘laman. Qulingiz Buxoroi Sharifga borib navkarlarinigiz safida xizmat qilib, ahlu ayoli bilan birgalikda zoti Oliyni duo qilamiz deb umid qilyapti. Men bir o‘jiz notavon qulingiz shu sababdan oliy marhamatingiz va roziligingiz ne tariqa bo‘ladi degan andisha arzini bildirdim” deyilgan. Ushbu ma’lumotdan ko‘rinadiki, sarbozlarning bir qismi mahbuslardan tashkil etilgan.

Ma’lumotlarga qaraganda, sarbozlikka qabul qilinayotgan paytda unga bir kishidan 3 kishigacha kafil bo‘lgan, mabodo askar xizmatdan qochsa, to topilgunga qadar uning kafillari harbiy xizmatga jalb etilgan. Aksariyat hollarda sarbozlikka qabul qilinadigan vaqtda unga uchta kafil tayinlanilgan. Bu hujjat qozi ishtirokida rasmiylashtirilib muhr bosilgan. Xizmatdan qochgan sarbozlar o‘rniga uch kafilning xizmatga jalb etilishi quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilishi mumkin edi:

- qo‘shin tarkibida tartib intizomni saqlab turish;
- qo‘shindan qochgan, kafilsiz va bedarak yo‘qolgan sarbozlar o‘rnini to‘ldirish;
- mamlakatda vatanparvarlik ruhining pasayib ketganligi, harbiy xizmatni sharaf emas, balki, davlat majburiyati deb bilish;
- harbiy xizmatning og‘irligi;
- harbiy xizmatning obro‘ va e’tibori yo‘qligi;
- daromadi va tiriklikning og‘ir sharoiti.

Qo‘shin tarkibiga qabul qilish to‘g‘risidagi fikrimizni davom ettirar ekanmiz, sarbozlikka qabul qilinganlar toifasiga ota-onalarining o‘z farzandlari ustidan qilgan arzlariga asoslanib chaqirilganlarni ham ko‘rish mumkin.

Shuningdek, amirlikda o‘zga yurtlardan panoh izlab kelganlar, muhojirlar hisobiga ham qo‘shin safi to‘ldirilib borilgan. Bundan tashqari, ko‘ngillilar hisobidan ham qo‘shin safi to‘ldirib borilgan.

* Изоҳ. Ман оғирлик ўлчов бирлиги бўлиб, 1 ман 16 кг.га тенг.

Amirlik qo'shinlari tarkibini o'rganish jarayoni shuni tasdiqlaydiki hatto, 1920 yilga qadar ham ham harbiy xizmatchilar orasida qullar mavjud bo'lgan. Ma'lumki, Buxoroda sarbozlar dastasi dastlab qullardan tuzilgan bo'lib, ular umrlarining oxirigacha harbiy xizmatni o'tashlari majburiy bo'lgan. Nihoyat, 1886 yil amir Abdulahad farmoniga muvofiq boshqa qullar kabi bular ham ozodlik vasiqalarini olish huquqiga ega bo'lganlar. Ma'lumotlarga qaraganda, sarbozlarning ko'pchiligi o'z ozodlik vasiqalarini qo'lga kirita olmay amirga bu masalada qayta-qayta murojaat qilishni davom ettirganlar. Qul askarlar alohida o'nliklarda xizmat qilishgan.

Garchi erkin sarbozlar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab doimiy qo'shin ko'rinishini olgan bo'lsada, tinchlik vaqtlarida ular shahar tozaligini saqlash, obodonchilik va hatto dehqonchilik ishlari bilan ham mashg'ul bo'lishgan. Bunday sarbozlar harbiy mashq va jang vaqtlaridagina harbiy kiyim hamda qurol-yarog' bilan ta'minlangan. Amir Muzaffar xukumronligi davriga qadar ular tinch vaqtlarda qurol-yarog'larini o'z uylariga olib kelishgan. Shu davrdan boshlab ularning harbiy kiyimida ham o'zgarishlar ro'y bergan. Boshlarida qora uzun shapka (qalandarlarnikiga o'xshash), oq bo'zdan shim, qishda harbiy mundir (kulucha) Buxoro sarbozlarining ko'rinishlarini tashkil etgan. Shim va mundir ikki yilda bir bor almashtirilgan. Oyoq kiyimini har bir sarboz o'zi bilan olib kelishga majbur bo'lgan. Amir Abdulahadxon davriga kelib harbiylarga ikki yilda bir juft etik beriladigan bo'ldi. Harbiy Mundir "Kulucha" yoki "yopiq" bosh kiyimi esa "qo'lochin" deb yuritilgan. Sarbozlar pogonlarida dasta raqami yopishtirilgan edi.

Amir Muzaffarxon vafotidan so'ng amir Abdulahadxon sarbozlar sonini 2000 nafarga qisqartirdi. Shanbegi sarbozlari 4 dasta (4000 kishi) ni, seshanbegi sarbozlari ham shunchani tashkil etdi. Ayniqsa, bu davrda sarbozlarning yana bir guruhi ajralib chiqdi. 4000 shanbegi sarbozlaridan 2000 nafari beshotar miltiq bilan qurollanib ularga "dumbalapur" (ya'ni o'q miltiqning orqa tomonida joylashgan, shuni ham aytib o'tish joizki amirlikda "dumbalapur" nomli to'plari ham mavjud bo'lib ular egalari ham dumbalapur deyilgan) deb nom berildi. Yuqorida aytib o'tilganidek qisqartirilgan sarbozlar turkumiga Turkiston

general – gubernatorligi tasarrufidan qabul qilingan (asosan Qo‘qon, Jizzax, Samarqandlik)lar kirib ular gubernatorlik bilan kelishuvga asosan ozod etilishi kerak edi. Amir Abdulahadxon hukumronligi davrida rus asirlaridan qabul qilingan sarbozlar deyarli ozod etilgan edi.

Bundan tashqari amir Abdulahadxon davrida keksaygan, kasalmand sarbozlarni qo‘shin tarkibidan ozod etish ishlari ancha jonlangan.

Sarbozlar amirlikdagi mavjud 28 beklidkdan kelishib ma’lum bir muddatda maxsus xizmatlarni o‘tashgan. Bunday sarbozlar guruhi “ilg‘or” deb nomlanib ular quyidagicha taqsimlangan:

- Chorjuy beklidgida 100 dumbalapur, 10 ta to‘pchi (2 ta eski to‘p bilan) xizmat muddati 6 oy;

- Shahrisabzda 800 seshanbegi, 10 ta to‘pchi (3 ta eski to‘p bilan). Bu harbiy guruh Kitob beklidgida ham o‘z nazoratlarini o‘rnatib, bu erda ular bir yil xizmat o‘tashgan;

- Karkida 100 dumbalapur, 10 to‘pchi (2 ta to‘p bilan) 6 oy xizmat qilishgan;

- Karmanada 200 dumbalapur, 10 to‘pchi (2 ta to‘p). Xizmat muddati 1 yil;

- Darvozda -200 seshanbegi, 10 to‘pchi (2 to‘p). Xizmat muddat 1 yilu 2 oy;

- Baljuvonda – 600 seshanbegi, 10 to‘pchi (4 ta to‘p). Xizmat muddati 2 yil va hokazo.

Mazkur muddatda xizmatda bo‘lgan sarbozlarning “ilg‘or” qismi mavjud hududlardagi Elnavkarlarga yordam berishgan.

Ko‘rsatilgan muddat tugagach, ilg‘or qisim boshqa hududlarga ko‘chirilgan.

Mang‘itlar sulolasi davrida amirlik qo‘shini sarbozlardan tashqari to 1920 yilga qadar bir qancha yangi harbiy guruhlar tashkil etilgan. Tarixchi Muhammad Sayyid Baljuvoniyni yozishicha, 1917 – 1920 yil oralig‘ida amirlikda qo‘shin tuzilishi quyidagicha ko‘rinish olgan: “Buxoro askariyasining nizomi etti favj (guruh)dan iborat edi 1.To‘pchilar. 2.Otliq kazaklar. 3. Shefskiy. 4. Terskiy. 5. Arabbachalar. 6. Turkman favji. 7. Sarbozlar”.

Otliq kazaklar “Qazonski” deb ham yuritilib bundan tashqari amirlik qo‘shinida g‘ulombachchalar, sherbachchalar, elnavkar guruhlari ham bo‘lgan. Ushbu nizomiy guruhlarga e‘tiborni qaratadigan bo‘lsak, ulardan sarbozlar, g‘ulombachchalar, elnavkarlar va to‘pchilar guruhi ancha ilgari tashkil etilgan bo‘lib, qolgan guruhlar esa mavjud siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda XX asr boshlarida tashkil etilganligini ko‘ramiz.

G‘ulombachchalar. Bu nizomiy guruh Buxoroda hukm surgan barcha sulolalar davrida mavjud bo‘lib ularning asosiy vazifasi to‘rt gektarni tashkil etgan arkning ichki qismini qo‘riqlashdan iborat bo‘lgan.

Buxoro arkini qo‘riqlash uchun tashkil etilgan harbiy guruhlarni buxorxudotlar, Somoniylar, Qoraxoniylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar va umuman, butu mang‘itlar sulolasi davrida faoliyat ko‘rsatganligini ko‘ramiz. Arkning ichkari qismini qo‘riqlashda mang‘itlar sulolasi davrigacha hukmronlarning yaqin va eng ishonchli kishilaridan tanlab olingan. Biroq, amir Nasrullo davriga kelib, dastlab 100 nafardan iborat “G‘ulombachchalar” (ya’ni “qulbachchalar”) nomi berilganligining sababini bilib olamiz. Yuz kishidan tashkil etilgan dastlabki g‘ulombachchalar o‘z oilalari bilan ark ichida yashashgan bo‘lsalar, ular soni ko‘ngillilar hisobidan 200 taga etgach, bu ko‘ngillilar xizmat vaqtidan so‘ng o‘z uylarida istiqomat qilishgan. G‘ulombachchalar xizmat vaqtida 2 guruhga bo‘linib, haftada 3 kun qo‘riqlash xizmatida bo‘lishgan. Xuddi shanbegi va seshanbegi sarbozlaridek birinchi guruh shanba, yakshanba, dushanba kunlari, ikkinchi guruh esa seshanba, chorshanba, payshanba kunlari xizmatda bo‘lishgan. Juma kuni dam olish kuni hsoblansada qo‘riqlash vazifasini arkda yashovchi g‘ulombachchalar bajarishgan. G‘ulombachchalar ark ichida xizmatda quyidagicha taqsimlanishgan:

Amir Nasrullo hukmronligi davrida 100 nafardan iborat g‘ulomlarning 50 nafari 3 kundan qoravullik xizmatini o‘tashib, ulardan 20 nafari ark tashqaritsidagi maxfiy xabarlarini amirga etkazish, 10 nafari amirlikdagi obxona, regxona, kanaxona kabi zindonlarni qo‘riqlashgan.

Gʻulombachchalar (100-200 keyinchalik 50 kishilik) sadboshi (yuzboshidan) tashqari ark qoʻriqlashida masʼul boʻlgan “toʻpchiboshii darvoza” harbiy mansab egasiga boʻysunishgan.

Keyinchalik bu guruhga koʻngillilar ham jalb etilib, amir Muzaffarxon hukmronligi davrida ularning soni 200 nafarni tashkil etgan hamda gʻulombachchalar oʻz oila aʼzolari bilan arkning ichida istiqomat qilishgan. Bularning harbiy tuzilmasi ham xuddi sarbozlardek ikki yuz nafardan iborat bir yuza (yuz boshi boshchiligida) toʻrtta ellik nafardan iborat bir yuza (yuz boshi boshchiligida) toʻrtta ellik nafardan iborat qism (panjohboshi rahbarligida), 8 ta 25 kishilik guruh va 16 ta 12-13 kishidan iborat oʻnlikdan (dahboshi boshchiligida) tashkil topgan.

Amir Abdulaxadxon hukmronligi davriga kelib, ularga extiyoj qolmaganliklari, ark ichkarisida ular (oilalari) sonining ortib qolganligi, siyosiy jihatdan amirlikning rossiya imperiyasi prtekrotoratiga aylanganligi, bundan tashqari arkning tashqari qismi 200 nafardan iborat dumbalapur sarbozlarining qoʻriqlanayotganligi amirni shu qarorga kelishi majbur qildi.

Bundan tashqari xuddi sarbozlar singari Turkiston general gubernatorligi tasarrufidagi hudud fuqarolari, kasalmand hamda keksayib qolgan gʻulombachchalar ham xizmat safridan ozod etilgan. Umuman gʻulombachchalar nomi bilan harbiy qismning to 1920-yilgacha saqlanganligi amirlikdagi qulchilik masalasiga biroz oydinlik kiritadi.

Elnavkarlar. Buxoro xonligi tashkil etilgan dastlabki davrlardayoq (1533-1539) guruhi xususida manbalarda maʼlumotlar uchraydi. Elnavkarlar nizomiy guruhi Buxoro amirligida 25 beklikning har birida ham mavjud boʻlib ularning asosiy vazifasi oʻz bekliklarida tinchlikni saqlash choralarini himoya qilishdan iborat boʻlgan.

Har bir beklikda oʻz navkarlariga ega boʻlib, ularning eng katta qismi etti amloklikdan iborat (Buxoro, Xoʻjai-Jahon, Vobkent, Pirmast, Xoʻja Orif, Romitan, Zarmitan) Buxoro bekligida tegishli edi. Yaʼni Buxoro bekligida 150 nafardan iborat 9 ta dasta tashkil etilgan ushbu dastalar har qaysi turkiy guruhlar, joy nomlari bilan atalgan. Buxoro bekligidan 9 dastadan iborat elnavkarlar dastasi quyidagicha nomlangan:

Mang‘it 2.Xitoy 3.Qirg‘iz 4.Qipchoq 5.Ushruq 6.Arab 7.Nayman 8.Burgut 9.Saroy. Qolgan hududlarda faoliyat ko‘rsatgan elnavkarlarning nomlanishi, soni hususida ilovadagi jadval orqali bilish mumkin.

Elnavkar doimiy harbiy xizmatchi xisoblanmay 150 nafarli dasta 6 oydan navbat bilan qoravullik hamda hammollik xizmatini o‘tashgan. Qolgan vaqtlarda dastadagi 75 kishi o‘z uyida yashagan. Elnavkarlar asosan mahalliy qurol – yarog‘ bilan qurollantirib, ular uchun maxsus harbiy kiyim berilmagan. Ular asosan shox miltiq, xanjar, qilich va boshqa qulol-yarog‘larga ega bo‘lishgan.

Moddiy sharoitlari imkon beriladigan elnavkarlar xizmatga o‘z otlari bilan borganlar. Shuning uchun ham bu guruhni na otliq, na piyoda askarlar qatoriga qo‘yish mumkin. O‘z otlari bilan xizmat qilgan harbiy xizmatdagilarning otlari “tamg‘asiz otlar” yoki “tamg‘asiz otli elnavkarlar” deyilgan.

Amir Haydar hukmronligi davrida boshlab elnavraklarga yilida bir bor ellik tangadan iborat “sarpo-puli” berila boshlangan. Guruh harbiy mansabdorlari esa bundan tashqari o‘z tanho erlari hamda tegirmonlariga ega bo‘lganlar.

Elnavkarlar 1920-yilga qadar faoliyat ko‘rsatganligini hisobga oladigan bo‘lsak, ularga amirlikda ma’lum darajada ehtiyoj bo‘lganligini ko‘ramiz.

To‘pchilar. Buxoro amirligi qo‘shini tarkibida piyoda sarbozlardan tashkil etilgan alohida to‘pchilar guruhiga amir Nasrullo (1827-1860) davrida asos solingan. Mabaalarda shunday e’tirof etilsada, biroq jang, harbiy yurishlar chog‘ida to‘pchilar amirlikda tashkil etilgan nizomiy guruhlargi turli miqdorda taqsim etilgan. Yana shuni aytib o‘tish joizki, amir Nasrullo davridan boshlab to 1920 yilga qadar to‘pchilar soni to‘plar songa nisbatan qisqarib boradi va bu to‘plarning harbiy texnik darajasining ancha ortib borganidan dalolat beradi.

Amirlikda zambaraklar asosan Rossiyadan hamda Afg‘oniston davlati hududi orqali olib kelingan Ingliz va Turk to‘plaridan iborat bo‘lgan. 1850-1880 yillarda amirlikdagi beklklarga to‘pchilar quyidagicha taqsimlangan:

Buxoro bekligida 90 ta to'pchi, 30 ta to'p;
Chorjo'y bekligida 10 ta to'pchi, 2 ta to'p (o'ta og'ir hajmli);
Shaxrisabz beligida 10 to'pchi, 3 ta to'p;
Karkida 10 to'chi, 2 ta to'p (o'ta og'ir hajmli);
Karmanada 10 to'chi, 2 ta to'p (o'ta og'ir hajmli);

Boljuvonda 10 ta to'pchi, 3 ta to'p va hokazo. Buxoroda to'pilar soni 100-250 nafarligi yuqorida aytib o'tildi. To'pilar amirlik qo'shinida eng nufuzli kishilar hisoblanishgan. Biroq ularning amaldagi vazifalari o'ta og'ir bo'lib, shuning uchun ularga boshqa turdagi harbiylarga nisbatan ko'proq maosh to'langan. SHu sabab bo'lsa kerak, amirlikdagi eng oliy harbiy mansablardan biri ham to'pchiboshi hisoblangan. Amir Muzaffarxon hukumronligining oxirlaridan tortib to Olimxon davrigacha Qarshi hokimi Akrambek, amir Olimxon hukumronligi davrida sobiq bosh mirshab Abdusattorbek to'pchi boshi lavozimida faoliyat ko'rsatgan.

To'pchilar haftaning har shanba kunida harbiy dala mashqlari o'tashgan. Buxoro bekligida bunday joy shaharning Samarqand darvozasi tashqarisidagi keng maydon hisoblanib, bunday mashqlar "Paxta-parron" deb nomlangan. "Paxta-parron" mashqi chog'ida to'plar zarasizlantirilgan o'qlardan, ichiga sochma porox o'rniga arpa qipig'i solib foydalanilgan. Biroq amirlikka tegishli boshqa hududlarda ham to'pchilarning harbiy mashqlari o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumotlar biz o'rgangan manbalarda uchramaydi.

To'pchilar harbiy texnik darajasining nosozligi bois ular otilgan paytida to'pchilarning halok bo'lish holatlari ham kuzatilgan. 1918 yilgi Kolesov voqealari chog'ida Buxoro bekligi Vobkent amlokligidagi to'pchilar safida xizmat qilgan Rahmatulloqul jang chog'id halok bo'lgan. Turmush o'rtog'ining bergan ma'lumotlariga qaraganda bu hol to'p otilishi natijasida yuzaga kelgan kuchli tebranish oqibatida yuz bergan.

To'pchilar guruhini 2 guruhga bo'lish mumkin. 1. Qal'a to'pchilari; 2. Dala to'pchilari. Qal'a to'pchilari safiga asosan amirlikdagi o'ta og'ir to'p egalarini, dala to'pchilari guruhiga esa, Buxoro amirligida nisbatan engil to'plar, keyinchalik ngliz, rus, turk

to'plari bilan qurollanaganlarni kiritish mumkin. Buxoro xukumdorlari o'z to'plari va to'pchilari bilan qancha maqtanmasinlar, ular ham Buxoroni ishg'ol etishning oldini olib qola olmadilar.

Terskiy. XIX asrning 60-yillarida rus armiyasidan qochgan tatar harbiy Usmon amirlikka tashrif buyurib, yangi tartibdagi qo'shin tuzishga kirishdi. Amir Muzaffarxon unga bu borada hayrihohlik bildirdi. Usmon faoliyati natijasida u birinchi bo'lib Buxoro amirligida rus harbiy ustavi bo'yicha ish yuritishni boshladi. U qo'shin saf tortishida, jang qilish uslublarida va boshqa ko'pgina sohalarda evropacha qoidalarni qiyinchilik bilan bo'lsa ham joriy eta boshladi.

Biroq, 1868 yilgi Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o'rtasidagi Zirabuloq yonidagi jangda amir qo'shinlari mag'lubiyatga uchragach, barcha ayb Usmonga yuklatildi. Unga jang paytida qo'shin boshlig'i To'xtamishbek hamda turk Hojiga bo'ysunmaslikda ayb qo'yilib 1868 yildayoq qatl etildi.

Rus harbiysi Arendarenko Usmonga nisbatan ijobiy fikr bildirib "Amir armiyasi uchun o'ta ahamiyatga molik ishlarni amalga oshirishga kirishgan edi, lekni manmanlikka berilgan amaldorlar buni tushunib etmadilar"-deb yozgan edi. Garchi o'sha davrda zamonaviy harbiy texnika va ilmlarni o'rgani, uni qo'llash ishlariga e'tiborsizlik bilan qaralgan bo'lsada, amir Muzaffarxon vorislari bu masalada biroz ijobiy yondashgandek ko'rindi. Biroq, bunga kech bo'lgan edi. Protektorat sharoitidagi bir tomonlama harbiy islohotlar chor ma'murlari nazoratlariva ta'sirida o'tkazib turilgan edi.

Buxoroning so'nggi ikki amiri Abdulahadxon va Olimxonlar Rossiya imperiyasi imperatori habiy lavozimli kishilar sanalgan. XIX asr 70 - yillariga kelib Sharqiy Buxoroda harbiy siyosiy holat ancha yomonlashdi. Ayniqsa, Hisor bekligida buni yaqqol ko'rish mumkin edi. Natijada rus ma'murlari o'lkada tinchlikni saqlash maqsadida amirlikka harbiy sohada ko'rsatish kerakligini tushunib, 1881 yildan boshlab rus harbiy injinerlari, konstruktorlari, zobitlari 12 – Turkiston batalioni polkovnigi Serpitskiy rahbarligida faoliyat ko'rsata boshladi. Amir Abdulahadxon rus imperatorining general adyudanti hisoblanib

Rossiyadagi Terskiy Kazaklari polki, Shefskiy nomli 5-Orenburg kazaklari polki ro'yxatiga kiritilgan edi.

Terskiy kazaklari dastlab piyoda qo'shin hisoblanib keyinchalik ularning bir qismi otliq askarlarga aylantirildi.

Terskiy Kazaklari otryadi harbiy kiyimlari xuddi rus kazaklariga o'xshash bo'lib ular turmush tarzi sarbozlarnikiga qaraganda qaraganda bir muncha yaxshi hisoblangan. Ularga yiliga 4 sirda xarbiy kiyim, oyida 35 tanga maosh, yilida musulmon bayramlari chog'ida 20 tanga xudoi puli berilgan. Kiyimlari oq, qora, qizil, to'q sariq bo'lib kazaklarning harbiy unvoniga qarab bu kiyimlar berilgan.

Mazkur guruh tashkil etilgan paytda Karmanadagi amir qarorgohi yaqinda joylashtirilgan. Amir Abdulahadxonning Rossiyaga safarlari vaqtida Terskiy otryadi Buxoro shahrida Taxti-Chorbog' guzaridagi kazarmalarda qo'nim topgan. Amirlik hukumronligi oxirlariga kelib Terskiy kazaklari soni yangi tashkil etilgan "Shefskiy" guruhi bilan birgalikda 10 mingtadan oshib ular uchun amirlikning yozgi qarorgohi Sitorayi Mohi Xossada harbiy kazarmalar tashkil etilgan.

Abdurauf Fitrat o'z asarlarida terskiy otryadining o'ta johilligi, xalqqa zulm o'tkazishda ularga etadigani yo'qligi hususida yozadi. Mazkur jamoa kazarmalari ahvoli hususida manbalarning aksariyatida salbiy fikrlar bildiriladi. Askarlar ko'rpa va to'shaklarini o'zlari ta'minlashga majbur edilar.

Otliq kazaklar. Terskiy jamoasi tashkil etilganidan 2 yil o'tgach, (1908) amir Abdulahadxon Kavkaz kazaklari namunasidagi otliq kazaklar harbiy qismiga asos soldi. Dastlab ularning soni 600 kishini tashkil etib, 3 baydoqqa bo'lingan va bir sarkarda boshchilik qilgan. Ular ham asosan Karmanada 6 oy muddatda xizmatda bo'lishib, Buxoro shahrida ushbu guruhga tegishli 3 ta kazarma mavjud edi. Shahardagi Havzi Mirdo'stim, Mazori Chashmai Ayub hamda Kofirobod guzarlaridagi kazarmalar ularga tegishli edi.

Keyinchalik Sitorai Mohi-Xosa kazarmalariga joylashtirilgan. Otliq kazaklar jamoasi mahalliy tilda turlicha "kavonskiy", ba'zi manbalarda "Kuban kazaklari", "kavkaz otliqlari" deb ham yuritilgan. Otliq kazaaklar tarkibida 35 kishidan iborat bolabomchilar mavjud

bo'lgan. Terskiy guruhi singari otliq kazaklar ham haftaning shanba, yakshanba, dushanba kunlari harbiy dala mashqlarida qatnashib, mashq o'tkaziladigan joy shaharning Hazrati Imom darvozasi tashqarisidagi "Xoki poyi Buxoro" deb nomlangan. Dastlab ular tarkibida to'pchilar bo'lmagan. "Kavkaz" otliqlarining kiyimlari rang-barang shohi va shohiga o'xshash nafis matolardan iborat bo'lib, ular kiyimlarining g'alatiligiga qaraganda, harbiylardan ko'ra ko'proq sirk artistlariga o'xshar edilar. "Kavkaz" otliqlari batamom kazarmalarda joylashgan bo'lib, ularning kazarmalari amir turadigan joylarga yaqin erlarda bino qilingan. Ular o'zlaricha ko'chalarga chiqishlari mumkin emas edi. "Kavkaz" otliqlarining tarkibini 15 yashardan to 18 yashargacha bo'lgan bolalar tashkil etadilar va yoshi 18 dan oshgan bolalarni bu to'dadan chiqazilib, umrbod xizmat qiladigan piyoda sarbozlar to'dasiga kiritadilar. Ularga beriladigan maosh, imtiyozlar, turmush tarzi Terskiy guruhi bilan bir xil bo'lgan. Ushbu guruh otlari "tamg'ali otlar" hisoblanib keyinchalik mabodo o'z otlari bilan xizmat safiga kirish istagini bildirsalar, askarlarning otlari uchun ham ma'lum miqdorda pul, em-xashak ajratilgan.

Shefskiy. 1904 yilda amir Abdulahadxon tomonidan tashkil etilgan qo'shin guruhi. Bu guruh amirlikdagi 18-20 yoshli yigitlardan tashkil etilib, dastlab ularning soni 40-50 nafarga, amir Olimxon hukmronligining dastlabki yillarda 600 kishiga, 1918-1920 yillarda esa Terskiy kazaklari bilan biralikda 10 ming kishiga etkazildi.

YUqorida aytib o'tilgan yangi tipda tuzilgan harbiy guruhlarining asosiy vazifasi amir riqobida, qabul marosimlarida musiqa sadolari ostida saf tortgan. SHu bilan birga harbiy guruh Olimxon davrida o'z ota-onalariga noqobil bo'lgan farzandlardan tashkil etilib, guruhga "dastai gul", guruh boshlig'iga "Hamdami gulboz" deb nom berilgan. Shefskiy guruhi boshiga oq qorako'l teridan tikilgan telpak, uning yuqori qismi uchburchak shaklda uch qizil chiziq bilan o'tkazilgan, qolgan barcha harbiy kiyimlar Terskiy guruhi bilan bir xil bo'lgan.

1917 yildan boshlab dunyoda siyosiy vaziyat o'zgargan. Hususan, sovetlar tuzumining o'rnatilishi amirlik uchun yana xavf tug'dira boshladi. 1918 yilgi Kolesov voqealari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Mavjud vaziyatdan kelib chiqqan amir Olimxon harbiy sohaga katta e'tibor qarata boshladi.

Tarixchi Muhammad Sayyid Baljuvoni bu davr tarixini quyidagicha tasvirlaydi:–“Rossiya davlati bilan zohiran do'stona munosabatda bo'lsa ham aslida undan ham xavfsirab yurardi. Chunki Rossiya Buxoroga muqobil chiqib, uning ba'zi erlarini o'z tasarrufiga kiritgan edi. Amir Olimxon davrida bu muqovamat va qarshilik ochiq oydin bo'lib, xavfu xatar kuchayib ketdi. Shu sabab, e'tibor urush anjomlari va askarlar tayyorlashga qaratildi. Harbiylarning oyliklari bir necha marta oshirildi. Amir inglizlar, tibilisliklar, afg'onlar, xorazmliklar bilan ittihad va do'stlik maqsadida muzokaralar olib bordi”.

1917-1920 yildagi yangi harbiy guruhlar tuzilishiga yuqoridagi omillar sabab bo'ldi. 1917 yilda amir Olimxon amirlik hududida yashovchi arablar qavmidan 600 kishilik otliq askar “Arabachalar” guruhini tashkil etdi.

Arablar jamoasi 3 baydoqqa bo'lingan bo'lib ularning bir qismi (200 kishi) Sitorai Mohi Hosada, qolgan qismi esa Kogon yo'li himoyasida saqlangan. Bu davrda harbiylar maoshi oshirilgach arabachalar oyiga 60 tanga miqdorida maosh tayinlangan. Ular tarkibida 25-30 kishiga yaqin bolobomchilar ham faoliyat ko'rsatgan. Uch guruhga bo'linib navbat bilan harbiy xizmatni o'tashgan, qolgan vaqlar ular o'z uylarida bo'lishgan.

Amir Olimxon bu jamoaga katta ishonch bildirganligini ko'rish mumkin. Masalan: Arabachalar 50 nafari 1918 – yilning oxirida Ashxabod cho'liga borib, inglizcha pulemyot va miltiqlar olib kelishga yuborilgan. Ular bu ishni yaxshi uddalashgan.

1918 yilda 17-20 yoshli yigitlardan guruh tashkil etilib ular 4 baydoqqa bo'lingan. Ularning bir qismi Vobkent tumani yo'lidagi Kashkashon mavzeyida, bir qismi Chor Bakrda, qolgan qismlari Sitorai Mohi Xosada saqlangan. Amirlik qo'shini 1918-20 yillarda shu qadar rango-rang ko'rinish olgan ediki, hatto, I jahon urushida Rossiya imperiyasi tomonidan asir olinib Buxoroga jo'natilgan Avstraliyalik askarlarga oylik to'lanib, Imom Abu Hafs kabir Buxoriy darvozasi

oldida, qal'a ichida to'p va o'q ishlab chiqarish fabrikasini ishga soldilar. Kafirobod guzarida ham mazkur asirlarda o'q-dori, miltiq sozlash, yasash, to'p va o'q quyish ishlarida foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Sherbachchalar. Kolesov voqeasidan keyin amirning birinchi ishi askar to'plamoq bo'ldi. Bu kunlarda amir to'plagan askarlarning muhim qismi 2 dasta bo'lib, birinchisi, afg'on ko'ngillilaridan tashkil topgan, ikkinchisi esa Ibrohimcha sarkardaligida zindonband etilgan mahbuslar, o'g'rilar ozod etilib, qurol-yarog', harbiy kiyimlar berilib mingga yaqin askarlardan tuzilgan "SHerbachchalar" nizomiy guruhi edi.

Sho'rolar hukumati bilan munosabatlar yomonlashayotganini ko'rgan amir Olimxon harbiy yordam maqsadida chet ellar bilan muzokaralarni avj oldirdi. Shu maqsadda yuqorida aytganimizdek, Domullo Qutbiddin Sudur va To'raxo'ja Naqiblar Afg'onistonga yuborildi. Afg'oniston amiri umarolari bilan o'zaro bir necha qarorlar qabul qilinib, Buxoro davlatiga yordam tariqasida 6 ta fil va ikki yuz nafar fidoiy askar yuborildi. Elchichilarga esa katta iltifot ko'rsatib, shohona sarpolar bilan qaytarildi.

Biroq, shu bilan birgalikda Afg'oniston davlatining Buxoroga yubormoqchi bo'lib turgan 10 ming askari va boshqa harbiy yordamlari Afg'anistonda yuzaga kelgan og'ir siyosiy chigal vaziyat (1919 yilgi III Anglo-Afg'on urushi unga Sho'ro hukumatining Afg'anistonda berilgan harbiy yordami) oqibatida amalga oshmay qoldi.

S. Ayniyning yozishicha, faol ko'ngillilarning aksariyati Afg'onistondan qochib, Buxoro mamlakatida yurgan sarsarilaridan iborat edi. Bularning bir qismi urush chog'ida ko'ngilli bo'lib, hizmatga kirib amirdan ko'p hurmat ko'rdilar. Bular ko'rgan hurmat va ne'matning ovozi bilan boshqalar ham yig'ildilar, hatto Afg'onistondan yangidan ko'p kishi qochib kelib ushbu dastaga qo'shildilar.

Afg'on ko'ngillilarining dastalari mustaqil bo'lib, boshliqlari ham o'zlaridan edi, bular bora-bora xudsarona harakatlarini butun chekdan oshirdilar. Istagan hovlilariga, xushlagan bog'lariga kirib o'tirarlar, istagan odamlarini jadid deb ular, hukumatiga eltib topshirar,

hukumatdan ham tilagan har bir narsalarni olar edilar. Bular xalqning bolalariga ham zulm qila boshladilar. Bir vaqt afg'onlar bilan SHerbachchalarning oralari buzildi, afg'onlar tomon bir isyon holiga keldilar, amir afg'onlar tomonini himoya qilib, Sherbachchalar dastasini Karmanaga (Buxorodan) uzatdi va buni ko'gan afg'onlar burungidan ham battar tajovuzga kirishdilar, o'zlariga ozgina hiloflik ko'rsatgan odamni yaroq bilan qo'rqita boshladilar.

Hatto o'ldirgan kimsalar ham bo'ldi. Chunonchi, choyfurush Hoji Rahmatning bir odamini urib o'ldirdilar. Oqibat afg'onlar Buxoro xalqining butun joniga tegdi. Har erda afg'onlar qo'lida shikoyat qila boshladilar. Buxoro hukumati butun kun afg'onlar masalasi bilan mashg'ul bo'lgan holda bunga hech bir chora topolmas va o'zi bergan yaroqlarning qo'lidn ola olmas edi.

S. Ayniy amirlikdagi harbiy masalalarga doir qator asarlarida bu soha deyarli biror ijobiy fikr bildirmaydi. Sherbachchalar guruhi xususida fikrni davom ettirar ekan –“Sherbachchalar butun mashhur o'g'rilar yig'ilgan edi. Ushbu dastaga kira olmoq uchun qanday o'g'riliklar qilib, qancha kornomalar, dalillar va shahidlar bilan qilish lozim. Har kim qancha o'g'rilik qilgan bo'lsa, o'shancha yuqori martaba topar edi. Bir Buxoro o'g'rilarigina emas Samarqandning ham mashhur o'g'rilari hukumatdan ulug' darajalar topdilar. Sherbachchalar Buxoro ichida amir bergan yaroqlar bilan o'z hunxo'rlik g'addorliklarida davom qilganliklaridek, Karmanaga ko'chgandan keyin ham, eski ishlarini ishlay berdilar. Hatto Karmanada muntazam dasta bo'lib, chiqib yo'llarni bosdilar”- deb yozadi.

Bolabomchilar. Amir Nasrullo rus harbiy asirlari Ismoil va Trofim murabbiyligida piyoda sarbozlardan tashkil topgan harbiy musiqachilar guruhi – bu bolabomchilar (tom ustidagilar) edilar.

Asos solingan dastlabki davrda bolabomchilar 700 kishilik harbiy bo'linmada 14 barabanchi (nag'orchi), 14 naychi (fleytist), 2 dulchi (turk barabanlari namunasi), 4 surnaychi, 6 trubachidan iborat bo'lgan.

Bolabomchilar dastlab jangchilarni ruhlantirish, harbiy mashqlar, ertalabki uyg'onish, qatl ettirish chog'larida faoliyat ko'rsatishgan. Keyinchalik, hususan, amir Abdulahadxon va Sayid Olimxon davrlarida

bu guruhga katta e'tibor berilib, ularning xizmat doiralari kengaytirilgan. Bu davrda ularga harbiy kiyimlar berilib ilgari ularda aksariyat turk va mahalliy musiqa asboblari bo'lsa mazkur darda rus musiqa asboblari bilan takomillashtirilgan.

XIX asr oxiridan, yuqorida aytib o'tganimizdek, bolabomchilarning xizmat vazifalari doirasi kengayib, ular endilikda deyarli barcha guruhlar tarkibida tashkil etilib harbiy mashqlar, chet el mehmonlari yoki nufuzli kishilar tashrifi va boshqa o'nlab hollarda ularning xizmatidan foydalanishgan. 1873-1920 yillara bolabomchilar tarkibi ma'lum darajada o'zgartirilib, turli harbiy bo'linmalarda ular soni turlicha edi. Buxoro bekligidagi sarbozlar tarkibida 64 kishidan iborat 4 guruh bolabomchilar bo'lib, har bir guruhda 4 nog'orachi, 4 surnaychi 2 dulchi (katta nog'ora) 1 yasovul va 1 boshliqdan – 16 kishidan tashkil etilgan. Bolabomchilar rahbari "Mudjur" (dirijer) deb nomlangan.

Amir Abdulahadxon riqobga chiqqan chog'ida uning oldida doimo 20 kishidan iborat bolabomchilar ham yurishgan. Mudjur yuzboshi darajasidagi harbiy mansabdor hisoblangan.

Bundan tashqari, Terskiy otryadida 50 bolabomchi, Kuban kazaklarida 35, Shefskiyda 40, Arabachchalar tarkibida 25-30, Turkman favjida 34 kishidan iborat bolabomchilar mavjud edi. G'ulombachchalar, Sherbachchalar, el navkariyasi tarkibida bolabomchilar bor yo'qligi hususida manbalarda ma'lumotlar uchramaydi.

Abdulahadxon xukmronligi davrida sarbozlar 60 yoshgacha harbiy xizmatni o'tashi, ularning tarkibidagi bolabomchilar esa 30-35 yoshgacha xizmat qilishi lozim bo'lgan. 35 yoshdan oshgan bolabomchilar sarbozlar tarkibida harbiy xizmatlarini davom ettirishgan.

Bolabomchilarning (ayniqsa Buxoro shahridagi) kiyim kechaklariga amirlar tomonidan katta e'tibor berilib, yilida 3 marta mavsumiy kiyimlar berilgan. XX asr boshlaridan esa ularga uzun qilich (Rossiya namunasidagi), xanjar, 1877 yil namunasidagi rus to'pponchasi beriladigan bo'ldi. Amirlikdagi bolabomchilr rus harbiy musiqachilaridan qolishmagan, biroq zamonadan orqada qolgan jangovorlik holati past bo'lgan, o'rta asrchilik eskirgan an'analarni

o'zida saqlab kelayotgan qolaversa, Rossiya imperiyasi vassaliga aylangan amirlik qo'shini uchun bunday dahmaza ortiqcha edi.

Umuman, amirlikda qo'shin tuzilishi masalasiga doir quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

- Temuriylar saltanati parchalangandan to XIX asr boshlariga qadar amirlik hududida qo'shin tuzilishi turg'unlik holatida saqlanib kelindi;

- Bu uzoq muddat ichida dunyoning turli mamlakatlarida harbiy ish san'at darajasiga ko'tarilib bo'lgan edi;

- XIX asr o'rtalarigacha bo'lgan davr ichida garchi qo'shin tuzilishida o'zgarishlar ko'zga tashlansada, biroq, bu e'tiborga loyiq darajada emas edi;

- Buxoroning so'nggi amirlari Abdulahadxon va Olimxonlar XX asr boshlarida qo'shin tuzilishida bir muncha ijobiy o'zgarishlar qilishga urindilar. Biroq, asosan shaklan kiritilgan o'zgarishlar qo'shin faoliyatidagi jangovarlikni etarli ta'minlamadi. Hususan, amirlik qo'shini XIX asr oxiridan boshlab saf tortish, harbiy mashqlar, safda yurish, kiyinish va ma'lum jihatlar, qolaversa Rossiya imperiyasi harbiy nizomi va ustavini qabul qilingan bo'lsada, ba'zi ilg'or qonun-qoidalarida chekinildi. Masalan, sarbozlarning xizmat yoshi, qo'shin safiga qabul qilish, sarbozlarga nisbatan tan jazosining qo'llanishi va boshqa o'rta asrchilik qoidalari saqlab qolindi;

- amirlarning bosh qarorgohi - Arkni qo'riqlashdek jiddiy ish g'ulombachalarga (ya'ni qullarga) topshirilganligi, umuman qo'shin tarkibida qulchilikning saqlanganligi (amir fikricha qullar eng sadoqatli kishilar emish) ona – Vatan himoyasiga befarqlik bilan qarash, deb hisoblash mumkin;

- 1917-1920 yillarda ma'lu darajada qo'shin tuzilishi ishiga yangidan e'tibor qaratildi. Mazkur yillar Buxoro amirligining siyosiy jihatdan mustaqilligini e'tirof etadigan bo'lsak, yurt ozodligini saqlab qolish ularning eng asosiy vazifasi edi. Biroq, qisqa muddat ichida bu ishni hal etish qiyin edi. Bunga to'g'anoq bo'layotgan o'nlab sabablar mavjud edi;

- Rossiya imperiyasi vasalligi davrida amirlik chegaralari asosan rus qo'shinlari homiyligida qo'riqlandi. Yangi zamon talablari asosida qo'shin tashkil etib, uni mukammal holga keltirishga na ehtiyoj, na hohish bo'lib, buning ustiga vassallik tug'i bunga yo'l qo'ymas edi;

- Yangi tashkil etilgan nizomiy harbiy guruhlardan amirning o'zi ham qo'rqa boshladi. Ayrim holllarda ularni boshqarish juda qiyinlashib hatto, ba'zi masalalarda amir Sho'ro hukumatidan yordam so'ray boshladi;

Mazkur holat esa amirlikning emirilish jarayonini yanada tezlashtirdi. Buxoro davlatida XVIII asrning II yarmidan boshlab mang'it sulolasi namoyondalari hukumronligi boshlandi. Bu sulolaning asoschisi Rahimbiy ibn Hakimbiy va Doniyolbiy otaliqlar hukumronligi davrlarida harbiy mansab va unvonlar berish ashtarxoniylar sulolasi an'analari asosida saqlanib kelingan.

Amir Shohmurod 1785 yili Buxoroda amir (ul - mo'minin) nomi bilan taxtga ko'tarilganidan so'ng, voqealar rivoji jarayonida Buxoro amirligida, davlatning siyosiy tizimi, idora etish tartib qoidalari unvon va mansablar, ular egalarining nomlanishi, vazifalari va boshqa ko'pgina sohalarda muayyan o'zgarishlar yuz bera boradi. Biroq, tadqiqot jarayonida quyidagi muammoli masalalarga e'tiborni qaratish zarur;

– Amirlikdagi saroy unvon va mansab egalarining ko'pchiligi bir paytning o'zida harbiy unvon va mansab egasi ham ekanligi;

– Kichikroq mansab bilan nom qozongan mansab egalarining yuqori lavozimga erishgan davrida ham uning ismiga oldingi mansab qo'shib aytilishi va aksincha;

– Amirlikdagi unvon va mansablarning turli davrlarda turlicha ahamiyat kasb etishi;

– Bir xil nomlanishdagi mansab egalarining uchala davlatda (Buxoro, Hiva, Qo'qon) turlicha vazifalarda faoliyat ko'rsatishi.

Buxoro davlatida mamlakatni amir boshqargan. 1917 yili Hoji YUsofbiy ibni Muqimboy amir Olimxonning ishonchli elchisi Parijda Millatlar Ligasi anjumanida so'zga chiqib shunday ma'lumotlarni keltirgan edi: "...Buxoro amirligi shariat va odat vojibotlariga suyanib hukum surar edilar. Ulamo amirni payg'ambar halifasi va islom

shariatining homiysi deb bilardi. Amirning sharoiti shariatga batamom mutobiq edi. Buxoro xonlari o'zbeklarning mang'it sulolasidan bo'lganlar. Taxtga ko'tarish paytida o'zbek odatlariga ko'ra to'shakchaga amir o'tiradi va uni saidlar, xoja va mullolar ko'tarib taxtga o'tkazadilar". Amirlikda bunday tartibda taxtga o'tkazish Buxoro xonlik bo'lgan davrda ham mavjud edi. 1868 yilning bahorida Buxoro amirligida Shahrisabzliklardan tashqari 12 batalon piyoda askarlar, 150 to'p, 20-30 tagacha otliqlar yuzligi; hammasi bo'lib 12 ming piyoda askardlar, 1500 to'pchilar, 3 mingtachaotliq askarlar bor edi. Bu qo'shin amir Nasrullo tomonidan tuzilgan bo'lib, hukumdor qo'shini bilan atrofdagi davlatlar bilan bo'lganjanglarda tez-tez g'alaba qozonib turar edi.

Buxoro amirligi qo'shni xonliklarga nisbatan harbiy jihatdan qudratli hisoblansada aslida uncha katta va kuchli emas edi, buning ustiga ular harbiy ishlarda uquvsiz edilar. Amir Nasrullo davrida harakatdagi qo'shinni shakllantirish va o'rgatish ishlari bilan eronlik muhojir asli nasl-nasabi forslardan bo'lgan Abdusamad shug'ullanar edi. U Eron va Hindistonda qilgan jinoyatlari uchun Buxoro amirligi hududiga qochib o'tgan edi. 1868 yildan Buxoro qo'shiniga sibirlik kazak qochoqlaridan Usmon va turk bo'lgan Xo'jalar harbiy rahbarlikni o'z qo'llarida to'plangan edilar.

Amirlik askarlarining bir necha guruhlari turk va afg'on nizomi asosida olib borilib, keyinchalik deyarli bircha qo'shinda rus harbiy nizomi joriy etildi.

Qo'shin rahbarlari xususida mualliflarning fikrlari turlicha e'tirof etiladi. Polkovnik M. Lyko Usmon xususida quyidagilarni bildirib o'tgan: u Sibir kazaklari qo'shinlaridan bo'lib, 1860 yilda Qo'qonga qochib kelgan. Bnga uzoq vaqt qamoqda o'tirgan va 2 marta armiyadan haydalgan. U aqlli va jasur bo'lgan. Qo'qon xonligida Mulla Aliquli qo'shiniga urush sirlaridan saboq bergan. Usmon o'rgatgan sarbozlar 1864 yilda Oybuluqda bo'lgan jangda yaxshi qatnashgan. 1865 yil general Chernyaev Toshkentni qamash qilganida Usmon Aliqulining vafotidan keyin Qo'qon xonligi qo'shinining katta qismiga rahbarlik qilgan. O'sha paytda amir Muzaffarxonning Qo'qonga qilgan yurishi

chog'ida Usmon asirga olinib, amir tomonidan o'limga mahkum etiladi. Lekin Buxoro sarbozlarini o'rgatish evaziga o'limdan omon qoldi. Amir unga dastlab 25 sarbozga, keyinchalik bek unvoniga sazovor bo'lgach, 3 ming otliq sarbozlarga rahbarlikni topshirgan.

Boshqa mualliflar fikricha, Buxoro xarbiy qo'shini ba'zida uquvsiz, nomunosib odamlar boshqargan. Hulqibuzuq Shohruxxon, shubhali Abdusamad yoki ichuvchi Usmon amirlikning harbiy qo'mondonlari bo'lgan. Ushbu rahbarlarning layoqatsizligi tufayli amirlik sarbozlarining harbiy dala mashqlari xususida L. Kostenkoning ta'kidlashicha, Buxoro sarbozlari otish u yoqda tursin, safda to'g'ri yurishni ham bilmas edilar.

Amirlik boshqaruvidagi unvon va mansablarning qisqacha tavsifi quyidagicha. Ularni to'la holda keltirishdan maqsad harbiy unvon va mansablar bilan ma'muriy boshqaruv mansablarining ko'pgina xollarda qo'shib ketganligidir.

Amir saroyida quyidagi unvon va mansablar mavjud bo'lgan:

Udaychi, (arab. aslida hidoyachi)- naqib maslahati bilan saroyni mulozim va xizmatkorlar bilan ta'minlash, Peterburg va Turkiston general-gubernatorligida elchilik vazifalarini bajarish, urush va yurishlar vaqtida navkarlarni saf tortishini tartibga solish ishlari bilan shug'illangan;

Shig'ovul (turkcha) – To'qsabo (turkcha) Eshikog'aboshi (turkcha) mansabdorlarning shaxsiy adyudanti hisoblanib, mehmonlar elchilarning qabuliga mas'ul shaxs sanalgan;

Mirza Munshiy (arab.) – To'qsabo mansabidagi amirning shaxsiy kotibi;

Mirza Mushrif (arab.) – To'qsabo mansabidagi kotib;

Amaldori mehmonxona (arab. fors) – amir qabulxonasidagi mansabdor;

Devonbegi (arab.turk) – kirim-chiqim, amirlikdagi hisob – kitoblar uning qo'lida edi;

Miroxurboshi (arab.fors.turk) – amir otlariga em, xashak, somon, beda etkazib beruvchi amaldor;

Mirshabboshi (arab.fors.turk) – amirlikda ichki tartibni saqlovchi amaldor;

Jamoa (arab) – ya'ni qoravulbegidan tortib Dodxoh amaldorlarigacha bo'lgan mansabdorlar bilan suhbat olib boruvchi kishilar;

Yurchi (turk.fors) – amir sayohati chog'ida oldinda boruvchi amaldor;

Amaldorlar – ya'ni ular amirlikda oqsoqollar hisoblanib, o'z navbatida amir beklari o'rinbosarlari hisoblanishgan;

Shogirdpesha (fors) – amirlikda pochta ishlari bilan shug'ullanuvchi amaldor;

Sarkarda (fors) – Buxoro armiyasi boshqaruvchilaridan;

Mahramlar (arab) – amirning yaqin xizmatkorlari;

Farroshboshi (arab.turk) – amir oshxonasidagi amaldor;

Sharbatdor (arab.fors) – non va sharbatga ma'sul shaxs;

Tilmochlar (turk.) – tarjimonlar;

Oftobachi (fors.) – suv quyuvchi;

Bakovul (mo'g'ul.turk) – oshpaz;

Shabgard (fors) – tungi soqchi;

Hullas saroyidagi unvon va mansablarning soni 3000 mingga etgan.

Qo'shbegi devonxonasida quyidagi unvon va mansab egalari mavjud edi.

Qo'shbegi (turk.) – Bosh vazir;

Tilmochlar (turk.) – tarjimonlar;

Mirza -ish yurituvchi;

Yasovulboshi (turk.) – Qo'shbegi yordamchisi biy mansabida;

Yasovulboshi - To'qsabo mansabidagi II darajali yordamchi;

Yasovullar – turli vazifalar bajaruvchi amaldorlar;

Mirshabboshi – Ichki tartibni saqlovchilar;

Amaldori mexmonxona – qabulxona mas'uli;

Amaldorlar – oqsoqollar;

Devonbegi - hisob-kitob, xo'jalik yurituvchi;

Miroxurboshi – otlar uchun mas'ul shaxs;

Farroshboshi (arab.turk) – oshxona boshlig‘i;
Shogirdpesha – aloqa xizmati amaldori;
Sharbatdor – non bilan ta‘minlovchi amaldor;
Shabgard – mirshab xuzuridagi tungi soqchi;
To‘pchiboshi (turk.) – zindon va qamoqlar boshlig‘i;
Aminanochi (arab. Fors.) –bozorlardan soliq yig‘uvchi;
Mahramlar (arab) – yaqin shaxsiy xizmatkorlar;
Navkarlar (fors.) - 500 kishilik qo‘riqchilar.

Bundan tashqari devonbegi boshqaradigan moliya bo‘limida: Mirzaboshi, Shogirdpesha, Amaldori mexmonxona, Zakotchi, Miroxurboshi, Sharbatdor, Mahramlar, 300 kishilik navkarlar va past tabaqali mansabdorlar faoliyat ko‘rsatgan.

Diniy ishlar boshqarmasida Qozi kalon mirzaboshi, Qozi, Mullo Azimlar (qidiruv ishlari vakillari), Devonbegi, Mirohurboshi, Mahramlar hamda quyi tabaqa (vakillaridan) amaldorlaridan (olomon va xizmatchi) tashkil etilgan edi. SHu bilan birga amaldorlikdagi beklik huzurida, amloklar boshqaruvi huzurida ham ko‘plab mansabdor shaxslar davlat idora ishlari bilan shug‘ullanishgan.

Harbiy unvonlarni quyidan yuqoriga sanab o‘tadigan bo‘lsak bu hol quyidagicha ko‘rinish oladi: 1. Chehraog‘asi. 2. Jibachi. 3. Mirzaboshi. 4. Qoravulbegi. 5. Miroxur. 6. To‘qsabo. 7. Eshikog‘aboshi. 8. Biy. 9. Dodhoh. 10.Inoq. 11.Parvonachi. 12.Qo‘shbegi. 13. Otaliq.

Agarda bu mansab egalarini o‘sha davrdagi rus harbiy unvonlari bilan qiyoslab solishtirilganida har bir mansabdorning pog‘onasi aniq bo‘ladi:

1. Chehraog‘aboshi – unter ofitser.
2. Jibachi – feldbel.
3. Mirzaboshi – podporuchik.
4. Qoravulbegi – poruchik.
5. Miroxur – kapitan.
6. To‘qsabo – podpolkovnik.
7. Eshikog‘aboshi – polkovnik.
8. Biy – brigadir.
9. Dodhoh – general-mayor.

10. Inoq – general leytenant.
11. Parvonachi – to‘liq general.
12. Qo‘shbegi – kansler.

Amir Olimxon hukmronligi davriga kelib, Buxoro armiyasi boshida To‘pchiboshi turib u asosan Dodhoh darajasidagi mansabdorlardan tayinlangan. To‘pchiboshi konselyariyasi 10 kishidan iborat Mirzaboshi, Biy amalidagi yasovulboshi, turli xil unvondagi yasovullar, qurol – yarog‘ ombori uchun mas’ul shaxslar va bir necha shaxsiy xizmatkorlardan iborat bo‘lgan.

To‘pchiboshi amali 2 xil bo‘lib birinchi – “To‘pchiboshi askar” ikkinchisi – “To‘pchiboshi darvoza” (ark to‘pchiboshisi), ya’ni ark ichidagi xavfsizlikka javobgar shaxsdir.

Darvoza to‘pchiboshisi ark ichida faoliyat ko‘rsatilib, unga mazkur hududda 50 harbiy biriktirilgan. Ulardan 20 nafari, aytganimizdek, har kuni shahar ichidagi vaziyatni tekshirib maxfiy xabar va sodir bo‘layotgan voqea xodisalarni etkazib turgan. Bular amir “josuslari”dan farq qilib davlatga qarshi harakat qatnashchilarini voqea ro‘y bergan joyda qo‘lga olish huquqlariga ega bo‘lishgan. 20 nafar darvoza To‘pchiboshisiga qarashli bo‘lgan kishilar esa ark ichida faoliyat ko‘rsatib o‘ziga xos xavfizlik xizmatini o‘tashgan. Qolgan 10 kishi esa obxona, kanaxona va to‘plar qo‘riqlash ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishgan.

Askar to‘pchiboshisi lavozimida mang‘it amirlari davrida Abdurahimbek inoq lashkarboshi, Abdusattor inoq, Mullo Muhammad, Alimadad, Mullo Mahmud, Mullo Xolmurod, Shodibek inoq, Akram inoq, Abdulqodir inoq faoliyat ko‘rsatishgan. Ulardan eng mashhurlari amir Axadxon davrida Qarshi hokimi vazifasida ham ishlagan Akrambek, amir Olimxon davrida sobiq bosh mirshab Abdusattorbeklardir.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlariga kelib “dasta” deb nom olgan yuzlik yuz nafar harbiy xizmatda bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa, yuza 200 nafar askardan iboratligini ham ko‘ramiz. “Satboshi” ya’ni, yuzaboshi, 50 nafardan iborat “nimdasta” deb nomlangan harbiy bo‘linma boshlig‘i panjohboshi ya’ni ellikboshi,

25 kishilik (vzvod) “rasad” deb nomlangan, 12-13 kishilik (ba’zan 10 kishilik) bo’linma boshlig‘i dahboshi (o’nboshi) deya yuritilib kelingan. Yuzaboshi mansabidan so’ng uni yordamchisi sifatida qoravulbegi amalidagi harbiy turgan.

O’rta Osiyo xonliklarida davlat boshqaruv organlari va ularning tuzilishi, funksiyalari yaxshi o’rganilmaganligi uchun mansabdor shaxslarning nomlarini bildiruvchi atamalar tarixchilar uchun qiyinchilik tug’dirmoqda. Bu ayniqsa, Buxoroning o’rta asrlardagi va undan keyingi davriga taaluqli Buxoroning u yoki bu mansabdor shaxslarning nomlarini aytganda, uning mahalliy nomi izohsiz qolgan yoki berilgan izoh haqiqatga to’g’ri kelmagan va chalkashliklarga sabab bo’lgan. Masalan: – Dodhoh “sudya”ni, “Otliq” – Buxroda mansab jihatdan amirdan keyin shaxs va “shahar hokimi” sifatida aytilgani noto’g’ri. O’rta Osiyoda hech qachon shahar hokimi “otaliq” deb atalmagan. “Inoq” esa o’zbek qabilasi boshlig‘ining nomi bo’lmagan.

Buxoro amirligida oliy harbiy unvon, qo’shbegidan keyingi o’rinda turuvchi shaxs, keyinchalik Devonbegidan so’ng otaliq; Xiva xonligida – katta inoq G’arbiy Evropadagi mayor unvoniga to’g’ri keladi. O’rta Osiyoda o’zbek qabilalarining boshliqlari inoq deb atalmagan.

O’rta Osiyo xonliklarining davlat tuzilishini aniq tasavvur qilish, ya’ni bilish uchun tarixiy manba va hujjatlarga asoslanib har bir lavozimning majburiyat va vazifalarini o’rganish katta ahamiyatga ega. Ana shu asnoda quyi mansabdan harbiylarga ta’rif berib o’tamiz:

Chehraog’asi (fors.turk) – amir tomonidan yorliqqa ega bo’lgan birinchi harbiy mansabdor bo’lib bu lavozimdagi kishining vazifasi o’zangidor va jilvadorlar orasida muhtasib vazifasini bajarishdan iborat bo’lgan.

Chehraog’asi mansablarda chehraoqasi sifatida ham talaffuz qilinib, o’rta asrlarda monarhiya hukmron bo’lgan davlatlarda monarxning, ya’ni podshoning yonida turuvchi oliy nufuzli oiladan chiqqan yosh yigit yoki adyutant so’ziga mos keladi;

Jibachi (turk.) – amirlikda jiba yasovchilikdan yuqori martabaga erishgan ham harbiy ham saroy amaldorlari;

Mirzaboshi – amirlikning barcha boshqaruv tizimida mavjud bo‘lgan mansab egasi hisoblanib, bunday mansab egasi tabiiyki, harbiylar ichida ham ehtiyoj bo‘lgan. Mirzaboshi asosan, ish yurituvchi hisoblanib qo‘shin tarkibidagi yozuv chizuv ishlari uning qo‘lida edi;

Qoravulbegi – qoravullar, posbon va soqchilar boshlig‘i. Qoravulbegi davlat tinchligi va xavfsizligiga javobgar shaxs hisoblansa, harbiy harakatlar chog‘ida unga tegishli kishilar qo‘shin xavfsizligi, uni qo‘riqlash, soqchi posbonlar qo‘yish singari ishlarga mashg‘ul bo‘lgan;

Mirohur – ushbu mansab egasi amirlikda dastlab amir otlariga em, xashak, somon va beda etkazib beruvchi amaldor hisoblangan. Keyinchalik ushbu xizmatgan rahbarlik qilish bilan birgalikda Komi Abumuslim tumani mirobligi uchun ham javobgar shaxs sifatida e’tirof etilgan. Harbiy harakatlar chog‘ida uning roli baland hisoblanib, Rossiya imperiyasidagi kapitan unvoni darajasidagi amaldor hisoblangan;

To‘qsabo – ushbu amal egasi amir dasturxonini ustiga idish tovoqlarni tartib bilan qo‘yib, amirga sharbat, ayron va yaxna ichimlik quyib berardi.

Amir majlisi dasturxonini nazorat qilib Xarqonrud tumanining hokimligi va mirobligi ham uning qo‘lida edi. Harbiy harakatlar chog‘ida to‘qsabo amir tug‘ini (bayrog‘ini) ko‘tarib yurishdek oliy vazifani ado etar edi;

Eshikog‘aboshi – saroy darvozalarini qo‘riqlash ishlarini boshqarar edi. Oybolta Eshikog‘aboshi mansab alomati bo‘lgan. Hukmdor saroyda bo‘lgan vaqtda u amirni qo‘riqlash bilan shug‘ullangan. Eshikog‘aboshi arazgo‘ylarning nima hususida kelganliklarini surishtirib, ularning saroydagi tegishli amaldorlar tomoniga yo‘lar edi. Faqat juda muhim xabarlar bilan kelgan kimsalarnigina amir huzuriga kirgizilar edi. Harbiy harakatlar chog‘ida uning unvonni polkovnik darajasida bo‘lgan;

Biy – asosan saroy amaldori hisoblansada bu mansab egalari dodxoh bilan birgalikda harbiy yurishlar chog‘ida yuqori nufuzga ega shaxs sanalgan. Bunday paytda ularni miri dasta, amiri navkariya yoki sarkarda (qancha qo‘shinga rahbarlik qilishga qarab) deb ataganlar;

Dodxoh – amirlikda xalq dardi, fikrini eshitib, amirga habar beruvchi mansab egasi. XIX asrga kelib mazkur lavozim egasi harbiy vakil darajasiga ko'tarilgan. Harbiy ishlar bo'yicha eng yuqori darajadagi bu mansab egasi o'z navbatida vazir darajasiga ko'tarilgan. Uni ko'proq lashkar to'pchiboshisi deb ataganlar. Aniqrog'i, to'pchilar qismining qo'mondoni hamda Buxoro gornizoni boshlig'i – lashkar boshlig'i sanalib amalda xarbiy vazir vazifasini o'tagan. Biroq, XIX asr oxiri XX asr boshlarida harbiy vazirlar vazifasini ko'proq qo'shbegi bajarilganligini ko'ramiz.

Inoq – ushbu mansab egasi Katta inoq, Kichik inoq ya'ni 2 darajada bo'lib, Katta inoq umaro, shogirdpeshalar va boshqalarga amir musharraf bo'lgan yoki bo'lmagan yoki bo'lmaganlari haqida xabar berar edi. Inoqi hurd yoki Kichik inoq egasi amir muhrlari saqlanadigan sandiqchaga posbonlik qilar edi. Elchilarning arizalari avval inoqi xurd qo'lga berilar edi. Elchilarning arizalari avval inoqi xurd qo'lga berilar edi;

Parvonachi (fors.kapalak degani) – amir farmoniga binoan uning yorliqlarini umaro va zodagonlarga (kapalakdek borib kelib) etkazar edi;

Qo'shbegi – Buxoro vazirlarining eng ulug'i hisoblangan. Qo'shbegi bu qo'sh, harbiy stavka, lagerning qo'mondoni. Qo'shbegi (qush, parranda so'zidan) deb ham manbalarda keltirilgan mansabdor ovchilar, ovchilikasboblari, qushlar va itlardan xabardor bo'lib turadigan amaldor hisoblangan.

Qo'shbegi davlatining eski, tajribali, ishbilarmon, siyosiy ahvoldan xabardor odamlaridan tasdiqlangan. Nomzod, avval Devonbegi mansabiga musharraf bo'lmog'i lozim bo'lib, shunda Qo'shbegi bo'lishga loyiq sanalgan.

Agarda hokim bo'lsa, uni vazirlik mansabiga tayinlangan. “Qo'shbegi podsho, askar, ahli vazifa va fuqaro manfaati uchun harakat qilmog'i zarur edi. SHunda davlati Oliy uzoq muddat davom etadi. Aks holda bu ishning uddasidan chiqmasa, manfaatidan zarari ko'p tegsa, beparvo bo'lsa, kundalik va viloyat islohotini bilmasi, mansabidan olingan”. Qo'shbegi poyon esa harbiy yurishlar vaqtida lashkarboshi etib tayinlangan. Qo'shbegi ixtiyoridan tilmochlar (tarjimonlar), mirza,

yasovullar, mirshabboshi, amaldorlar, miroxurboshi, devonbegi, farroshboshi, shogirdpesha, shabgard, inoq, dodhoh, navkarlar va boshqa mansab egalari faoliyat ko'rsatishgan.

Qo'shbegining huquqi boshqa vazirlarnikidan ko'p darajada ortiq bo'lgan. Hibisga olish, jazo berish, qatl qilish (bu vakolat faqat amir roziligi bilan), gunohkor molini musodara etish huquqlariga ham ega bo'lgan. Uning bir necha umumiy devonbegilari bo'lib, ular minglab kishilarga taom va sarpo berishlari mumkin bo'lgan. Qo'shbegining hashamati podshoning hashamatiga yaqin bo'lgan. Amirlikda to'qsabodan boshlab oliy mansab hisoblangan va mazkur mansab egalari viloyat hokimlari vazifasida ishlashga haqli edilar.

Yuqorida bayon etilganlaridan tashqari oraliq va quyi harbiy amal, unvon va mansabdorlar mavjud edi.

Tunqator (turk) – Mirzaboshi va jibachi oralig'idagi harbiy mansab egasi hioblanib, saroyda darvoza oldida turadigan qoravullar va maxsus darvozabonlardan tashqari xonni qo'riqlaydigan tunqatorlar yoki tunotarlar, ya'ni kechasi bilan uxlamay chiqadigankishilar bo'lgan. Harbiy yurishlar vaqtida amirdan tashqari katta mansab egalarining tunqatorlari bo'lgan. Tunqator Qo'qon xonligida 6-darajadagi harbiy mansabdor hisoblangan;

Qo'rchi (turk.fors.) Chehraog'asi darajasidagi amal egasi hisoblanib, qurol aslaha, o'q dori uchun javobgar shaxs hisoblangan;

Udaychi – urush va yurishlar vaqtida navkarlarni saf tortishini tartibga solar, naqib maslahati bilan saroyni mulozim hamda xizmatkorlar bilan ta'minlar edi. Udaychi ba'zi manbalarda Hidoyachi ham deb yuritilar edi;

Chobuqchi hazinachi, risolachi va to'fangchi (miltiqsoz) yuqoridagi amaldorlardan pastroq turar edi. Bundan tashqari harbiy amallar qatoriga Chandovul, Yo'lchi, josus, sadoqchi, qilich qo'rchilarini ham kiritish mumkin edi. Harbiy kiyim-kechaklar, oyoq kiyimlari va boshqa anjomlar yasovchi kishilar ham ma'lum darajada harbiylar orasida o'z nufuziga ega edilar.

Kafshbardor (poyafzal ko'taruvchi), asobardor (aso ko'taruvchi), ko'rpabardor (libos beruvchi), dastorband (salla o'rovchi), tamakisoz

(tamaki qiluvchi), otashbardor (chilinga olov yondiruvchi), zinbardor (egartiruvchi), jilovdor, roiz (otlarni rom etuvchi), tug‘begi, shukurchi, nayzabardor, jilov qo‘shbegisi, mash‘alchi, tirkashbardor (o‘qdon ko‘taruvchi), chopquchi (pichoq yasovchi), muza pardozi (amaldorlar etigini tozalovchi) va boshqa o‘nlab amal egalarini harbiy sohada ham faoliyat olib borganligini kuzatamiz. Yangi xizmatga kelganlar navkar (naukar) mahram, yasovul, qoravul yoki qora olomon bo‘lib, ishga qabul qilinar edi.

Ma‘lumotlariga qaraganda eng oliy diniy mansab qozilar amali bo‘lgan. Ulardan oliy darajada shayx ul-islom unvoni, qozi ul- quzot, uchinchi qozi askar va to‘rtinchisi viloyat qozisi xisoblangan. Bizga tegishli bo‘lgan uchinchi darajali qozi asosan harbiy kishilar ustidan hukm chiqarish, sud qilish ishlarini bajargan, Buxoro shahridagi Mir arab madrasasida qozi askar lavozimi uchun o‘qitilgan, biroq qozi askar, muftiy askarlarning o‘qitilishi bilan qolgan kasb uchun o‘qitiladigan dars mashg‘ulotlari bir xilda olib borilgan. Shuning uchun ularni harbiy soha mutaxassislari deya olamiz.

Shu martabaning ikkinchi pog‘onasida muftiylar turgan. Uning yuqori darajasi a‘lam unvoni bo‘lib, soxibi yurushi va lashkar tortishlar vaqtida fatvo berar edi. 1842 yilda amir Nasrullo (1827-1860) a‘lam va mufti askar fatvolarini olib Qo‘qon xonligiga qarshi yurish qilgan. Qozi askar va muftiy askar u yoki bu viloyatga borganda shu viloyatdagi bu kasb egalari vakolati xech qanday ko‘rsatmasiz tugaydi, chunki bu qonunda ko‘rsatilgan. Buxoro amirligidagi xarbiy unvon va mansab egalari nomlanishadi, xizmat vazifa va boshqa ko‘plab jihatlarida o‘sha davrda mavjud bo‘lgan boshqa xonliklarnikidan farq qilgan.

Buxoro amirligidagi harbiy unvon va mansab egalari nomlanishida, xizmat vazifalarida va boshqa ko‘plab jihatlarida o‘sha davrda mavjud bo‘lgan boshqa xonliklarnikidan farq qilgan.

Buxoro amirligida mansabdorlarga tayinlash yoki mansabdan olish qay tartibda ekanligi tadqiqot doirasi markazini egallaydi.

Amaldor nom (mansab) bilan mashhur bo‘lgan. Masalan: chehraog‘aboshi, mirobboshi, agar bekozda bek avlodi bo‘lsa avvalo, tunqator, keyin jibachi, bekozda bo‘lmasa ikki amaldan so‘ng, tunqator,

so'ng jibachi, qoravulbegi, mirohur, to'qsabo, eshikog'aboshi, biy, parvonachi, dodxox, kichik inoq, katta inoq, devonbegi, qo'shbegi, otaliq darajalariga ko'tarilishlari mumkin bo'lgan.

Quyidagi ma'lumotda biz mirzaboshilikdan jibachi amaliga o'tganligini ko'ramiz:

- Mirzaboshi qullaringiz jibachi lavozimidan umid qiladi; - Abdulqayum Mirzaboshi, Sodiq Mirzaboshi, Yo'ldosh Mirzaboshi, SHohimardon mirzaboshi, Rajabali mirzaboshi, Muhammadbek mirzaboshi, Islom mirzaboshi... va hokazo.

Quyidagi axborotda esa biz bek avlodi bo'lgan bekdotalarni mirzaboshilikdan (tunqatorlikdan sakrab) to'g'ridan to'g'ri jibachilik amaliga erishganligini ko'ramiz.

An'anaviy holatlarda esa chehraoqalikdan mirzaboshi lavozimiga va boshqa amaldorlarning yuqori mansabga da'vo qilishlarini ko'ramiz: "...quyidagi qullarinigiz chehraoqalikdan mirzaboshi lavozimiga o'tish umididalar: Boboxo'ja chehraog'a, Hamidjon CHEhraog'a, Rahmonqul chehraog'a, Eshmurod chehraog'a, Qosim chehraog'a". YOki "Jibachi qullaringiz qoravulbegi amali umididalar; Nematulloxo'ja jibachi, Abdulqodirxo'ja jibachi, Sarimsoqxo'ja jibachi, Xodixo'ja mutavvali shayx, Atoulloh jibachi, Karomatilla jibachi, Inoyatho'ja jibachi, Ismatullo Domuloxo'ja jibachi, Rahmatilloh jibachi, Ibodullo jibachi, Ibrohim jibachi..."

"Quyidagi qullaringiz qoravulbeklikdan miroxurbeklik lavozimiga o'tkazishingizni umid qiladi: Maxmudxo'ja qoravulbegi, Eshmuhammad qoravulbegi, Nurmuhammad qoravulbegi, mullo SHarif qoravulbegi, Ibrohim qoravulbegi shogirdpesha".

"Qo'shiningiz tarkibidagi qullaringizni miroxurlik lavozimidan to'qsabolikka o'tkazishingiz umidida shuni ma'lum qilaman: - Ahmad miroxur shogirdpesha, Muhammad rahim Miroxur, Rahmatulloh miroxur, Mirzo Zarif miroxur, Davron mirohur, Ubaydullo mirohur, Imomjuma miroxur, Maqsudbek miroxur, Axtambek miroxur, Mirzo Jalil miroxur".

Xizmatlar uchun mahramlar "mehmonxona amaldori" db atalgan. Ular viloyat va shaharlar xizmatiga ma'mur hokimlarini nasbu-azl qilish

(lavozimga tayinlash va ozod etish), da'vogarlar talablarini isloh qilish kabi ishlarni bajarishgan. Qisqachi qilib aytganda lavozimga nomzod kishilarni nasl-nasabi, obro'-e'tibori, beradigan pora va hadiyalariga qarab bu lavozimga loyiq yoki noloyiqligini bildirib turishgan.

Bundan tashqari, faqat istisno tariqasida harbiy amaldorlar safiga keltirish mumkin bo'lgan qozi askar hamda muftiy askarlikka erishish uchungina oliy madrasada o'qish kerak edi. Boshqa barcha harbiy amal egasi bo'lish uchun o'qimishli va ma'lumotli bo'lishi shart emas edi.

Ta'kidlash joizki, ko'pgina xizmatlarda mansab egalari umrlari mobaynida o'g'illarini o'z o'rinlariga tayyorlab kelishgan va ular vaotlaridan so'ng marhumlarning o'g'illari ota lavozimini egallash maqsadida harakat qilishgan. Bu tabiiy hol, chunki yuqori lavozimli kishilar qo'liga amirlik tomonidan katta er, suv va moddiy boyliklar berilgan bo'lib, agar uning o'rniga boshqasi kelsa bu boyliklar yangi mansab egasi ixtiyoriga o'tgan.

Mabodo amir farmoni bilan aybli deb topilib harbiy amal egalari ishdan olinsa, ular yo badarg'a qilingan yoki umrbod sarbozlik xizmatini o'tashga majbur etilgan. Bunday xolatlarda Qo'shbegi buyrug'i bilan ularning mol mulklari "urg'u" yo'li bilan musodara etilgan.

Ko'pgina manbalardan biz o'nboshi, chehraog'asi, mirzaboshi singari nufuzli harbiy amaldorlarning ham harbiy xizmatdan bo'yin tovlash va xattoki harbiy xizmatdan qochishi holatlariga duch kelamiz. Unvon va mansablarga tayinlashda qat'iy qonunlar bo'lmagan. Ko'pgina amirlar bu vazifani bajarishda o'z hissiyotlari, kayfiyatlari, irodalariga tayanib ish ko'rishgan:

Amir Haydar hukmronligi davrida yuqori unvon, mansablar va mukofotlarga uncha xizmat ko'rsatmagan, o'ziga yaqin kishilar muyassar bo'laverardi. Masalan: hech qanday unvoni yo'q Hakimbiy-parvonachi, Davlatbiy esa-inoq unvoniga ega bo'lgan edi. Hisor viloyati hokimi, parvonachi Saidbiy amir Haydar bilan muzokara olib borib, Buxoroga tobe'ligini ko'rsatib birdaniga Otaliq maqomini oladi.

Bu davrda unvonlar berish to'g'risidagi farmonlarda turli musulmon bayramlari munosabati bilan amalga oshirilganligi aytib o'tiladi. Har holda butun mang'itlar sulolasi davrida xarbiy mansab

egalarining turmush tarzi oddiy askar, qolaversa boshqa aholi namoyandalariga nisbatan ancha yaxshi bo'lgan.

Yqna shuni ta'kidlab o'tish joizki, amirlik hududida ko'plab aholi yashash mavzelari, qishloqlar guzarlarga harbiy amal, unvon qolaversa, harbiycha nomlar berilgan: - Qorako'l bekligida "Qo'rchi", Kitobda Qo'rboshi Hisor, Boysun, Boljuvonda "Miltiqchi"; Komi Abu Muslim mavzeida "Miroxurtepa", Shimoliy Rud tomonida "Raboti To'qsabo Tug'begi", Samidjonda "Raboti to'pchiboshi", Xatirchida, Ziyovuddinda "Eshqorovulbegi", "Safar miroxur", "To'qsabo", Xutfar amlakligida "Buri miroxur", Kamat (Vobkent) amlokligida "Askarboshi", "Xonai otaliq" va hokazo nomlari bilan yuritilgan joy nomlari mavjud bo'lib ulardan ko'pchiligi hozirgacha saqlanib qolingan.

Buxoro amirligida harbiy unvon va mansab, ular egalarining vazifasi masalasiga doir quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

- O'rta Osiyo xonliklaridagi hokimiyat tuzilishi, davlat boshqaruv tizimi mang'itlar sulolasi hukumronligi davriga kelib takomillasha bordi. Jamiyatning barcha ohalari markazlashgan boshqaruv tizimiga bo'ysundirilib, davlat boshqaruvi amirning cheklanmagan hukumronligi qo'li ostida mujassamlashdi;

- Harbiy unvon va mansab egalari va ularning vazifalari, faoliyati ma'lum ma'noda XIX asr oxirlaridan boshlab zamonaviy tartibga o'ta boshladi. Bu holni biz Rossiya imperiyasi harbiy nizomi, ustavini qabul qilishi, harbiy mashqlar, saf tortishdagi o'zgarishlar, harbiy kazarmalarning tashkil etilishi, harbiy amaldorlar kiyinishidagi o'zgarishlarda ko'rishi mumkin;

- Barcha sohalar singari harbiy sohada ham amal va mansablarga tayinlashda ko'proq iqtidor va qobiliyatga qarab emas balki, nasl-nasabga, boyligiga, o'rta asrchilik sarqitlari hisoblangan urug'-aymoqchilik va mahalliychilik an'analarga e'tibor berilgan;

- Hatto, 1920-yilgacha qadimda o'zining ilimli, fani bilan dunyoda nom taratgan Buxoroyi Sharifda birorta harbiy mutaxassislar tayyorlaydigan na boshlang'ich, na o'rta va na oliy ta'lim tizimi mavjud emas edi. Bu o'rinda D. Logofetning miroxurni – kapitanga, to'qsaboni podpolkovnikka, dodhohni-general mayorga, inqni-general leytenantga,

tenglashtirishi ham achinarli hol edi. Mang'itlar sulolasi tashkil topgan davrda (XVIII asr II yarmida) birgina artilleriya sohasi Rossiyada, Mihaylovskiyda, Peterburgda Konstantinovskiy nomli artilleriya bilim yurtlari, moskvada artilleriya texnika maktabi, Mixaylovskiyda artilleriya akademiyasi, Ofitserlar oliy artilleriya maktablari faoliyat ko'rsata boshlaganiga ancha vaqt bo'lgan edi;

- Aksariyat harbiy amal egasi deb e'tirof etilgan kishilarni biz to'la harbiy deya olamiz, ularni katta er egasi, ham chorvador, ham bog'bon, ham hunarmand va boshqa kasbdagilar sirasiga kiritish mumkin. Manbalarda o'z qo'li ostidagi sarbozlardan xo'jalik ishlarida ayovsiz foydalanibkelgan harbiy amaldorlar hususidagi ko'plab dalillarga duch kelindi;

- Harbiy amaldorlikning ko'pincha nasldan naslga o'tib turishi harbiy xizmatga bo'lgan munosabatga salbiy ta'sir etardi;

- Sarbozlar singari harbiy mansab egalari xizmat yoshi chegaralanmagan edi. Arxiv manbalarining aksariyatida amaldorlarning vafoti munosabati bilangina yangi amaldor tayinlanishi ko'rsatib o'tiladi;

- Amirlikning tugatilishi davrigacha harbiy amaldorlarni tayinlash qonun-qoidalar to'la ishlab chiqilmagan edi.

Umuman amirlikdagi harbiy amaldorlarning hashamati yuqori bo'lib, siyosiy va harbiy bilimlari, ilmiy salohiyati, o'quv zamon talablaridan ancha orqada edi.

Nazorat savollar:

1.Buxoroda qaysi hukmdorlar davrida harbiy islohatlarni amalga oshirilgan?

2.Xonliklardagi mansablar va harbiy unvonlar to'g'risida gapiring.

3.Kimning davrida Buxoro qo'shinada "To'pchilar" guruhi tashkil etiladi?

Tayanch iboralar:

Qoravulbegi, Shogirdpesha, Raboti To'qsabo Tug'begi, Samidjonda Raboti to'pchiboshi, Xatirchida, Ziyovuddinda,

Eshqorovulbegi, Safar miroxur, To‘qsabo, Xutfar amlakligida, Buri miroxur, Kamat (Vobkent) amlokligida, Askarboshi, Xonai otaliq, O‘nboshi, Chehraog‘asi, Mirzaboshi.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 316.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь.
4. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
5. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга курашимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.
7. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
8. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.
9. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.
10. Иванин М. Икки буюқ саркарда. Тошкент, 1999 й.
11. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.
12. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.
13. Дельбрюк. Г. История военного искусства, М., 1983 г.

14. Военное дело древнего и средневекового населения Северной и Центральной Азии,(Сб. науч.трудов.) Новосибирск, 1990 г.
15. Абулғозий. СҲажараи турк, Т, 1992 й.
16. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.
17. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Т-11, 2005 й.
18. Крушқол. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошкент, 1975 й.
19. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.
20. Юровской. Э.Э. Новая история стран Европы и Америки, 1-2 период. – Москва: Высшая школа, 1998.
21. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.
22. Язиков.Э.Ф. История новейшего времени стран Европы и Америки. М, 2002 г.
23. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256б.
24. [http: // history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
25. [http: // www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
26. [http: // English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)
27. [http: // www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
28. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.hrml>
29. [http: // www.lib.byu.edu/-rdh/www//](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www//)
30. [http: // classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
31. [http: // www.washlaw.edu/forint//](http://www.washlaw.edu/forint//)
32. [http: // www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
33. [http: // www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

MAVZU: BUXORO AMIRLIGIDA QUROL - YAROG‘ VA XARBIY TAKTIKA

REJA:

1. Buxoro amirligi qo‘shinidagi qurol- yarog‘lar
2. Harbiy jangovorlik holati va uning ta‘minoti
3. Harbiy xizmatchilarning moddiy va maishiy turmushi

***Maqsad** talabalarga Buxoro amirligining harbiy jangovorlik xolati, qo‘shin tuzilishi, qurol-yarog‘lari to‘g‘risida batafsil ma‘lumot berish.*

O‘zbek davlatchiligi tarixiga nazar tashlasak, har qanday mamlakatning harbiy siyosiy qudrati bevosita uning iqtisodiy rivoji, salohiyati bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘ramiz. Biroq XVIII-XIX rda xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar, mamlakatdagi ichki nizolar qoloqlik girdobini yanada chuqurlashtirdi. Ana shu bois mang‘itlar sulolasi hukumronligining dastlabki davri bilan amirlikning Rossiya imperiyasi vassaliga aylangan vaqtidagi qurol-yarog‘, armiyaning jangovorlik holati, ta‘minoti masalasida katta o‘zgarishlar sezilmaydi.

Bundan tashqari, Buxoro amirligidagi, qolaversa, barcha xonliklar harbiy-siyosiy holati to‘g‘risidagi aniq ma‘lumotlar rus savdogar, elchi, josus, sayohatchi va boshqa qiyofasidagi kishilar tomonidan chor Rossiyasi hukumatiga XVII asr boshlaridan etkazib berila boshlangan edi.

Rossiya elchiligidan ko‘zlangan asosiy maqsadlaridan biri o‘lkani mustamlakaga aylantirish ekanligi ayon. Amir Haydar hukumronligi davrida rus elchilari safida Buxoroga kelgan E. Meyendorf o‘zining “Orenburgdan Buxoroga sayohat” nomli asarida amirlik harbiy kuchlari xuusida fikr yuritib shunday yozadi: “Sipohiyalar pilta miltiq, juda uzun nayza va eroniylarniki kabi yoysimon qilichlar bilan qurollangan. Ulardan ayrimlari kalta jibalar kiyishadi, temir va ho‘kiz terisidan qilingan dubulg‘a taqishadi. Artilleriyasi esa 20 ta eron zambaragidan iborat bo‘lib, uchta yoki to‘rttasi temir qoziqlari bo‘lmagan lofetlar bilan

jihozlangan, xolos. Lofetlar, uchta g'ildirakka o'rnatilgan bo'lsada, shunga qaramay, ular katta qiyinchilik bilan harakatga keltiriladi". Buxoro amirligi qurol-yarog'lari xususida ma'lumot berar ekanmiz, ularni ikki guruhga bo'lish to'g'ri bo'lar edi. 1. Sovuq qurollar. 2. O't ochar qurollar. Sovuq qurollar sarasiga qilich, o'q-yoy, nayza, xanjar, oybolta, gurzi va boshqalar. Bu qurollar nomlanishi sifat darajasida o'zgarishlar yuz bergan bo'lsada, butun mang'itlar sulolasi davrida yangidan yaratilganlarini deyarli uchratilmaydi.

Sovuq qurollarning asosiysi hisoblangan qilich qadimgi davrlardan boshlab janglarda asosiy rol o'ynab, tadqiq etilayotgan davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va hattoki, nomlanishida ham IX-XII asrlardagi o'z nomlarini saqlab kelgan.

Manbalarda amir sarbozlari va harbiy amaldorlari taqib yurgan "chiniy", "rusiy", "rumiy", "farangi", "sulaymoniy", "hindiy", "damashqiy" va boshqa nomli qilichlar uchraydi. Bundan tashqari amirlikda, "Farangiy", "afg'oniy", "eroniy", nomlari bilan boshqa sovuq qurollar va hattoki, o'tochar qurollardan ham foydalanishgan. Qilich bilan jang qilish o'rta asrlardayoq Evropa va rivojlangan davlatlarda kamdan kam hollarda uchrasada, amirlik hududidagarchi o'tochar qurollar bo'lishiga qaramasdan to 1920 yilgacha muomalada bo'lgan. Amirlikdagi qilichlar maxsus ustalar tomonidanyasalib uning og'irligi 1 kg. dan to 5 kg. gacha bo'lgan. Amaldorlarning qilichlariga zargarlar tomonidan bezaklar berilgan.

Amirlikning dastlabki yillarida askarlarning ko'pchiligida o'z qilichlari mavjud bo'lgan bo'lsada, XIX asr oxiri XX asr boshlarida tashkil etilgan yangi "Shefskiy", "Terskiy", "Kuban" kazaklari otryadlari barcha qurollari bilan birga hanjar va qilichlar ham rus armiyasi namunasidek bo'lgan.

Qilich bilan birgalikda hanjar ham askarlarning an'anaviy quroli hisoblangan. XIX asr oxirlarida Buxoroda ishlab chiqarilgan pilta miltiqlar uchiga ham evropa miltiqlari singari hanjarlar (shtk noj) ilib qo'yilgan.

Qadim zamonlardan beri janglarda qo'llanib kelingan gurzi, oybolta va boshqa sovuq qurollar mang'it hukmdorlari davrida jang

quroli bilan birgalikda hprbiy amaldorlarning ramzi sifatida ham ishlatilgan.

Rossiya imperiyasi vassaliga aylangan Buxoro amirligida ko‘plab “assoi safari”, “assoi jihodi” deb nom olgan qurollar ishlab chiqarilganki, ular ham hassa, ham qilich vazifasini bajargan va undagi hassa g‘ilofida aslida qilich bo‘lib, mavhum tarzda joylashtirilgan zumrad va kumushlar bilan bezab ishlangan. Bu tarzdagi qurollar, sovuq qurollar yasash san’atining yorqin namunasidir.

Amirlikda o‘tochar qurollar uzoq davrlar mobaynida shakllanib ular qatoriga miltiq, to‘pponcha va to‘plarni kiritish mumkin. Amirlikda chaqmoq miltiq, pilt miltiqlar bo‘lib, mang‘itlar sulolasi davrida ular ancha eskirgan edi. Rossiya imperiyasi bosqini arafasida Afg‘oniston orqali ingliz miltiqlari (bu hol ayniqsa, 1917-1920 yillarda ancha kuchaydi) Eron, Turkiya, Rossiya miltiqlarining kirib kelishi jarayoni avj oldi.

Rossiya imperiyasi vassalligi davrida amir qo‘shinida turli xildagi miltiqlarni ko‘rish mumkin edi. Seshanbegi sarbozlarida oddiy pilt miltiqlari, shanbegi sarbozlarida esa amir Muzaffarxon xukumronligining oxirgi yillarida Rossiya armiyasining 1862 yil namunasidagi “Berdana - 3” miltiqlari bilan qurollangan edi. Bundan tashqari bir guruh sarbozlar dumbalapur deyilib, ular qo‘lida “dumbalapur” (ya’ni o‘q miltiqning orqa tomonida joylashadi) miltiqlari bilan qurollangan edi.

Biz o‘rganayotgan davrda kazarmalar deyarli mavjud bo‘lmay sarbozlar amirlik tomonidan berilgan miltiqlar bilan xizmatdan tashqari vaqtlarida ylariga ketishlari mumkin edi. XIX asrning ikkinchi yarmida miltiqlar eskirganligi tufayli hatto, harbiy mashqlar davomida ham ishdan chiqar, oddiy hollarda sinib ketar edi. Buzilgan va singan miltiqlarni ta’mirlash sarbozlarning o‘z hisoblaridan amalga oshirilgan.

Miltiqlar shu qadar eskirgan ediki, hatto xar bir yuzlikda 2-3 nafar miltiqsoz sarboz ertayu kech miltiq tuzatish bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Amir Abdulahadxon davriga kelib sarbozlarning qurol-yarog‘lari bilan uylariga ketishlariga ruxsat berilmaydigan bo‘ldi. Qochoq sarbozlar ko‘paygan bu davrda agar sarbozlar o‘z miltiqlari bilan

qochsalar ular bilan birgalikda harbiy amaldorla ham qattiq jazolanishgan. Bunday holatlarda sarbozlar o'nboshiga, o'nboshi yuzboshiga, u sarkardaga, sarkarda to'pboshiga, to'pboshi esa qo'shbegiga zudlik bilan xabar bergan. Tez orada Qo'shbegi mirzaxonasida bu mazmunda yozilgan qator xatlar otliq shogirdpeshalar tomonidan Buxoro muzofotidagi butun qozilar, beklar va yo'llardagi qorovulxonalarga etkazilgan.

Vafot etgan sarbozlarning qurol-yarog'larini va hatto harbiy kiyimlarigacha olinib, to'pboshchiga topshirilgan.

Tarixdan ma'lumki, Rossiya imperiyasi bosqini arafasida O'rta Osiyolik savdogarlar uchun Rossiyadan metall xom ashyosini olib chiqish ta'qiqlangan. Buxoro amirligi harbiy ishlari uchun qora metall juda ham muhim edi. Ana shu bois buxoro va umuman xonliklardagi savdogarlar Rossiyadan xom ashyo eas, balki metall buyumlar, ko'proq qozon va yirik metall buyumlari olib kelib sotishi hukumat tomonidan rag'batlantirilgan. Ko'pgina hollarda kontrabanda yo'li bilan to'g'ridan-to'g'ri qurol-yarog'larni olib kelishga harakatlar ham kuchayganini ko'ramiz*. Bu hol ayniqsa, XX asr boshlarida ancha kuchayib amirlikka qurol-yarog' olib kelish ilari hukmron doiralar tomonidan rag'batlantirilgan.

Rus harbiy amaldorlarining Kogondagi rossiya imperatorining siyosiy agentligiga yozgan mahfiy hati shunday mazmun kasb etadi:

- Razvedka ma'lumotlariga ko'ra, amirlikning Karki bekligida Termiz va Marv orvali turkmanlar katta hajmdagi ingliz qurol-yarog'lari bilan savdo qilishmoqda. Afg'onistondan olib kelinayotgan kalibri 4.3 sm.li Pibodi-Martini sistemali ingliz miltiqlari turkmanlar tomonidan 50-75 rubldan sotib olinib, Karkida 75-100 rubldan sotilmoqda. Ma'lum bo'lishicha, Mozori Sharif va Maymanadan olib kelinayotgan bu miltiqlar savdosini rag'batlantirish xususida Habibulloxonning maxfiy buyrug'i bor 1906 yil 11 fevral.

Rus hukumatining qaror va bildirgilarida bunday hollarga qat'iy choralar ko'rish to'g'risidagi yuzlab xat va xabarlar mavjud. Shunday

* Изоҳ. 1868, 1873 йилги Россия-Бухоро шартномасига кўра Бухорога четдан курул - яроғлар киритиш таъқиқланган.

bo'lishiga qaramasdan bunday holatlarni bartaraf etishga rus ma'murlarning qurbi etmagan:

- Olingan ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro shahridagi Labixovuz Mirdo'stim, Qozonxona, Qori To'xta guzarida kontrabanda yo'li bilan olib klingan katta hajmli miltiq va revolverlar saqlanmoqda. 1911-yil 4-noyabr.

Shuningdek, amirlik savdogarlarining Rossiyadan ko'plab miqdordagi qurol-aslahalarni kontrabanda yo'li bilan olib kelganligi, ularning ayrimlari rus hukumati ma'murlari tomonidan qo'lga olinganligi xususida ko'plab ma'lumotlarga duch kelamiz. Bundan tashqari shunday ma'lumotlar borki, unda Rossiya fuqarolari ham boylik evaziga Buxoro amirligi hududida qurol-yarog' savdosi bilan shug'ullanishgan. Masalan: Rossiya siyosiy agentligi ma'murlaridan I. Reshetov 1911 yil 6-fevralda amirlikka yozgan xatida rus fuqarolaridan Kojuxovskiy, Abarji Vakulov, Vetoxinlar amirlik hududida maxfiy ravishda qurol-yarog' savdosi bilan ish olib borayotganliklari sabab ularni ushlashda yordam beishni so'ragan.

Amirlik hududiga qurol-yarog' keltirilishi va uning ishlab chiqarishlari ayniqsa, 1917 yildan so'ng ancha jonlangan. Yuqorida aytib o'tilganidek, bu voqealarning guvohi bo'lgan Muhammad Sayid Baljuvoniylar habar berdi: - "Nizomiy askarlaridan bo'lmish arab jamoasidan 50 nafari Ashxobod cho'liga borib Angliya davlatidan inglizcha pulemyot va miltiqlar olib keldilar. To'raqulboy po'st (Qorako'l) qo'y terisi ortilgan tuya bilan Angliya yuborildi. Buxoro va Angliya o'rasidagi do'stlik o'rnatilishi haqida e'lon qildilar. Rossiya urushlarida asir tushgan bir guruh askarlarga oylik tayinlanib, Imom (Abu) Hafsi Kabir Buxoriy darozasi oldida, qal'a ichida to'p va o'q ishlab chiqaradigan fabrikani ishga soldilar. Kafirobodda ham dou, to'p va miltiq sozlab yasashni yo'lga qo'yib, harbiy va davlat ishlarini rivojlantirdilar. Natijada, Buxoro askariyasida to'plarining soni 600 taga etdi, yana qanchadan qancha ovropacha to'plar ishlab tayyorladilar. Do'stlik o'rnatish uchun Domullo Qutbiddin Sudurni To'raxo'ja Naqib bilan Afg'anistonga yubordilar. Afg'oniston amiri vazorolari bilan o'zaro

bir necha qarorlar qabul qilib, Buxoro davlatiga yordam tariqasida oltita fil va 200 nafar fidoiy askarini yubordi”.

1917 yildan ma'lum ma'noda mustaqillikka erishgan Buxoro amirligida sovetlar tomonidan qilinadigan tajovvuzlarga qarshi bir qancha chora va tadbirlar qo'llandi. Aynan shu davrdan boshlab “Smitta” va “Vessona” markali ingliz revoverlari amirlikka ko'plab kiritila boshladi.

Buxoro amirligida kontrabanda yo'li bilan qurol-yarog'lar kiritilishidan tashqari Rossiya imperiyasi hukmron doiralari ham cheklangan miqdorda amirlikka qurol-yarog'lar berishga ma'lum ma'noda majbur bo'lishgan.

Rossiya imperisining amirlikka qurol-yarog'lar bilan “yordam” ko'rsatishining sabablarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu o'rinda quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Buxoro amirligida bo'lib turadigan ichki nizolar, beklarning amriga bo'ysunmaslik holatlari, (1868-1871) yillardagi Abdumalik To'ra, Shahrisabz va Kitob bekliklaridagi harakatlar, xalq qo'zg'olonlari (1870-74 yillar Boljuvonda, 1871 yil Qarshi va G'uzorda, 1885 yil Qo'lobodda, 1885-86 yillar Sherobodda, 1886 yil Xisorda, Denovda, 1899 yil Kalifda, 1910 yilgi Buxoro shahridagi voqealar...) uzoq vaqtgacha cho'zilishi Rossiya imperiyasi manfaatlariga ham to'g'ri kelmas edi;

- Amirlikning chegaradagi tog'li hududlarini qo'riqlash, ayniqsa Hisor, Karki va marv yaqinlarida bo'ladigan turli xildagi tajovvuzlarni bartaraf etish;

- Rossiya imperiyasi ko'plab boyliklarni olib turadigan amirlikda uning siyosiy mustahkamligini va Rossiya tobe'ligini oshirish maqsadida amir qo'shinida tashkil etilgan yangi tipdagi nizomiy guruhlarini qurol-yarog' bilan ta'minlab turgan. Bundan tashqari, Rossiya imperatorlarining general adyudantlari hisoblangan amir Abdulahadxon va olimxonlarning o'ziga sodiqligi maqsadini ham ko'zlagan edi.

Shunday bo'lsada, amirlikka yuborilgan qurol-yarog' ma'lum me'yorda ushlab turilgan va ular armiyasining zamonaviy qurol-

yarogʻlari deyish aslo mumkin emas. Rossiyadan Buxoro amirligiga 1904 yil 12 aprelda 1883 yil namunasidagi 2.5 dm kalibrli 2 ta, 1 ta lofet toʻplari, 2 yashik oʻq dori, 1902 yil 17 noyabrda 1891 yil namunasidagi 60 dona oʻq chiziqli “Dragun” miltiqlari 1903 yil 10 dekabrda 2 ta togʻ sharoitida ishlatiladigan toʻp va yuzta “Berdana - 8” miltiqlari 1887 yil 25 fevralda 300 miltiq, 300 nayza, 300 ta oʻqdon, 3600 dona oʻq, 300 ta yogʻdon, 3000 ta sumba, 300 ta suzanak keltirilgan. Bunday yordamlar amirlikka Rossiya tomonidan 1914 yilga qadar berib turilganligi maʼlum.

Oʻz navbatida 1914-1916 yilning oxiriga qadar Buxoro amirligining birinchi jahon urushi munosabati bilan Rossiya imperiyasiga koʻrsatilgan katta hajmdagi yordamlarini kuzatishi mumkin. Bu hususida Baljuvoniylar shunday yozadi: shunday zamon keldiki, Nikolay podsho Germaniya podshosi bilan nizo qildi. Bu nizo – kelishmovchiliklar ogʻir va qattiq urushlarga aylandi. Hatto rus Nikolay Buxoro podshosidan yordam soʻradi. Rossiyaga oʻnta toʻpi jahongir, 500 ta 5 otar miltiq yuborildi. SHuningdek, fuqarodan 1500 ta yaxsh ot madad tariqasida yuborildi.

Buxoro amirligida eng nufuzli harbiylar toʻpchilar hisoblanib, jang vaqtlarida toʻplarga katta ishonch bildirilgan. Buxoro davlatida toʻplarning qachon paydo boʻlganligi xususida turlicha maʼlumotlar uchraydi. Har holda Shayboniylar sulolasining yirik namoyondalaridan biri Abdulloxon II (1533-1598) davrida ilk toʻplar qoʻllanilganligi haqiqatga yaqinroqdir, lekin bu toʻplardan dala janglarida foydalanib boʻlmagan.

Dala janglarida toʻplar amir Shohmurod hukumronligi davrida (1785-1800) koʻrina boshladi. Bu holat amir Shohmurodning azaliy raqibi Eron shohi Abbosshohga qarshi harbiy yurishlarni tasvirlagan fors manbalari va bu davr tarixini oʻrgangan rus hukumronlari ham qoʻshin va qurol-yarogʻ bobida tamomila xotirjamlikka berilgan edi, deyish toʻgʻri boʻlmaydi. Rus bosqini xavfi sezila boshlaganda, xatto Xiva xoni Olloqulixon amir Nasrullo ga bu yoʻlda ittifoqlashish taklifini ham oraga solgan edi. Amir Nasrullo harbiy sohada maʼlum islohotlarga qoʻl uradida, ammo oxirgacha uni etkaza olmaydi. Buning maʼnosi shuki, u

o‘zining 34 yillik saltanati davomida xonlikdagi ichki nizolardan qutila olmadi. Butun harbiy kuchini itoatdan chiqqan viloyatlarni bo‘ysundirishga sarf etdi. Yo‘qsa, Buxoroda uzoq muddat yashagan, Zarafshon harbiy okrugini boshqargan, Turkistonning harbiy quvvatini sinchiklab o‘rgangan G.A. Arendarenko aytganidek: “Nasrullo davrida dala to‘plari sezilarli darajada yaxshilangan edi, ular ingliz harbiy nizomidan chala-chulpa xabardor bo‘lgan afg‘on to‘pchilarini xizmatga oldilar. Og‘ir qurolli otliqlar, falkonetli xisobdorlar soni ham oshiriladi. Piyodalar ko‘paytirilib, to‘plar himoyasida jangga kirish va qal’alarga hujum qilish qo‘llanila boshlaydi”.

Boshqa manbalarda amir Nasrullo afg‘onlar hamda qo‘shin tarkibidagi piyoda sarbozlardan to‘pchilar nizomiy guruhiga asos solgan amir sifatida e‘tirof etiladi.

Amir Nasrullo davrida va undan keyin ham to‘pchiboshi qo‘shinning bosh qo‘mondoni hisoblangan. Bu harbiy ish muvozanatida otliq qismiga nisbatan texnikaga ahamiyat berish ibtidosi bo‘lganmi har holda, aniq bir nimadeyish mushkul. Erondan olib kelingan Abdusamad to‘pchiboshi, muarrix Mullo Olim Maxdumning “Turkiston tarixi” kitobida aytilishicha, bilimli zakovatli kishi bo‘lgan. U chamasi to‘p va to‘pxonalarning dala sharoitidagi harakat imkoniyatini oshirishga erishadi. To‘plar, ularni tortib yuruvchi otlar guruhlanadi va raqamlanadi. Ma‘lumki bungacha to‘plarni ho‘kizlar sudrash taomilda bo‘lib kelgan edi. Abdusamad to‘pchi boshining qismati fojeali yakun topdi, amir Nasrullo uni SHahrisabz beklari bilan til biriktirishda ayblab, qatl etadi.

Buxoro amirligi to‘plariga ta‘rif beradigan bo‘lsak, amirlikda ishlab chiqarilgan dastlabki to‘plar “Dahanpur” (ya‘ni to‘pning o‘qi old tarafdan joylashgan) deb nomlangan. Bu xildagi to‘plar aksariyat hollarda qal’a himoyasida qo‘llanib, dala janglari sharoitida ulardan foydalanish ancha mushkulliklar tug‘dirgan. Keyinchalik, ular hajmi kichraytirilib dala janglari uchun uchun ham foydalanila boshlangan. Dahanpur to‘plari vazni turlicha ishlab chiqarilib ularning eng engillarini 2 ta, og‘irligini esa 6 tacha otlar (dastlabki davrlarda to‘plarni ho‘kizlar

tuyalar yordamida kerakli manzillarga olib borilgan) zo'rg'a tortib borgan.

Amirlik dahanpur to'plari bunyod etilishi jarayonida artileriya rivojlanishining dastlabki bosqichi-hunarmand ishlab chiqarish davrini bosib o'tdi.

O't ochish qurollari va porox alohida ustalar tomonidan ishlab chiqarilgan. Qurol yasagan usta urushda o'zi yasagan qurollardan otgan va unga dastlab o'zi xizmat ko'rsatib bergan. Shuning uchun to'pchilar ba'zi hollarda askar hisoblanmay, alohida sexlar ustasi deyilgan.

Har to'p kalibriga ega bo'lib, faqat shu qurollar uchun o'q (yadro, snaryad) tayyorlangan. Dastlab ishlab chiqarilgan dahanpur to'plari kalibrini o'lchash qabul qilinmagan, kalibr esa chamalab aytilgan "olmaday" o'q, "kalladay o'q" va hokazo shunga o'xshash atamalar yuritilib, to'p old tomonidan o'qlangan. Dahanpur to'plarida qulf (zatvor) tushunchasi va o'zi ham bo'lmagan. Ustalar to'plarni bu davrda o'z bilganlaricha yasaganlar, texnik xisob-kitobsiz ishlangan bunday qurollar otilgan paytida portlab ketishi, kuchli tebranish hosil qilishi, nam tortishi va ob-havoning noqulay sharoitda otilmay qolishi, o'qning to'p stvoli ichida yorilib ketishi va boshqa noxushlik holatlari dahanpur to'plariga xosdir. Cho'yan, bronza va misdan ishlab chiqarilgan to'plar yadrosi aylana shaklida bo'lib ushbu to'pga tegishli yadrolar og'irligi 2 kg. dan 8 kg. gaacha bo'lgan. Umuman bu og'irlikdagi to'p o'qlari amirlikda ishlab chiqarilgan barcha to'plarga xos edi.

To'p qo'yiladigan joy "Qo'rxona" deb nomlanib, bunday qo'rxonalar Buxoro, Karmana, Samarqandda (1868 yilgacha) faoliyat ko'rsatgan. Qo'qon xonligida mazkur ustaxonalar "To'bxona", "Ishxonai-to'bxona" deb yuritilib, "Jaloir", "Shoxmali", "Yazali" nomlari bilan to'plar ishlab chiqarilgan.

"Dahanpur" to'plarini jang maydoniga olib borish jarayonida to'p yadroli "jarimachi sarbozlar" guruhi tomonidan tashib borilgan. Manbalarda e'tiriof etilishicha, sarbozlar 2 tadan 5 tagacha (og'irligiga qarab) to'p o'qlarini kerakli hududgacha olib borishga majbur edilar.

Yadrolar uchun eng zarur hisoblangan poroxlar ham XIX asr boshlaridan e'tiboran amirlikning o'zida ishlab chiqariladigan bo'ldi.

Amir Abdulahadxon xukumronligi davriga kelib esa porox ishlab chiqaruvchilar soni ancha ko'paygan.

“Dahanpur” to'plarining yana bir jangovor holatining zaiflik tomoni shu ediki, to'p stvolining ichi turli bo'rtma chiziqlardan iborat bo'lib, bu esa yadroning ham bo'rtma shaklida bo'lishini talab etar edi. O'qlar uchun hali bunday bo'rtmalar chiqarish imkoniyati past edi. Natijada bu o'qlar stvol ichida jips tushmas ediki, otgan paytda hosil bo'lgan porox gazlari snaryaddan oldin jipslashmagan joylardan chiqib ketar edi. bu hol o'qning uzoqqa etib bora olmasligi, stvolning kuyib yorilib ketish holatlariga olib kelar edi. Ana shu texnik kamchiliklarni bartaraf etishi ishiga kirishgan amir Nasrullo o'z hukmronligining oxirgi yillarida “Dumbalapur” to'plariga asos soldi. O'qlar stvolning orqa tomonidan joylashganligi bois shunday no olib bunday to'plar “dahanpur”ga nisbatan biroz qulaylik taraflariga ega edi.

Stvolning old tomonidan o'qlash yuqoridagi sabablarga ko'ra bekor qilinib, orqa tomonida ya'ni qulf tomonidan o'qlashga almashtirildi. Garchi bu muammo Yevropada allaqachon hal etilgan bo'lsada, quvurni orqa tomonini mustahkam yopa oladigan qulf va obrator-ya'ni, gazlarni shu zatvor orqali chiqib ketmaydigan moslamani qo'llashga amirlikda to'la texnik talablarga javob bera oladigan to'plar ishlab chiqarish uskuna stanok yo'q edi. To'p ishlab chiqarishda ma'lum hajmdagi qoliplarga metal eritilib quyilar edi, xolos.

Nima sababdan to'p stvoli burtma shaklida ishlanganligi shundaki o'q stvoliga joylanganda stvol ichi bo'lmasa to'p otilgandan so'ng doirasimon shaklidagi yadro aylanma harakat qilib ma'lum masofagacha borar edi. (dastlabki daxanlapurlarda shunday edi), lekin bu holatlarda havoning qarshilik kuchi katta bo'lib o'qlar uzoq masofagacha etib bormagan.

“Dumbalapur” to'plari 2 tacha otlar yordami bilan tortila borilib ularning uzoqqa otish darajasi 1,3-1,5 km ga etgan. Rossiya armiyasidagi orqa tomonidano'qlanadigan to'plar XIX asrningo'rtalarida 3 km gacha uzoqlikda otar edi. Tez orada esa 1877 yil namunasidagi Rossiya, 1880 yil namunasidagi Fransiyada ishlab chiqarilgan “Banja” to'plari 6 km ga otish qudratiga ega bo'lgan.

Ma'lum ma'noda Buxoro amirligi artileriyasining asoschisi sanalgan amir Nasrullo Qo'qon xonligi bilan olib borgan janglari chog'ida 2 turdagi to'plarni o'lja sifatida qo'lga kiritadi. 1.**Jahongir** (katta to'p). 2.**Shohdor** (mayda to'p).

Jahongir to'pining amirlik to'plaridan ustunlik taraflarini ko'rgan Nasrullo – "Bunday to'p bilan butun jahonga hukumronlikni o'rnatish mumkin" – deya jar soldi. Lekin qo'lga kiritilgan jahongir to'plari juda ham og'ir bo'lib vazni 34 puddan (554 kg) ortiqroq edi. Bunday og'ir to'pni 8 tacha otlar zo'rg'a torta olgan.

Garchi vazni og'ir bo'lsada devor qulatish qudrati boshqa to'plardan ustunligi bois amirlik maxsus qo'rxonalarida ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan hamda jang maydonlarida ham sudrab borilgan.

Shoxdor to'plari Jahongirga nisbatan biroz kichiroq bo'lib ular 6 ta ot yordami bilan harakatga keltirilgan. Manbalardan shu narsa ma'lumki, amir nasrullo huzuridagi Eron, Afg'oniston to'pchi konstruktorlari amirga to'plarni po'latdan ishlab chiqarish loyhalarini taqdim etishgan. Biroq, butun mang'itlar sulolasi oxirigacha bu narsa amalga oshirilmadi, to'g'rirog'i ulgurilmadi, yoki e'tiborsiz qoldirildi. Yevropaliklar allaqachon cho'yan va bronza to'plaridan voz kechgan edi. Chunki to'pning sifatli po'latdan tayyorlanishi stvolda bosimning ko'tarilishiga, natijada snaryadning uzoqqa borishiga sabab bo'lishini ular yaxshi bilishgan.

Buxoro amirligida qurollanish va quol-yarog'lar masalasida zamonaviylashish uchun ayrim ijobiy siljishlar ro'y bergan bo'lsada, biroq amirlik nafaqat Rossiya va Evropa mamlakatlaridan balki, qo'shin bo'lgan yarim mustamlaka sharoitida yashayotgan Afg'oniston va Eron davlatlaridan ham ancha orqada qolgan edi. O'tochar qurollar bilan qo'shinni to'la tartibda qurollantirish vazifasi hal qilinmadi.

XIX asrning I choragiga qadar amirlikda doimiy harakatdagi qo'shin mavjud bo'lmay asosan harbiy harakatlar davomida ular yig'ilib, urush harakatlari tugallangani bilanoq tarqatib yuborilardi.

Amirlikda jangchilarning dam olishi va tunashi uchun harbiy kazarmalar etishmas, mavjudlari ham ayanchli ahvolda bo'lgan. N. Stremouxovning yozishicha, Buxoro harbiy qo'shinlarining kazarmalari

juda ham achinarli ko‘rinishga ega bo‘lgan. Harbiy namoyishda qatnashgan sarbozlar to‘dasi harbiylarga emas, ko‘proq masharabozlar to‘dasiga o‘xshar edi. Ertalab barvaqt istar istamas sudralib o‘z uyidan eshikda Buxoro harbiy qo‘nimgohga yo‘l olgan sarbozlarni ko‘rish kulgili tuyulardi. Buxoro harbiy qo‘shinining namoyishi komediyani eslatardi. U o‘zining g‘alatiligi bilan har qanlay jiddiy kuzatuvchining ham kulgisini qistardi.

Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining vassaliga aylangach, ko‘proq ramziy ma‘no ahamiyat kasb etadigan yangi tipda tashkil etilgan “evropacha” tipdagi nizomiy guruhlar uchun bunyod etilgan kazarmalarda ham ahvol achinarli tus olgan edi.

Mazkur nizomiy guruhlar deyarli muntazam armiya sifatida faoliyat ko‘rsatib terskiy otryadi Karmana va Buxoro shahrida taxti – Chorbog‘ guzaridagi otliq kazaklar shaharda Hovuz – Mirdo‘stim, mozori Chashmai-Ayyub, Kofirobod guzaridagi, Shefskiy guruhi Sitorai Mohi – Xosadagi kazarmalarda qo‘nim topishgan.

Garchi qo‘shin tuzilishida Yevropacha odatlar joriy etila boshlagan bo‘lsada, tan jazosi berish, oddiy holatlarda kaltaklash, kazarmalarda bugungi til bilan aytganda “dedovshina” avjiga chiqqan edi. Xatto harbiy ma‘murlar arziyman sabablar uchun sarbozlarni kaltaklashga buyurar edilar. Agarda kichik zobitlar bu ishlarni bajarmasalar o‘zlari kaltaklanar edilar. 1869-yilda, rus muhojirlaridan bo‘lgan to‘pchi yosh sarbozlarga yaxshi muomala qilganligi uchun huddi shu tarzda jazolangan.

Tan jazosi berish shu darajaga etib borganki, oqibati o‘lim bilan tugash holatlari ham yuz berib turgan;

- Abduvohid mening otam edilar. 25 yil mobaynida jonsupar sarbozlardan edilar. Darvoz viloyatida Abdulvohid mirdodxoh qo‘shinida xizmat qilar edilar. Mirdodxoh otamni nohaq 700 darra urib halok etdi. Musofirlikda olamdan o‘tdi. Dodu- faryod qilsak biz etim becholarning faryodimizni siz janob oliylaridan boshqa hech kim eshitmaydi.

Sarbozlarning harbiy mashqlari yuqorida aytib o‘tilganidek o‘rta asrchilik ko‘rinishini o‘zida namoyon etgan. Amirlikdagi barcha

nizomiy guruhlarning harbiy dala mashqlari deyarli bir xil ko‘rinish olganligini kuzatish mumkin. Shanbegi sarbozlari haftaning shanba, yakshanba, Dushanba kunlarida Seshanbegi sarbozlari seshanba, chorshanba, payshanba kunlari, Terskiy, Shefskiy, otliq kazaklar haftada to‘rt kun mashqlarda qatnashgan. Amirlik chegaralarida qoravullik xizmatlarini o‘tovchi Elnavkarlari guruhi mahalliy qurol –aslahalari bilan qurollangan bo‘lib, ularning harbiy dala mashqlari o‘tkazishganliklari hususida biror manbalarda ma’lumotlar keltirilmagan.

Harbiy dala mashqlari hususidagi rus tadqiqotchilari fikrlari mahalliy manbalar bilan taqqoslaydigan bo‘lsak, haqiqatdan, kulgili ko‘rinishlar olgan. To amir Abdulahadxon hukmronligi davrigacha harbiy xizmatning umrbodligi, sarbozlar orasida xattoki, 90 yoshili xizmatchilar mavjudligi, (keyinchalik 60 yoshgacha harbiy xizmat belgilangan bo‘lsada, unchalik ijobiy tomonga siljishlar kuzatilmaydi) harbiy ilmlardan bexabarligi singari ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak, harbiy mashqlarning qanday kechganligi ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi.

Polkovnik Matveev “Buxoro qo‘shining harbiy tayyorgarligi o‘ta qoniqarsizdir; mashqlar kam o‘tkaziladi va ular miltiqli usullardan hamda tantanali marosimlardagi yurishlardan iborat bo‘ldi” – deb yozadi. “Buxoro piyoda lashkarining jangovar qudrati, boshqa harbiy qisimlardek juda bo‘sh” – deb xisoblaydi. V. Masalskiy. G. Arendarenko esa “Buxoro to‘pchilari bo‘linmasi oxirgi 12 yil ichida (1869-1880 yillar) biror marta ham hattoki, bo‘sh o‘qlar bilan to‘plardan o‘q uzishmaganlar” deb ko‘rsatadi. Bu esa biz yuqorida aytib o‘tgan to‘pchilar guruhining haftaning har shanba kuni o‘tkazadigan “Paxta - Parron” mashqlari xususidagi fikrga zid keladi.

Shunday bo‘lsada, rus zobiti G. Arendarenko amirlikda kechgan siyosiy – harbiy jarayonlar yuzasidan katta ilmiy ma’lumotlar to‘plangan.

1866 yil amirlik qo‘shin rus harbiy nizomining ba’zi ko‘rinishlarini o‘ziga qabul qilingan. Ayniqsa, bu holat qo‘shinga buyruqlarning berilishning rus tilida olib borilishi, qurol bilan muomala qilish, qadam

tashlash, harbiy mashqlar o'tkazish, yuqori lavozimdagi harbiylar bilan muomala qilish saf tortishda va boshqa o'nlab holatlarda o'z aksini topadi.

“Stanovis” buyrug'i berilganda barcha sarbozlar o'z o'rnini egallashib safga tizilishgan. “Glaza napravo” yoki “glaza nalevo” buyrug'ida sarbozlarning ko'zlarigina mazkur tomonga qarashi shart bo'lgan. “Smirno” buyrug'ida kuchli diqqat e'tibor qaratilib hattoki, ilon chiqqanda ham qimir etmay turishlari talab etilgan. “Ne nachalo” buyrug'i berilganda sarbozlar elkadagi miltiqlarini o'ng qo'llari tomon shaylangan, “razvedka” so'zi eshitilgandan so'ng miltiq o'ng elka tomon ko'tarilgan.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, yuqorida aytib o'tilgan harbiy mashqlar ham aksariyat hollarda ob-havoning qulay sharoitlarda o'tkazilgan xolos.yog'ingarchilik noqulay ob-havo sharoitlarida nam va iflos kazarmalarda yotib olishgan.

Har ertalab kavkaz otliqlari registon maydoniga muzika sadolari ostida kirib kelib (albatta, ot bilan emas) biroz mashq qilishgan. S. Ayniy ushbu guruhni ko'proq “sirk artistlari” ga o'xshatadi. Ular ketidan piyoda sarbozlar to'dasi kela boshlaydi. Shanbegi sarbozlarining shahar ichida XIX asr oxiridan boshlab o'z kazarmalari bunyod etilgan. Xizmatdan tashqari paytlarda o'z xo'jaliklarida ishlari bilan mashg'ul bo'lishgan. Seshanbegi sarbozlarining esa maxsus kazarmalari bo'lmay, xizmat kunlari uzoqdan kelganlar o'zlari hususiy ravishda saroylardan hujra ijaraga olib turadilar va miltiqlarini o'z hujjatlarida saqlab, unga shaxsan o'zlari javobgar edilar. Seshanbegi sarbozlar mashqdan bo'shagan vaqtlarda ko'pincha “begarlik” qilishga (podshohlik yoki sarkarda va yuzboshilarning hususiy ishlarida haq olmay ishlashga) majbur edilar. Mashq va begarlardan bo'shagan vaqtlarida o'z maishatlarini ta'min qilishlari uchun biror kasb bilan mashg'ul bo'lar edilar. Hunarlari bo'lmaganlari esa mardikorlik yoki hammollik qilar edilar.

Ma'lumotlarga qaraganda, sarbozlardan ayrim holatlarda arzimagan maosh evaziga yuqori martabali kishilar dafn etilgan qabiston xizmatkorlari sifatida ham foydalanilgan.Albatta mazkur ish bilan

yuqorida ko'rsatilgan sarbozlar xizmat kunlaridan bo'sh paytlarida shug'illangan bo'lishsa kerak. Amirlikda muntazam qo'shin tashkil etilgandan boshlab 1918 yilga qadar bo'lgan manbalarda sarbozlarga beriladigan maosh juda oz miqdorda o'zgarganligani ko'ramiz. To'g'ri, amir Muzaffar Rossiya imperiyasi bosqini arafasida pul islohotlari o'tkazgan. Shunday bo'lsada, qimat masalasida katta o'zgarishlar sezilmaydi. Amir Olimxon hukmronligi davrigacha sarbozlar 14 tanga, 1912 yildan boshlab esa amir sarbozlarining har biriga oyiga yigirma tanga (uch so'm) maosh berilgan. Ularga ovqat va boshqa narsalar berilmas edi. Nizomiy kiyimlar ham shu oylik hisobidan podsholik (ya'ni davlat hisobidan) tomonidan tayorlab berilardi. Miltiqlarini ta'mirlash ishlari ham sarbozlarning o'z zimmalarida edi. Shanbegi sarbozlariga faqat kazarmada soqchi bo'lib turgan kunlarida har o'n kishiga bir marta bir lagan yorma berilardi. Kavkaz guruhlar (Terskiy, Shefskiy, Otliq kazaklar) bu umumiy qoidadan mustasno edilar, ularning ovqatlari va kiyimlari podsholikdan to'la ta'minlanar edi.

Harbiy xizmatchilarga muntazam maosh berib borilishi amir Nasrullo hukumronligi davridan boshlab amalga oshirilgan. Dastlab maoshlar natural tarzda ulashib amirlikdagi Zandani va Kishti tumanlari daromadlaridan ushbu harajatlar qoplangan. Ushbu tuman hududlaridan harbiy amaldorlar uchun yer maydonlari ham ajratilgan.

Oddiy sarbozlarning yashash joylarida o'z xo'jaliklari mavjud bo'lib harbiy xizmatdan bo'sh paytlarida ziroatchilik ishlari bilan mashg'ul bo'lishgan.

Buxoro amirligida harbiylarning oylik maosh hamda daromadlari 1856-yilda quyidagicha ko'rinish olgan: Oddiy sarboz 20 tanga (4 rubl kumush), o'nboshi 1.5 tillo, yuzboshi 6 tillo (24 rubl kumush), panjohboshi hurd 50 tanga (10 rubl kumush)ni tashkil etgan.

Bu davrda to'pchiboshi Shohruxxonning bir yillik maoshi 2000 tilloni tashkil etib, bundan tashqari o'ziga ajratilgan Bo'ston tumanidagi yerlardan yiliga 700 tilla, 20 ta tegirmon hamda ushbu tumandagi erlarni ijaraga berish hisobidan bir oyda 34 tilla olib turgan. Shunday qilib, uning bir yillik daromadi 12000 rublni tashkil etgan. Shu bilan birga shohona liboslar, otlari uchun em-xashak ham amirlik xazinasi

hisobidan qoplangan. Agar taqqoslaydigan bo'lsak to'pchiboshi bir yillik daromadi 250 ta sarbozning yillik daromadiga teng bo'lgan.

Harbiy harakatlar chog'ida (amir Haydar davrida qisman, asosan Nasrullo hukmronligi davridan boshlab) harbiy xizmatchilarga "kunlik" berila boshlangan. Bundan tashqari har juma kunida polov, qolgan kunlarda asosan, suyuq ovqat ("moshoba") va bir sarbozga bir kunda 1 dona obi non berilgan. Janglarda hlok bo'lgan sarbozlarning oila a'zolariga ma'lum darajada imtiyozlar, moddiy yordamlar ajratilgan, biroq uning sharti deyarli butun mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida aml qilinib kelingan ya'ni, beva ayol voyaga etgan o'z farzandini umrbod harbiy xizmat uchun topshirmog'i lozim edi.

A. Troitskaya harbiy harakatlar chog'ida amirlik harbiylari uchun xazinadan ajratiladigan mablag'larni quyidagicha ko'rsatib o'tadi: sarbozlar hamda oddiy to'pchilar uch kunda 1 tanga, dahboshi 2 kunda bir tanga, kichik ellikboshi 1 kunda 1 tanga, katta panjohboshi 1 kunda 1.5 tanga, qoravulbegi 2 tanga, yuzboshi 4 tanga, harbiy musiqachilar (ya'ni bolabomchilar) uch kunda 1 tanga kunlik maosh olishgan. Harbiy xizmatchilarga ayniqsa, quyi toifalarga maoshlar har doim ham o'z vaqtida berilmagan. Bundan tashqari harbiy harakatlar chog'ida hujum qilingan hududlarda tinch aholini talash, katta o'ljalarni qo'lga kiritish uchun vahshiyona ishlarni amalga oshirish tez-tez kuzatilib turilgan. Ba'zi holatlarda hali jangda to'la – to'kis g'alaba qozonmasdan turib o'lja ilinjida kurashlar boshlansa, ba'zan mazkur o'ljalar uchun harbiy amaldorlar o'rtasida kelishmovchiliklar kelib chiqqan.

Amir Nasrullo 1842-yil aprelda Qo'qon shahrini qo'lga kiritganda sarbozlar dastavval Muhammad Alixon saroyini talashga kirishib ketadilar. Orqadan o'z qo'shini bilan etib kelgan amir Nasrulloxonning o'g'li Muzaffarxon barcha olingan o'ljalarni talab qiladi. Sarbozlar esa buni hohlashmaydi. Bundan darg'azab bo'lgan Muzaffar sarbozlarni qilichdan o'tkaza boshlaydi. Abdu Samad to'pchiboshi (1837-1845 yillarda to'pchiboshi lavozimida ishlagan) esa Muzaffarxon askarlarini urib orada katta kelishmovchiliklar chiqadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, bo'ladigan barcha harbiy harakatlar aholi turmush tarzini keskin pasayishiga olib keldi. Urush

harajatlari uchun millionlab mablag'lar sarf etilib uning barcha og'irligi mehnatkash aholi zimmasida edi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi bosqini davrida bu holat ayanchli ko'rinish oldi. Rossiya imperiyasining istilo tig'i Qo'qon xonligiga qaratilganida amir Muzaffarxon Qo'qon xonligiga qarshi yurish chog'ida behuda mablag'lar sarf etdi. Muzaffarxon otasidan qolgan pul zahiralarini deyarli sarflab bo'ldi. Alohida olinadigan soliqlar harbiy harajatlarni qoplash uchun 1867-yilda 2 baravarga oshiriladi. Bu esa xalq noroziligini keltirib chiqardi. Buning ustiga 1868-yil arafasida hazinani boyitish maqsadida xalqni aldash yo'li bilan pul islohotlari o'tkazildi.

Pul islohotlarini o'tkazishda aytish lozimki, pulning qadrini oshirish ko'zda tutilgan, biror qiymatga nisbatan yangi pul muomalaga kiritilmagan, oltin – pul qiymati darajasida almashtirilgan. Buni biz 1856-yilgi harbiylarga beriladigan maosh bilan 1880-yilgisi o'rtasidagi farqni deyarli atta bo'lmaganligi orqali bilib olish mumkin.

G. Arendarenko 1880-yilgi amirlikning harbiy harajatlarni ko'rsatib o'tar ekan oddiy sarbozlar va musiqachilar guruxiga bir oyda 20 tanga, xarbiy harakatlar chog'ida uch kunda bir tanga, bir yilgi xarbiy kiyimlar uchun 7 rubl maosh ajratilgan. Rossiya imperiyasi vassaliga aylangan Buxoro amirligida qanday harbiy harakatlar olib borilgan bo'lishi mumkin, degan savol tug'iladigan bo'lsa, bunda asosan, amir zulmiga qarshi qaratilgan xalq isyonlarini ko'zda tutmoqlik lozim.

Ushbu harakatlar 1870-1874 yillar Boljuvonda, 1871-yil G'uzor va Qarshida, 1885-yil Ko'lobda, 1885-1886 yillar Sherobodda, 1886-yil Hisorda, Denovda, 1898-yil Nurotada va boshqa bir qancha xududlarda amir siyosatiga qarshi qaratilgan edi. Mazkur harakatlar chog'ida harbiylar uchun "kunlik" ajratib turilgan. Harbiy amaldorlarga oylik maoshdan tashqari natural tarzda qishloq xo'jaligi maxsulotlari ham berilgan.

Chehraog'asining xazinadan oladigan bir yillik daromadi 48 rubl va 144 pud¹ don: mirzaboshi 56 rubl hamda 192 pud don: jivachi 72 rubl va 240 pud don: Qorovulbegi 96 rubl va 400 rubl va 480 pud don,

¹ Izoh. 1 pud 16 kg ga teng.

To'qsoba 280 rubl va 640 pud don: dodxox 800 rubl va 1500 pud don hajmini tashkil etgan.

Harbiy maoshga Qushbegi imzosi bilan har oyda berilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari esa bekliklardan keladigan hiroj soliqlari yig'ilgach ajratilgan. Harbiy amaldorlar kelishuv asosida mazkur maxsulotlar qiymatida pul olishlari ham mumkin edi. Bundan tashqari ularga tanho erlari ajratilib ular ushbu erlarni ijaraga berishlari ham mumkin edi. 1 tanob erning ijara xaqi 1 oyda 3 rubl 60 tiyinni tashkil etgan.

Amirlik tuzumiga qarshi qaratilgan isyonlarni bostirish, ularni muvaffaqiyatli tinchitish harbiylar uchun qo'shimcha daromadlar olib kelgan. Chunonchi, 1880-yilda ular uchun ajratilgan mukofot pullari quydagi ko'rinishni olgan: Oddiy sarbozlar, to'pchilar musiqachilar 20 tanga, quyi amaldorlar 8-20 rubl, chehraog'asi 60 rubl, qorovulbegi 80 rubl, to'qsoba 100 rubl, udaychi 40 rublni tashkil etgan.

1880-yildagi Buxoro amirligining harbiy xarajatlari 219.980 rublni tashkil etgan. Mazkur davrda ham to'pchiboshining bir yillik daromadi 300 tilloni tashkil etgan.

Harbiy xarakatlar chog'ida transport vazifasini bajargan ot hamda tuyalar etishmagan. O'z otlari va tuyalari bilan qatnashgan harbiylarga bosib o'tilgan 8 farsax yo'l uchun 20 tiyin miqdorda pul to'langan.

Tarixiy manbalarining ko'pchiligida harbiy xarajatlarga oid raqamlar, ularning kimga va necha kishiga ajratilyotganligi, ushbu xarajatlar amirlikning qaysi xududiga tegishli ekanligi aniq ko'rsatilmagan.

Amirlikda mavjud 27 beklikda elnavkarlar harbiy nizomiy guruxi mavjud bo'lib ularning xar birida 150 tagacha qo'shin mavjud edi. Amir Xaydar xukmronligi davridan boshlab oddiy sarbozlarga, guruxlardagi 21-mansabdagilarga 60-100 tangagacha, tanho yerlar hamda tegirmonlar ajratilgan.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Buxoroning so'ngi amirlari Abdulahadxon va Olimxonlar davrida evropacha uslubdagi harbiy nizomiy guruxlar tashkil etilib ularning barcha xarajatlari hazinadan qoplangan. Mazkur guruxlarning harbiylarga oyiga 35 tanga,

bayramlar munosabati bilan bir yilda 20 tanga “Xudoyi puli” berilib, ovqatlanish, kiyinish, qurol-aslaha, kazarma xarajatlari yuqorida aytib o‘tilganidek xazinadan to‘langan. Bundan tashqari 1917-yilda tashkil etilgan arabchalar, afg‘on guruxlari, sherbachalari uchun ham yuqoridagi tartibda maosh ajratilgan.

1910-yilda amir Olimxon hokimyat tepasiga kelgach, harbiylar uchun “kunlik” xarajatlarini bekor qilingan bo‘lsa, 1918-1920 yillarda yana qayta jary etildi. Bunday qarorga kelishdan maqsad amirlik xududiga sovet hokimiyati tamonidan xavfning kuchayganligidir.

Ammo, harbiylarga maosh berilishida ko‘pgina holatlarda chalkashliklarga yo‘l qo‘yilgan. Ba’zi holatlarda xizmatdan qochgan, qazo qilgan harbiylar uchun ham xazinadan ancha vaqtgacha mablag‘ olib turilgan bo‘lsa, ba’zida yangi qabul qilingan xizmatchilar haqidagi ma’lumotlar kechikib berilganligi bois ular ancha vaqtgacha maoshsiz qolishgan. Ushbu qing‘irliklar ko‘riklar o‘tkazish chog‘ida aniqlab olinib ortiqcha mablag‘ xazinaga qaytarilgan.

1917-yil Rossiyada monarxiya tuzumi ag‘darilgach, amirlik rasman suveren davlat sifatida faoliyat ko‘rsata boshladi. Biroq, mamlakatdagi ichki vaziyatning keskinlashuvi, qolaversa 1917-yil oktyabr to‘ntarishidan so‘ng amirlikka katta xavf tug‘ila boshladi. Ana shunday vaziyatda harbiy soha rivoji uchun Olimxon tomonidan amaliy ishlar kuchaytirila boshlandi.

So‘nggi uch yil ichida (1917 - 1920 yillar) amirlik nizomiy askarlarining soni 50 mingtaga etkazilib ularning maoshlari bir necha marta oshirildi. Shunisi e’tiborga molikki, harbiy xarajatlarning oshirilishi xalqning og‘ir turmush tarzi hisobiga amalga oshirilib bu davrda soliqlarning bir necha barobar ko‘tarilganligini ko‘ramiz.

Buxoro amirligi harbiylarining moddiy va maishiy turmush tarzi masalasida quyidagi xulosalarga kelishi mumkin:

- Amirlik qo‘shini harbiylari harbiy xizmatga yurtga sadoqat, vatanparvarlik, burch sifatida qaralmasdan, moddiy extiyojlarini qoplash nuqtai nazaridan qaralgan:

- Qo‘shinda ma’naviy - ma’rifiy tashviqotlar olib borilishi xususida hech qanday ma’lumotlar uchramaydi;

- Qo'shinda ko'pgina holatlarda ularning dasturi, rejalari ishlab chiqilmagan;

Qo'shinning asosiy vazifasiga hamma vaqt ham harbiy ish sifatida qaralmasdan amaldorlarning xo'jaligini yurituvchi arzon ishchi kuchi sifatida foydalanilgan;

- Harbiy dala mashqlari xo'jako'rsinga o'tkazilib, bu ham o'ta sodda ko'rinishlarni aks ettirgan. Bundan tashqari mazkur o'tkaziladigan mashqlar ham mavsumiy ko'rinish olib, ob - havoning noqulay sharoitlarida deyarli o'tkazilmagan;

- Harbiylarga maosh ajratishning yagona, mukammal tarif tizimi ishlab chiqilmagan;

- Ko'pgina manbalardan umumiy xulosaga keladigan bo'lsak, qo'shin mamlakatdagi mavjud tartibni saqlash, qo'zg'olonlarni bostirish uchungina yaroqli bo'lgan;

- Sarbozlarga ajratiladigan oylik maoshlari o'sha davr nuqtai - nazaridan baholaydigan bo'lsak, o'z oilalarini ta'minlash uchun etarli deb xulosa qilish mumkin. Harbiy amaldorlar masalasiga kelganda esa, ular mamlakatning eng ko'zga ko'ringan boylari sifatida e'tirof etiladi

Tarixiy manbalar ma'lumotlari tahlili Buxoro amirligidagi harbiy ish va qo'shin tarixiga oid quyidagi xulosalarni ilgari surishga imkon beradi.

Buxoro amirligiga XVIII asrning o'rtalarida o'zbeklarning mang'it sulolasi namoyondalari asos solgan. Bu sulolaning asoschisi Rahimbiy ibn Hakimbiy bo'lib, uning davridan boshlab yangi davlat amirlik nomini olgan.

Amirlik davrida Buxoro Ashtarxoniylar davrida yo'qotilgan obro'sini asta-sekin tiklab oldi va O'rta Osiyodagi yirik davlatlardan biriga aylandi. Buxoro amirlari davlat mavqeini mustahkamlash, mamlakat hududini kengaytirish va o'z navbatida tashqi xavfdan himoyalash maqsadida bir qator harbiy islohotlar o'tkazdilar.

Dastlabki Buxoro amiri Rahimbiy va uning vorisi Doniyolbiy hukmronlik davrlarida Ashtarxoniylar davrida mustaqil siyosat yuritishni boshlagan ko'pgina hududlar qaytarib olindi va mamlakat markazlashish jarayonin boshidan kechirdi. Amir Shohmurod davrida

esa xarbiy soxada isloxatlar qilindi va u mamlakat sarhadlarini kengaytirish, amirlik harbiy qudrati, siyosiy nufuzini bir muncha kuchaytirishga muvaffaq bo'lgan. Biroq Amir Xaydar davrida mamlakat tanazzulga uchray boshladi va amirlikning katta qismi qo'ldan chiqib ketdi. Amir Xaydar Qo'qon xonligiga qarshi siyosatda ham omadsizlikka uchradi, qo'zg'olonlar avjiga chiqdi. Markaziy hokimiyatni mustahkamlash, qo'lga kiritilgan hududlarni ta'sir doirasida ushlab turish uchun harbiy islohotlar o'tkazmoq kerak edi. Zero, O'rta Osiyoda tarqalgan davlat boshqaruvidagi an'analar va harbiy sohadagi sodda boshqaruv, tabiiy ravishda markaziy hokimiyatning salohiyatiga, xon boshliq hukumatining qudratiga putur etkazardi. Harbiy islohotlar borasidagi amir Shohmurod tomonidan qo'yilgan edi. Uning davrida tashkil etilgan muntazam qo'shin keyinchalik mamlakat boshqaruvida oliy hukmdor tayanchiga aylandi. Muntazam qo'shin doimiy ravishda takomillashtirib borilgan. Buxoro amirligida yirik xarbiy isloxot amir Nasrullo darida o'tkazildi. Amirlik qo'shini qaytadan tuzib chiqildi va dastlabki qo'shin otliq va piyodalar bo'linmasidan iborat bo'lgan bo'lsa, asta-sekin to'pchilar bo'linmasi tashkil topdi. Bundan tashqari qo'shin tarkibidan saralab olingan askarlardan iborat maxsus guruhlar tashkil qilindi.

Harbiy harakatlar vaqtida qo'shinga jalb qilinuvchi yordamchi bo'linmalar Nasrullo davrida ma'lum bir tartibga keltirilib, yangi nomuntazam yordamchi bo'linmalarga asos solindi.

Qo'shni O'rta Osiyo xonliklarida bo'lgani kabi Buxoro amirligida maxsus harbiy o'quv yurtlari bo'lmagan. Biroq, amirlikda harbiylarni tajribali sarkardalar va askarlar tomonidan alohida tarbiyalashga katta ahamiyat berilgan. Jumladan, qo'shinda mahsus bo'linmalar mavjud bo'lib, unga boshqa bo'linmalarning yosh, iqtidorli, o'ziga to'q vakillari saralab olinib, ularga turli jang uslublari, harbiylarni boshqarish usullari o'rgatilgan.

Nasrullo o'z oldiga muntazam qo'shin tuzish maqsadidagina qo'ya olgan va ma'lum bir ma'noda bunga erishgan edi. Mamlakat mudofaa qobiliyatini shakllantirgan va tashqi xavfni imkon qadar bartaraf etgan.

Xususan, bu davrda Buxoro amirligi Qo‘qon va Xiva xonliklariga qarshi muvaffaqiyatli urushlar olib borgan.

Buxoro amirligida qo‘shin ta‘minoti xonlik xazinasini hisobidan amalga oshirilgan. Qo‘shinga qurol - yarog‘ etkazib berishni davlat o‘z zimmasiga olgan edi. Buxoro amirlari askarlar turmush darajasi va ta‘minotini yaxshilash maqsadida turli vositalardan foydalanganlar. Harbiy harakatlar vaqtida qo‘lga kiritilgan o‘ljalar ham askarlarga taqsimlab berilgan. Bundan tashqari, askarlar kundalik ehtiyojlari uchun kiyim - bosh va oziq - ovqat mahsulotlari ajratilgan. Askarlarga oylik maosh berish bilan bir qatorda, ularning ekin maydonlari soliqlardan ozod etilgan. Ayrim hududlarda askarlarga foydalanish uchun kichik yer maydonlari ham ajratilgan.

Muntazam qo‘shin safiga safarbar qilingan va chegara qal‘alarida xizmat qiluvchi askarlarga to‘y va dafn marosimlarini o‘tkazish uchun pul, mato, oziq-ovqat mahsulotlari berilgan. Yaralangan, bemor askarlarni davolanishi uchun mablag‘ ajratilgan. Biroq, bu tadbirlar markazlashgan xolda amalga oshirilgan. Ko‘p hollarda yuqoridagi tartib - qoidalardan chetlashish xolatlari kuzatilgan.

Amir Muzaffar va Sayyid Olimxonlar ham o‘z navbatida harbiy islohotlarni amalga oshirib, qo‘shinning qurollanish darajasiga katta e‘tibor qaratdilar. Bu holat tabiiy ravishda qo‘shinning qurol - yarog‘ni takomillashuviga olib keldi. Qo‘shinda o‘sha davr talabiga mos keluvchi Yevropa andozalaridagi o‘q otar qurollar to‘pponcha, miltiq va to‘plar soni ko‘paytirildi. Tarkibi sifat jihatidan yaxshilangan qo‘shinning taktik tayyorgarligiga ham jiddiy e‘tibor berilib, chet ellik harbiy mutaxassislar jalb qilindi. Garchi, islohotlar o‘z davriga nisbatan kechikkan va undan kutilgan natijalarni bermagan bo‘lsada, hukumat markazlashuviga, ko‘maklashgan, mamlakat harbiy qudratini sifat jihatidan yangi darajaga ko‘targan omillardan biri bo‘ldi.

Buxoro amirligidagi harbiy ish va qo‘shin tarixi tahlili davlat harbiy qudratiga salbiy ta‘sir ko‘rsatganligini quyidagi omillar ta‘kidlashga imkon beradi:

Birinchidan: Harbiy boshqaruvda an‘anaviy, sodda uslubning saqlanib qolganligi. Bu davrda harbiy kuchlar mahalliy an‘analarga

asoslangan holda boshqarilardi. Buxoro amirligida Yevropa davlatlari va Rossiyadagi singari maxsus harbiy mahkamalar va murakkab boshqaruv uslubi mavjud emasdi. Ko'p xollarda markaziy va mahalliy boshqaruv tizimida muhim o'rin egallagan amaldorlar harbiy sohada tajribali bo'lmasalarda, ular ma'lum mansab va amallarga ega bo'lganlar. Bu esa o'z navbatida amirlik harbiy kuchlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Ikkinchidan: Bu davrda amirlikda rivojlangan mamlakatlarda faoliyat ko'rsatgan harbiylar tayyorlaydigan alohida zamonaviy oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining mavjud emasligi. Bu holat o'z-o'zidan askarlarga zamonaviy harbiy taktikadan boxabar bo'lish imkonini bermas edi.

Uchinchidan: An'anaviy harbiy tayyorgarlikning betartib tarzda amalga oshirilishi hamda uning qisqa muddatli bo'lganligi, bo'linmalarda muayyan harbiy tayyorgarlikdan o'tgan va harb ilmidan saboq olmagan askarlarning yonma - yon xizmat qilishi ko'p hollarda jang vaqtida turli harbiy taktik uslublarni qo'llash imkoniyati chegaralanishiga olib kelar edi.

To'rtinchidan: Harbiy boshliqlarni tayinlash va harbiy boshqaruv O'rta Osiyo xonliklarida saqlanib qolgan an'analarga asoslanganligi, ko'pincha tayinlovda merosiylikning saqlanib qolganligi iqtidorli sarkardalar etishib chiqishiga to'sqinlik qilardi. Shu bilan birga harbiy mansablarning ma'muriy mansablardan ajratilmaganligi harbiy sohada islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilgan edi.

Beshinchidan: Harbiy sarkardalar va viloyat hokimlarining katta imtiyozlarga ega ekanliklari. Harbiy sarkardalarning o'z maxsus bo'linmalariga egaligi va viloyat hokimlari o'z hududlaridan to'plangan qo'shin ta'minotiga ma'sul ekanliklari, ko'p hollarda markaziy hokimiyatning nomarkazlashuviga xizmat qilib, markaziy hokimiyatga qarshi guruhlar shakllanishiga olib kelar edi.

Oltinchidan: Qo'shinni qurol-yarog' bilan ta'minlashda, mahalliy ustaxonalarda tayyorlangan, zamondan orqada qolgan qurollardan foydalanilganligi, qurol, xususan, to'plar ishlab chiqaruvchi maxsus, ixtisoslashgan zamonaviy yirik korxonalarning mavjud emasligi va

harbiy sohada zamonaviy fan - texnika yutuqlaridan foydalanilmaganligi ham xonlik harbiy qudrati rivojiga salbiy ta'sir etgan.

Ettinchidan: Hokimiyatda, ayniqsa, hukmdorlarning tez-tez almashinuvi natijasida qo'shin ta'minotdagi etishmovchiliklar, o'zaro urushlar va hokimiyat uchun kurashda tajribali sarkarda, askarlarning halok bo'lishi hamda muntazam qo'shinga nisbatan, yordamchi bo'linmalar sonining ortib ketganligi kabi omillar ham mamlakat harbiy qudratga putur etkazgan.

Oliy hukmdorlar tomonidan qo'shinga qanchalik e'tibor berilmasin, bu bilan amirlik chigal ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tugundan xalos bo'lolmadi. Oqibatda esa, Rossiya tajovuziga bardosh bera olmagan Buxoro amirligi davlat sifatida faoliyat yuritishdan mahrum qilindi va tugatildi.

Buxoro amirligidagi harbiy ish va qo'shin tarixini o'rganish jarayonida, kelgusi tadqiqotlarda masalaning yoritilishi lozim bo'lgan ayrim jihatlarini inobatga olgan holda, quyidagilar taklif qilinadi.

1) O'rta Osiyodagi harbiy ish tarixini dastlabki davlat uyushmalaridan boshlab hozirgi kungacha tarixiy izchillikda va O'rta Osiyoda qadimdan mavjud bo'lgan jang uslublari, harbiy taktikani an'anaviylik hamda tarixiylik nuqtai - nazaridan o'rganish;

2) O'rta Osiyo davlatlari xususan, Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarining xorijiy mamlakatlar bilan harbiy sohadagi aloqalarini tadqiq etish;

3) Buxoro amirligi hududiga bostirib kirgan va uni bosib olishda muhim rol o'ynagan Rossiya qo'shini, uning taktikasi xonlikdagi ma'sul shaxslar tomonidan inobatga olinmagani va ular tomonidan umuman o'rganilmaganligi sabablarini tadqiq qilish lozim.

Buxoro amirligidagi harbiy ish tarixini o'rganish, hozirgi kunda rivojlanib borayotgan O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining boy tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Vatanparvarlik, mardlik, botirlik, yovga nisbatan murosasizlik kabi holatlarni o'zida aks ettirgan. bu tarixning eng yorqin sahifalari zamonaviy o'zbek o'g'lonlari uchun ibrat namunasi bo'lib qoladi.

Nazorat savollari:

1. Buxoro amirligida qo'shinlar qanday qurollar bilan qurollangan?
2. Buxoro amirligida qo'shinlar jangda qanday taktikalardan foydalanganlar?
3. Qachondan amirlik hududiga chetdan qurol-yarog'lar keltirilishi kuchaygan?

Tayanch iboralar:

Arabchalar, Afg'on, Sherbachalari, Xudoyi puli, ellikboshi, Panjohboshi, Qoravulbegi, Yuzboshi, Harbiy musiqachilar, Oddiy sarboz.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 316.
3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
4. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь.
5. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
6. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
7. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.
8. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
9. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.

10. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. –25 январь.
11. Иванин М. Икки буюк саркарда. Тошкент, 1999 й.
12. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.
13. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.
14. Дельбрюк.Г. История военного искусства, М., 1983 г.
15. Военное дело древнего и средневекового населения Северной и 16.Центральной Азии,(Сб. науч.трудов.) Новосибирск, 1990 г.
16. Абулғозий. СҲажараи турк, Т, 1992 й.
17. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.
18. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Т-11, 2005 й.
19. Крушкел. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошкент, 1975 й.
20. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.
21. Юровской. Э.Э. Новая история стран Европы и Америки, 1-2 период. – Москва: Высшая школа, 1998.
22. Нуриддинов. З. Р. Фарб мамлакатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.
23. Язиков.Э.Ф. История новейшего времени стран Европы и Америки. М, 2002 г.
24. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256б.
25. [http:// history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
26. [http:// www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
27. [http:// English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)
28. [http:// www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
29. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.hrml>
30. [http:// www.lib.byu.edu/-rdh/www//](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www//)
31. [http:// classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
32. [http:// www.washlaw.edu/forint//](http://www.washlaw.edu/forint//)
33. [http:// www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
34. [http:// www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

MAVZU: QIZIL ARMIYA VA MILLIY QO‘SHIN MASALASI

REJA:

1. Qizil armiyaning shakllanishi
2. Qizil armiyaning milliy qo‘shindan farqli tomonlari.

***Maqsad** talabalarga Turkistonda sovet xokimiyatining o‘rnatilishi, qizil armiya qo‘shinlarini shakllanishi haqida ma’lumot berishdan iborat.*

1917-yilgi fevral inqilobi Rossiyada tub o‘zgarishlarning yuz berishiga olib kelmadi. Buning boisi shuki, burjua Muvaqqat hukumati o‘zining tor, xudbin manfaatlari doirasidan chetga chiqa olmay, yetilgan tub masalalarni hal etishga ojizlik qildi. Natijada siyosiy tuzumda o‘zgarish bo‘lgani holda muhim ijtimoiy-iqtisodiy, agrar, milliy, sulh masalalari amalda yechilmay qola berdi. Bu esa mamlakat hayotining yanada boshi berk ko‘chaga kirib, tanglik, tanazzullik holatlarining kuchayib borishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, Rossiyaning Birinchi jahon urushida ishtirokining davom etishi, rus armiyasining frontda ketma-ket mag‘lubiyatga uchrayotganligi umumxalq noroziligi va qahr-g‘azabini tobora kuchaytirmoqda edi. Lenin boshliq bolsheviklar huddi mana shu qaltis vaziyatdan ustamonlik bilan foydalanib, ommani o‘z tomoniga ag‘darishni ko‘zlovchi shiorlarni maydonga tashlab, siyosiy hokimiyatni egallash sari yo‘l tutdilar. Ular ommabop chaqiriqlarni ilgari surib, barcha tub masalalarni hal etishga qasamyod qildilar. Mana shunday ustakorlik va hiylakorlik yo‘li bilan bolsheviklar 1917-yilning 24–25-oktabr kunlari Petrogradda davlat to‘ntarishini amalga oshirdilar. Ular Muvaqqat hukumatni ag‘darib, hokimiyatni egallashga muvaffaq bo‘ldilar. Tez orada mamlakatning boshqa hududlarida ham ularning hukmronligi o‘rnatila boshlandi. “Proletariyat diktaturasi” nomi bilan atalgan zo‘ravon tuzum mana shu zaylda vujudga keldi.

Turkiston o‘lkasi Rossiya tarkibida bo‘lganidan, Markazda sodir bo‘lgan voqealar va o‘zgarishlar shabadasi bu yerga ham esib, o‘z ta’sirini ko‘rsata boshladi. Buning ustiga hokimiyat tepasiga kelgan

bolsheviklar va ularning dohiylari Turkistonni zinhor qo'ldan chiqarmaslik, o'lkada o'z hukmronligini qat'iy o'rnatish, yangicha sovet boshqaruvi tizimini shakllantirishni avvaldan o'z oldilariga maqsad qilib qo'ygandilar.

Garchand sovetlar davrida yaratilgan ko'plab tarixiy adabiyotlarda bu davr tarixi butunlay soxtalashtirilib, go'yo Turkiston aholisi oktabr g'oyalariga qo'shilib, birinchilardan bo'lib o'lkada sovetlar hokimiyatini o'rnatdi, deb og'iz ko'pirtirib kelingan bo'lsada, biroq aslida bu xil fikrlar va qarashlar tarixiy haqiqatga mutlaqo zid edi. Hatto Muvaqqat hukumatning Turkiston qo'mitasi qarorgohi joylashgan Tuproqqal'a qo'rg'onining qizil askarlar tomonidan 1917-yil 1-noyabrda ishg'ol qilinganligi fakti ham Turkistonda oktabr tub o'zgarishi yasalganidan darak bermasdi.

Bolsheviklar Markazda siyosiy hokimiyatni qo'lga olar ekanlar, ular sobiq Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan hududlarda, jumladan, Turkistonda ham sovet tuzumini qaror toptirishga intildilar. Turkistonda sovet hokimiyatini o'rnatish g'oyatda murakkab jarayonda kechdi. Buning boisi, avvalo, oktabr g'oyalarining mahalliy aholining dili va shuuriga botmaganligidadir. Negaki, bu zamin aholisi sotsialistik o'zgarishlar orqali hamma narsani umumlashtirish va milliyalashtirishni, asrlar davomida shakllangan o'ziga xos turmush tarzini, yashash sharoitini, xo'jalik yuritish, idora qilish tartib qoidalarini bir lahzada tubdan o'zgartirishni xohlamasdi. Bu begona maslak va g'oyalar bolsheviklar firqasi va uning Turkistondagi yalovbardorlari tomonidan kuch va zo'rlik bilan o'lka xalqlariga majbur qilindi. Bu esa joylarda xalq qonining daryo yanglig' to'kilishiga, mislsiz qurbonlar berilishiga sabab bo'ldi. Aholini ma'naviy-ruhiy kamsitish, diniy e'tiqodini, islomiy qadriyatlarini tahqirlash, muqaddas qadamjolarini haqoratlash, diniy kitoblarni gulhanda yondirish – bular sovet tuzumi zo'ravonlari uchun o'sha kezlarda odatiy tus bo'lib qolgandi. Aniq ma'lumotlarga ko'ra, Farg'ona vodiysida sovet hokimiyatini o'rnatish chog'ida Marg'ilonda 7 ming, Andijonda 6 ming, Namanganda 2 ming, Bozorqo'rg'on va Qo'qonqishloq (hozirgi Paxtaobod tumani) atroflarida 4,5 mingdan ziyod begunoh kishilar qirg'in qilingan. Bunday qirg'inlik Turkistonning

boshqa shahar va qishloqlarida ham sovet hokimiyatini o'rnatish chog'ida sodir etildi.

Sovet hokimiyati dohiylari bor ovoz bilan olamga jar solib, barcha mazlum xalqlar, elatlarga huquqiy tenglik, o'z taqdirini o'zi belgilash, milliy davlatchiligini tuzish va mustaqil davlat sifatida ajralib chiqishga qadar ularning haqli, huquqli ekanligini e'lon qilgan edilar. Amalda zimdan boshqacha siyosat tutib, bu jarayonning yuzaga chiqishiga butun choralar bilan to'sqinlik qildilar.

Buning yorqin ifodasi Turkistonda sovet hukumatini tuzish chog'ida to'la kuch bilan namoyon bo'ldi. O'lka hududlarida sovetlar hokimiyatini zo'rlik bilan o'rnatish jarayoni davom etayotgan bir kezda Turkiston bolsheviklari o'zlariga o'xshagan boshqa siyosiy partiyalar namoyondalari bilan til biriktirib, mahalliy millat namoyondalarini bu ishdan mustasno etib, o'z hukumatini tuzishga kirishadilar. Bu hiylanayrangning hidini oldindan sezgan turkistonlik mahalliy taniqli arboblarning mabodo yevropalik ozchilikning manfaatini ko'zlaydigan hukumat tuziladigan bo'lsa, bu turgan – bitgan adolatsizlik bo'ladi va ko'pchilik aholining keskin noroziligiga olib keladi, deb o'z nuqtai-nazarlarini oshkora bayon qildilar.

1917-yilning 12–15-noyabr kunlari Toshkentda bo'lib o'tgan Umumturkiston musulmonlarining III-qurultoyi qabul qilgan qarorlarda: “hokimiyatning mahalliy aholi manfaati uchun deyarlik zid bo'lgan begona va o'tkinchi, tasodifiy kishilar guruhi – harbiylar, ishchilar va dehqonlar tashkilotlari qo'lida bo'lishi demokratik tamoyillarga javob bermaydi va mahalliy aholiga xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash asosida to'g'ri hayot qurishiga kafolat berolmaydi”, deb qayd etilgan edi.

Biroq bu haqqoniy talab va ogohlantirishlar Turkistonda sovet hokimiyati mutasaddilari sifatida ish yuritayotgan, joylarda esa bu hokimiyatni zo'rlik yo'li bilan qaror toptirayotgan bolsheviklar va ularning muvaqqat ittifoqchilariga zarracha ham ta'sir etmadi. Ular o'z muddaolariga erishish maqsadida Toshkentda 1917-yilning 15–22-noyabr kunlari Turkiston ishchi, askar va dehqon deputatlari sovetlarining III-qurultoyini chaqirdilar. Biroq uning ishida Turkiston

musulmonlari vakillari teng huquqli asosda ishtirok eta olmadilar. Bu hol hukumat tarkibida ham aniq-ravshan namoyon bo'ldi. Bolshevik F.I.Kolesov raisligida tuzilgan 7 bolshevik va 8 so'l eser komissarlardan iborat Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tarkibiga o'lka aholisining qariyb 95 foizini tashkil etgan mahalliy aholining birorta ham vakili kiritilmadi. Bu endi sovet hokimiyati hukmdorlariga xos shovinistik va ulug' davlatchilik siyosatining tipik namunasi sifatida mahalliy aholini mensimaslik, uning manfaatlarini sa'riq chaqaga olmaslikni bildirar edi. Shu bois ham yerli aholining ko'pchiligi yangi sovet hokimiyatidan hafsalasi pir bo'lib, unga nisbatan g'azab-nafrati oshib bordi.

Hukmron Markaz va uning Turkistondagi vakolatli hukmdorlari o'lka xalqlarining qonuniy muxtoriyat hokimiyatini zo'ravonlik bilan ag'darib tashlash uchun hamma vositalar ishga solindi. Kerakli jangovar harbiy qismlar shunga yo'naltirildi. Turkiston Muxtoriyati ko'plab sabablarga ko'ra o'zini-o'zi yetarli darajada himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lolmadi. Buning boisi, avvalo uning qisqa umr ko'rganligi (u atigi 72 kun yashadi), shu sababdan ko'p narsalarni bajarishga ulgurolmaganligi bo'ldi. Qolaversa, muxtoriyatchilar orasida ko'pgina muhim hayotiy masalalarda birlik, hamjihatlik, jipslik mavjud emas edi. 1918-yil 18-fevral kuni "Sho'roi Ulamo" jamiyati tashabbusi bilan muxtoriyatda to'ntarish qilinib, Mustafo Cho'qayev boshchiligidagi hukumatning ag'darilishi va hukumat boshqaruvi Qo'qon mirshablari boshlig'i Kichik Ergashga berilishi bunga guvohdir. Moddiy, harbiy, moliyaviy madad ko'rsata oladigan yetarli real kuchlar va imkoniyatlarning bo'lmaganligi ham bunga sabab bo'ldi. Muxtoriyat tashqi olamdan ham ajralib qoldi. Uni har tomonlama quvvatlaydigan biror-bir xorijiy davlat bilan bevosita aloqa o'rnatishga ulgurolmadi. Bu omillar Turkiston Muxtoriyati ahvolini tanglashtirib, faoliyatsizlikka mahkum etdi.

Vaziyat sovet amaldorlariga qo'l kelib, ular bundan muxtoriyatni barbod etish uchun ustamonlik bilan foydalandilar. Turkiston sovet hukumati 1918-yil 14-fevralda Farg'ona viloyati hududida favqulodda holat joriy etdi. Uning Qo'qondagi mahalliy hokimiyati – ishchi va askar deputatlari soveti 17-fevralda muxtoriyat vakillarini taslim bo'lishga

da`vat qildi. Ayni vaqtda Toshkentdan Perfilev boshchiligida qurollangan qizil qo'shin olib kelindi va darhol ishga solindi. Qo'qondagi millatchi arman dashnoqlari ham bu g'ayriqonuniy bosqinga jalb qilindi. 19–21-fevral kunlari Qo'qon xalqi ustiga baloqazo yog'ildi. Shahar o't ichida qolib, kunpaya-kun bo'ldi. Sovet hokimiyati Turkiston Muxtoriyati hukumatini shafqatsizlarcha tor-mor etdi. Eng dahshatlisi shuki, bu beayov xunrezlik chog'ida hech bir gunohi bo'lmagan qo'qonlik ming-minglab oddiy fuqarolar qirg'in qilindi.

Turkiston Muxtoriyati halokatga yuz tutgan bo'lsada, biroq u o'lka xalqlarining tarixiy taqdirida o'chmas iz qoldirdi. Turkiston aholisi endilikda o'z erki, mustaqilligini birovlar, yot ajnabiy kuchlar, ularning "dohiylari" yordami bilan emas, balki o'z kuchlari, o'z milliy rahnamolari yetakchiligida birgalikda kurashib, qo'lga kiritishlari mumkinligiga qat'iy ishonch hosil qildilar.

Buxoro va Xorazm respublikalaridagi qurolli kurashlar.

Xorazm vohasida bolsheviklar, qizil armiya kuchlariga qarshi qurolli kurash 1918-yil o'rtalarida boshlanib ketgan edi. Tajovuzkor kuchlar Petro-Aleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l)ni Xiva xonligiga qarshi hujum bazasiga aylantira boshladilar. Chorjo'ydan Amudaryo orqali harbiy kuchlar keltirildi. Xorazmning o'ng qirg'oq hududi XIX asrning 70-yillarida podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinib, harbiy istehkomga aylantirilgan edi.

Qizil qo'shirlarning Xorazm va Buxoro mamlakatlari hududlariga tajovuzkorlik bilan bostirib kirishlari davomida qilgan talonchiliklari, zo'rliklari, qon to'kishlari ommaviy noroziliklarni keltirib chiqargan asosiy sabablardan bo'ldi. Bu beboshliklar keyingi davrlarda ham davom etdi. Tajovuzkor. qo'shirlarga buyruq bergan, qo'mondonlik qilgan, respublikalar hududlarida qizil askarlar garnizonlarini joylashtirib, ularga tayanib ish yuritgan bolsheviklar, harbiylar xalq boyliklari, molmulkini tortib olish, odamlarni qatag'on qilish, inqilobiy o'zgartirishlarni amalga oshirish, milliy qadriyatlarni oyoqosti qilishga boshchilik qildilar. Bu qizil armiyaga qarshi harakatning kengayib, ommaviy tus olishiga olib keldi. Harakatda erli aholining deyarli barcha

qatlamlari, birinchi navbatda dehqonlar qatnashdilar. Bu hol harakat boshliqlari, ularga kelib qo'shilganlarning turli tabaqalarga mansub bo'lgani, noroziliklar, qahr-g'azab, murosasiz janglarga shaylanganlar doiralari ko'lamining nechog'lik keng, o'tkir, shiddatli bo'lganidan dalolat beradi.

Buxoro respublikasida tajovuzkorlarga qarshi qurolli kurash. Qizil armiyaga qarshi kurash olib borgan guruhlar, shahar va tumanlarda ko'tarilgan qo'zg'olonlar Buxoro respublikasining barcha - g'arbiy, markaziy, sharqiy qismlarida boshlanib, ommaviy tus oldi. 1920-yil avgust oyining oxirgi kunida poytaxt Buxorodan ketgan amir Olimxon Sharqiy Buxoroga kelib, katta kuchlar to'pladi, ularning soni 12 ming, keyinroq 25 ming kishiga etdi, qizil qo'shinlarga qarshi janglar olib borildi.

Ibrohimbek (1889-1932), Davlatmandbek va boshqalar kurashga boshchilik qildilar. Jiddiy zarbalarga javoban qizil armiya qo'mondonligi yangi-yangi qismlarni, ko'plab qurol-aslahalarni etkazib kelib, ishga soldi.

1921-yil boshida mag'lubiyatga uchragan amir Olimxon Afg'onistonga o'tib ketdi. Shu yil oktabrida Turkiyaning sobiq harbiy vaziri Anvar Posho (1881- 1922) Buxoro shahriga kelib, biroz muddatdan so'ng mamlakatning sharqiy qismiga jo'naydi va sovetlarga qarshi kuchlarga qo'shiladi. Anvar Poshoning harakatlari bilan Sharqiy Buxoroda birlashgan lashkar bunyod etildi va g'arbcha qo'mondonlik uslubi joriy qilindi. Anvar Posho 1922-yil yozida bo'lgan janglardan birida Baljuvon tepaliklarida shahid bo'ldi.

Mamlakatning markaziy va g'arbiy viloyatlarida ham kurash shiddatli tus oldi. 1920-yil kuzida Boysun, Denov, Sherobod, Sariosiyoda qurolli guruhlar tuzilib, janglar boshlab yubordilar. Dekabrda Qarshi, Shahrisabz, Yakkabog', Kitob, Chiroqchida qo'zg'olonlar boshlandi, yangi hokimiyat, qizil askarlar garnizonlariga jiddiy talafotlar etkazildi. Bu joylarga ham qo'shimcha qizil askar qismlari yuborildi.

Qisqa muddat davomida Mulla Abdulqahhor (1884-1924) boshchiligidagi poytaxt Buxoro tumanlarida lashkar to'plandi va

jangovar harakatlar olib borildi. Shuningdek, Mulla Abdulqahhor rahbarligida Buxoro, Karmana va Nurotadagi o'nlab guruhlar faoliyat ko'rsatdi. Ularning katta armiyasi 1922-yil mart oyining boshida poytaxt Buxoro shahriga yurish qildi. Ular qizil askarlar bilan shahar atrofta bo'lgan ikki kunlik shiddatli janglardan so'ng Buxoro shahrining katta bir qismini egalladilar va bir necha soat mobaynida o'z qo'llarida tutib turdilar. So'ngra shahar atrofidagi Bahouddin Naqshband ziyoratgohini egalladilar. Ammo zudlik bilan etib kelgan ko'p sonli qizil askarlar (ular orasida Budyonniyning otliq qo'shini ham bor edi) bilan bo'lgan jangda ular Buxoroi Sharif va Bahouddin ziyoratgohidan katta qurbonlar berib chekinishga majbur bo'ldilar.

Bu harakatga qarshi kurash qizil armiya va uning qo'mondonligidan katta kuch-g'ayrat talab qildi. Moskva, Toshkent, Buxoroda 1923-yil may-iyun oylarida o'tkazilgan oliy darajadagi bir qator rasmiy anjumanlarda bu masala eng dolzarb muammo sifatida kun tartibida turdi.

Sovet hukumati butun Turkistondagi qarshilik harakatini tugatish uchun barcha vositalarni ishga soldi. Angliyalik tadqiqotchi Glenda Frezerning yozishicha, «Sovet qo'mondonligi Buxoro respublikasida 1923-yil bahor-kuz fasllarida bo'lgan janglarga 100000 kishilik ulkan armiyasini tashladi».

Mulla Abdulqahhor yigitlari bilan qizil askarlar o'rtasida 1924-yil yozi va kuzida G'ijduvon tumanining G'ishti va Kattag'amxo'r qishloqlarida, Nurota tog'larida, Shofirkon tumaniga tutash Qizilqumning Jilvon qumliklarida, Bog'iafzal va Vardonze qishloqlarida qattiq to'qnashuvlar bo'ldi. Kuchlar teng bo'lmagan ushbu janglarda u mag'lubiyatga uchradi. G'arbiy Buxorodagi guruhlariga sezilarli zarba berildi. Mulla Abdulqahhor Qizilqum cho'llarida qizil askarlar bilan bo'lgan to'qnashuvlarning birida 1924-yilning oxirida halok bo'ldi.

Qizil armiyaga qarshi harakatining mohiyati va natijalari. Buxoro respublikasida qizil armiya qismlariga qarshi qariyb 5 yil davomida shiddatli jang harakatlari olib borildi. Bu harakat 1924-yilning oxirigacha hozirgi Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarida davom etdi. Bu davrda xalqning og'ir ahvoli yanada murakkablashdi.

Buxoro mamlakati hududlaridagi qurolli harakat qizil armiya va bolsheviklarning tajovuzkorligi, zo‘ravonligi va talonchiligiga qarshi qaratilganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Kurashchilarning asosiy maqsadi qizil qo‘shinlarni haydab yuborish, milliy qadriyatlar, asriy e‘tiqod va urf-odatlarining poymol qilinishi, xo‘rlanishiga barham berish edi. Shu maqsadlar yo‘lida kurash olib borish uchun Buxoro respublikasi rahbarlaridan Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Muhiddin Maxsum Xo‘jaev, Ali Rizo Afandi, Abdulhamid Oripov, Qulmuhamedov va boshqalar qo‘zg‘olonchilar saflariga borib qo‘shildilar.

Bir guruh harakat yo‘lboshchilari Buxoro respublikasi hukumatiga yo‘llagan maktublarida Buxoroda bolsheviklar bo‘lmasligi lozimligini, «favqulodda komissiya orqali kambag‘al aholining mol-mulki va hayoti tortib olingan»ligini, «bolsheviklar jabr va zulmni avj oldirib yuborganliklarini va «Buxoroning mustaqilligi quruq so‘z bo‘lib qqlgan»ligini, «haqiqatda undan darak yo‘q»ligini ta’kidlagan edilar.

Shu bilan birga, Buxoro hududida kurash olib borgan aksariyat qo‘rboshilarning qarashlarida ziddiyatli tomonlar ham mavjud bo‘lgan. Qo‘rboshilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik, hamjihatlikning yo‘qligi, mamlakatni rivojlantirishning aniq dasturi yo‘qligi harakatni kuchsizlantirdi, uning kengayishiga halaqit berdi. Bundan tashqari, Buxorodagi harakatning Turkistondan, xususan, Farg‘ona vodiysidagi harakatdan farq qiladigan asosiy tomoni shundan iboratki, ular ikki jabhada turib kurash olib bordilar. Bir guruh qo‘rboshilar (Ibrohimbek, Mulla Abdulqahhor va boshqalar) amirlik tuzumi tarafdorlari bo‘lib, ular faqat qizil armiyaga emas, yosh Buxoro hukumatiga ham qarshi kurash olib bordilar. Bu qo‘rboshilar amir hokimiyatini qayta tiklash g‘oyasini ilgari surib, sobiq amir Said Olimxondan yo‘l-yo‘riq olib turdilar. Lekin amir hokimiyati o‘z vaqtida xalq noroziligini oshirgan, mamlakat taraqqiyotiga to‘sqinlik qilgan edi. Ikkinchi guruh qo‘rboshilar (Anvar Posho, Davlatmandbek, Jabborbek va boshqalar) muqaddas Buxoro tuprog‘idan qizil askarlarning chiqib ketishi, Buxoro respublikasi mustaqilligi amalda qaror topishi uchun kurashdilar. F.Xo‘jaev boshliq Buxoro Xalq Respublikasi hukumati ular bilan yashirin aloqa o‘rnatib, muzokara asosida tinchlik yo‘li bilan murosas qilishga intildi.

Bolsheviklarning tazyiqidan norozi bo'lgan Buxoro hukumati a'zolarining bir qanchasi muxolifat kuchlarga qo'shilib ketdi.

Afsuski, F.Xo'jaev boshchiligidagi Buxoro hukumati tarkibidagi milliy vatanparvar kuchlar (sobiq Yosh buxorolik jadidlar) bilan muxolifatdagi qurolli guruhlar yo'l boshchilari o'rtasida kelishuv amalga oshmadi. Bu totalitar rejim sharoitida amalga oshishi mumkin ham emas edi.

Xorazmda jang harakatlarining boshlanishi va kengayib borishi. Xorazm vohasida bolsheviklar, qizil armiya kuchlariga qarshi qurolli kurash 1918-yil o'rtalarida boshlanib ketgan edi. Tajovuzkor kuchlar Petro-Aleksandrovsk (hozirgi To'rtko'l)ni Xiva xonligiga qarshi hujum bazasiga aylantira boshladilar. Chorjo'ydan Amudaryo orqali harbiy kuchlar keltirildi. Xorazmning o'ng qirg'oq hududi XIX asrning 70-yillarida podsho Rossiyasi tomonidan bosib olinib, harbiy istehkomga aylantirilgan edi. Xorazm sovet hokimiyatidan Petro-Aleksandrovsdni qaytarib berishni talab qildi, ammo rad javobini oldi. Aksincha, qizil qo'shinlar shu istehkomdan Xorazm vohasiga bostirib kirib, xon hokimiyatini ag'darib tashlashda foydalandilar.

Xorazm respublikasida 1920-yil bahoridan boshlab misli ko'rilmagan talonchilik va zo'rliklarga qarshi ommaviy qurolli kurashlar boshlandi. Bunga, ayniqsa, 1920-yilda qizil askarlar tomonidan Urganch aholisi, ulamolari norozilik yig'inining qonli bostirilishi, Qo'chmamadxon boshchiligidagi turkman yigitlarining o'ldirilishi, turkman aholisi ustiga jazo otryadlarining bostirib borishi, 1921-yil boshida Polvonniyoz Hoji Yusupov hukumatining fitna yo'li bilan ag'darilishi, begunoh kishilarning qamalishi, o'ldirilishi, mol-mulkining talanishi sabab bo'ldi.

Qurolli kurashni turkman yovmut urug'ining boshlig'i Qurbon-Mamed Sardor - Junaidxon (1857-1938) guruhleri boshlab, qator yillar davom ettirdi. Uning qo'shini saflarida o'zbek, qoraqalpoq va qozoqlar ham bor edi. O'zbek dehqonlari va hunarmandlaridan iborat guruhlarga Madraimboy, Sa'dulla bola, Shokir bola, Mavlonbek va boshqalar rahbarlik qildilar. Xususan, Ko'hna Urganch, Ilyali, Toshhovuz, Mang'it, Qo'shko'pir, Chimboy, Qo'ng'iro't va To'rtko'lda harakat

qilgan o'nlab guruhlar qizil askarlarga jiddiy zarba berdi. Junaidxon boshchiligidagi isyonchilar hujumga o'tib, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, Ilyali va Taxtani qayta egalladi, ko'plab qizil askarlarni asir oldi.

1921-yil yozida Qo'ng'irotda qo'zg'olon ko'tarildi. Bunday ko'tarilishlar tez-tez takrorlanib turdi. Rasmiy axborotlarda respublika hududida, qumlar orasida «kaltamanlar va bosmachilar sonining o'sishi», ularning kuch to'plab jangga kirganlari qayd etilgan. Qishloq va shaharlarning aholisi ularga xayrixohlik bildirgan. 1922-1923yillarda olib borilgan jangovar harakatlar qizil armiya qo'mondonligini tang ahvolga solibgina qolmay, balki respublikadagi siyosiy muhitga ham jiddiy ta'sir qildi.

Isyonchilar qatoriga mahalliy aholi vakillari, shuningdek Xorazm respublikasi hukumatining ayrim a'zolari qo'shildilar.

1922-yil aprel oyida Porsu shahri va uning atrofi qizil askarlardan ozod qilindi. Ko'hna Urganch atrofidagi qishloqlarda shiddatli janglar bo'ldi. 1923-yil qishida Pitnak, Hazorasp, Bog'ot, Xonqa tumanlarida dehqonlarning qo'zg'olonlari boshlanib ketdi. Qo'zg'olonchilar sovet tashkilotlarini tugatdilar, qizil askarlarga qarshi hujumni kengaytirdilar.

Harakatning shiddatli o'sib borishiga xunrezlikning kuchayishi, 1923-yil yozidan aholi qator qatlamlariga nisbatan ko'rilgan siyosiy-iqtisodiy tazyiq choralari, ko'plab kishilarning bolsheviklar tomonidan qamoqqa olinishi va otib tashlanishi sabab bo'ldi. Xorazmda ham qizil qo'shinlar qo'mondonlik buyrug'i bilan qishloqlarni vayron qildilar, tinch aholini ayamasdan o'ldirdilar. o'zbeklar bilan turkmanlarni bir-biriga qarshi qo'yish kuchaydi.

Xorazm respublikasida sotsialistik tadbirlarning amalga oshirilishi respublika markazida ommaviy noroziliklarni keltirib chiqardi. Xiva atrofida 1924-yil yanvarida 10-15 ming qo'zg'olonchi to'planib, shaharni qamal qilishi, jiddiy talablarni ilgari surishi voqealarning cho'qqisi bo'ldi. Qo'zg'olonchilarning bir qismi shahar ichiga bostirib kirib, ko'cha janglarini olib bordi. 26-yanvar kuni kechqurun bo'lgan muhoraba janglari ayniqsa shiddatli kechdi.

Qo'zg'olonchilar o'z harakatlari davomida bir qator zo'rliklar va g'ayriinsoniy kirdikorlarning oldini olishga muvaffaq bo'ldilar. Xiva

atrofida to'plangan g'alayonchilarning qat'iy talabi natijasida gunohsiz qamalgan mahbuslar hibsdan ozod etildilar. Soliqlar va o'lponlar masalasida ham ashaddiy adolatsizlikka, dehqonlarning mollari zo'rlik bilan tortib olinishiga yo'l qo'ymadilar.

Harakatning mag'lubiyati. Xorazmda qurolli kurashlar natijasida tajovuzkor qizil qo'shinlarga qator jiddiy zarbalar berildi. Qo'mondonlik yangidan-yangi harbiy qismlarni to'plab, aeroplanlarni Xorazmga keltirib, isyonchilarga qarshi jangga tashladi. Ular orasida Rossiyadagi fuqarolar urushida qatnashgan, jangovar tajribaga ega bo'linmalar, chunonchi, mashhur Budyonniy qo'mondonligi ostidagi sara otliq qo'shin ham bor edi.

Bolsheviklar, qizil armiya qo'mondonligi harakat rahbarlari bilan hech qanday muzokaraga kirishmay, ularni faqat qurol kuchi bilan bostirish rejasiga amal qilib bordilar. Shuningdek, harbiy munofiqlik, aholidan o'ch olishni ham keng qo'lladilar. Respublikada «bosmachilikka qarshi kurash uchun «favqulodda uchlik» (troyka) tuzilib (1922-yil oxiri), «bosmachilar» va ularga yordam berishda shubha qilingan yuzlab kishilar oliy jazoga hukm qilindilar va 24 soat ichida otib tashlandilar. Shuningdek, turkman qabilalari boshliqlari o'rtasida kelishmovchilik va adovat keltirib chiqardilar, turkmanlar va o'zbeklarni qarama-qarshi qo'yishga urindilar. Respublikada turli millatlar o'rtasida munosabatlar murakkablashib, jiddiy tus oldi.

Ammo hiyla-nayranglar kutilgan natijani bermadi. Qurolli kuch asosiy vositaga aylandi. Chunonchi, Xiva atrofida bo'lgan 1924-yil boshlaridagi qo'zg'olonni bostirish uchun 4-Aktyubinsk, 82-Turkiston otliq polki va aviaeskadriliya, To'rtko'ldan qo'shimcha qizil askar qismlari tashlandi. Bu kuchlar tazyiqi ostida qo'zg'olonchilar Xiva qamalini to'xtatib, chekinishga majbur bo'ldilar. Aeroplanlardan qumlarga chekinganlarni shafqatsizlarcha o'qqa tutdilar. Qo'zg'olonchilar ashaddiy qirg'in qilindi. Xorazmda vatanparvarlar harakati ayrim guruhlar tomonidan 1935-yilgacha davom ettirildi. Buxoro, Xorazm respublikalari, umuman, O'zbekiston hududidagi sovet hokimiyati va qizil armiyaga qarshi kurashlar tarixiga yakun yasaymiz, ularni keng xalq ommasi, birinchi navbatda dehqonlar qahr-

g‘azabi, noroziligining yuksak darajaga ko‘tarilganligi ifodasi deb e‘tirof etishimizga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston XKS raisi F.Xo‘jaev 1927-yilda bu harakatga baho berib, u «shiddatli siyosiy, sovetlarga qarshi xususiyat kasb etdi va butun o‘rta Osiyoning mavjud uch respublikasi - Buxoro, Turkiston va Xorazmdagi dehqonlar aholisining deyarli ommaviy harakatiga aylandi...», deb ta’kidladi.

Harakatga aloqador bo‘lgan umumiy xususiyat bu bosqinchi qizil armiyani, bolsheviklarni vatanimiz hududlaridan olib chiqib ketish talabi edi. Bu talab butun harakat tomonidan ilgari surildi. Keyingi maqsadlarga kelganda ko‘pchilik harakat rahnamolari Buxoro va Xorazm mamkakatlarida 1920-yilgacha bo‘lgan eski boshqaruv va hokimiyatni tiklashni ko‘zladilar. Holbuki, eskilikka qaytish xalq manfaatlari va demokratiyaga zid edi. Albatta, bu hol o‘zining salbiy tomonini ko‘rsatmay qolmadi. Buxoro, Xorazm respublikalari hukumatlari qurolli muxolifat harakati bilan muzokaralar olib borish, xunrezlikning oldini olish va yangi, demokratik tuzumlarni xalq ommasi manfaatlari zaminida rivojlantirish yo‘lida faoliyat ko‘rsatdilar. Ammo ko‘pchilik harakat boshliqlari dunyoqarashlari tor bo‘lganligi uchun ko‘p vaziyatda bu hukumatlar bilan murosasiz qila olmas edilar. Shunga qaramasdan qurolli harakat tarixi sovet hokimiyati osonlikcha Turkiston zaminida o‘rnasha olmaganligi haqida guvohlik beradi va xalqimizning bu davrda ham mustaqillikka intilishi, mustabid tuzumga qarshi kurashganligi haqida dalolat beradi.

Nazorat savollari:

1. Rossiyada fevral inqilobi qachon amalga oshirildi?
2. Qizil armiya haqida gapiring.
3. Buxoro va Xorazm respublikalaridagi qizil armiyaga qarshi qurolli kurashlar haqida gapiring.

Tayanch iboralar:

Respublikada, bosmachilar, Qizil armiya, qurolli qarshilik harakati, sovet hokimiyati.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 316.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь.
4. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
5. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамыз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
6. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.
7. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
8. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.
9. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.
10. Иванин М. Икки буюқ саркарда. Тошкент, 1999 й.
11. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.
12. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.
13. Дельбрюк. Г. История военного искусства, М., 1983 г.
14. Военное дело древнего и средневекового населения Северной и Центральной Азии, (Сб. науч. трудов.) Новосибирск, 1990 г.
15. Абулғозий. СҲажараи турк, Т, 1992 й.

16. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.
17. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Т-11, 2005 й.
18. Крушкол. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошкент, 1975 й.
19. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.
20. Юровской. Э.Э. Новая история стран Европы и Америки, 1-2 период. – Москва: Высшая школа, 1998.
21. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.
22. Языков.Э.Ф. История новейшего времени стран Европы и Америки. М, 2002 г.
23. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256б.
24. [http: // history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
25. [http: // www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
26. [http: // English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)
27. [http: // www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
28. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.hrml>
29. [http: // www.lib.byu.edu/-rdh/www//](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www//)
30. [http: // classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
31. [http: // www.washlaw.edu/forint//](http://www.washlaw.edu/forint//)
32. [http: // www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
33. [http: // www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

MAVZU: OSIYO VA AMERIKA HALQLARINING MUSTAQILLIK UCHUN KURASHLARI DAVRIDA HARBIY SAN`ATNI RIVOJLANTIRISH

REJA:

1. Osiyo halqlarining mustaqillik uchun kurashlari tarixidan.
2. Mustaqillik uchun harbiy xarakatlar chog'ida Osiyo xalqlarining armiyasining qurollanishi darajasi.
3. Amerika xalqlarining mustaqillik uchun kurashi.
4. Ozodlik xarakati yo'lboshchilari.

***Maqsad** talabalarga Mustaqillik uchun harbiy xarakatlar chog'ida Osiyo xalqlarining armiyasining qurollanishi darajasi hamda Amerika xalqlarining mustaqillik uchun kurashi haqida ma'lumot berishdan iborat.*

Osiyo va Amerika halqlarining mustaqillik uchun kurashlari davrida harbiy san`atni rivojlantirish. Osiyo va Amerika xalqlari. Bu xalqlarning geografik joylashuvi. Harbiy safarbarlik e'lon qilish. Osiyo va Amerika xalqlari armiyasida askarlar taminoti. Milliy ozodlik xarakatini boshlanishi va uning sabablari. Milliy ozodlik xarakati yo'lboshchilari. Simon Bolivar. Migel' Idalgo. Mustaqillikka erishgan davlatlarda harbiy ishning yo'lga qo'yilishi. Ularning qurol aslaha bilan ta'minlanishi va unda Evropa davlatlarining ishtiroki.

Jahon harbiy san'ati tarixi sohibqiron Amir Temurni haqli ravishda jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifa-tida e'tirof etadi. Ul zotning harbiy iste'-dodi, asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda sifatida yorqin namoyon bo'lgan. Temurbek tuzgan armiya o'ta intizomli bo'lib, buyuk sarkarda muhoraba vaqtida qo'shin qismlarini san'atkorona boshqa-rishga, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarda harbiy kuchlarini o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovni tadbirkorlik bilan oshib o'tishga, lash-karning jangovar ruhini zarur darajada saqlashga erishgan. Qo'shinlar tarkibi Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo'g'uliston, Xorazm, Mozandaron, Jata singari joylardan yig'ilgan navkarlardan iborat edi. Qo'shin son jihatdan aniq va puxta

tashkil qililib, uning jangovar tarkibi jangdan-jangga tobora takomillashib borgan, armiya eng ilg'or qurol-aslahalar bilan qurollangan, qismlar bir-biridan kiyim-boshi, bayrog'i va tug'i bilan farqlangan. Bu jang paytida qo'shinni boshqarishda juda qo'l kelgan. "Temur tuzuklari"da ta'kidlanishicha, safar chog'ida oddiy askarlarning har o'n sakkiztasiga bitta chodir berilgan. har bir jangchi ikkita ot, yoy, sovut, qilich, juvol-diz, qop, o'nta nina, arra va teri haltaga ega bo'lgan. Sara jangchilarning har besh-tasi bir chodirga joylashgan. Ularning har biri dubulg'a, sovut, qilich, o'q-yoy, sadoq va buyruqda ko'rsatilgan miqdorda ot bilan ta'minlangan. Harbiy san'at sir-asrorini bilgan, dushman safini parokanda qilish yo'l-yo'rig'ini yaxshi egallagan, mushkul paytlarda dadil harakat qiladigan, hech qanday to'siqdan tap tortmaydigan, qo'shinda sodir bo'lishi ehtimoldan holi bo'lmagan tartibsizlikni vaqtda bartaraf eta oladigan yovqur va mohir jangchilargina Temurbek tomonidan lashkarboshilikka tayinlangan. Amir Temur o'z qo'shinining harbiy takomiliga katta e'tibor berib, "amir", "amirul-umaro", yani "bosh amir" kabi yuqori darajali harbiy unvonlar joriy etgan. SHu kabi oliy darajali unvonlarga ega bo'lgan iqtidorli sarkardalarga u hatto vi-loyat hokimligi yoki noibligini in'om etgan. Lashkar "tuman"-o'n minglik, "hazora"-minglik, "qo'shin"-besh yuzlik va "ayl"-o'nlik birikmalarga bo'lingan. Tumanlarda askarlar soni o'n ming, qo'shinda yuz na-fardan ortiq bo'lgan. Amir Temur o'n minglik uchun "tuman og'asi", minglik bo'linmalari uchun "miri hazora", yuzliklar uchun "qo'shun boshi" va o'nliklar uchun "ayl-boshi" kabi harbiy mansablar ta'sis etgan, ularning haq-huquqi, maoshi belgilab berilgan. Har viloyat asosiy-"asl" hamda zahira-"izofa" qismlarini to'plab bergan. Vi-loyatlar toshotar-sangandoz, devor buzuvchi-manjanaq, o't otar yoki to'p-ra'dandoz va naftandoz hamda o'zi otar qurollarni ishlata biladigan jangchilarni tayyorlar edi. Askariy qismlarni to'plash bilan tavochi vazifasidagi amaldorlar shug'ullangan. Jangda bahodirlik ko'rsatib g'alaba qozongan amir uchun in'omlar ham belgilab qo'yilgan. Qaysi amir biron qo'shinni engsa yoki viloyatni fath etsa, u tug', nog'ora, bahodirlik martabasi, davlat kengashlariga kirish huquqi hamda biron sarhadning noibligi bilan siylangan. Har bir zobit jang qilish uslublarini farz sanalgan. Oddiy navkar nizomni qat'iy bajarishga majbur bo'lib, jangda u dovyurak bo'lishi, omonlik istagan dushmanga

yumshoq muomala va adolatli bo'lishi lozim edi. Taktika jihatidan Amir Temur armiyasi qo'shini ettita taktik qism-kuchlarga bo'lingan, razvedka a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning jangohda zarur darajada harakat qilishi uchun chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, ularni jang chog'ida boshqarishga alohida e'tibor qaratilgan. Qismlararo aloqa yuqori saviyada bo'lishi, harbiy boshliqlarning to'g'ri tanlanganligi muhoraba natijasiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Ispaniya olimi Rui Gonsales de Klavixoning ta'rifiga ko'ra, temuriy lashkar-boshi tinchlik cho'qida zarhal ip bilan tikilgan havorang satin ko'ylak kiygan. Uning boshida dur hamda boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan bo'rk bo'lgan. Bo'rkning ostida uch qator qilib o'rilgan ikki kokil elkaga tushib turgan. Elchi bu yo'sinda o'rilgan sochlar Temurbek askarlarining nishoni ekanligini alohida qayd etilgan. Harbiy yurish oldidan Temurbek arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, amirzo-dalar, beklar va amirlarni harbiy kengash-mashvaratga to'plagan, so'ngra askar yig'ish uchun maxsus buyruq e'lon qilingan qismlar harbiy ko'rikdan o'tkazilgan. Amir Temurning harbiy san'at rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan yana biri qo'shin qanotlarini jang chog'ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha, g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, orqadan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism-kanbulning joriy etilishidir. Amir Temur qo'shinini Jahongir, Sayfuddin va Purhusay barloslar, Oq Bug'a, Usmon Abbos, Muhammad Sulton Hamariy, O'rus Bug'a, Hamza Sulduz, Amir Murizoda, Muhammad G'azg'on, Sariq Atka va Muzaffar Uch g'aro kabi janglarda shuhrat topgan mahorati va jasur kishilar boshqargan. Amir Temur ana shu tarzda o'z zamonining kuchli va eng jangovar lashkarini tashkil qilishga muvaffaq bo'lgan. Dushman mudofaasini mohirona yakson qilish, g'animlarning yirik shaharlariga qo'qqisdan zarba berish, mustahkam qal'a, qo'rg'on va hisorlarni uzoq muddat qamal qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko'lamda qurshovga olish, raqibni ta'qib qilish kabi strategik rejalarini ko'zlab ish yuritish Sohibqironga faqat g'alaba olib kelgan. Temurbek yaratgan qudratli armiya jahon-ning o'sha vaqtdagi eng ilg'or armiyasi sifatida tan olingan, keyinchalik ham buyuk sarkardalar, harbiy mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan. Bir necha asrlar mobaynida ibrat va andoza vazifasini o'tagan hamda harbiy san'at tarixi sifatida keng ko'lamda o'rganilgan. Xullas bizning mustaqil O'zbekiston armiyasi – Vatanimiz

himoyachilari uchun ham buyuk bobomiz yaratgan armiya qo‘shinlarining, bahodir jangchilarning dov-yurakligi chinakam ibrat timsoli hisoblanadi.

Nazorat savollari:

1. Osiyo va Amerika xalqlari armiyasida askarlar taminoti qanday bo‘lgan?
2. Amerika xalqlarining mustaqillik uchun kurashi haqida gapiring.
3. Harbiy harakatlarda Osiyo xalqlarining qo‘shini qurollanishi qanday shaklda bo‘lgan?

Tayanch iboralar:

Amirul-umaro, Tuman-o‘n minglik, Hazora-minglik, Qo‘shin-besh yuzlik Ayl-o‘nlik, O‘n minglik uchun Tuman og‘asi, Minglik bo‘linmalari uchun Miri hazora, Yuzliklar Qo‘shun boshi, O‘nliklar uchun Ayl-boshi Asl Izofa, Toshotar-Sangandoz, Devor buzuvchi-manjanaq, O‘t otar yoki to‘p-ra‘dandoz va naftandoz.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь.
2. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
3. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
4. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.
5. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
6. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.

7. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.
8. Иванин М. Икки буюк саркарда. Тошкент, 1999 й.
9. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.
10. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.
11. Дельбрюк.Г. История военного искусства, М., 1983 г.
12. Военное дело древнего и средневекового населения Северной Центральной Азии,(Сб. науч.трудов.) Новосибирск, 1990 г.
13. Абулғозий. СҲажараи турк, Т, 1992 й.
14. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.
15. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Т-11, 2005 й.
16. Крушкел. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошкент, 1975 й.
17. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.
18. Юровской. Э.Э. Новая история стран Европы и Америки, 1-2 период. – Москва: Высшая школа, 1998.
19. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.
20. Языков.Э.Ф. История новейшего времени стран Европы и Америки. М, 2002 г.
21. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256б.
22. [http:// history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
23. [http:// www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
24. [http:// English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)
25. [http:// www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
26. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.html>
27. [http:// www.lib.byu.edu/-rdh/www//](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www//)
28. [http:// classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
29. [http:// www.washlaw.edu/forint//](http://www.washlaw.edu/forint//)
30. [http:// www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
31. [http:// www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

MAVZU: O‘ZBEK XALQINING FASHIZIMGA QARSHI KURASHDAGI HARBIY JASORATI

REJA:

1. O‘zbek xalqining fashizimga qarshi kurashdagi mardonavorligi
2. Front ortida jang qilgan askarlarning harbiy jangovorlik holati
3. Askarlarning harbiy taminoti

***Maqsad** o‘zbek xalqining fashizmga qarshi kurashdagi harbiy jasorati, askarlarning harbiy holati va ta‘minoti haqida ma‘lumot berishdan iborat.*

Insoniyat juda ko‘plab urushlarni boshidan kechirgan bo‘lib, bular ichida eng dahshatlisi, 50 mlndan ortiq kishining yostig‘ini quritgan, XX asr fojeasi bo‘lmish ikkinchi jahon urushidir. Olti yil (1939 yil sentabr-1945 yil sentabr) davom etgan bu urush yer sharining 80% aholisi joylashgan hududni o‘z ichiga olgan 61 ta mamlakatni qamrab oldi.

Ikkinchi jahon urushini Angliya, Fransiya va SSSR kabi yirik davlatlar o‘rtasidagi ixtiloflar, xususan, paydo bo‘lgan dastlabki damlaridanoq tashqi siyosat strategiyasi “jahon proletar inqilobi” mafkurasiga tayanib, butunjahon kommunistik imperiyasini tuzishga qaratilgan sovet davlati hamda Germaniya va Yaponiya kabi agressiv kuchlarning dunyoga hukmron bo‘lish uchun intilishlari keltirib chiqardi. Urushning asosiy aybdorlari jahonga hukmronlik qilish da’vosi bilan maydonga chiqqan Adolf Gitler va Iosif Stalin yurgizgan agressiv siyosat bo‘ldi. Fransiya va Angliya siyosiy yetakchilarining javobgarligi shundan iborat bo‘ldiki, ular bolshevizm xavfiga qarshi turuvchi kuchni tashkil qilish g‘oyasi bilan Germaniyada gitlerchilar partiyasining mustahkamlashuviga yordam beribgina qolmasdan, Avstriyaning Germaniya tarkibiga qo‘shib olinishiga (1938y mart) va Myunxen bitishuviga (1938 y sentyabr) yo‘l ochib berdilar. Bu esa, Ikkinchi jahon urushining boshlanishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

30-yillar oxirlarida xalqaro keskinlikning va ikkinchi jahon urushining boshlanishida Stalin boshliq sovet rahbarlari kapitalistlarni o‘zaro urushtirib, ularning kuchi kamayishi bilan qizil armiya

kuchlarining qaqshatqich zarbasini berishga intilishlari va aynan shu maqsadda 1939-yil 23-avgustda Germaniya bilan 10 yil muddatga o‘zaro hujum qilmaslik to‘g‘risidagi shartnomasi ularning javobgarliklarini tashkil qiladi. Sovet-german bitimining maxfiy qo‘shimcha bayonnomasiga ko‘ra, Germaniya bilan SSSR ta’sir doiralarini bo‘lib olishgan edi. Ularning manfaatdor hududlari chegarasi Polshadan o‘tgan bo‘lib, G‘arbiy Ukraina va G‘arbiy Belorusiya hududlari hamda Boltiqbo‘yi mamlakatlari SSSR ta’sir doirasidagi hudud ekanligi Germaniya tomonidan tan olingan edi. Eng so‘nggi tarixiy tadqiqotlar ”avgust bitimi” mamlakat xavfsizligini mustahkamlab, sovet-german urushining boshlanishini orqaga surgan emas, balki, ikkinchi jahon urushini va unga SSSR ning tortilishini tezlashtirgan hujjat bo‘lganligini ko‘rsatadi. Chunki Germaniya davlatining ham, Sovet davlatining ham strategik maqsadlarini aks ettirgan bu shartnomaga muvofiq Germaniya bilan SSSR Polshaga bir vaqtda qo‘shin kiritishlari lozim bo‘lgan. Shunga ko‘ra 1939-yil 1-sentabrda fashistlar Germaniyasi Polshaga bostirib kirdi. 3-sentabrda esa Angliya va Fransiya Germaniyaga urush e’lon qildilar hamda ikkinchi jahon urushi boshlandi. Natijada Germaniya ikki frontda urush holatida bo‘lib qoldi. Gitler jahon jamoatchiligi ko‘z o‘ngida halokatli urush yong‘inining asosiy aybdori bo‘lib namoyon bo‘ldi. Stalin esa aynan shuni kutgan edi. U sovet qo‘shinlarini 17 sentabrdagina Polsha hududlariga kiritishni boshladi va Sharqiy Yevropaning «haloskori» sifatida G‘arbiy Belorussiya yerlarini bosib olib, keyinroq rasmiy ravishda SSSR ga qo‘shib oldi.

1939-yil oxiri – 1940-yil boshlarida bo‘lgan sovet-fin urushi natijasida Finlandiya Leningrad va Murmansk oralig‘idagi o‘z yerlarini SSSRga berishga majbur bo‘ldi. 1940 yil iyunda Estoniya, Latviya va Litva davlatlarini bosib olib, avgust oyida o‘z tarkibiga kiritdi. O‘z hududlarini bunday kengaytirish siyosati Germaniya va SSSRni 1939-1940 yillarda yanada yaqinlashtirdi. G‘arbiy Yevropada fashistlar Germaniyasi Polsha, Norvegiya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Daniya, Lyuksemburg kabi davlatlar poytaxtlarini bosib olganda, sovetlar hukumati nemis qo‘mondonligini tabriklab borgan.

Kapitalistlar o‘zaro urush natijasida zaiflashishini kutayotgan Stalin boshliq sovetlar hukumati bir zarba bilan Yevropani sovetlashtirishga tayyorlanar, buni zimdan his qilgan Gitler hukumati Stalindan xavfsirar, ularning har biri “hujum qilmaslik haqidagi bitim”ini o‘zi uchun qulay bo‘lgan paytda bekor qilishni oqilona ish deb o‘ylardilar. Aynan shu narsa ikkita “do‘st” davlat o‘rtasidagi muqarrar urushni tezlashtirdi.

1941-yil 22-iyul yakshanba kuni tongotarida avgust shartnomasini buzib, fashistlar Germaniyasi SSSR ga hujum boshladi. Germaniya bilan uning ittifoqchilari-Italiya, Fillandiya, Vengriya, Ruminiya, Bolgariya ham Sovet Ittifoqiga qarshi urushga kirdilar. Bu urushga majburan tortilgan Sovet Ittifoqi xalqlari mustamlaka asoratida bo‘lgan barcha respublikalar shu jumladan, O‘zbekiston xalqlari uchun og‘ir sinovlar vaqti va ularning nemis fashist bosqinchilariga qarshi fidokorona kurashi boshlandi.

Urushning dastlabki kunlaridanoq, butun mamlakatda bo‘lganidek, O‘zbekistonda ham partiya tashkilotlari tomonidan mitinglar va yig‘ilishlar tashkil qilindi. 1941-yil 22-iyundayoq Toshkent to‘qimachilik kombinatining ishchilari ana shu daqiqadan boshlab o‘zlarini Vatan himoyasiga safarbar qilingan deb hisoblashlarini bildirdilar. 23-24 iyunda Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg‘ona, Nukus va boshqa shaharlardagi yig‘ilishlarda Vatan himoyasi uchun har qanday vazifani bajarishga shay ekanliklarini bildirgan o‘zbekistonliklar harbiy komissarliklarga frontga ko‘ngilli sifatida jo‘natishlarini so‘rab arizalar bera boshladilar.

Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, urushning dastlabki kunlarida respublikaning shahar va tuman harbiy komissarliklariga 14 mingdan ortiq ariza tushgan. Bu o‘zbekistonliklarning o‘z vatanparvarlik burchlarini, har bir urush insoniyat boshiga kelgan ofat ekanligini yuksak darajada anglab, urush olovini yoquvchilarga qattiq nafrat bilan qarashliklarini ko‘rsatadi. Chunki boshlangan urush yuqori hokimiyat rahbarlari orasida sarosimalikni keltirib chiqargan bo‘lib, faqat 29 iyundagina Xalq Komissarlari Kengashi nomidan joylarga ko‘rsatmalar jo‘natib, unda urush ahvolni keskin o‘zgartirib yuborganligi, Vatan

jiddiy xavf ostida qolganligi, barcha ishlarni harbiy izga solish uchun tez va qat'iy ravishda qayta qurishni amalga oshirish zarurligi ko'rsatilib, "hamma narsa front uchun, hamma narsa g'alaba uchun!" chaqirig'i talab darajasiga ko'tarilgan edi. 1941-yil 30-iyunda I.V.Stalin boshchiligidagi Davlat Mudofaa Qo'mitasi tashkil etilib, davlat, harbiy va partiyaviy hokimiyat uning qo'lida o'tdi. Stalin hukumat nomidan 3 iyulda radio orqali xalqqa murojaat qilib, haqiqiy ahvolni bayon qildi. Qurolli kuchlarga strategik rahbarlikni amalga oshirish uchun Oliy Bosh Qo'mondon Qarorgohi tashkil etilib, 8 avgustda Stalin Oliy Bosh Qo'mondon lavozimini qabul qildi. Barcha muhim harbiy-siyosiy qarorlarni qabul qilish haqiqatdan uning qo'lida to'plangan bo'lib, bu qarorlar DMQ yoki VKP (b) MQ Siyosiy byurosining qarorlari sifatida rasmiylashtirilgan.

Urushning dastlabki kunlaridanoq sovet xalqi-o'zbekistonliklar ham bosqinchilar ustidan g'alabaga erishishga butun kuchlarini baxshida etdilar. Mustabid tuzum zulmi ostida ezilayotgan xalqlar qandaydir g'oyalarni emas, balki ona-yurt-Vatanlarini himoya qildilar. O'zining vatanparvarlik burchini yuksak darajada his qilgan o'zbek xalqi fashizmdan faqat SSSRni emas, eng avvalo O'zbekistonni himoya qilishni, uni yana bir bosqinchidan saqlab qolishni maqsad qilib qo'ygan edi. Chunki xalqimiz sotsializm niqobi ostida qilingan bosqinchilik siyosiy qatag'onlar zahmini hali unutmagan bir davrda gitlerchi bosqinchilarning bosib olingan hududlarda qilgan ashaddiy jinoyatlari, ular o'rnatayotgan tartib to'g'risidagi xabarlarini eshitib fashizmning mustabid tuzumdan ham dahshatliroq, insoniyat boshiga kelgan ofat ekanligini anglab yetgan edi, ya'ni xalq o'zini dushmanini to'xtatishga va uloqtirib tashlashga qodir bo'lgan birdan bir kuch deb his qildi. U kommunistik tizim foydasini emas, balki fashizmga qarshi kurashning adolatli ekanligi g'oyasini tanladi. Shu jihatdan ham birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning "urush davri voqealarini, jangchilarimizning jasoratlarini tahlil etishda va ta'riflashda ham mafkurabozlikni... kamroq aytish" ga doir chaqirig'i nihoyatda dolzarb bo'lib jaranglaydi. Prezident haqli ravishda bunday deb ta'kidlagan edi: "Ikkinchi jahon urushiga qanday qaralmasin, bu urush qaysi g'oya ostida

va kimning izmi bilan olib borilgan bo'lmasin, o'z Vatani, el-yurtining yorug' kelajagi, beg'ubor osmoni uchun jang maydonlarida halok bo'lganlarni, o'z umrlarini bevaqt xazon qilgan insonlarni doimo yodda saqlaymiz. Bu achchiq, lekin oliy haqiqatni unutishga hech kimning haqqi yo'q va bunga yo'l ham bermaymiz!" Chunki o'zbekistonliklarning jang maydonlaridagi jasorati, front orqasidagi fidokorona mehnati mustabid davlat mashinasining tazyiqi, erksiz harakat tarzida emas, balki ongli, asl vatanparvarlikning manbai bo'lgan Vatanga muhabbat tuyg'usining yuksak darajadagi ko'rinishi bo'ldi.

Urushning dastlabki kunlaridayoq O'zbekistonning barcha moddiy va ma'naviy kuchlari, resurslari front uchun safarbar qilina boshlandi. Umumiy harbiy safarbarlik e'lon qilindi.

O'rta Osiyo harbiy okrugi front uchun 1941-yil iyundan 1942-yil oxirigacha harbiy safarbarlik asosida 109 ta harbiy qo'shilma tuzdi, harakatdagi armiyaga va Oliy Bosh qo'mondonlik qarorgohi rezerviga 86 diviziya va brigada jo'natdi.

O'zbekiston hukumati milliy harbiy qo'shilmalar tuzish tashabbusi bilan chiqdi. 1941-yil 13-noyabrdan 1942-yil martigacha 14 ta milliy harbiy qo'shilma, jumladan, 9 ta o'qchi brigada, 5 ta otliq askarlar diviziyasi tuzilib frontga jo'natildi. Umuman, urush boshlarida 6,5 million kishidan iborat bo'lgan O'zbekiston aholisining 1.433.230 tasi urushga safarbar etilgan. Ularning ko'pchiligi mardlik namunalarini ko'rsatib, jangovar orden va medallar bilan taqdirlandi. Chunki ota va onalar, O'zbekiston xalqi o'z o'g'lonlarini frontga jo'natar ekanlar, ularga bosqinchilarga qarshi sharaf bilan kurashish, o'tmishda bosqinchilarga qarshi kurashlarda g'olib chiqqan qahramonlarning jangovar jasoratlaridan namuna olishni, mard, botir askar bo'lib, dushmanlar ustidan g'alaba qozonishlarini tilab qolgandilar.

Harbiy vaziyat front orqasini mustahkamlash yuzasidan shoshilinch chora-tadbirlar ko'rishni talab qildi. Xalq xo'jaligini qayta qurib, harbiy izga tushirish umumiy dasturning tarkibiy qismi bo'ldi. O'zbekiston iqtisodiyoti ham harbiy vaziyatdan kelib chiqib zudlik bilan front manfaatlariga bo'ysundirildi. Respublika sanoat korxonalari urush boshlanishi bilanoq qayta qurilib, mudofaaga zarur mahsulotlar ishlab

chiqarishga o'tkazildi. Qayta qurish grajdanlar urushi yillarida sinovdan o'tgan harbiy-kommunistik usullar bilan amalga oshirildi. 26 iyundan boshlab mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish joriy etildi. Katta yoshdagilar uchun ish kuni olti kunlik ish haftasida 11 soatgacha uzaytirildi. Aslida ish kuni 12-14 soatga cho'zilar. Ta'tilga chiqish bekor qilindi. Bu hol ishchi xizmatchilar sonini ko'paytirmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlari hajmini taxminan 1G'3 ga oshirish imkonini berdi.

Ishchi kuchining yetishmasligi natijasida idora xizmatchilari, uy bekari, o'quvchilar ishlab chiqarishga jalb etildi. 1941 yil dekabrda harbiy korxonalarning barcha xodimlari safarbar deb e'lon qilindi va mazkur korxonalarga biriktirib qo'yildi. Korxonalardan o'zboshimchalik bilan ketib qolganlar 5 yildan 8 yilgacha muddat bilan qamoqqa hukm qilinardi. Biroq odamlar mamlakat ichkarisida-O'zbekistonda ham "yuqoridan" ortiqcha qistovsiz ozodlik va mustaqillik yo'lida fidokorona mehnat qildilar.

Respublika hukumati 1941-yil sentyabr-dekabrda O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishni harbiy izga moslab qayta qurishning umumiy rejalarini belgilab berdi. Qabul qilingan qarorlarda xalq xo'jaligini qayta qurishga doir aniq vazifalar belgilangan bo'lib, sanoat korxonalarining mudofaa mahsulotlarini ishlab chiqarishga o'tish muddatlari belgilanib, ichki imkoniyatlardan foydalanish tavsiya etilgan.

Kadrlar, xom-ashyo, ishlab chiqarish vositalari tanqisligiga qaramasdan 1941-yil dekabrdayoq respublikadagi 30 ga yaqin korxona mudofaa uchun mahsulot bera boshladi. Korxonalarda front brigadalari nomini olgan brigadalar tuzila boshladi, dastlab oktyabrda "Tashselmash" zavodida tashkil etilgan bo'lsa, 1942-yil boshlarida ularning soni 1,5 mingga yetgan. 1942-yil o'rtalariga kelib xalq xo'jaligini qayta qurib, harbiy izga o'tkazish O'zbekistonda asosan oxiriga yetkazildi.

O'lka aholisi an'anaviy vatanparvarligining ajoyib namunalaridan biri frontga umumxalq yordami ko'rsatish edi. O'zbekistonliklar urushning dastlabki kunlaridanoq mudofaa jamg'armasini tashkil etish harakatida faol ishtirok etdi. Mudofaa jamg'armasiga ishchilar, ziyolilar

bir kunlik ish haqlari, “kommunistik shanbalik”larda ishlab topilgan pullar, fuqarolarning shaxsiy jamg‘armalari, qimmatbaho boyliklari, davlat zayomlari, buyumlar, oziq-ovqat mahsulotlari topshirilardi. Urushning dastlabki kunlarida respublika aholisidan 30 million so‘mlik miqdorda pul, obligatsiya va qimmatbaho buyumlar to‘plandi. O‘zbekiston aholisi urush yillarida mudofaa jamg‘armasiga jami 649, 9 mln. sum pul va 55 kg.ga yaqin oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallar topshirdi. Bu jamg‘arma hisobiga tank kolonnalari, aviatsiya eskadrilyalari, bronepoyezdlar qurilib frontga jo‘natildi.

Aholi tomonidan issiq kiyimlar to‘plash va tayyorlash keng avj oldi. Respublika aholisi urushning dastlabki olti oyi mobaynida 421,5 mingta turli issiq kiyimlar frontga yubordi. Jangchilar uchun to‘plangan buyumlar, oziq-ovqatlarni O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumining rayisi Y.Oxunboboyev (1885-1943) rahbarligidagi delegatsiya frontning oldingi marralariga yetkazib berdi.

Mustabid tuzum tazyiqi, qatag‘onlarga qaramasdan o‘zbekistonliklarning ikkinchi jahon urushi yillarida ko‘rsatgan yuksak vatanparvarlik namunalari bu xalqning ko‘p ming yillik tarixga, boy ma’naviy merosga ega ekanligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni bir xilda his qilishini ko‘rsatadi.

Urushning og‘ir yillarida o‘zbek xalqining asosiy ma’naviy-ahloqiy xususiyatlari, uning insonparvarligi yorqin namoyon bo‘ldi, ya’ni yurtboshimiz aytganlaridek: “tarixning o‘yini ham, omonsiz jangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog‘ tushira olmadi”.

Urushning dastlabki kunlaridan boshlab butun mamlakatda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham oziq-ovqat va sanoat mollari kamayib ketdi. Aholining ahvoli keskin yomonlashdi. Shahar aholisini oziq-ovqat bilan ta‘minlash “chiptalar” bo‘yicha amalga oshirila boshlandi. Ishchilar va xizmatchilar kuniga faqat 400-500 gr. past navli non olardi, qaramog‘dagilar esa, yuqoridagi miqdordan 1,5 barobar kamroq olishardi. Aholiga go‘sht, baliq, yog‘, yorma, makaron sotishda ham me‘yorlangan taqsimot joriy qilindi. Me‘yorlangan taqsimot qishloq aholisiga umuman tadbqiq etilmagan. Qishloq mehnatkashlari mehnat

kunlariga oladigan natura (mahsulot bilan) to'lovi va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarida yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlari hisobiga oziq-ovqat bilan ta'minlanishlari lozim edi. Lekin bu mahsulotlar juda cheklangan miqdorda edi. 4 yil urush mobaynida kolxozlar dehqonlarga amalda pul to'lamaganlar va mehnat kunlariga nihoyatda kam miqdorda mahsulot berganlar. Urush tufayli qiyin va og'ir sharoitda qolganiga qaramasdan ko'chirib keltirilganlarga, yarador va nogironlarga, frontga ketganlarning xotinlari va bolalariga ko'rsatgan g'amxo'rliqi o'zbek xalqining birlik va qardoshlarcha do'stlikka insonparvarlik bilan intilishining yorqin timsoli, ulkan ahloqiy kuch-qudrati va haqiqiy samimiy olijanobligining chin ma'nodagi isboti bo'ldi.

O'zbekiston urush yillarida Rossiyaning bosib olingan rayonlardan-Ukrainadan, Belorussiyadan hammasi bo'lib bir milliondan ortiq kishini qabul qildi. Ulardan 200 ming nafari bolalar edi. Aholi ularga turar-joy berib, o'zi siqilib yashadi, ko'chib kelganlarni to'ydirish uchun oxirgi bo'lak nonini ham bo'lib berdi, ular poyabzal, kiyim bosh to'pladi. Ularga 135 ming kv.m turar-joy maydoni ajratib berildi. Ko'chirib keltirilganlarni ishga joylashtirish yuzasidan katta ishlar amalga oshirildi. Faqat Toshkent shahrining o'zida 1941-1942 yillarda qariyb 240 ming kishi joylashtirildi va ish bilan ta'minlandi.

Ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli yo'sinda tashkil etish maqsadida respublika hukumatining qarori bilan 1941-yil oktyabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt, tashkil etilib, joylashtirish bo'yicha respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tuzildi. Faqat 1941-yil 25 noyabrda 1942-yil oktyabrga qadar respublikaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola o'tdi. Ko'pgina oilalar ikki va undan ortiq yetim bolalarni o'z tarbiyalariga oldilar. Toshkentlik Shomahmudovlar turli millat farzandlaridan 14 bolani o'z oilalariga tarbiyaga oldilar. Kattaqo'rg'onlik Hamid Samadov oilasi 12 bolani asrab oldi. F. Qosimova 10, M. Jo'rayeva va Ashurxo'jayevalar 8 bolani o'z oilalariga oldilar. 1943-yilning oxiriga kelib shaharlarda 4672 bola, qishloqlarda esa, 870 bola o'zbek oilalari tomonidan tarbiyaga olingan edi. Urush arafasida respublikada 106 ta bolalar uyida 12 ming bola

tarbiyalanayotgan bo'lsa, 1945-yilga kelib, ularning soni O'zbekiston viloyatlarida va Qoraqalpog'istonda 263 ta bolalar uyida 31300 bolaga yetdi. 1943-yilda bolalar bog'chalarida tarbiyalanayotgan 53072 boladan 15108 nafari evakuatsiya qilingan bolalar edi. Yuqoridagi aniq dalillar xalqimizning boshqa millatlarga bo'lgan mehr-muhabbatining, bag'rikenglik fazilatlarini aks ettiradi.

Urush yillarida O'zbekistonga frontda yarador bo'lgan jangchilar ko'plab keltirildi. Urush boshlangandayoq respublika hukumati gospital bazasini tashkil qilishga kirishgan edi. 1941-yil 1 oktyabrgacha O'zbekiston sog'liqni saqlash xalq komissarligi tizimida 14950 o'ringa ega bo'lgan 47 gospital barpo etildi va zarur uskunalar bilan jihozlandi. Faqat Moskva, Kalinin, Rostov va boshqa viloyatlardan 15900 o'rin-karovatga ega bo'lgan 48 gospital respublikamizga ko'chirib keltirildi va ishga tushirildi. Evakuatsiya qilingan gospitallarga Toshkentdagi va O'zbekistonning boshqa yirik shaharlardagi eng yaxshi binolar ajratib berildi. 1942-yilning oxirida O'zbekiston hududida 39140 o'ringa ega bo'lgan 113 ta evakuatsiya gospitallari joylashtirildi. Urush yillarida bu gospitallarga 164382 yarador keltirilgan bo'lib, ulardan 87 foizi davolanib chiqdi. Davolanayotgan jangchilar uchun to'laqonli ovqatlanishni tashkil qilish uchun 750 dan ortiq korxona, tashkilot, kolxoz va savxozlar gospitallarni otaliqqa oldi va butun o'zbek xalqi yaradorlarga g'amxo'rlik qildi

Nazorat savollari:

- 1.O'zbek xalqining fashizmga qarshi kurashi haqida gapiring.
- 2.O'zbek askarlarining fashizmga qarshi ko'rsatgan jasorati?
- 3.O'zbek xalqining front uchun qo'shgan hissasi haqida gapiring.

Tayanch iboralar:

Moskva, Kalinin, Rostov, Ukrainadan, Belorussiya, Kommunistik, Tashselmash, Germaniyasi Polsha, Norvegiya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Daniya, Lyuksemburg.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 325 б.
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 316.
3. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
4. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь.
5. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.
6. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
7. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.
8. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.
9. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.
10. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.
11. Иванин М. Икки буюқ саркарда. Тошкент, 1999 й.
12. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.
13. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.
14. Дельбрюк. Г. История военного искусства, М., 1983 г.

15. Военное дело древнего и средневекового населения Северной Центральной Азии, (Сб. науч. трудов.) Новосибирск, 1990 г.

16. Абулғозий. СҲажараи турк, Т, 1992 й.

17. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.

18. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, Т-11, 2005 й.

19. Крушқол. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошкент, 1975 й.

20. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.

21. Юровской. Э.Э. Новая история стран Европы и Америки, 1-2 период. – Москва: Высшая школа, 1998.

22. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.

23. Язиков.Э.Ф. История новейшего времени стран Европы и Америки. М, 2002 г.

24. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256б.

25. [http: // history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)

26. [http: // www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)

27. [http: // English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)

28. [http: // www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)

29. [http:// www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.html](http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.html)

30. [http: // www.lib.byu.edu/-rdh/www//](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www//)

31. [http: // classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).

32. [http: // www.washlaw.edu/forint//](http://www.washlaw.edu/forint//)

33. [http: // www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)

34. [http: // www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MILLIY ARMIYANING BARPO ETILISHI VA HARBIY ISLOHOTLAR

REJA:

1. Quruqlikdagi qo‘shinlar hamda havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari va harbiy havo kuchlari.
2. Mahsus qo‘shinlar, muhandislik-quruvchilik qo‘shinlari.
3. Chegara qo‘shinlari va ichki qo‘shinlar.
4. Milliy havfsizlik, favqulotda vaziyatlar vazirligi.

***Maqsad** mustaqillik yillarida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tizimidagi islohotlar, milliy armiyaning salohiyati haqida ma’lumotlar berishdan iborat.*

O‘zbekiston respublikasining Qurolli Kuchlari 1992-yil 14-yanvarda O‘zbekiston respublikasi prezidenti farmoniga asosan tashkil qilingan. O‘zbekiston respublikasi Qurolli Kuchlari o‘z tarkibiga sobiq SSSRning turkiston harbiy okrugi qismlarini olgan. Respublika Qurolli Kuchlari 3 turdan iborat ular: Quruqlikdagi qo‘shinlar, Harbiy havo kuchlari va havo hujumidan mudofaa kuchlari. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy texnikasi 2255 tank, 150 samolyot, 400 BTR va BMP, 40 vertolyot, 2000 artileriya quroli va minomyot, 283 o‘ziyurar to‘p, va bir necha divizion C-125 zenit raketalari, 146 zenit to‘pi, 80 Grad artileriya kompleksi, 40 Urgan artileriya kompleksi.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari son jihatdan O‘rta Osiyoda eng yirig hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari quruqlikdagi qo‘shinlar soni 80000 kishini tashkil etadi. Bundan tashqari Milliy Gvardiya, IIV ning Ichki Qo‘shinlari (17000), 25000 harbiy Aviatsiya Hizmatchilari, va 4 diviziya Maxsus Qo‘shinlar. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O‘rta Osiyodagi eng qudratli va jangovar tayorgarligi va qobiliyati eng yuqori armiya deb tan olingan. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga Quruqlikdagi qo‘shinlar, Havo Hujumidan mudofaa qo‘shinlari va Harbiy Havo Kuchlari, Maxsus qo‘shinlar, chegara va ichki qo‘shinlar, Milliy

xavfsizlik, favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa vazirliklar va muassasalarga qarashli harbiy bo'limlar kiradi. Quriqlikdagi qo'shinlar Qurolli Kuchlarning eng ko'p sonli xillaridan biri bo'lib, boshqa qo'shin xillari va turlari bilan o'zaro harakatda O'zbekistonga nisbatan qilingan, qaerdan bo'lishidan qat'iy nazar, tajovuzni qaytaruishga oid vazifalarni bajarishga mo'ljallangan.

Quriqlikdagi qo'shinlar tarkibiga motoo'qchi, tank va artilleriya qismlari, havo hujumidan mudofaa bo'limmalari, tezkor harakat qiluvchi kuchlar qismlari, ta'minot qism va bo'linmalari kiradi. Motoo'qchi qismlar Quriqlikdagi qo'shinlarning asosi, ular jangavor tarkibning negizi hisoblanadi. Ular yerdagi va havodagi nishonlarni yakson qilish uchun qudratli qurol-aslahalar, tanklar, to'plar va minomyotlar, tankka qarshi boshqariluvchi raketalar, zenit komplekslari va qurilmalari, razvedka va boshqaruvning samarali vositalari bilan ta'minlangan. Tank qismlari quriqlikdagi qo'shinlarning zamonaviy jang olib borish sharoitlarida muhim vazifalarni bajarishga qaratilgan bosh zarba beruvchi kuchi va qurolli jangning qudratli vositasidir. Tanklar yuksak jangovorlik xususiyatlariga, ishonchli zirhli himoyaga ega bo'lib, tog'-adirlik, notekis, yo'lsiz hudud sharoitlarida ham oils masofalarni bosib o'tishga qodirdir. Ular hatto, yadro quroli qo'llanilgan sharoitlarda ham jang olib borishga moslashgan.

Artilleriya qismlari jangavor vazifalarni bajarishda bosh (o't purkovchi) kuch hamda muhim tezkor-taktik vositadir. Ular arsenalida mavjud zamonaviy to'plar, reaktiv qurilmalar, gaubisalar, minomyotlar artilleriya qismlarining o't ochish imkoniyatlari, jangavor harakatlar samaradorligini yanada oshiradi. Tezkor harakat qiluvchi (mobil) kuchlar qismlarining roli hozirgi kunda sezilarli darajada ortgan. Desantchilar jangavor mashinalari, o'ziyurar artilleriya qurilmalari, tanklar, zirhli transportlar, yuksak samarali tankka qarshi va zenit vositalari, stvolli va reaktiv artilleriya, kuchli avtomatik qurollar, aloqa vaboshqaruvning zamonaviy uskunalari bilan ta'minlangan o'zbekistonliok desantchilar armiyaning yuqori darajada tayyorlangan va tezkor (mobil) qismidir. Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va harbiy havo kuchlari oldilariga qo'yilgan vazifalarni mos ravishda

o‘zaro hamkorlikda amalga oshiradilar va eng yuqori man-yovrli qo‘shin xillaridan biri hisoblanadi.

Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari O‘zbekiston Respublikasiga havodan turib qilingan har qanday hujumni bartaraf etish borasida zudlik bilan harakat qilishga doimo shay turuvchi va mamlakatimiz havo sarhadlarini radiolokasion razvedkasini ta‘minlovchi qo‘shi turidir. Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari respublikaning ma‘muriy-siyosiy, sanoat iqtisodiy markazlari va tumanlarini, qo‘shinlar guruhlarini, harbiy va boshqa muhim ob‘ektlarni dushmanning havo hujumidan himoya qilishga mo‘ljallangan.

Harbiy havo kuchlari havodan turib dushmanning aviasiya, quriqlikdagi qo‘shinlari guruhlariga, davlat va harbiy boshqaruv tizimi ob‘ektlariga, frontlari va harbiy-iqtisodiy salohiyatiga, transport kommunikasiyalariga talofat etkazish, havo razvedkasini amalga oshirish, shuningdek, Quruqlik qo‘shinlarini aviasiya yordamida qo‘llab-quvvatlash, havo desntchilarini tashlash, qo‘shin va moddiy vositalarni havo orqali tashish va boshqa vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan. Maxsus qo‘shinlar o‘ta muhim yo‘nalishlarda tashkil qilinadigan qo‘shinlar guruhlarini kuchaytirish hamda jangavor harakatlarni har tamonlama ta‘minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, uning tarkibiga razvedka qilish qo‘shinlari, texnikaviy ta‘minot qismlari, radioelektron kurash qismlari, avtomobil, yo‘l va truboprovod qo‘shinlari, qo‘riqlash, frontorti ta‘minot bo‘linmalari, muhandislik aeradrom va aviasion-texnikaviy, topogeofizikaviy va gidrometeorologiya qismlari kiradi.

Muhandislik-quruvchilik qo‘shinlari tinchlik davrida Qurolli Kuchlar infrastrukturasini taraqqiyotini ta‘minlash va davlatning strategik iqtisodiy dasturini bajarishga, urush paytida-mudofaa binolarini, kommunikasiya qurilishlari va qutqaruv-avariya ishlarini bajarishga mo‘ljallangan. Harbiy shaharchalar va askar kazarmalari, ofiserlar tarkibi, muddatdan tashqari harbiy xizmatchilar va ular oila a‘zolari uchun turar joylar, askar klublari, oshxona va choyxonalar harbiy xizmatchilarning bolalari uchun maktab, bog‘chalar binolari, gospital va tibbiy punktlar, jangavor texnika va qurol-yarog‘lar uchun park, omor va

garajlar qurish bularning barchasi qurilish qismlari va bo'linmalarining vazifalaridir.

Chegara qo'shinlari 1999-yilgacha Milliy xavfsizlik xizmati tarkibida bo'lishgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 13-yanvardagi Farmoniga binoan Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita tuzildi. Qo'mita davlat boshqaruvining markaziy organlaridan biri bo'lib, chegaraga doir siyosatni amalga oshiradi, davlat chegaralarini himoya qilish va qo'riqlashni tashkil etishni ta'minlaydi; chegara qo'shinlari faoliyatini boshqarishni amalga oshiradi; joylardagi davlat boshqaruv organlari, mahalliy davlat hokimiyat organlari, nodavlat, notijorat tashkilotlarning Davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlash sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi. Chegara qo'shinlari bugingi kunda qo'shinning mustaqil turi bo'lib, davlat chegaralari himoyasining birinchi eshelonini tashkil etadi. Davlat chegarasi chizig'ining joylarda g'ayriqonuniy tarzda o'zgartirilishiga yo'l qo'ymaslik, Davlat chegarasida harbiy va boshqa fitnalarning oldini olish, davlat chegarasini noqonuniy ravishda kesib o'tilishiga yo'l qo'ymaslik, Davlat chegarasini buzuvchilarni aniqlash va ushlash, Davlat chegarasi rejimiga, chegara oldi rejimiga va Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlaridagi rejimiga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish, shaxslar, transport vositalari, tovarlar, boshqa mol-mulk va hayvonlarning Davlat chegarasi orqali belgilangan tartibda o'tkazilishini amalga oshirish, Davlat chegarasi orqali olib o'tilayotgan kontrabanda narsalarini hamda boshqa noqonuniy ravishda olib o'tilayotgan tovarlar, boshqa mol-mulk va hayvonlarni, shuningdek transport vositalarini aniqlash va belgilangan tartibda ushlab qolish.

Davlat chegarasi rejimini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olish, chegara oldi qidiruvlari va operatsiyalarini o'tkazish chegara qo'shinlarining majburiyatlariga kiradi. Ichki qoshinlar Ichki Ishlar vazirligi tarkibida tashkil qilingan bo'lib, uning asosiy vazifalari milisiya organlari bilan hamkorlikda aholi yashaydigan joylarda toifalangan xalq xo'jaligi korxonalarida va boshqa jamoat joylarida jamoat tartibini saqlash, fuqarolarni huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, tashkilotlar, idoralar,

muassasalarni jinoyatchilikdan va boshqa jamiyatga qarshi Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va boshqa vazirliklar va tashkilotlar harbiy tuzilmalarining asosiy vazifasi milliy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos vazifalarini bajarish, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarni oldini olish, ularning oqibatlarini tugatish va inson hayotini ta'minlovchi xalq xo'jaligi korxona va muassasalarni qo'riqlash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari milliy manfaatlarini, suvereniteti hududiy yahlitligini hamda aholini tinch hayotini himoya qilish, urushlar va qurolli majorolarni qaytarish va oldini olish uchun davlat tomonidan tashkil etilgan va saqlab turilgan harbiy birlashmalar, qo'shilmalar va qismlardan iborat O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining davlat mustalligi to'g'risidagi"gi Bayonotida "Davlat mustaqilligini, hududiy yahlitligini, fuqorolarning konstutsiyaviy huquqi va erkinligini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasida Mudofaa ishlar vazrligi va Milliy gvardiya tuziladi. Respublika hudida joylashgan sobiq SSSR Ichki ishlar vazrligi, SSSR Davlat hafsizlik komiteti hamda Ichki qo'shinlari O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga olinadi, deb ko'rsatilgan edi. Bu 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'rida"gi qonunda mustahkamlandi va "O'zbekiston respublikasi mudofa ishlari vazirligini tuzish, Milliy gvardiya va muqobil hizmatni tashkil etish huquqiga ega" deb huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Bu amalda yosh respublikaga harbiy siyosatni amalgam oshirish huquqini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 6-sentabrdagi farmoniga asosan, Mudofaa ishlari vazrligi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sobiq Ittifoqqa qarashli Ichki ishlar va mudofa vazrligining qismlari, birlashmalari, qo'shilmalari oliy o'quv yurtlari, harbiy tuzilmalari mamlakatning qonuniy tasarrufiga olinadi, deb belgilandi.

1992-yil 24-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan Chegara qo'shinlari bo'linmalari haqidagida"gi farmoni bilan Respublika Milliy hafsizlik

hizmati qoshidagi chegara qo'shinlari boshqarmasi tashkil etildi. 1992-yil 18-mayda O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan havo desanti qo'shinlari, harbiy transport aviatsiyasi, razvetka qo'shinlari, taminot qismlari to'g'risida"gi farmon bilan bu qo'shinlar respublika tasarrufiga o'tkazildi. O'zbekiston Respublika Prezidentining 1992-yil 12 -noyabrdagi "O'zbekiston Resapublikasi hududida joylashgan havo hujumiga qarshi harbiy qismlar", 13 noyabrdagi "Kimyoviy harbiy qismlar" respublika tasarrufiga olindi, shu tarzda mustaqil mamlakat Qurolli Kuchlarini barpo etishning tashkiliy davri yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi o'z Qurolli Kuchlarini tuzishda BMT ning huquqiy meyorlari, Ervropa hafsizlik va hamkorlik bo'yicha Xelsinki yakunlovchi akti, MDH kolektiv hafsizlik SHartnomasi kabi halqaro hujjatlarning barcha talablariga rioya qildi.

1992-yil 22-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi qurolli Kuchlari Jangavor Bayrog'i" ning yagona namunasi belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1993-yil 29-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasining vatan himoyachilari kunini belgilash to'g'risidagi qonuniga binoan 14 yanvar Vatan himoyachilari kuni, deb e'lon qilindi. Qurolli kuchlar tuzilishi asosi O'zbekiston Respublikasini himoya qila oladigan qo'shinlar va mahsus qo'shinlar tuzilishiga qaratildi. Bular: Quruqlikdagi qo'shinlar; Harbiy havo kuchlari va Havo hujumidan mudofa qo'shinlari; mahsus va muhandislik – quruvchilik qo'shinlari; Ichki ishlar vazrligining ichki va qoravul qo'shinlari; Milliy hafsizlik xizmatining haybiylashtirilgan qismlari va chegara qo'shinlari. Quruqlikdagi qo'shinlar tarkibiga motoo'qchi, tankchi va artilleriya qo'shilmalari va qismlari, havo desanti, hujumji desant, havo hujimidan mudofa bo'linmalari, tez harakat qiluvchi kuchlar qismlari, taminot qismlari va bo'linmalari kiradi.

Harbiy havo kuchlari Qurolli Kuchlarining eng yuqori manyorlangan qo'shin turlaridan biri hisoblanadi. Ular eng muhim yo'nalishlarda tuziladigan qo'shinlar guruhlarini kuchaytirishga hamda ularni jangovor harakatlarini har taraflama tamirlashga qaratilgan bo'lib, razvetkachi qo'shilmalar va qismlar, muhandislik, kimyoviy, aloqa qo'shinlari, radioelektiron kurash qismlari, texnikaviy taminot

qo'shilmalari va qismlari, aftomabil, yo'l va quvur yotqizish qo'shinlari, muhandislik aerodrom va aviatsiya – texnika qismlari, topogeodeziya va gidrometrologiya qismlarini, harbiy muhandislik tuzilmalarini o'z ichiga oladi. Maxsus qo'shinlarning yana bir turi muhandislik-quruvchilik qo'shinlaridir. Ayni vaqtda ular Qurolli Kuchlar infrastrukturasini taraqqiyotini taminlash va davlat strategik iqtisodiy dasturini bajarishga xizmat qilib kelmoqda. Qo'shinlarning harakati va manyovri uchun yo'llarni tayyorlashda muhandislik bo'limmalarining tutgan o'rnini alohida. Bu bo'limmaning g'ildirakli va zanjirli asoslaridagi yo'lyotqizgich, minoralar tozalovchi muhandislik mashinalari, ko'priklarni quruvchi hamda o'zi yurar mexanizmlashgan ko'priklar kabi mahsus texnika turlari bilan taminlangan.

Jangda qo'shinlarning ko'p jihatdan harbiy aloqa qo'shinlariga bog'liq. Ular qo'shinlar va qurollarni boshqarish tizimida axborotlar almashtirish xizmatini bajaradilar. Aloqa qo'shinlari simli aloqa, radioaloqa, mahfiylashtirilgan aloqa vositalaridan foydalangan holda harbiy harakatlar ularning boshiga

O'zbekiston respublikasi chegaralar qo'shinlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 24-martdagi farmoniga ko'ra tuzildi. Chegara qo'shinlariga O'zbekiston Respublikasi davlat chegaralarini, uning suverenitetini himoya qilish vazifasi qo'yilgan.

Urush hollarida O'zbekiston Qurolli Kuchlari o'z vazifalarini O'zbekiston Respublikasi Milliy hafsizlik xizmati va ichki ishlar vazirliklari bilan birgalikda amalga oshiradi. Ularning birgalikdagi harakatini muvofiqlashtirish uchun 2000-yilda Mudofaa Vazirligi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Birlashgan Shtabi tuzildi.

Qurolli kuchlarning tashkiliy davrida Qurolli Kuchlar tashkiliy shtat tuzilishi takomillashtirildi va unga muvofiq harbiy qismlar, muassalar va harbiy o'quv yurtlari isloh qilindi, harbiy bilim yurtlari tarmoqlarini kengaytirish va Qurolli Kuchlar Akademiyasini barpo etish hisobiga milliy kadrlar tayyorlashning mukammal tizimi yaratildi, Qurolli Kuchlar vazifalariga binoan harbiy xizmatchilar barcha toifasining talim jarayoni yaxshilandi, mintaqadagi geostrategik vaziyat

va harbiy-siyosiy holat hisobga olinib, qo'shnlarni joylshtirish tizimi takomillashtirildi, Harbiy xizmatning tashkil etishning infratuzilmasi yaratildi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida", "Mudofaa to'g'risida"gi qonunlari, 1996-yilda Umumharbiy nizomlar qabul qilinishi bilan Qurolli Kuchlar huquqiy bazasi yaratildi.

Oliy Majlisning 1-chaqiriq 14-sessiyasida etibor Qurolli Kuchlar, Chegara va Ichki qo'shnlarni yagona davlat siyosati asosida bosqichma-bosqich chuqur isloh etish masalalariga qaratildi. Islohotlar haqidagi qaror qabul qilinganda Qurolli kuchlar jangavorlik qobiliyatiga faol tasir ko'rsatuvchi 3 asosiy omil hisobga olindi. 1-omil, Qurolli Kuchlar texnikaviy jihatdan yahshi taminlangan hamda boshqaruvning ishonchli vositasiga ega bo'lishi lozimki, bu jangovor vositalar tarkibi kam, ammo samaradorligi yuqori bo'lgan, Qurolli Kuchlar oldida turgan vazifalarni hal etish imkonini berishi lozim. 2-omil, Qurolli Kuchlarni isloh etishda, jahon va davlatimiz harbiy yutuqlari, harbiy qurilishning ilg'or talribalari vafanidan foydalanildi. Qurolli jangning yangi usul va shakllari paydo bo'lgan sharoitlarda jangavor vazifalarni hal qilishning yanada samarali imkoniyatlarini izlash borasida faol ishlar olib borildi. 3- omil Qurolli Kuchlarning har tomonlama etuk shahsiy tarkibga ega bo'lisidir Islohot harbiy hizmatchilarning ma'naviy ahloqiy taryalashni, ularni profession nal tayyorgarligini va qayta tayyorlashni tashkil etishni butun tizimini qaytadan ko'rib chiqishni ko'zda tutadi. Mudofaa va Qurolli Kuchlarga rahbarlikni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-Qurolli Kuchlar Oliy bosh qomondoni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat to'g'risidagi qonun yangi tahrirda qabul qilindi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Mudofa vazrligining Toshkent umum qo'shin kamandirlari, Samarqant aftomabilchi komandir-muhandislar, Jizzax aviatsiya bilim yurtlarida, Toshkent ahborot texnologiyalari institutining mahsus a'loqa fakulteti, Ichki ishlar va zrligining Toshkent oliy harbiy texnika bilim yurti, YOng'in hafsizligi oliy texnika maktabi, okruglardagi serjantlar tayyorlash maktablarida

Qurolli Kuchlar saflariga turli mutahassisliklar bo'yicha malakali kadrlar tayyorlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy okruglari: SHimoliy-G'arbiy harbiy okrug-Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati, okrug shtabi Nukus shahrida.

Janobiy-g'arbiy mahsus harbiy okrug-Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va surhandaryo viloyatlari okrug shtabi Qarshi shahrida.

Markaziy harbiy okrug-Samarqand, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari, okrug shtabi Jizzax shahri.

Toshkent harbiy okrugi-Toshkent shahri va Toshkent viloyati, okrug shtabi Toshkent shahrida.

Sharqiy harbiy okrug-Andijon Namangan, farg'ona, okrug shtabi Marg'ilon shahrida.

O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 16-maydagi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar shtat tuzilishini takomillashtirish haqidagi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida quyidagi harbiy unvonlar joriy etildi:

Qo'shin va kema tarkibidagi unvonlar:

1-Oddiy askar tarkibi: oddiy asdkar matros.

2-Serjantlar va starshinalar tarkibi: kichik serjant, serjant. 2-darajali starshina 1-darajali starshina. Bosh starshina.

3- Ofitserlar tarkibi: Kichik ofitserlar tarkibi: letenant, katta letenant, kapitan letenant. Katta ofitserlar tarkibi: mayor-3-darajali kapitan, podpolkovnik-2-darajali kapitan; polkovnik 1-darajali kapitan.

Milliy havfsizlikni taminlash maqsadida 1995-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 3 sessiyasida Harbiy doktrina qabul qilindi. Unda O'zbekistonda davlatning mudofa sohasidagi harbiy siyosatining asosiy yo'nalishlari o'z aksini topdi.

2000-yildan esa O'zbekiston Respublikasi harbiy siyosatini mudofa xarakterga ega ekanligi, davlatlararo munosabatlardagi ziddiyatlarini hal etishda tinchlik yo'lini tutishi, urishni inkor qilishni ma'lum qilib, harbiy doktrina o'rniga, Mudofa doktrinasiga o'tdi.

O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi qonunida mudofa sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari sifatida quydagilar belgilanadi;

- Boshqa davlatga qarshi harbiy kuch ishlatmaslik...
- Xalqaro xuquq meyorlariga muvofiq ravishda kolektiv xavfsizlik tizimlarida ishtirok etish;
- Harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaslik;
- Yadro quroli va boshqa turdagi ommaviy qirg'in qurollarini yaratish, ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish va joylashtirishni rad etish;
- Mudofaning etarli darajada bo'lishi;
- Harbiy xizmat nufuzini ta'minlash.

Qonunga asosan, qurolli kuchlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni rahbarlik qilishi belgilandi. Urush vaqtida O'zbekiston Respublikasi mudofa vaziri qurolli kuchlar oliy bosh qo'mondaning o'rinbosari vazifasini bajaradi.

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi milliy armiyasining barpo etilishi haqida gapiring?
2. Milliy armiyamizda qanday islohatlar amalga oshirildi?
3. Chegara qo'shinlarining tashkil etilishi haqida gapiring.

Tayanch iboralar:

Artilleriya, Reaktiv, Gaubisalar, Minomyotlar, Mahsus qo'shinlar, Muhandislik-quruvchilik, Chegara qo'shinlari, Ichki qo'shinlar, Milliy havfsizlik, Favqulotda vaziyatlar vazirligi.

Asosiy darslik va adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. — Тошкент: Ўзбекистон, 1997. — 325 б.
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.. — Тошкент: Ўзбекистон, 1998. — 316.
3. Каримов И. А. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Тошкент: Маънавият, 2008. — 176 б.

4. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз // Халқ сўзи. – 2016. – 15 декабрь.

5. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабрь.

6. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.

7. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.

8. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. – 10 январь.

9. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. – 17 январь.

10. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. – 25 январь.

11. Иванин М. Икки буюқ саркарда. Тошкент, 1999 й.

12. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.

13. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.

14. Дельбрюк. Г. История военного искусства, М., 1983 г.

15. Военное дело древнего и средневекового населения Северной и Центральной Азии, (Сб. науч. трудов.) Новосибирск, 1990 г.

16. Абулғозий. СХажараи турк, Т, 1992 й.

17. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.

18. Ўзбекистон Миллий энтсиклопедияси, Т-11, 2005 й.


19. Крушкол. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошкент, 1975 й.

20. Семёнов. В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.




21. Юровской. Э.Э. Новая история стран Эвропи и Америки, 1-2 период. – Москва: Висшая школа, 1998.
22. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлакатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.
23. Язиков.Э.Ф. История новейшего времени стран Эвропи и Америки. М, 2002 г.
24. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда харбий иш тарихидан –Т., “Шарк”, 2012. -256б.
25. [http: // history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
26. [http: // www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
27. [http: // English www.hss.cmu.Edu/history](http://Englishwww.hss.cmu.Edu/history)
28. [http: // www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
29. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.hrml>
30. [http: // www.lib.byu.edu/-rdh/www/](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www/)
31. [http: // classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
32. [http: // www.washlaw.edu/forint/](http://www.washlaw.edu/forint/)
33. [http: // www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)

ILOVALAR














FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари – тараққиётнинг муҳим омили // Халқ сўзи. – 2016. – 31 декабр.
3. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. –17 январ.
4. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 59 б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017 – 2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси” ПФ-4947-сонли фармони // Халқ сўзи. – 2017. – № 28.
6. Мирзиёев Ш. М. Фарзандлари соғлом юртининг келажаги буюқдир // Халқ сўзи. – 2017. – 6 январь.
7. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги – инсон манфаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир // Халқ сўзи. – 2017. –10 январь.
8. Мирзиёев Ш. М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак // Ишонч. – 2017. –17 январь.
9. Мирзиёев Ш. М. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик — халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир // Маърифат. – 2017. –25 январь.
10. Иванин М. Икки буюқ саркарда. Тошкент, 1999 й.
11. Разин. Э. А. «История военного искусства». Т 1-3, Москва, Наука, 1955 г.
12. Авдиев. А. Военная история древнего Египта. Москва, 1948 г.
13. Дельбрюк.Г. История военного искусства, М., 1983 г.

14. Военное дело древнего и средневекового населения Северной и Центральной Азии,(Сб. науч.трудов.) Новосибирск, 1990 г.
15. Абулғозий. С Ҳажараи турк, Т, 1992 й.
16. Дадабоев. Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати, Т, 1996 й.
17. Зияева.Д.Х. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан –Т., “Шарқ”, 2012. -256б.
18. Ўзбекистон Миллий энтсиклопедияси, Т-11, 2005 й.
19. Крушқол. Ю.С. Қадимги дунё тарихи. 2-қисм. Тошқент, 1975 й.
20. Семёнов.В.Ф. История средних веков. М, 1961 г.
21. Юровской. Э.Э. Новая история стран Эвропи и Америки, 1-2 период. – Москва: Висшая школа, 1998.
22. Нуриддинов. З. Р. Ғарб мамлақатларининг энг янги тарихи. –Т., 1976 г.
23. Язиков.Э.Ф. История новейшего времени стран Эвропи и Америки. М, 2002 г.
24. [http: // history.hanover.edu/texts.htm](http://history.hanover.edu/texts.htm)
25. [http: // www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.eduG'h-gig/horuslinks.html)
26. [http: // English www.hss.cmu.Edu/history](http://English www.hss.cmu.Edu/history)
27. [http: // www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
28. <http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwiiG'index.hrml>
29. [http: // www.lib.byu.edu/-rdh/www//](http://www.lib.byu.edu/-rdh/www//)
30. [http: // classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
31. [http: // www.washlaw.edu/forint//](http://www.washlaw.edu/forint//)
32. [http: // www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)
33. [http: // www.yale.edu/acuns/](http://www.yale.edu/acuns/)

MUNDARIJA

Kirish	3
Qurol yarogʻlarni ixtiro qilinishi, qadimgi mudofaa inshootlari	5
Misr va Mesopotamiya harbiy sanʼati	13
Qadimgi Yunoniston va Rimning harbiy sanʼati	34
Turk va moʻgʻil xalqlarining harbiy sanʼati.....	45
Slavyan xalqlarining harbiy sanʼati	68
Amir Temur – buyuk davlat arbobi va yetuk sarkarda	74
Yevropadagi milliy ozodlik va dexqonlarning urushlari davrida harbiy sanʼatning rivojlanishi	84
XVIII-XIX asrlarda harbiy bilimlarning rivojlanishi	90
Oʻrta osiyo xonliklarida harbiy unvon va mansablar	106
Buxoro amirligida qurol - yarogʻ va xarbiy taktika.....	143
Qizil armiya va milliy qoʻshin masalasi	169
Osiyo va Amerika halqlarining mustaqillik uchun kurashlari davrida harbiy sanʼatni rivojlantirish.....	183
Oʻzbek xalqining fashizimga qarshi kurashdagi harbiy jasorati.....	188
Oʻzbekiston respublikasida milliy armiyaning barpo etilishi va harbiy islohotlar	199
Ilovalar	211
Foydalanilgan adabiyotlar	217

Ilmiy nashr

Botirjon Mallabayev

HARBIY SAN'AT TARIXI

O'quv qo'llanma

Muharrir:

Texnik muharrir: Qodir Mamadaliyev

Dizayner: Mirkomil Usmonov

«Iste'dod ziyo press» nashriyoti,
Namangan shahri, 3-kichik tuman, 2-uy.

Terishga 2022-yi 14-dekabrda berildi. Bosishga 2022-yil 21-dekabrda ruxsat
etildi. Bichimi: 60x84 $\frac{1}{16}$. «Times New Roman» garniturasida ofset bosma
usulida oq qog'ozga bosildi. Hajmi 13,75 bosma taboq.
Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.